

SIROJIDDINOV IKROMIDDIN QUTBIDDINOVICH

MOLIYAVIY MENEJMENT



Darslik

O‘ZBEKISTON RESPUBLISI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

SIROJIDDINOV IKROMIDDIN QUTBIDDINOVICH

MOLIYAVIY MENEJMENT

Darslik

Ta‘lim yo‘nalishi: 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

Namangan – 2022

UO'K: 336.64

KBK: 330.65.291

S – 57

Ikromiddin Sirojiddinov Qutbiddinovich\ **MOLIYAVIY MENEJMENT**
/Darslik/Namangan: “Usmon Nosir media”, 2022. – 216 b.

KBK: 330.65.291

Taqrizchilar:

SH. D. Saitboyev - Namangan muhandislik-texnologiya instituti buxgalteriya hisob kafedrası professori, iqt. f. doktori. professor.

N. J. Sotvoldiyev - Namangan davlat universiteti menejment kafedrası professori v. b., iqt. f. doktori, dotsent.

Darslik Namangan muhandislik-qurilish instituti ilmiy kengashining 2022 yil «31» maydagi «12»-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan va nashrga tavsiya qilingan.

ISBN: 978-9943-8275-7-8

© Ikromiddin Sirojiddinov, 2022.

© «Usmon Nosir media», 2022.

Moliyaviy menejment darsligi 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi o'quv dasturining talablariga asoslangan holda mamlakat iqtisodiyotidagi va xo'jalik sub'yektlari iqtisodiyotidagi o'rnini, asosiy konsepsiyalari, moliyaviy menejment yordamida investitsion qarorlar qabul qilish strategiyasini, korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'siri va ularni mustahkamlash chora-tadbirlarini va moliyaviy menejment sohasi bo'yicha rivojlangan davlatlar ilg'or tajribalari va xususiyatlarini o'rganish hamda moliyaviy menejmentning asosiy talablariga asoslangan holda asosiy masalalari ilmiy yoritilgan va amaliy qo'llanishi yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub iqtisodiy islohotlar, xususan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash yo'lida amalga oshirilayotgan keng qamrovli chora-tadbirlar hamda jamiyatni demokratlashtirish natijasida shakllangan yangi bosqichdagi ijtimoiy munosabatlar xo'jalik yuritish taomillarini davr talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bu, o'z navbatida, boshqaruvning oldingi uslublaridan tubdan farq qiladigan uslublarni joriy etilishini talab qilsa, bir vaqtning o'zida, bugungi kundagi sifat jihatdan tez o'zgarib borayotgan bozor munosabatlariga muvofiq tarzda boshqaruvni amalga oshira oladigan mutaxassislarning etishib chiqishini ham talab qiladi.

Yangi O'zbekistonda jadal iqtisodiy rivojlanish mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rivojlanishiga, ularda moliya va mehnat resurslarini tashkil etishda, foydani taqsimlashda, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda va boshqa iqtisodiy munosabatlarda to'la bozor mexanizmini boshqarish usullarini qo'llashga va xo'jalik mustaqilligi darajasiga bog'liqdir.

Bozor mexanizmi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doimiy intilib borishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. SHu bilan birga korxonani yakuniy faoliyati boshqaruvchi shaxslarning qarorlar qabul qilishdagi bilimdonligi, bozor holatiga qarab maqsad va rejalarni doimiy ravishda o'zgartirib bora olishiga bog'liq.

Ma'lumki, bozor munosabatlarini tartibga solishda moliya muhim o'rin tutadi. SHu bilan birga moliya iqtisodiy siyosatni amalga oshiruvchi zaruriy vosita bo'lib xizmat qiladi. SHuning uchun hozirgi kunda moliyaning iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rni, tabiati va uning harakatlanish xususiyatlarini yaxshi o'rganish hamda ishlab chiqarishni samarali rivojlantirish maqsadida undan to'laqonli foydalanish va moliyaviy boshqarish usullarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy boshqarish yoki moliyaviy menejment deganda korxonalarining pul mablag‘lari, moliyaviy resurslarini tashkil etish va harakatlanishi, ularni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonini boshqarish tushuniladi. Bu jarayonda pul mablag‘larini maqsadli yo‘naltirish orqali eng samarali natijaga erishish maqsadida iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatiladi.

Hozirgi sharoitda boshqaruvchi mutaxassislar chuqur va keng qamrovli bilimlarga ega bo‘lishlari, o‘zlari tanlagan sohalaridagi boshqaruv muammolarini a’lo darajada mushohada eta olishlari, puxta o‘ylangan va har taraflama asoslangan qarorlarni qabul qilishga qodir bo‘lishlari lozim. Boshqaruv soxasida mutaxassislarni tayyorlashda moliyaviy menejment muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy menejment bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya, kredit, pul muomalasi va soliq sohalarida tez o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligini e’tiborga olmasligi mumkin emas. SHuning uchun e’tiboringizga havola etilayotgan ushbu darslikda muallif o‘z diqqat-e’tiborini bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy menejmentning mohiyati va ahamiyatiga hamda moliyaviy menejmentning vazifalarini yoritib berishga qaratdi.

Muallif darslikning sifatini oshirishga xizmat qiluvchi barcha taklif va mulohazalarni chuqur minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

I BOB. MOLIYAVIY MENEJMENTNING IQTISODIY MOHIYATI, MAQSADLARI VA VAZIFALARI

1.1. Moliyaviy menejmentning iqtisodiy mohiyati

Moliyaviy menejment yoki moliyaviy boshqaruv korxonada uning faoliyati uchun pul jamg'armalari shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi jarayonlarini tashkil etishga va boshqarishga qaratilgan. Moliyaviy boshqaruv birinchi navbatda qisqa muddatli va joriy vazifalarni hal etishga xizmat qilsada, u korxonaning strategik rivojlanishi yo'nalishini belgilashda ham juda muhim o'rin egallaydi. Moliyaviy boshqaruvning diqqat markazida quyidagi vazifalar turadi:

- foydani ko'paytirish;
- korxonada pul oqimlari uzluksizligi va balanslanganligini ta'minlash;
- korxonada kapitali tarkibini optimallashtirish
- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;
- mulkdorlar(aksiyadorlar), investorlar, kreditorlar uchun korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini oydinlashtirish;
- investitsiya jozibadorligiga erishish;
- moliyaviy resurslarni jalb etishda bozor mexanizmlardan foydalanish.

Ba'zi paytlarda korxonalarda moliyaviy resurslar etishmovchiligi muammosi yuzaga keladi. Uning zamirida korxonada mahsulotning etarli darajada raqobatbardosh emasligi, xaridorlarning to'lov qobiliyati past ekanligi, hisob-kitoblarning pulsiz shakllari qo'llanishi, korxonada faoliyatiga ma'muriy aralishuvlar, soliq yuki og'ir ekanligi kabi qator sabablar yotadi. SHuning uchun moliyaviy boshqaruvda korxonaning normal faoliyati uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari etarliligiga erishish va korxonaning to'lov qobiliyatini saqlab turish birinchi darajali vazifaga aylanadi.

Moliyaviy boshqaruv korxonada faoliyatining strategik va taktik maqsadlariga samarali erishilishini ta'minlashi, ya'ni u maqsadli tus olishi uchun

korxonaning moliyaviy siyosati ishlab chiqilishi zarur. Moliyaviy siyosat ishlab chiqilishi quyidagilarni ifodalaydi:

- korxonada moliyaviy-iqtisodiy ahvolini tahlil qilish;
- korxonaning hisob siyosatini ishlab chiqish va soliq to'lovchi sifatidagi faoliyatini rejalashtirish;
- aylanma mablag'larni, kreditorlik va debitorlik qarzdorligini boshqarish;
- xarajatlarni taqsimlash va amortizatsiya siyosatini boshqarish;
- dividend siyosatini tanlash.

Moliyaviy-iqtisodiy ahvoldagi tahlil avvalo korxonada mulkning tarkibi, moliyaviy qo'yilmalari, o'z kapitalini shakllantirish manbalari, qarz mablag'lari miqdori va manbalarini o'rganib chiqishdir. SHuningdek, korxonaga moddiy resurslar yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o'zaro munosabatlar, sotishdan tushum hajmi va sotish miqdori tahlil qilinadi. Tahlil uch asosiy yo'nalishda olib boriladi. Gorizontali tahlil - joriy davr ko'rsatkichlari avvalgi davrlar yoki reja (smeta) bilan taqqoslanadi. Vertikal tahlilda umumiy yakuniy ko'rsatkichdagi alohida moddalar solishtirma og'irligini aniqlash va keyinchalik natijani o'tgan davr ma'lumotlari bilan taqqoslash amalga oshiriladi. Trend tahlilida qator yillardagi hisobotlar ko'rsatkichlari o'zgarishlari aniqlanadi va trend(egri chiziq) yasalanadi. Tahlil jarayonida taqqoslovlarini amalga oshirishda turli davrlarda qo'llangan rejalashtirish usullari, buxgalteriya hisobotlarida qo'llangan hisob siyosati xususiyatlari, korxonada faoliyati yo'nalishlar o'zgarishi (diversifikatsiya) va boshqa omillar o'zgarishlari e'tiborga olinadi.

Ko'rinib turibdiki, moliyaviy boshqaruv oldiga qo'yilayotgan vazifalar korxonada uning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini tahlil etish bilan shug'ullanadigan xizmatni tashkil etishni taqozo qiladi. Mazkur xizmat muayyan davr ichida ishlab chiqarish xarajatlari, korxonaning pul chiqimlari va daromadlarini tahlil etishi, turlicha bazaviy ko'rsatkichlar bilan taqqoslashi hamda o'zgarishlar(tafovutlar) mazmun-mohiyatini, sabablarini o'rganib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Korxonada pul tushumlari va chiqimlari oqimini sog'lomlashtirish uchun, birinchi navbatda, debitorlik va kreditorlik qarzdorligi aylanishini tahlil qilish. qarzlarni

vaqti-vaqti bilan inventarizatsiyalash, korxonaga qoʻllangan jarima choralarining sabablarini va aybdorlarini aniqlash, zarur hollarda da'vo ishini olib borish lozim boʻladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni erkinlashtirish strategiyasi doirasida soʻnggi paytlarda korxonalarga amortizatsiya siyosatini tanlashda muayyan imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Korxonada jadallashtirilgan amortizatsiyasini qoʻllashi va shu yoʻl bilan xarajatlarni oshirishi mumkin. Bu mahsulot tannarxiga va baho siyosatiga, mol-mulk soligʻi va foyda soligʻiga taʼsir koʻrsatadi.

Aksiyadorlik jamiyati sifatida faoliyat koʻrsatuvchi korxonada dividend siyosati ishlab chiqilishi zarur boʻladi. Bu, bir tomondan, mulkdorlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan boʻlsa, ikkinchi tomondan korxonaning boʻlajak investorlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadlariga xizmat qiladi. Ayni paytda, korxonada egalari manfaatlari faqat dividendlar olishdan iboratdir deb, tasavvur qilish toʻgʻri boʻlmaydi. Foydaning dividendlarga toʻla yoʻnaltirilishi korxonadagi jamgʻarish jarayoniga salbiy taʼsir etadi. Korxonaning barqaror istiqbolini, raqobatbardoshligini, moliyaviy barqarorligini taʼminlash uchun foydaning muhim qismi qayta investitsiyalanishi lozim. Demak, dividend siyosati korxonaning umumiy moliyaviy-iqtisodiy axvolidan kelib chiqib belgilanadi.

Moliyaviy boshqaruv olib borilishida juda muhim jihatlaridan yana biri qarz mablagʻlardan oqilona foydalanishdir. Korxonada bozorda mustahkam mavqega ega boʻlsa, shu asosda uning mahsulotlari sotilishi etarli darajada foyda hajmlarini taʼminlayotgan va bu foydani oshirishning real imkoniyatlari mavjud boʻlsa, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish uchun qarz mablagʻlar, shu jumladan uzoq muddatli negizda, jalb etilishi mumkin va bunday imkoniyatlardan foydalanish mutlaqo oʻrinli boʻladi.

YUqorida taʼkidlanganidek, moliyaviy boshqaruv korxonada foydasini yoki korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan. Albatta, foyda iqtisodiy samaradorlikning juda muhim ifodasi, lekin samaradorlikning boshqa

jihatlarini xam mavjud. Moliyaviy menejment samaradorlikning barcha jihatlariga ta'sir etishi lozim.

1.2. Moliyaviy menejmentning konseptual asoslari

Jahon amaliyotida ma'lumki, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) o'rganadigan ilmiy fanlar sohasi va turli darajadagi xo'jalik munosabatlarining hech biri moliyaviy menejment munosabatlari darajasidagidek ahamiyatli, ziddiyatli va ko'p funksional emasdir.

Moliyaviy menejment, ya'ni moliyaviy boshqaruv pul munosabatlari paydo bo'lgan davrdan to hozirgi kunga qadar, korxonalar boshqaruvchilari bilan moliyaviy boshqaruvchilar o'rtasida keskin munozaralar sohasi bo'lib kelmoqda.

Korxonada moliyaviy boshqaruv korxonada faoliyati turli tomonlari bilan bog'liq maqsadlarga bo'ysundiriladi. Moliyaviy boshqaruvning qanchalik samarali ekanligi ham shu maqsadlarga erishilishi darajasida o'z ifodasini topadi. Albatta, korxonada uchun ta'riflanishi aniqligi va miqdoriy baholanishi mumkinligi bo'yicha farqlanuvchi ko'plab maqsadlar xos:

- raqobat kurashi sharoitlarida kompaniyaning omon qolishi;
- bankrot bo'lmaslik va yirik moliyaviy omadsizliklardan o'zini asray olish;
- raqobatchilar bilan kurashda etakchilik ;
- firmaning bozor qiymatini maksimallashtirish;
- korxonada iqtisodiy salohiyatini oshirishning barqaror sur'atlari;
- ishlab chiqarish va sotish hajmlarining o'sishi;
- foydani maksimallashtirish;
- xarajatlarni minimallashtirish;
- rentabelli faoliyatni ta'minlash va h.k.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlardan qaysi birining ustuvor deb tan olinishi korxonadagi moliyaviy boshqaruvning shakllari, mazmuni, yo'nalishlari va usullariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtda maqsadlar ierarxiyasi mulkchilik

shakllariga, korxonaning tashkiliy-xo'jalik shakliga, tanlab olingan boshqaruv tashkiliy tuzilmasiga va boshqa ko'plab ichki va tashqi omillar va shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Moliyaviy qarorlar qabul qilishning poydevori sifatida moliyaviy menejmentning ilmiy mazmunini tashkil etuvchi nazariyalar xizmat qiladi. Boshqachasiga aytganda, nazariyalar moliyaviy menejerlarga nima qilish lozimligi haqida eng umumiy ko'rsatmalarni beradi. Albatta, har qanday nazariy yondashuv muayyan shart-sharoitlarni nazarda tutadi. Ulardan ba'zilarining amalda mavjud bo'lmasligi nazariy xulosani amaliy vaziyatga nisbatan qo'llab bo'lmaslikka ham olib kelishi mumkin. Biroq, nazariy yondashuvlarning muhimligini inkor etish mumkin emas.

Moliyaviy menejment nazariyasining eng muhim tushunchalaridan biri ideal yoki mukammal kapital bozori tushunchasidir. Mazkur tushuncha o'z ichiga quyidagi shart-sharoitlarni oladi: 1) transaksiya xarajatlarining butunlay yo'qligi; 2) soliqlarning yo'qligi; 3) ko'p sonli xaridorlar va sotuvchilarning mavjudligi, buning oqibatida alohida xaridor yoki sotuvchining harakatlari tegishli qimmatli qog'ozning bahosiga ta'sir etmaydi; 4) yuridik va jismoniy shaxslarning bozorga teng darajada kira olishi; 5) axborot ta'minoti xarajatlari mavjud emasligi, bu axborotning barcha ishtirokchilar tomonidan teng olinishi mumkinligini bildiradi; 6) harakatlanuvchi shaxslarning umid-istaklari bir xilligi (bir tusdaligi); 7) moliyaviy qiyinchiliklar bilan bog'liq xarajatlarning yo'qligi.

Real hayotda bu shart-sharoitlarning to'la-to'kis mavjud bo'lishiga erishilishi juda qiyin. Nazariya ko'plab shartlarga asoslangan bo'lsa ham bu shartlarni birin-ketin «yumshatish» va shu tarzda muayyan omillarning pirovard natijalarga ta'sirini aniqlash mumkin. Bunday tahlil esa moliyaviy qarorlarni ishlab chiqishda juda foydali bo'ladi. Moliyaviy boshqaruv nazariy tushunchalaridan yana biri diskontlangan pul oqimidir (Discounted Cash Flow, DCF). Barcha moliyaviy qarorlar u yoki bu darajada bashoratlanayotgan pul oqimlarini baholashga asoslanadi. SHuning uchun diskontlangan pul oqimi tahlili juda muhim ahamiyatga ega. DCF tahlili konsepsiyasi birinchi marta Jon Berr Uilyams

tomonidan ishlab chiqilgan edi (Williams J. B. The Theory of Investment Value. Cambridge, Mass, 1938). Mayron J. Gordon bu metodni korporatsiyalar moliyasini boshqarishda birinchi bo‘lib qo‘lladi (Gordon M. J. The Investment, Financing, and Valuation of the Corporation. Homewood, Ill.: Irwin, 1962). DCF tahlili pulning vaqtdagi qiymatiga asoslangan. Bugungi dollar biror muddatdan keyin olinadigan dollardan qadrliroq, chunki u hozir biron-bir aktivga investitsiyalansa, qo‘shimcha daromad keltiradi. DCF tahlili o‘z ichiga to‘rt bosqichni oladi:

- 1) bashoratlanayotgan pul oqimlarini hisoblab chiqish;
- 2) pul oqimlari uchun xatar darajasini baholash;
- 3) xatarning aniqlangan darajasini tahlilga kiritish;
- 4) pul oqimining keltirilgan qiymatini aniqlash.

Diskontlangan pul oqimlarining har qanday tahlilida muqobil xarajatlarni e‘tiborga oluvchi diskont stavkasini qo‘llash lozim. Mazkur stavka quyidagi omillarning ta‘sirini aks ettirishi lozim:

1. Muayyan pul oqimining xatar darajasi. Diskont stavkasi tahlil etilayotgan oqimlarga xos bo‘lgan xatar darajasini aks ettirishi lozim. Xatar darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, diskont stavkasi ham shunchalik baland bo‘ladi.

2. Daromadlilik ko‘rsatkichining ustunroq darajasi, ya‘ni diskont stavkasi iqtisodiyotda vujudga kelgan o‘rtacha daromadlilikni aks ettirishi lozim.

3. Pul oqimlarining davriyligi, ya‘ni pul oqimlari ko‘rib chiqilayotgan vaqt oralig‘i - yil, yarim yil yoki boshqa vaqt oralig‘i. Odatda diskont stavkasi va pul oqimi miqdori yillik yillik hisobda keltiriladi. Lekin pul oqimi tahlilida vaqt oralig‘i yildan farq qilsa, bu diskont stavkasida aks etishi lozim.

Moliyaviy menejment munosabatlarini har tomonlama o‘rganish va tegishli xulosalar chiqarish optimal soliqqa tortish tizimini tashkil etishning ham asosi hisoblanadi. Soliqlarni boshqarishda moliyaviy menejmentdagi eng ustuvor, nazorat tamoyiliga amal qilinishi natijasida korxonalar va davlat manfaatlarining uyg‘unlashuviga erishiladi.

XX asrning 2 yarmi jahon xo‘jaligida revolyusion ham evolyusion burilish davri bo‘ldi. Natijada ilmiy texnik taraqqiyotning keskin avj olishi va jahon

xo'jaligida tovar ishlab chiqarishning keskin o'sishi barcha sohalarda bo'lganidek boshqaruvning ilmiy konsepsiyalarida ham taraqqiyotlar bo'lishiga olib keldi. Natijada zamonaviy *moliyaviy menejment konsepsiyasi* mustaqil shakllana boshladi. Uning asosiy muammosi sifatida sub'ektlarning moliyaviy munosabatlari, pul mablag'lari aylanishini ichki va tashqi omillarining ta'siriga asoslangan holda samarali tashkil etish masalalarini o'z ichiga ola boshladi.

Moliyaviy menejment fan sifatida shakllanganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Uning fundamental jihatlarining ishlab chiqilishi ikkinchi jahon urushi arafasida moliya nazariyasi doirasidagi tadqiqotlar tarkibida amalga oshirilgan edi. Xususan, 1938 yilda J. Uilyams taklif etgan moliyaviy aktiv qiymatini baholashning modeli moliyaviy boshqaruvni ilmiy asoslashning dastlabki qadamlaridan biri edi. SHunga qaramasdan, G'arbdagi tadqiqotchilar moliyaviy menejmentning ilmiy yo'nalish sifatida maydonga chiqishini G. Markovits nomi bilan bog'laydilar. 1952 yilda u o'z maqolasida zamonaviy portfel nazariyasini bayon qilib berdi. 1963 yilda G. Markovitsning shogirdi Uilyam SHarp matematik apparatning soddalashtirilgan va amalda qo'llanishi mumkin bo'lgan variantini yoki bir omilli modelni (single-factor model) taklif etdi. Bu modeldan foydalanib yuzlab moliyaviy aktivlarni o'z ichiga olgan yirik portfellarni samarali boshqarishi mumkin edi.

Moliya nazariyasining moliyaviy aktivlarni boshqarishga qaratilgan qismi qimmatli qog'ozlarga baho belgilanishi, kapital bozori samaradorligi konsensiyasini ishlab chiqish, xatarni va daromadlilikni baholash modellarini yaratish, yangi moliyaviy dastaklarni ishlab chiqishi bo'yicha tadqiqotlarda rivojlantirildi. 1960 yillarda U. SHarp, J. Lintner va J. Mossin moliyaviy aktivlarning daromadlilikini baholash modelini (Capital Asset Pricing Model, CAPM) ishlab chiqdilar. Mazkur modelda portfelning daromadlilikini bilan sistemali xatar (bartaraf etilmaydigan xatar) o'zaro bog'lanadi. SHundan keyingi davrda SARM modelining o'rnini bosa oladigan modellarni ishlab chiqishga ko'plab urinishlar sodir bo'ldi. Ular orasida eng ko'p nom qozongani baho belgilashning hakamlik nazariyasi (Arbitrage Pricing Theory, APT) deb ataladi. Bu nazariyani Stiven Ross ishlab chiqdi. Modelga ko'ra har qanday aksiyaning daromadlilikini

ikkiga ajratish mumkin: normal yoki kutilayotgan daromadlilik hamda xatar bilan bog'liq, ya'ni noaniq daromadlilik. Ikkinchi komponent mamlakatdagi umumiy bozor kon'yunkturasi, jahon iqtisodiyoti barqarorligi, inflyasiya, foiz stavkalari o'zgarishi kabi iqtisodiy omillarga bog'liq .

Umuman olganda yirik kompaniyani moliyaviy boshqarishda ikki muhim masala mavjud: moliyaviy resurslarni qaerdan olgan ma'qul va ularni nimalarga yo'naltirish eng samarali bo'ladi. Bu borada F. Modilyani va M. Millerning asarlarini tadqiqotlarning tayanch nuqtasi deb hisoblaydilar. Ularning g'oyalarini rivojlantirgan holda hozirgi moliyaviy nazariya fanida ikki yo'nalish muvaffaqiyatli rivojlanmoqda - portfel nazariyasi va kapitalning tarkibi nazariyasi.

Hozirgi paytda moliyaviy menejment ilmiy yo'nalish, amaliy faoliyat hamda o'quv fani sifatida shakllanib bo'ldi. U yirik kompaniyaning moliyasini boshqarish metodologiyasi va texnikasini qamrab olgan. U o'z ichiga moliya nazariyasining qator bo'limlarini, buxgalteriya hisobining tahliliy bo'limlarini boshqaruv nazariyasining tushunchalarini qo'llagan holda qamrab oladi.

Jamiyatda ijtimoiy tuzum rivojlanishi va takomili jarayonida moliyaviy menejment siyosati ham o'zgargan, moliyaviy menejment munosabatlari zamonaviy mazmun-mohiyat kasb eta boshlagan. Dastlab, korxonalar davlatni rejasi asosida boshqaruvni tashkil etishgan bo'lsa, hozirda moliyaviy menejment korxonalarini rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Iqtisodchilar biznesni tashkil etishning zamonaviy nazariyalari (theories of the firm) orqali korxonalar faoliyatining ustuvor maqsadini turlicha tushuntiradilar. Eng keng tarqalgan yondashuvda firma o'z egalariga maksimal daromad keltirishi lozim deb qaraladi. (Profit Maximisation Theory). An'anaviy yangi klassik iqtisodiy modelga ko'ra firma foydani maksimalashtirish uchun faoliyat olib boradi. Erkin raqobat sharoitida uzoq muddatli davrda foydaning maksimumiga erishish mumkin emas, ya'ni summa daromad nolga teng bo'ladi. SHuning uchun biznesning barcha ishtirokchilarini qoniqtiruvchi «normal» foyda vujudga keladi. Mazkur nazariya doirasida boshqa mezonlar ham qo'llanadi: aksiyaga daromad va investitsiyalarning rentabelligi (ROI).

Boshqaruv funksiyalari yollanma xodimlar tomonidan ijro etiladigan firmalar uchun egalik qilish funksiyalari bilan boshqarish va nazorat qilish funksiyalari o'rtasidagi uzilganlik xos bo'ladi. Biznesning tashkiliy shakllari murakkablashuvi bilan mazkur muammo keskinlashadi. Bu qator boshqaruv nazariyalari paydo bo'lishiga olib keldi. Ular orasida «Vakolatlarni uzatish nazariyasi yoki Agentlik nazariyasi» ni (Agency Theory) alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bu nazariyaning asosida firma egalari manfaatlarining uning boshqaruv xodimlari manfaatlariga qarshi qo'yilishi yotadi (Korporatsiya shaklidagi firmada uning egalari operativ boshqarish bilan shug'ullanmaydilar, balki tegishli xodimlarni yollaydilar). Hozirdagi foyda bilan kelajakdasidan birini tanlashni nazarda tutuvchi muqobil echimlar tahlil etilishida aksiyadorlar manfaatlari bilan boshqaruv xodimlari manfaatlari o'zaro muvofiq kelmasligi mumkin. Bundan tashqari boshqaruv xodimlarining bir-biri bilan nizolashuvchi guruhlariga bo'linib ketishi ham istisno etilmaydi. Bu guruhlarining har biri o'z manfaatlarini ko'zlaydi.

SHuning uchun «Manfaatdor shaxslar nazariyasi» (Stakholder Theory) har qanday firma faoliyatining maqsadlari mazkur firmaga bevosita yoki bilvosita daxldor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning - aksiyadorlar, yollanma boshqaruv xodimlari, kontragentlar, davlat organlari - o'zaro nizolashuvchi maqsadlarini uyg'unlashtirishdan iborat deb qaraydi. Xususan, firma faqat foydani maksimallashtirishga intilish bilan kifoyalanib qolmasdan, o'z xodimlarining ijtimoiy ahvoli, atrof-muhit haqida ham g'amxo'rlik qilishi lozim. So'nggi davrda «Aksiyadorlarning boyligini maksimallashtirish nazariyasi» keng tarqaldi (Welth Maximision Theory). Ma'lumki, mavjud mezonlardan hech biri - foyda, rentabellik, ishlab chiqarish hajmi va boshqalar - qabul qilinayotgan moliyaviy xarakterdagi qarorlarning samaradorligining umumlashtiruvchi mezon sifatida qaralishi mumkin emas. Bunday mezon birinchidan, firma egalarining daromadlarini bashoratlashga asoslanishi, ikkinchidan, asoslangan aniq va ravshan bo'lishi, uchinchidan esa, boshqaruv qarorlari qabul qilishning mablag'lar

manbalarini qidirish, investitsiyalash, daromadlarni (dividendlarni) taqsimlash va boshqalar singari barcha jihatlari uchun ma'qul keladigan bo'lishi lozim.

Mazkur shartlarga eng yuqori darajada o'z kapitalini maksimallashtirishi mezonini, ya'ni firma oddiy aksiyalarining bozor qiymati javob beradi deb hisoblaydilar. Chunki firma egalari farovonligi joriy foydaning ortishidagina emas, balki ular mulkining bozor bahosi ortishida ham ifodalanadi. Shuning uchun kelajakda aksiyalar qiymati ortishini ta'minlovchi har qanday moliyaviy qaror korxonaga egalari va boshqaruv xodimlari tomonidan maqbul deb topilishi lozim.

Lekin mazkur mezonidan foydalanish amaliyotda qator sabablarga ko'ra qiyin kechadi:

- u kelajakdagi daromadlar, xarajatlar, pul oqimlarining va ular bilan bog'liq xatarning ehtimoliy baholanishiga asoslanadi;

- barcha firmalar ham moliyaviy tahlilchilar tomonidan bir xilda talqin etilayotgan bozor qiymatiga ega emaslar, xususan, agar firmaning aksiyalari fond birjasida sotilmayotgan bo'lsa, aksiyalarning bozor qiymatini aniqlash qiyinlashadi;

- ayrim hollarda mazkur mezonni umuman qo'llab bo'lmasligi mumkin. Masalan, kelajakda o'ta yuqori dividendlar olishga umid bog'lab, tavakkaliga kapital solinganda, bunday kompaniyalarning aksiyalari bozor bahosi xatar darajasiga bog'liq holda muayyan darajada pasayishi mumkin;

- agar firma oldiga maksimal foyda olish vazifasi emas, balki boshqa vazifa qo'yilgan bo'lsa, mazkur mezonni qo'llab bo'lmaydi. Masalan, firma faoliyatida xayriya va boshqa ijtimoiy maqsadlar ustuvor qo'yilishi mumkin.

Firmaning bozor qiymatini maksimallashtirish mezonini qo'llab bo'lmaydigan hollarda moliyaviy qarorlarni asoslashda foyda va rentabellikning absolyut va nisbiy ko'rsatkichlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Lekin bu holda «foydani maksimallashtirish» mezonining nuqsonlari mavjudligini nazardan qochirish lozim:

- foyda ko'rsatkichining turli xillari mavjud (asosiy faoliyatdan foyda, balans foydasi, soliqlarni to'lashga qadar foyda, soliqqa tortiladigan foyda, sof

foyda va boshqalar). SHuning uchun moliyaviy qarorlar samaradorligini baholashda qo'llanadigan muayyan foyda ko'rsatkichi etarli darajada asoslanishi va aniq bo'lishi talab etiladi;

- agar ikki xil muqobil variantlar daromadlar bashoratlanaetgan hajmi va hosil bo'lishi muddatlari bo'yicha farqlansa, foyda mezonini qo'llab bo'lmaydi;

- foyda mezonini olinadigan daromadlarning sifatini, ehtimoliyligini va daromad olinishidagi xatarlarni e'tiborga olmaydi.

Shunday qilib, hozirgi paytda firma aksiyalari bozor qiymatini maksimallashtirish mezonini eng asoslangan va ustuvor deb qarash mumkin. Lekin bu mezon kapital bozorida qimmatli qog'ozlarga baholar belgilanishida cheklovlar va kamsitishlar bo'lmaganida, ya'ni «talab-taklif» qoidasi to'la ravishda amal qilganida o'zini chinakamiga namoyon etadi. qimmatli qog'ozlarning bozor bahosi shakllanishi bilan bog'liq holda investorlarning harakatlari amalga oshiriladi. Bozor tahlili nazariyasiga ko'ra (Market Analysis Theory), baholanayotgan (kotirovkalanayotgan) qimmatli qog'ozning haqiqiy qadr-qiymati faqat bozor konyunkturasi bilan belgilanadi, demak, dinamikasining trend tahlili natijalari bo'yicha bashorat qilinishi mumkin. Bu nazariyaga muvofiq potensial investorlar aksiyalarni sotib olish eki sotib yuborish bo'yicha qarorlarida asosan ularning baholari dinamikasiga asoslanadilar. Biroq, yirik fond birjalari ish amaliyoti mazkur mezonga doimo ham rioya etilavermasligini ko'rsatadi.

Amaliy jihatdan «Tusmollab yurish nazariyasi» (Random Wolk Theory) ancha realroq ko'rinishiga ega. Bu nazariyaga binoan aksiyalar kurslari va fyuchers baholar tartibsiz o'zgaradi va ularni o'tmishdagi kon'yunktura ma'lumotlarini qayta ishlash yo'li bilan ham oldindan aytib berish mumkin emas. Ushbu nazariyaga tayangan holda samarali bozorning gipotezasi (Efficient Market Hypothesis, EMH) ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, bozorga kirish to'la erkin bo'lganda har bir daqiqada aksiyaning bahosi uning ichki qiymatining eng aniq baholanishidir va, demak, bo'lajak bahosini ham eng aniq ifodalaydi.

Umuman olganda, hozirgi paytda moliyaviy menejment konsepsiyasi quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan asosiy konsepsiyalarga asoslanadi:

1. Pul oqimlari konsepsiyasi.
2. Pul resurslarining vaqtincha qiymatlilik konsepsiyasi.
3. Tavakkalchilik va daromad (foйда) o'rtasida murossozlik konsepsiyasi.
4. Kapital bahosi konsepsiyasi.
5. Kapital bozorining samaralilik konsepsiyasi.
6. Axborotning har xilliligi konsepsiyasi.
7. Agentlik aloqalari konsepsiyasi.
8. Xarajatlarning muqobillilik konsepsiyasi.

1. Pul oqimlari konsepsiyasi quyidagilarni nazarda tutadi:

- pul oqimlarining identifikatsiyasi, uning davomiyligi va turlari (qisqa muddatli, uzoq muddatli, foizli va foizsiz);
- pul oqimlari elementlari hajmini belgilovchi omillarning baholash;
- vaqtning turli lahzalarida kuchayuvchi pul oqimi elementlarini taqqoslashga imkon beruvchi diskontlash koeffitsientlarni tanlash;
- mazkur oqimga taalluqli bo'lgan tavakkalchilik hamda ularni hisobga olish usullarini baholash.

2. Pul resurslarining vaqtincha qiymatlilik konsepsiyasi.

Vaqtincha qiymatlilik – pul resurslarining muomaladagi ob'ektiv tavsifi.

U quyidagi 3 ta sababga asoslanadi:

- a) inflyasiyaga;
- b) kutilayotgan daromad (foйда)ning to'liq yoki qisman ololmaslik risk (xatar)iga;
- v) aylanuvchanlikka.

3. Tavakkalchilik va daromad (foйда) o'rtasida murossozlik konsepsiyasi. Bu tamoyilning ma'nosi: biznesda har doim, uzluksiz ravishda har qanday foydani olish - katta risk (xatar) bilan bog'liq va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik to'g'ri proporsionaldir. SHu bilan birga, foydani maksimallasuvi - risk (xatar)ni minimallasuvi bilan bog'liq lahzalar ham bo'lishi mumkin.

4. Kapital bahosi konsepsiyasi – u yoki bu moliyalashtirish manbasiga xizmat ko'rsatish firma uchun bir xilda kechmaydi. Natijada kapital bahosi har bir

manbani faoliyatini ta'minlash uchun kerakli xarajatlarni qoplash va zarar ko'rmalik maqsadida minimal darajadagi daromadni o'z ichiga oladi.

Kapital bahosini miqdoran aniqlash investitsiya loyihalarini tahlil qilishda hamda muqobil variantlarni tanlashda asosiy o'rinni egallaydi.

5. Kapital bozorining samaralilik konsepsiyasi– moliyaviy bozorlardagi operatsiyalar (qimmatli qog'ozlar bilan), ning xajmi qimmatli qog'ozlar qiymati joriy narxlarga qanchalik muvofiq kelishiga bog'liq. Bozor bahosi ko'p omillarga, shu jumladan ma'lumot va axborotlarga ham bog'liq bo'ladi. Axborotlar oqimi eng asosiy omillardan hisoblanadi, bundan tashqari axborotlarning qanchalik tezkorlik bilan narxlarga ta'sir ko'rsatishini bozor samaradorligini o'zgarishiga olib keladi.

Bu yerda "samaradorlik" atamasi iqtisodiy ma'noda emas, balki axborotlarga nisbatan qo'llanilgan, ya'ni bozor samaradorligi uning axborotlarga boyligi hamda bozor ishtirokchilariga uni etib borishi bilan bog'liq. Bozorni axborot samaradorligiga etishishi uchun quyidagi shartlar amalga oshishi lozim:

- bozor ko'p miqdordagi xaridor va sotuvchilarga mavjudligi xususiyatiga ega;
- bozorda axborotlar barcha sub'ektlarga bir vaqtda tarqaladi va ularni olish uchun xarajat qilish shart emas;
- bitishuvlarni amalga oshirish uchun tranzaksion sarflar mavjud emas, ya'ni shartnomalar tuzish uchun tusiqlar, soliqlar va boshqa omillar yo'q;
- alohida yuridik hamda jismoniy shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnomalar, bozordagi umumiy baholarga ta'sir ko'rsatmaydi;
- bozorning barcha sub'ektlari ratsional ravishda kutilayotgan foydani maksimal darajaga ko'tarish uchun xarakatlanadi;
- qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilishda ortiqcha daromad olishni imkoni yo'qligi, ya'ni bozorning barcha qatnashchilari istiqboldagi natijani teng ehtimolli tarzda kutadi.

Samarali bozorning o'ziga xos ikki xususiyati mavjud:

1. Bu bozordagi investor investitsion kapital doirasida belgilangan tavakkalchilik darajasidagi o'rtacha daromaddan ko'proq foyda olish uchun asoslangan imkoniyatga ega emas.

2. Investitsiya qilingan kapitalning daromadlilik darajasi – bu tavakkalchilik darajasining funksiyasi hisoblanadi. Kapital bozorining samaraliligi konsepsiyasi amaliyotda 3 turdagi samaradorlik darajasi bilan namoyon bo'ladi:

- 1) past darajadagi;
- 2) o'rtacha darajadagi;
- 3) kuchli darajadagi.

Past darajadagi samaradorlik sharoitida aksiyalarni joriy bahosi o'tgan davrdagi baholar dinamikasini o'zida to'liq aks ettiradi. Bunda narxlar dinamikasining statistikasiga qarab kurslarni oshishi yoki pasayishini asosli ravishda avvaldan taxminlashtirib bo'lmaydi.

O'rtacha darajadagi samaradorlik sharoitida aksiyalarning joriy bahosi nafaqat o'tmishdagi narxlar o'zgarishini, balki barcha teng imkoniyatli axborotlarni bozorga kelib tushib narxlarda aks etishi bilan xarakterlanadi.

Kuchli darajadagi samaradorlik sharoitida joriy narxlar barcha bozor ishtirokchilariga tegishli axborot sifatida maydonga chiqadi, ya'ni hech kim qimmatli qog'ozlar bo'yicha yuqori darajadagi foyda olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

6. Axborotning har xilliligi konsepsiyasi beshinchi konsepsiya bilan uzviy bog'liqdir. Uning ma'nosi quyidagicha: boshqalarga etib bormagan axborotlarga, alohida kategoriyadagi shaxslar ega bo'lishi mumkin .

Bu axborotlardan foydalanish ijobiy va salbiy natija berishi mumkin.

7. Agentlik aloqalari konsepsiyasining moliyaviy menejmentga kiritilishi biznesning tashkiliy-huquqiy shaklidagi murakkabliklar bilan bog'liq.

Uning ma'nosi shundaki: murakkab huquqiy-boshqaruv shakllarida boshqaruv funksiyasi bilan egalik qilish funksiyasi o'rtasida uzilishlar mavjud, ya'ni kompaniyalar egalari boshqarishdan uzoqlashadi, boshqaruvni esa kompaniya menejerlari bajaradilar

Menejerlar hamda kompaniya egalari o'rtasida o'zaro yaxshi aloqa o'rnatish hamda menejerlarning nomaqbul harakatlarini chegaralash uchun mulk egalari agentlik xarajatlarini qoplashga majbur bo'ladilar. (masalan, kompaniya olgan daromadlarning ishlatilishini menejerlarga bog'liqligi chegaralanishi).

8. Xarajatlarning muqobillilik konsepsiyasi. Uning ma'nosi: har qanday quyilmalar doimo muqobil manbaga ega bo'ladi.

1.3. Moliyaviy menejmentda qo'llanadigan asosiy modellar

Korxonalar aktivlari va, shu jumladan moliyaviy aktivlar turli ko'rinishlarda mavjud bo'ladi. SHu nuqtai nazardan moliyaviy aktivlar portfel yoki investitsion portfel haqida so'z yuritish mumkin. O'z moliyaviy imkoniyatlari doirasida korxonalar o'z resurslarini moliyaviy aktivlarning turli kombinatsiyalariga yo'naltirishi mumkin.

Investitsion portfel haqida Uilyam SHarp va Garri Markovitsning nazariyalari hozirda eng keng tan olingan. Undagi asosiy qoidalar quyidagicha:

1. Investitsiyaning muvaffaqiyati uning aktivlar turlari bo'yicha taqsimlanishiga bog'liq.

2. Muayyan qimmatli qog'ozga investitsiyaning xatari foydaning prognoz qilingan miqdori kutilayotgan miqdoridan farqlanishi ehtimoli bilan aniqlanadi. Prognozlanayotgan miqdor foyda dinamikasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni qayta ishlab, xatar esa kutilayotgan foyda miqdoridan o'rtacha kvadratik chetlanish sifatida aniqlanishi mumkin.

3. Investitsion portfel bo'yicha umumiy daromadlilik uni tarkibi o'zgarish bilan o'zgarishi mumkin. Demak, jami xatarni pasaytirishga va jami daromadni oshirishga intilish lozim.

4. Portfelni shakllantirishda qo'llanayotgan barcha baholashlar ehtimoliy xarakterda.

Xatarning o'rnatilgan darajasida maksimal kutilayotgan daromadni yoki daromadning belgilangan darajasida minimal xatarni ta'minlovchi portfel samarali

portfel deb ataladi. Samarali portfellarni aniqlash algoritmi 1950-yillarda G. Markovits tomonidan ishlab chiqilgan edi.

Har qanday aktivga egalik qilish korxonaga umumiy daromadiga ta'siri bo'yicha muayyan xatar bilan bog'liq. Portfelning umumiy xatari ikki qismdan iborat:

- diversifikatsiyalanuvchi (tizimli bo'lmagan) xatar, bu xatar investitsiyalarni diversifikatsiyalash orqali silliqlanishi mumkin;

- diversifikatsiyalanmaydigan (tizimli yoki bozor) xatar, uni portfel tarkibini o'zgartirish bilan kamaytirib bo'lmaydi.

Portfelni shakllantirishda asosiy e'tibor bozor xatarlariga qaratiladi. "Portfel nazariyasi" doirasida statistik metodlar yordamida portfel xatarini eng maqbul ravishda taqsimlash va foydani baholash amalga oshiriladi. Bu nazariya o'z ichiga to'rt elementni oladi:

- aktivlarni baholash;
- investitsion qarorlar;
- portfelni optimallashtirish;
- natijalarni baholash.

Moliyaviy menejment suyanadigan modellardan biri kapitalning tarkibi nazariyasidir. Bu nazariya Franko Modilyani va Merton Millerning 1958 yilda va 1963 yilda e'lon qilingan ikki asarida bayon etilgan (Modigliani F. Miller M.H. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. Amer. Econ. Rev 1963, June. P. 261-297; Modigliani F. , Miller M. H. Taxes and the Cost of Capital:A Correction.-Amer.Econ.Rev. 1963 June. P. 433-443). Unga kura har qanday firmaning qiymati mutlaqo uning kelajakdagi daromadlari bilan belgilanadi va kapitalning tarkibiga bog'liq emas. Agar firma faoliyatini qarz kapital hisobidan moliyalash foydaliroq bo'lsa, kapitalning aralash tarkibi xos bo'lgan kompaniyaning aksiyalari egalari o'z firmalari aksiyalari bir qismini sotadilar va tushumni jalb etilgan manbalardan foydalanmayotgan firmaning aksiyalarini sotib olishga sarflaydilar. Firmalarning qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalar pirovardida bu firmalarning baholari baravarlashuviga olib keladi.

SHunday qilib firma aksiyalari bozor qiymati o'z va qarz kapital o'rtasidagi nisbatga bog'liq bo'lmaydi. Investitsion portfelni boshqarishda portfelga yangi vositalarni qo'shish masalasini hal etish uchun ularni tahlil etish lozim bo'ladi. Buni amalga oshirishning qator usullari mavjud va ular orasida SARM - Capital Asset Pricing Model alohida o'rin tutadi. Mazkur model tizimli xatar va daromadlilikni bir-bir bilan bog'laydi. Bunda SARM modeli qator farazlarga asoslanadi:

1. Har bir investor o'z boyligini rejalashtirilayotgan davr oxiriga maksimalashtirishga intiladi.

2. Barcha investorlar muayyan xatarsiz foiz stavkasida cheklanmagan miqdorlarda ssuda olishlari va berishlari mumkin, bunda aktivlarni "qisqa" sotishlarga (sotish paytida o'zida mavjud bo'lmagan aktivlarni sotish bo'yicha shartnoma) cheklovlar yo'q .

3. Barcha investorlar barcha aktivlar bo'yicha kutilayotgan daromadlilikni, dispersiya va kovariatsiyalarni bir xil baholaydilar.

4. Barcha aktivlar bo'lina oladi va butunlay likvid xarakterda (bozorda mavjud baholarda to'la sotilishi mumkin).

5. Transaksiya xarajatlari mavjud emas.

6. Soliqlar e'tiborga olinmaydi.

7. barcha investorlar bahoni chetdan berilgan ekzogen miqdor sifatida qabul qiladilar (sotuvchilarning faoliyati bozor baholariga ta'sir etmaydi).

8. Barcha moliyaviy aktivlar miqdori avvaldan belgilangan va o'zgarmaydi.

Modelning mantiqi quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = f(x),$$

Bu yerda Y – daromadlilik, x – aktivning xatar darajasi.

Mazkur formula, birinchidan, daromadlilik xatar bilan bevosita bog'langanligini, ikkinchidan, xatar biron-bir ko'rsatkich orqali ifodalanganligini (B – koeffitsient), uchinchidan, xatarning va daromadlilikning o'rtacha darajasi xos aktivlar mavjudligini va, to'rtinchidan, xatar darajasi nolga teng , lekin muayyan

daromad keltiradigan aktivlar mavjudligini nazarda tutadi. Bozordagi o'rtacha xatar koeffitsienti 1 ga teng deb olinadi. Tegishli ravishda xatar darajasi yuqori aktivlarda xatar koeffitsienti 1 dan yuqori bo'ladi. SARM modelida tizimli xatarlar mana shu koeffitsient orqali ifodalanadi. Portfel bo'yicha yig'ma koeffitsientning o'sishi xatar darajasi ortishini bildiradi. Masalaning muhim jihati shundaki, daromadlilik xatar darajasiga to'g'ri proporsional, ya'ni xatari yuqoriroq aktivlarga yuqoriroq daromad va'da qilingan bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, XX asrning 60-yillarida U. SHarp, J. Lintner va J. Mossinning sa'y-harakatlar bilan ishlab chiqilgan bu model moliyaviy aktivlar daromadlilikini tizimli xatarlar bilan portfel daromadlilikini bog'lagan holda baholaydi.

O'zlarining 1963 yildagi asarida F. Modilyani va M. Miller dastlabki modelga korporatsiyalarga soliq omilini kiritdilar, ya'ni nol soliq solish shartini yumshatdilar. Korporatsiyaga soliqni e'tiborga olinadigan bo'lsa, boshqa barcha teng sharoitlarda, qarz kapital ulushi qancha yuqori bo'lsa, aksiyalar bahosi shunchalik yuqori bo'ladi. Chunki aksiyadorlarga daromad soliq to'langandan keyin qolgan foydadan, kreditorlarga to'lovlar esa soliq to'langunga qadar foydadan bajariladi. Soliqqa tortishdagi bunday asimmetriya qarz kapital ortishi bilan firma daromadining investorlar ixtiyorida qoladigan qismi ortishiga olib keladi. Demak, firma 100 foizga qarz kapital hisobidan moliyalansa, aksiyalar kursi eng yuqori bular edi.

Lekin, real hayotda firma kapitalidagi qarzlarning ulushi 100 foizdan ancha uzoqda bo'ladi. Yuqoridagi modelda kapitalning noqulay tarkibi tufayli vujudga keladigan qiyinchiliklarni engish xarajatlari omili e'tiborga olinmagan. Qarzlarning kapitaldagi ulushi ortishi bilan soliq to'lovlari pasayishi hisobiga erishilayotgan tejam ortib boradi. Lekin, qarzlarning muayyan darajasida mablag'lar manbalarining xatarliroq tarkibi bilan bog'liq xarajatlar mazkur tejamdandan ham ortib ketishi mumkin. Moliyaviy qiyinchiliklar olinish hisobga olib takomillashtirilgan Modilyani-Miller nazariyasi quyidagi xulosalarni beradi:

- 1) qarz kapitalning muayyan ulushi firma uchun foydali;
- 2) qarz kapitaldan haddan ziyod foydalanish firmaga zarar keltiradi;

3) har bir firma uchun qarz kapitalning optimal ulushi mavjud bo‘ladi.

Mazkur nazariya soliq to‘lovlari pasayishidan tejam bilan moliyaviy xarajatlar o‘rtasidagi kompromiss nazariyasi deb ataladi (tax savings-financial costs trade off theory) va u kapitalning optimal tarkibiga ta’sir etuvchi omillarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Moliyaviy menejment sohasida F. Modilyani va M. Miller tomonidan olg‘a surilgan g‘oyalardan biri dividendlar nazariyasidir (Miller M. H., Modigliani F. Dividend Policy, Growth and the Valuation of Shares.-Journ. Business. 1961 Oct. P. 411-433). Unga ko‘ra kompaniyaning dividendlar siyosati, uning aksiyalari kursiga ta’sir etmaydi. Chunki aksiyadorlar tomonidan dividend ko‘rinishida olinayotgan har bir dollar ularni kelajakdagi dividendlardan mahrum etadi. Kelajakdagi daromadlarning diskontlangan qiymati esa hozirgi daromad miqdoriga teng.

Moliyaviy menejmentda investitsion portfel konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi. Unga 1990 yilda iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan Garri Markovits asos solgan (Markovitz. Portfolio Selection.- Journ. Finance. 1952. March. P. 77-91). G. Markovitsning portfel nazariyasining asosiy xulosalari quyidagilardir: 1) xatarni minimallashtirish uchun investorlar aktivlarni investitsion portfellarga guruhlashlari lozim; 2) alohida aktiv bo‘yicha xatarni uning diversifikatsiyalangan portfelning umumiy xatarliliga ta’siri bilan o‘lchash lozim. Portfel nazariyasi investorlarni xatarni o‘lchashga undasa ham, xatar darajasi bilan daromadlilik o‘rtasidagi bog‘liqlikka aniqlik kiritmaydi. Uilyam SHarpe tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy aktivlarning daromadlilikini baholash modeli (Capital Asset Pricing Model, CAPM) bu bog‘liqlikni ifodalab beradi (Sharpe W.F. Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium Under Conditions of Risk.- Journ. Finance. 1964. Sept. P.425-442). CAPM kapitalning ideal bozori mavjud deb faraz qiladi. Bu modelga ko‘ra xatar xos aktivlarning har qanday turi uchun talab qilinadigan daromadlilik uch o‘zgaruvchining funksiyasidan iborat bo‘ladi: xatarsiz daromadlilik, qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘rtacha daromadlilik va mazkur moliyaviy aktiv daromadlilikning bozordagi

o'rtacha daromadlilikka nisbatan tebranishi indeksi. SARM firma kapitalining umumiy bahosini hamda firma amalga oshirayotgan alohida loyihalarning talab etiladigan daromadlilikini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy menejmentda qo'llanadigan muhim nazariy xulosalardan biri bozorlar samaradorligi gipotezasidir (Efficient Markets Hypothesis, EMH). Samaradorlik so'zi bu yerda bozor haqidagi axborotga taalluqli bo'lib, samarali bozor tushunchasi uning baholarida barcha ma'lum axborot aks etishini bildiradi. Bozorning axborot samaradorligi ta'minlanishi uchun to'rt shart bajarilishi lozim:

1. Axborot bozorning barcha sub'ektlariga bir paytda ochiq bo'ladi va axborotning olinishi biron-bir xarajatlar bilan bog'lanmagan.
2. Transaksion xarajatlar, soliqlar, bitimlar tuzishga to'sqinlik qiluvchi boshqa omillar mavjud emas.
3. Alohida jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan bitishuvlar baholarning umumiy darajasiga ta'sir eta olmaydi.
4. Bozorning barcha sub'ektlari oqilona harakat qiladilar, kutilayotgan nafni maksimallashtirishga intiladilar.

Bozorlar samaradorligi gipotezasi (EMN) firmaning qiymatini moliya bozorida operatsiyalar hisobidan oshirib bo'lmasligi haqidagi xulosa uchun imkon beradi. Chunki bu operatsiyalar sof keltirilgan qiymati (NPV) nolga teng. Demak, firmaning qiymati amalda moddiy tovarlar va xizmatlar harakati bilan bog'liq operatsiyalar natijasidagina ortadi. Moliyaviy aktivlarning qiymati umuman olganda ob'ektiv miqdor. Shuning uchun ularni ifodalovchi u yoki bu qimmatli qog'ozlarning qiymati ortishi yoki pasaytirilganligi to'g'risidagi tahlillar yoki mulohazalar puxta tekshirib chiqilishi lozim.

Moliyaviy resurslarga egalik bilan ularni tasarruf qilinishi bir-biridan ajralgan hollarda agentlik munosabatlari kelib chiqadi. Resurslarning egalari prinsipallar deb atalib, ular qarorlar qabul qilish bo'yicha vakolatlarni agentlarga beradilar. Moliyani boshqarish nuqtai nazaridan eng muhim agentlik munosabatlari aksiyadorlar bilan menejerlar o'rtasida hamda kreditorlar bilan aksiyadorlar o'rtasida kelib chiqadi. Menejerlar tomonidan aksiyadorlar manfaatlariga javob

bermaydigan qarorlar qabul qilinishi va harakatlar qilinishi agentlik nizolarini keltirib chiqaradi. Menejerlar ustidan aksiyadorlar nazoratini o'rnatish esa agentlik xarajatlari deb ataladigan xarajatlarni talab etadi. Bunday xarajatlarga misol qilib auditor tekshiruvini o'tkazishga xarajatlarni keltirish mumkin. Agentlik nizolarini hal etish yo'llaridan biri menejerlarni rag'batlantirish tizimidir.

Stiven Rossning «Arbitraj baho shakllanish» (Arbitrage Pricing Theory) modeli. Moliyaviy menejmentda arbitraj (arbitrage) tushunchasi. Bu yondashuv Yel universiteti professori Stiven Ross tomonidan 1976 yilda taklif etilgan. Model asosida har qanday aksiyaning haqiqatdagi daromadliligi ikki qismdan: normal, ya'ni kutilayotgan va xatar bilan bog'liq, ya'ni noaniq daromadlilikdan iborat degan faraz yotadi. O'z navbatida xatar ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Mazkur modelni so'zlarda quyidagicha ifodalash mumkin:

Haqiqatdagi daromadlilik q kutilayotgan daromadlilik + birinchii omilning ta'siri + ikkinchi omilning ta'siri + ... + modelga kiritilmagan omillarning ta'siri.

Har bir omilning ta'siri esa omildagi o'zgarishni daromadlilikning shu omil ta'siriga qanchalik darajada bog'liqligini ifodalovchi koeffitsientga ko'paytmasi sifatida aniqlanadi. Omillarning tanlab olinishi puxta o'tkaziladigan sifat tahliliga tayanishi lozim. Modelning qo'llanishi ancha murakkab matematik statistika apparatiga asoslanadi.

Franko Modilyani va Merton Millerning «Kapital tarkibi (strukturasi)» nazariyasi. F. Modilyani va M. Merton muayyan sharoitlarda firmaning bozor qiymati va kapitalning qiymati uning tarkibiga bog'liq emas va, demak, ularni optimallashtirish mumkin emas, shuningdek firmaning bozor qiymatini kapital tarkibini o'zgartirish hisobiga oshirish ham mumkin emas. Mazkur yondashuv quyidagi farazlarga asoslanadi:

- samarali kapital bozori mavjudligi (axborotning bepulligi, barcha manfaatdor sub'ektlar bozorga kira oladilar, transaksion xarajatlari yo'q, qimmatli qog'ozlar paketi xohlagancha maydalashtirilishi, investorlar oqilona harakat qilishi);

- kompaniyalar faqat ikki turdagi majburiyatlarni emissiya qiladilar –

xatarsiz stavkali qarz majburiyatlari (obligatsiya) va aksiyalar (xatar xos kapital);

- jismoniy shaxslar qarz operatsiyalarini xatarsiz stavkada amalga oshira oladilar;

- bankrotlik bilan bog'liq xarajatlar yo'q;

- barcha kompaniyalar xatarning bitta guruhiga mansub;

- kutilayotgan pul oqimlari muddatsiz annuitetdan iborat (daromadalar o'sib boruvchi emas);

- soliqlar yo'q.

Kapital tarkibi nazariyasining ikkita xulosasi mavjud:

- kompaniyaning bozor qiymati kapitalning tarkibiga bog'liq emas va uning operatsion foydasini mazkur kompaniyaning xos bo'lgan xatar toifasiga muvofiq keladigan stavka bo'yicha kapitallashtirilishi orqali aniqlanadi;

- moliyaviy qaram kompaniya o'z kapitalining qiymati shunga o'xshash moliyaviy mustaqil kompaniyaning daromad va xatar darajasi bo'yicha o'z kapitali qiymati bilan xatar uchun mukofot yig'indisiga teng bo'ladi. Xatar uchun mukofot esa o'z kapitali qiymati bilan qarz kapital qiymati miqdorlari o'rtasidagi tafovutni moliyaviy leverij miqdoriga ko'paytirib aniqlanadi.

Mazkur xulosalardan ko'rinib turadiki, arzonroq manbalarni jalb etish kompaniyaning bozor qiymatini oshirmaydi. Chunki arzon manbani jalb qilishdan keladigan yutuq xatar darajasi ortishi va shunga muvofiq o'z kapitali qadrsizlanish tufayli yo'qqa chiqadi.

1.4. Moliyaviy menejmentning funksiyalari

Moliyaviy menejment yoki moliyaviy boshqaruv korxonada uning faoliyati uchun pul jamg'armalari shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi jarayonlarini tashkil etishga va boshqarishga qaratilgan. Moliyaviy boshqaruv birinchi navbatda qisqa muddatli va joriy vazifalarni hal etishga xizmat qilsada, u korxonaning strategik rivojlanishi yo'nalishini belgilashda ham juda muhim o'rin egallaydi.

Moliyaviy boshqaruvning diqqat markazida quyidagi vazifalar turadi:

- foydani ko'paytirish;

- korxonada pul oqimlari uzluksizligi va balanslanganligini ta'minlash;

- korxonaga kapitali tarkibini optimallashtirish
- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;
- mulkdorlar (aksiyadorlar), investorlar, kreditorlar uchun korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini oydinlashtirish;
- investitsiya jozibadorligiga erishish;
- moliyaviy resurslarni jalb etishda bozor mexanizmlardan foydalanish.

Moliyaviy boshqaruv korxonaga faoliyatining strategik va taktik maqsadlariga samarali erishilishini ta'minlashi, ya'ni u maqsadli tus olishi uchun korxonaning moliyaviy siyosati ishlab chiqilishi zarur. Moliyaviy siyosat ishlab chiqilishi quyidagilarni ifodalaydi:

- korxonaga moliyaviy-iqtisodiy ahvolini tahlil qilish;
- korxonaning hisob siyosatini ishlab chiqish va soliq to'lovchi sifatidagi faoliyatini rejalashtirish;
- aylanma mablag'larni, kreditorlik va debitorlik qarzdorligini boshqarish;
- xarajatlarni taqsimlash va amortizatsiya siyosatini boshqarish;
- dividend siyosatini tanlash.

Moliyaviy-iqtisodiy ahvolni tahlil qilishda korxonaga mulkiy tarkibi, moliyaviy qo'yilmalari, o'z kapitalini shakllantirish manbalari, qarz mablag'lari miqdori va manbalari aniqlab olinadi, korxonaga moddiy resurslar yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o'zaro munosabatlar, sotishdan tushum hajmi va sotish miqdori baholanadi. Tahlil uch asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi. Gorizontaal tahlil - joriy davr ko'rsatkichlari avvalgi davrlar yoki reja(smeta) bilan taqqoslanadi. Vertikal tahlilda umumiy yakuniy ko'rsatkichdagi alohida moddalar solishtirma og'irligini aniqlash va keyinchalik natijani o'tgan davr ma'lumotlari bilan taqqoslash amalga oshiriladi. Trend tahlilida qator yillardagi hisobotlar ko'rsatkichlari o'zgarishlari aniqlanadi va trend (egri chiziq) yasaladi. Tahlil jarayonida taqqoslovlarni amalga oshirishda turli davrlarda qo'llangan rejalashtirish usullari, buxgalteriya hisobotlarida qo'llangan hisob siyosati xususiyatlari, korxonaga faoliyati yo'nalishlar o'zgarishi (diversifikatsiya) va boshqa omillar e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ko‘rinib turibdiki, moliyaviy boshqaruv oldiga qo‘yilayotgan vazifalar korxonada uning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini tahlil etish bilan shug‘ullanadigan xizmatni tashkil etishni taqozo qiladi. Mazkur xizmat muayyan davr ichida ishlab chiqarish xarajatlari, korxonaning pul chiqimlari va daromadlarini tahlil etishi, turlicha bazaviy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslashi hamda o‘zgarishlar(tafovutlar) mazmun-mohiyatini, sabablarini o‘rganib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Korxonaga pul tushumlari va chiqimlari oqimini sog‘lomlashtirish uchun, birinchi navbatda, debitorlik va kreditorlik qarzdorligi aylanishini tahlil qilish. qarzlarni vaqti-vaqti bilan inventarizatsiyalash, korxonaga qo‘llangan jarima choralarining sabablarini va aybdorlarini aniqlash, zarur hollarda da’vo ishini olib borish lozim bo‘ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni erkinlashtirish strategiyasi doirasida so‘nggi paytlarda korxonalarga amortizatsiya siyosatini tanlashda muayyan imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Korxonada jadallashtirilgan amortizatsiyasini qo‘llashi va shu yo‘l bilan xarajatlarni oshirishi mumkin. Bu mahsulot tannarxiga va baho siyosatiga, mol-mulk solig‘i va foyda solig‘iga ta’sir ko‘rsatadi.

Aksiyadorlik jamiyati sifatida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonada dividend siyosati ishlab chiqilishi zarur bo‘ladi. Bu, bir tomondan, mulkdorlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan korxonaning bo‘ljak investorlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadlariga xizmat qiladi. Ayni paytda, korxonada egalari manfaatlari faqat dividendlar olishdan iboratdir deb, tasavvur qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Foydaning dividendlarga to‘la yo‘naltirilishi korxonadagi jamg‘arish jarayoniga salbiy ta’sir etadi. Korxonaning barqaror istiqbolini, raqobatbardoshligini, moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun foydaning muhim qismi qayta investitsiyalanishi lozim. Demak, dividend siyosati korxonaning umumiy moliyaviy-iqtisodiy axvolidan kelib chiqib belgilanadi.

Moliyaviy boshqaruv olib borilishida juda muhim jihatlaridan yana biri qarz mablag‘lardan oqilona foydalanishdir. Korxonada bozorda mustahkam mavqega ega bo‘lsa, shu asosda uning mahsulotlari sotilishi etarli darajada foyda hajmlarini

ta'minlayotgan va bu foydani oshirishning real imkoniyatlari mavjud bo'lsa, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish uchun qarz mablag'lar, shu jumladan uzoq muddatli negizda, jalb etilishi mumkin va bunday imkoniyatlardan foydalanish mutlaqo o'rinli bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, moliyaviy boshqaruv korxonaga foydasini yoki korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan. Albatta, foyda iqtisodiy samaradorlikning juda muhim ifodasi, lekin samaradorlikning boshqa jihatlari ham mavjud. Moliyaviy menejment samaradorlikning barcha jihatlari ta'sir etishi lozim.

Korxonaga rahbari rasman ruxsat va vakolat bergan doiradagina moliyaviy menejer yoki boshqa ijrochi xodim korxonaga moliyaviy resurslarini tasarruf eta oladi. Lekin korxonadagi moliyaviy oqimlardan to'la xabardor shaxs sifatida moliyaviy menejer bu oqimlarni doimiy ravishda tahlil qila oladi va tahlil natijalariga suyangan holda muntazam monitoringni va nazoratni amalga oshiradi. SHuning uchun moliyaviy direktor, moliyaviy menejer va bosh buxgalter korxonaga boshqaruvining eng yuqori guruhi doirasiga kiradilar va korxonaga hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha masalalarning hal etilishida qatnashadilar.

Eng umumiy holda moliyaviy menejment bo'yicha faoliyat quyidagi tarkibda tasavvur etilishi mumkin:

- korxonaga mulkiy va moliyaviy holatining umumiy tahlili va rejalashtirilishi;
- korxonaga moliyaviy resurslar bilan ta'minlash (mablag'lar manbalarini boshqarish);
- moliyaviy resurslarni taqsimlash (investitsion siyosat va aktivlarni boshqarish).

Ajratib ko'rsatilgan faoliyat sohalari ayni paytda moliyaviy menejment xizmati oldida turgan vazifalarni bir-biridan ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Bu vazifalarni quyidagicha tavsiflash mumkin.

Korxonaning mulkiy va moliyaviy holatini tahlil qilish va rejalashtirish uchun quyidagilarga umumiy ravishda baho berish lozim bo'ladi:

- korxonaning aktivlari va ularni moliyalashning manbalari;
- korxonaning erishilgan iqtisodiy salohiyatini quvvatlab turish hamda uning faoliyatini kengaytirish uchun zarur resurslarning miqdori va tarkibi;
- qo‘shimcha ravishda moliyalash manbalari;
- moliyaviy resurslarning holati va ulardan foydalanish samaradorligi ustidan nazorat tizimi.

Korxonani moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash uchun quyidagilarga batafsil baho berish zarur:

- talab etilayotgan moliyaviy resurslarning hajmi;
- ularning olinish usullari (uzoq muddatli yoki qisqa muddatli kredit va boshqalar);
- moliyaviy resurslarni safarbar etilishi usullari;
- resurslar olinishi imkoniyatlari va vaqti (bu shartnomalar shartlari bilan belgilanadi, moliyaviy resurslar kerakli hajmda va zarur bo‘lgan paytda olinishi lozim);
- mablag‘larning muayyan manbaini jalb etish bilan bog‘liq xatar (korxonani aksiyalarini chiqarib mablag‘lar jalb etilganda, mablag‘lar egalari mablag‘ni korxonadan qaytarib berilishini oddiy vaziyatda talab eta olmaydi, bank krediti esa ba‘zi shartlar bajarilmasa, bank tomonidan muddatidan oldin ham qaytarib olinishi mumkin).

Moliyaviy resurslarni taqsimlashda investitsion xarakterdagi uzoq muddatli va qisqa muddatli qarorlarni tahlil etish va ularga baho berish taqozo etiladi:

- muayyan moliyaviy resurslarni ularning boshqa turlariga (moddiy, mehnat, pul resurslariga) aylantirilishi qanchalik darajada foydali ekanligi;
- asosiy vositalarga qo‘yilmalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligi, asosiy vositalarning tarkibiy tuzilishi.
- aylanma mablag‘larning optimalligi (yaxlit ravishda va turlari bo‘yicha);
- moliyaviy qo‘yilmalarning samaradorligi.

YUqorida ko'rsatilgan barcha yo'nalishlarda moliyaviy qarorlar qabul qilinishida likvidlik, moliyaviy barqarorlik va rentabellik talablarini bir-biri bilan murosaga keltirish zarur bo'ladi. Mazkur talablarni e'tiborga olgan holda uzoq muddatli aktivlarga mablag' solinishi, mablag'lar manbalari boshqarilishi, xatarlar darajasi boshqarilishi zarur bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida qanday ozmi-ko'pmi yirikroq korxonalar moliya bozorlari bilan bog'langan bo'ladi. Bu bog'lanish xilma-xil: kompaniya qimmatli emitenti, investor, qarz oluvchi, chayqovchi va boshqa ko'rinishlarda bozorda ishtirok etadi. Uning moliya bozorlaridagi operatsiyalari moliyaviy dastaklar yordamida amalga oshiriladi. Moliyaviy dastaklar tushunchasini tadqiqotchilar turlicha talqin etadilar. Eng keng tarqalgan talqinda moliyaviy dastaklar moliya bozorlarida savdoga qo'yiladigan uzoq yoki qisqa muddatli investitsiyalar shakllari bo'yicha tuziladigan bitimlar deb qaraladi. SHunday qilib moliyaviy dastaklarga aksiyalar, obligatsiyalar, fyucherslar va boshqa shu kabilar kiradi. Bizning fikrimizcha, moliyaviy dastaklar tushunchasi kengroq talqin etilishi lozim. Moliyaviy dastaklar moliyaviy resurslar qo'lga kiritilishi yoki boshqalarga berilishi paytidagi munosabatlarni rasmiylashtirishga xizmat qiluvchi vositalardir. Bu munosabatlar esa har doim ham bitishuvlar ko'rinishida maydonga chiqavermaydi.

Moliyaviy menejmentda qo'llanadigan usullar va vositalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: umumiyqisodiy, prognoz-tahliliy va maxsus. Ularning barchasi nazorat maqsadlarida ham qo'llanadi.

Birinchi guruhga iqtisodiyotini davlat tomonidan boshqarish doirasida joriy etilgan va davlat tomonidan qat'iy ravishda tartibga solinadigan munosabatlar va vositalar kiradi; kreditlash, qarz operatsiyalari, kassa operatsiyalari, hisob-kitob operatsiyalari, sug'urtalash tizimi, moliyaviy sanksiyalar tizimi, trast operatsiyalari, garov operatsiyalari, transfert operatsiyalar, amortizatsiya ajratmalari tartibi, soliqqa tortish tizimi va boshqalar.

Ikkinchi guruhga moliyaviy rejalashtirish, soliq to'lovlarini rejalashtirish, prognozlash metodlari, omillar bo'yicha tahlil, modellashtirish va boshqalar kiradi.

Ulardan foydalanish korxonada moliyaviy menejment xodimlarining bilimlari, malakasi va tashabbuskorligiga bog'liq bo'ladi.

Uchinchi guruhni korxonada moliyasini boshqarishning maxsus metodlari tashkil etadi: dividend siyosati, moliyaviy lizing, faktoring, franchayzing, fyucherslar, xejlashtirish va boshqa hosilaviy moliyaviy dastaklar.

Moliyaviy boshqarishda axborot bazasi bo'lib birinchi navbatda korxonaning moliyaviy hisobotlari va moliyaviy hisobning boshqa mahsulotlari xizmat qiladi. Ayni paytda moliyaviy boshqaruvni moliya va soliq organlarining, bank tizimining ma'lumotlarisiz, tovar, fond va valyuta birjalarining axborotlarisiz ham tasavvur qilib bo'lmaydi.

Moliyaviy boshqaruv mamlakatdagi huquqiy va normativ bazaga suyanganda holda amalga oshiriladi. Ularga qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va idoralarning o'z vakolatlari doirasidagi buyruqlari, ko'rsatmalari, normalari va yo'riqnomalari, korxonaning ta'sis hujjatlari kiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy menejment fanining shakllanishi omillarini ta'riflang
2. Moliyaviy menejment tushunchasiga xalqaro yondashuvlar qanday rivojlandi?
3. Moliyaviy menejment tushunchasi ga ta'rif bering.
4. Moliyaviy menejmentdagi asosiy konsepsiyalar nimalardan iborat?
5. Modilyani-Miller nazariyasi xulosalarini ta'riflang.
6. SARM modeli qanday farazlarga asoslanadi?
7. Moliyaviy menejmentning vazifalarini ko'rsating.
8. Moliyaviy menejmentning maqsadi nimalarda ifodalanadi?

Testlar

1. Moliyaviy menejment – bu
A) moddiy resurslarni boshqarish;

B) mehnat resurslarni boshqarish;
V) pul kirimi va chiqimini boshqarish;
G) moliyaviy natijalarni maksimallashtirishga intilgan holda moliyaviy-iqtisodiy resurslarni boshqarish.

2. Moliyaviy menejment konsepsiyasi – bu

A) iqtisodiyotdagi umum qabul qilingan tushunchalar;
B) fanning asosiy atamalari;
V) fanning nazariy qismi;
G) moliyaviy qarorlar ishlab chiqishda fundamental asos bo‘luvchi va real voqelikda amal qilayotganligi fanda isbotlab berilgan amaliy ahamiyatga ega nazariy qoidalar.

3. Moliyaviy boshqaruvning vazifalari

A) foydani ko‘paytirish;
B) korxonada pul oqimlari uzluksizligi va balanslanganligini ta‘minlash;
V) korxonada kapitali tarkibini optimallashtirish;
G) barcha javoblar birgalikda to‘g‘ri.

4. Modilyani-Miller nazariyasining xulosalari

A) qarz kapitalning muayyan ulushi firma uchun foydali;
B) qarz kapitaldan haddan ziyod foydalanish firmaga zarar keltiradi;
V) har bir firma uchun qarz kapitalning optimal ulushi mavjud bo‘ladi. G) barcha javoblar birgalikda to‘g‘ri.

5. Moliyaviy boshqaruvni ilmiy asoslashning dastlabki qadamlar

A) 1952 yilda G. Markovitsning maqolasida bayon etilgan zamonaviy portfel nazariyasi;
B) 1963 yildagi Uilyam SHarpning bir omilli modeli (single-factor model);
V) 1978 yildagi Stiven Rossning «Arbitraj baho shakllanish» (Arbitrage Pricing Theory) modeli;
G) 1938 yilda J. Uilyams taklif etgan moliyaviy aktiv qiymatini baholashning modeli.

II BOB. TURLI TASHKILY-HUQUQIY SHAKLDAGI KORXONALARDA MOLIYAVIY MENEJMENT XUSUSIYATLARI

2.1. Korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari

O'zbekistonda butun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda mulkchilikning turli shakllarining teng huquqli ekanligini e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: "Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi", - deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida mulkchilik huquqini amalga oshirish shartlari maxsus belgilab qo'yilgan, bular qo'yidagilardir:

- mulkdorning o'z qonuniy huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi;

- qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hollardagi shartlar asosida va doiralarda mulkdor boshqa shaxslar uning mol-mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yilishi;

- mulkdor o'zining ustunlik mavqeini suiste'mol qilib, boshqa shaxslar huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini kamsituvchi boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqqi yo'qligi;

- mulkdor o'z huquqini amalga oshirish chog'ida fuqarolarning sog'ligiga va atrof muhitga zarar keltirishining oldini olish choralarini ko'rishi shartligi.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan, korxonalar mulk egasi (egalari) yoki u (ular) tayinlagan vakillik organi, mehnat jamoasi yoki muassislar guruhining qarori bo'yicha belgilangan qonun-qoidalarga asosan tashkil qilinishi mumkin.

SHuningdek, korxonalar agar korxonalar mulki egasi yoki u tayinlagan vakillik organining roziligi bo'lsa, faoliyat yuritayotgan korxonalar tarkibidan bir yoki bir nechta tarkibiy bo'linmalarni, ushbu bo'linmalarning mehnat jamoalari tashabbusiga ko'ra, ajratib chiqarish natijasida ham tashkil topishi mumkin.

Korxonalar joriy va hisob-kitob raqamlari ochish va ular to'g'risidagi holatlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan, mustaqil huquqiy shaxs maqomidagi sho'ba korxonalar, filiallar, vakolatxonalar, bo'lim va boshqa tashkiliy bo'linmalarni tashkil qilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar-mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari rejali iqtisodiyot sharoitlaridagidek davlatning o'zigagina tegishli bo'lmaydi. SHu sababli korxonalar:

- ***mulkchilik shakliga*** ko'ra, davlat va nodavlat (xususiy, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar, chet el korxonalar, aralash shakldagi va boshqalar); ***tarmoq belgilariga*** ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo va boshqalar;

- ***ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga*** ko'ra, mikrofirmalar, kichik va yirik korxonalar;

- ***faoliyat miqyosiga*** ko'ra, xalkaro (boshqa davlatlarda filiallarga ega bo'lgan), mamlakat miqyosida faoliyat yurituvchi, lokal, ya'ni bir aholi punktida faoliyat yurituvchi korxonalar;

- ***faoliyat yuritish muddatiga*** ko'ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli;

- ***xo'jalik yuritish shakllariga*** ko'ra korxonalar shaxsiy xamkorlikda faoliyat olib boruvchi (1 kishi yoki oila), mas'uliyatni cheklangan, aksionerlik jamiyatlari (ochiq va yopiq turdagi) va boshqa shakldagi;

- ***faoliyat maqsadlariga*** ko'ra foyda olishni maqsad qilib qo'ygan ishlab chiqarish, tijorat va boshqa korxonalar hamda foyda olish emas, balki ijtimoiy samarani - homiylik, xayriya, beg'araz yordamni maqsad qilib qo'ygan korxonalariga bulinadi.

- ***ixtisoslashuv darajasiga*** ko'ra, korxonalar ixtisoslashgan, universal va aralash korxonalariga bo'linadi. Ixtisoslashgan korxonalar qatoriga nomenklaturasi cheklangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, universal korxonalar qatoriga turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, aralash korxonalar

tarkibiga esa ixtisoslashgan va universal korxonalar o'rtasidagi oraliq guruhni tashkil qiluvchi korxonalar kiritiladi.

- *ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish usullariga* ko'ra, korxonalar ishlab chiqarishning oqim, partiyali va donalab ishlab chiqarish usullari ustuvor turuvchi korxonalarga bo'linishi mumkin.

- *ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasiga* ko'ra, korxonalar to'liq va qisman avtomatlashtirilgan yoki mexanizatsiyalashtirilgan, qo'l-mashina va faqat qo'l mehnatiga asoslangan korxonalarga bo'linadi.

Biroq ushbu belgilardan qat'iy nazar, deyarli har bir korxonada **Ustav** asosida faoliyat yuritadi. Ustavda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi organi va bu organning nomi, Ustav jamg'armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxonada rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatlari, tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi va hokazolar ko'rsatilgan bo'ladi.

Agar Ustavda korxonaning tashkiliy-huquqiy funksiyalari belgilangan bo'lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga asosiy va aylanma fondlar, pul mablag'lari va boshqa aktivlar kiruvchi **Ustav jamg'armasiga** tayanadi. Ustav jamg'armasi qonunga asosan korxonani tashkil qilish jarayonida muassislar - davlat, huquqiy va jismoniy (rezident va norezident) shaxslar tomonidan shakllantiriladi.

Amaldagi qonunchilikka asosan korxonada davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina huquqiy shaxs sifatida tan olinadi. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun birinchi o'rinda quyidagi hujjatlar ahamiyatga ega bo'ladi: muassisning arizasi; korxonaning Nizomi; korxonani tashkil qilish haqida qaror yoki muassislar shartnomasi; davlat bojini to'laganlik haqida kvitansiya va boshqalar.

Korxonada o'ziga xos bo'lgan ma'lum xususiyatlarga ega:

birinchidan, korxonada o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchliligini ta'minlaydi;

ikkinchidan, korxonalar kreditdorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi;

uchinchidan, korxonalar xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xom ashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

to'rtinchidan, korxonalar qonunchilikka asosan sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

beshinchidan, korxonalar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

oltinchidan, korxonalar o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi PF-3305-sonli Farmoniga asosan «o'rta korxonalar» tushunchasi bekor qilindi va 2004 yil 1 yanvardan boshlab quyidagilar kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi:

- **Yakka tartibdagi tadbirkorlar;**

- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan **mikrofirmalar**.

Quyidagi tarmoqlarda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni:

- engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida – 100 kishidan;

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida – 50 kishidan;

- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish

sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlannish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 25 kishidan oshmagan **kichik korxonalar**.

Yirik korxonalar tarkibiga ishlovchilar soni 500 va undan ortiq kishini tashkil qiluvchi korxonalarni kiritish mumkin.

Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarini kengaytirish va chuqurlashtirish mamlakatimizda yangi tashkiliy-huquqiy turdagi - **qo'shma, ijara, aksiyadorlik, xususiy, oilaviy, kooperativ** va boshqa korxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xususiy mulk mulkchilik shaklining boshqa ko'rinishlari bilan bir qatorda daxlsizligi va davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilab qo'yilgan. Yangi qonunchilik hujjatlarida yangi iqtisodiy tushuncha - korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli tushunchasi kiritilgan.

Korxonalarining qonun hujjatlari va boshqa xo'jalik huquqi normalarida ko'zda tutilgan mulkchilik shakli, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va hajmi, kapitalning shakllanishi, turli xil firmalararo uyushmalarga a'zo bo'lish usullari va olib boruvchi raqobatchilik kurashlari bilan farq qiluvchi faoliyat tavsifi va mazmuniga bog'liq bo'lgan strukturaviy tuzilishining usul va ko'rinishlari **xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shaklini** ifodalaydi.

Hozirgi vaqtda mulkchilik shakliga ko'ra davlat, munitsipal, jamoa, individual (oilaviy, xususiy) turdagi korxonalar mavjud bo'lib, ular o'zlariga birlashtirib qo'yilgan mulk tavsifi yoki tezkor (operativ) boshqaruv huquqiga ko'ra ham tasniflanadi.

Xo'jalik faoliyati yurituvchi har bir sub'ekt bir qator huquqlarga ega bo'lib, bular bir tomondan, ularning ichki tashkilotchiligini aniqlab bersa, ikkinchi tomondan, jismoniy va huquqiy shaxslar hamda davlat bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirishda ko'zga tashlanadi.

Korxonalar huquqiy shaklining har bir ko'rinishida ularning egalari, ya'ni xususiy mulk egalari, korxonalar bilan turli darajadagi aloqada bo'ladilar. Masalan, ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati egalari korxonalar mulkining bir qismigagina

egallik qilish huquqiga egalar hamda boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishda ham o'z aksiyalari miqyosida ishtirok etadilar.

Xo'jalik o'rtoqliklarida (masalan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda) esa mulk egasi va mulk yaqinlashtirilgan bo'lib, korxonani boshqarishda ularga bevosita ishtirok etish imkoniyati yaratib berilgan.

Keng tarqalgan korxonalar shakllaridan biri xo'jalik o'rtoqliklari bo'lib, ular ishonch asosidagi to'liq o'rtoqlik (kommandit o'rtoqligi) ko'rinishida tashkil qilinishi mumkin.

Qonunga asosan ishtirokchilari imzolangan shartnomalar bo'yicha tadbirkorlik faoliyati yurituvchi hamda ularga tegishli mulk javobgarligiga ega bo'lgan o'rtoqliklar - to'liq o'rtoqliklar hisoblanadi.

Kommandit o'rtoqligi bir nechta fuqarolar yoki huquqiy shaxslarning o'zaro xo'jalik faoliyati yuritish maqsadidagi shartnomalar asosida birlashuvi natijasida paydo bo'ladi.

Jamiyatlarning ko'pchiligida kapitallar birlashtirilgan bo'ladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ) bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilib, Nizom jamg'armasi hujjatlarda (Nizom va ta'sis shartnomasi) belgilab qo'yilgan ulushlarga bo'lingan bo'ladi.

Bunday jamiyat muassislari jamiyatning majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydilar hamda jamiyat faoliyatida o'zlari kiritgan ulushlar doirasida zarar ko'rishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari keng faoliyat ko'rsatmoqda.

Ustav jamg'armasi aksiyalarga taqsimlangan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati a'zolari jamiyatning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar, biroq o'zlariga tegishli bo'lgan aksiyalar qiymati doirasida zarar ko'rishlari mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlarining ijobiy jihatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

-aksiyadorlik kapitalining teng taqsimlangan, erkin muomaladagi ulushlar - aksiyalarga taqsimlanishi;

- aksiyadorlar jamiyat majburiyatlari uchun javobgarligining aksiyalar qiymati hajmida cheklanganligi;

- aksiyadorlik kapitalining hajmi va a'zolar sonini osonlik bilan o'zgartirish imkonini beruvchi Ustav asosida birlashish; umumiy boshqaruv vazifalarining xo'jalik faoliyatini boshqarish vazifalaridan alohida yuritilishi va hokazolar.

Iqtisodiyotimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanoat ishlab chiqarishini jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan raqobatbardosh korxonalar tashkil qilish maqsadidagi tuzilmaviy qayta qurishdan iborat. Buning uchun integratsiya hamda turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarni vaqtinchalik yoki doimiy ravishda kooperatsiya yoki konsentratsiya asosida birlashtirish amalga oshiriladi.

Kooperatsiya jarayonida konsern, konsorsium, xo'jalik assotsiatsiyasi kabi tashkiliy shakllar vaqtinchalik yoki doimiy ravishda tuzilishi mumkin. Ushbu tuzilmaviy birliklarining mohiyatini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Konsern umumiy manfaatlarga ega hamda shartnomalar, kapital va qo'shma faoliyatda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarining yirik birlashuvini aks ettiradi.

Konsorsium – bu aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarining muvaqqat birlashmasidir.

Konsorsium a'zolarining huquq va majburiyatlari konsorsium to'g'risidagi bitimda belgilab qo'yiladi. Qo'yilgan vazifani bajarish uchun konsorsium ishtirokchilari badallari hisobidan yagona moliyaviy va moddiy fondlar barpo etadilar, byudjet mablag'lari va davlat bankidan kreditlar oladilar. Vazifa bajarilgach, konsorsium tarqaladi. Konsorsiumlarga boshqaruv bo'yicha qo'mitalar, direktorlar kengashi kabilar boshchilik qiladi. Konsorsiumlar aviatsiya, kosmos, kompyuterlar, aloqa kabi yuksak texnologik va katta miqdordagi sarmoyali sohalarda keng tarqalgan.

Konsessiya – bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, ruxsat, yon berish ma'nosini anglatadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yoki tiklash, tabiiy boyliklarni o'zlashtirish maqsadida davlat yoki munitsipalitetga qarashli er

uchastkalari, qazilma boyliklar, mol-mulk, korxonalar va boshqa xo'jalik ob'ektlarini muayyan muddatga va shartlar bilan foydalanish uchun chet ellik investorga davlat nomidan beriladigan ruxsatnoma, ular bilan tuziladigan shartnoma yoki kelishuv. Konsessiyachilik faoliyatida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Konsessiyalar to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinib turiladi.

SHirkat – bu kooperatsiyaning birlamchi bo'g'ini. **Kooperatsiya esa:**

- mehnatni tashkil etish shakllaridan biri, ko'pchilik xodimlar bir mehnat jarayonida yoki o'zaro bog'liq turli mehnat jarayonlarida hamkorlikda ishtirok etadilar;

- guruh mulkchiligiga asoslangan xo'jalik yuritish sharti;

- ma'lum bir mahsulotni o'zaro hamkorlikda tayyorlash bilan band bo'lgan korxonalar o'rtasidagi uzoq muddatli va barqaror aloqalar shakli.

Xo'jalik assotsiatsiyasi jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o'zaro hamkorlik yuritish maqsadida ko'ngilli ravishda birlashuvini anglatadi va unda birlashuvga kiruvchi sub'ektlar o'z mustaqilligini saqlab qoladilar.

Korporatsiyalar umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy sub'ekt - huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig'indisini tavsiflaydi. Ko'pincha ular aksiyadorlik (aksiyadorlik) jamiyatlari shaklida tashkil qilinadi.

Korxonalarining konsentratsiya asosida birlashuvi kartel, sindikat, xolding va moliya-sanoat guruhlari ko'rinishida amalga oshiriladi.

Kartel – bu monopolistik birlashma shakli. Bir tarmoqdagi mustaqil korxonalar narxlar, bozor, ishlab chiqarishning umumiy hajmida har bir ishtirokchining hissasi, ish kuchi yollash, patentlar va boshqa masalalarda o'zaro bitim tuziladi. Bu tuzilmaning maqsadi monopol foyda olishdir.

Integratsining bu shaklida korxonalar mustaqillikni saqlab qolgan holda kooperatsiya asosida birlashadilar.

Sindikat –bu monopolistik birlashmaning bir turi. Ular bir tarmoq korxonalarini huquqiy va ishlab chiqarish mustaqilligini saqlab qolgan holda:

- buyurtmalarni taqsimlash;
- xom ashyo sotib olish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun o'zlarining tijorat faoliyatlarini birlashtirib, yagona idora tuzadilar.

Xoldinglar ishtirokchilarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vazifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shaklini ifodalaydi.

Integratsiya jarayonlarini amalga oshiruvchi korxonalar quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- * resurslardan yanada samaraliroq foydalanishga erishish;
- * kooperatsiya asosidagi aloqalarini yangilash va mustahkamlash;
- * mamlakatdagi korxonalarining tashqi bozorga chiqishi;
- * ishlab chiqarishga investitsiyalarning yangi shakllarini jalb etish;
- * ichki va tashqi bozordagi raqobatda muvaffaqiyat qozonish maqsadida narx va sotish bo'yicha yagona siyosat yuritish.

Trestlar yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo'qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi.

Venchur korxonalar – bu kichik biznesning bir turi bo'lib, ular:

- ilmiy muhandislik ishlarini bajarish;
- yangi texnika, texnologiya, tovar namunalarini yaratish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- tijorat ishini tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- yirik firmalar va davlat ijara kontrakti buyurtmalarini bajarish kabi ishlarni amalga oshiradilar.

Bu vazifalarni ular davlat va yirik firmalar buyurtmasiga binoan kontrakt-bitimlar asosida bajarishadi. Venchur korxonalar texnikaning yangi yo'nalishlarida faollik ko'rsatadi va bu bilan fan-texnika taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi.

Ijara korxona – bu mol-mulkni yollash bo'yicha mulk egasi bilan tadbirkor o'rtasidagi iqtisodiy munosabat.

Ijara shartnomasiga asosan bir tomon (ijaraga beruvchi) ikkinchi tomonga (ijarachi) ma'lum to'lov evaziga va ma'lum shartga ko'ra mol-mulkini vaqtincha foydalanish uchun beradi.

Ijara haqi mulk egasi mol-mulking qiymatiga va keltiradigan daromadga bog'liq bo'lib, o'zaro kelishuv bilan belgilanadi.

Yer, uy-joy, savdo-sanoat binolari, sanoat va savdo korxonalari, mashina va uskunalarni ijaraga berish va olish jahondagi ko'pgina mamlakatlar uchun xosdir.

Bugungi kunda sanoat va boshqa sohalarda ijara korxonalari paydo bo'la boshladi va mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning bir ko'rinishi bo'lib, ijara muddati davrida korxon

Konsalting – bu ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko'rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o'z mijozlariga maslahat xizmati ko'rsatish va texnik loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatdir.

Konsalting firmalarining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun sheriklar tanlash;
- maslahatchilik tashkilotlarining taraqqiy topishiga va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish;
- yagona axborot-so'rovnoma fondini yaratish va yagona reklama strategiyasi (yo'nalishi)ni amalga oshirish yo'li bilan ularning a'zolari faoliyatini umum maqsadlar yo'lida jamlash va hokazo.

Konsalting firmalarining kichik biznes sohasida keng tarqalgan maslahat xizmatlari quyidagilardan iborat:

- barcha mulk shakllaridagi korxonalarni ro'yxatga olish uchun ta'sis hujjatlarni tayyorlash bo'yicha maslahatlar berish;
- marketing bo'yicha izlanishlar o'tkazish;
- xususiylashtirish, aksiyadorlashtirish dasturlarini ishlab chiqish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha maslahat berish;

- reklama strategiyasini ishlab chiqish, reklama materiallarini tayyorlash va ularni tarqatish;

- huquq, moliya va boshqaruv masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

- intellektual mulkni himoya qilish masalasi bo'yicha maslahatlar berish;

- ishchi xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish;

tadbirkorlik va kichik biznesni taraqqiy toptirishga xizmat qiluvchi tadbirlarni o'tkazish;

- firma ish uslubini ishlab chiqish;

- xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasi, madaniyat, atrof-muhitni himoya qilish masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

- investitsiyalarni jalb qilish, imtiyozli kredit olish, zaruriy resurslarni va kapitallarni sotib olish bo'yicha maslahatlar berish va h.k..

Injiniring korxonasi – muxandislik-maslahat xizmatlarni tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda amalga oshiradi.

Bunday korxonasi (firma):

- ishlab chiqarishni ta'minlash;

- mahsulot sotishni uyushtirish;

- ishlab chiqarish ob'ektlarini qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish bilan shug'ullanadi.

Eksport injiniring firmalari boshqa mamlakatlarga xizmat ko'rsatadi, chet eldagi ilmiy g'oyalar va texnik ishlanmalarni xorijda joriy etadi, murakkab va ulkan loyihalarni amalga oshiradi. Injiniring bilan birga mashina va uskunalarni eksport qilib, yetkazib beradi¹.

2.2. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda moliyaviy menejment

Jamoa tadbirkorligi – bu bir guruh fuqarolarning o'zlariga ma'qul bo'lgan mulkchilik shakllarida jamoalarga birlashib, jamoa korxonalarini tashkil qilishlari va shu asosda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlaridir.

¹ Қаранг: М.Р. Болтабоев, М.С.Қосимова, Ш.Ж. Эргашходжаева, Б.К. Ғойибназаров, А.Н. Самадов, Р.Ходжаев. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. Ўқув қўлланма. – Т.: 2010, – 274бет.

Jamoa tadbirkorligi faoliyati firmalar faoliyatida o'z ifodasini topadi. Firma – muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarishga va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, bozordagi talab va taklifga qarab ish tutadigan, iqtisodiy jihatdan erkin va mustaqil korxonadir.

Xususiy firma deganda ayrim shaxs yoki oilaga tegishli bo'lgan, Yakka xususiy mulkka asoslanib faoliyat ko'rsatadigan korxonaga tushuniladi.

SHirkat firma bir necha sohibning mulkini birlashtirish va tadbirkorlikdan olinadigan foydani baham ko'rishga asoslangan sherikchilik korxonasi.

SHirkat firmalarining ikki turi mavjud:

- mas'uliyati cheklanmagan jamiyatlar;
- mas'uliyati cheklangan jamiyatlar.

Mas'uliyati cheklanmagan jamiyatlar ikki yoki undan ko'proq kishilarning mulki asosida yuzaga keladi. SHeriklarning dastlabki mulki firmaning ustav kapitali deyiladi. Bu kapitalga har bir sherik o'z hissasini qo'shadi. Ular ustav fondiga qancha pul qo'ysa, shu hissaga binoan foyda olishadi. Bordi-yu firma sinsa, sheriklar zararni hamjihatlikda ko'taradi, ya'ni bir sherik boshqasining javobgarligini ham zimmasiga oladi. Mas'uliyati cheklanmagan jamiyatda ishtirokchilar jamiyatning majburiyatlari bo'yicha qo'shgan ulushlari bilan, bu etarli bo'lmaganda esa boshqa mulklari bilan ham javob beradilar.

SHirkat a'zolari o'rtasida tuzilgan bitim shirkatning huquqiy asosi hisoblanadi. Bu bitim quyidagi bandlarni o'z ichiga oladi:

- har bir hamkorning vakolatlari;
- bitimning muddati;
- har bir vakilning umumiy ishga qo'shgan ulushi;
- daromadlar va yuz berishi mumkin bo'lgan zararlarni o'zaro bo'lish yo'l-yo'riqlari;
- uyushma mablag'laridan har bir hamkorning olishi mumkin bo'lgan aniq va belgilangan pul hajmi;
- uyushmada amalga oshirish zarur bo'ladigan moliyaviy ishlar tartibi;
- yangi hamkorni qabul qilish tartibi;

- shirkatni tarqatib yuborish tartibi.

SHirkatga davlat, kooperativ, jamoa va boshqa tashkilotlar, shuningdek, xorijiy tashkilotlar va fuqarolar ham qonun yo‘l qo‘ygan hollarda a‘zo bo‘lishi mumkin.

Mas’uliyati cheklangan shirkat firmalarning ustav fondi faqat ta’sischi mablag‘ (aksiya)lari hisobiga barpo etiladi. Jamiyat qatnashchilari o‘zlarining qo‘shgan ulushlari doirasida javobgar bo‘ladi. Jamiyat o‘z faoliyati uchun ustav fondi miqdorida javobgar hisoblanadi. Har qanday zarar, xavf-xatar va tadbirkorlik risklari jamiyat a‘zolari o‘rtasida ularning ulushiga mutanosib tarzda taqsimlanishi mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi korxonalar ta’sischi mablag‘larining individual zararlarini darajasini yoki bankrot bo‘lish ehtimolini pasaytiradi.

Mas’uliyati cheklangan shirkat firmalar nomiga «limited» so‘zi qo‘shiladi, bu inglizcha so‘z bo‘lib, «cheklangan» ma’nosini bildiradi.

Mas’uliyati cheklangan firmaning bir qator turlari mavjud. Ularning eng keng tarqalgan shakli korporatsiyalardir. Mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi kichik korxonalar yirik kompaniyalarga nisbatan bozor sharoitiga tez moslashish xususiyatiga hamda ishlab chiqargan mahsulotlarini bozorda muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlashda bir qancha ustunliklarga ega. Chunki, kichik korxonalar o‘z faoliyatlarini tor ishlab chiqarish dasturlariga, ilg‘or texnologiyaga, kam turkumli ilm-fan talab qiladigan mahsulotlar chiqarishga tezda moslaydilar hamda bozor asoslarini tez o‘zlashtirib boradilar.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi kichik korxonalar xususiyatlari (muomala kapitalining kichikligi, uning tez aylanuvchanligi, ishlab chiqarish vositalarini tezda almashtirish imkoniyatlari va b.) uning bir qancha afzalliklarga ega bo‘lishi imkoniyatlarini yaratadi:

- izlanish, yangi mahsulotlarni maromiga etkazish va o‘zlashtirish, ularni talabning tez o‘zgarib turishi xatarini hisobga olgan holda kichik uyushmalarda ishlab chiqarish;

- tezkor texnik servisning ishonchliligi va iste’molchilar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish;

- ishlab chiqarishni moslashuvchan tarzda tashkil etish va mahsulot sotishni bozor talablariga hamda bozor vaziyatlari o'zgarishlariga muvofiq olib borish;

- ortiqcha ish kuchini o'ziga singdirish;

- boshqarishning oddiyligi, katta ma'muriy apparatning yo'qligi, qurilish va loyiha quvvatlarini o'zlashtirishda qisqa muddat, kapital sarflarining tez o'zini oqlashi, kapital aylanmasida yuqori tezlik;

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda moliyaviy menejmentni tashkil etishning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- korxonalarini shakllantirishni nisbatan soddaligi va tezkorligi;

- muomala kapitalining kichikligi va tez aylanuvchanligi;

- ishlab chiqarish vositalarini tezda almashtirish imkoniyatlari;

- bozor kon'yukturasiga mos ravishda tovarlarni ishlab chiqarishga tez moslashuvchanligi;

- har qanday zarar, xavf-xatar va tadbirkorlik risklari jamiyat a'zolari o'rtasida ularning ulushiga mutanosib tarzda taqsimlanishi;

- moliyaviy menejmentning moliyaviy qarorlar qabul qilishida aksionerlik jamiyatlariga nisbatan mustaqillik va erkinlik darajasini yuqoriligi.

2.3. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment

Aksiyadorlik jamiyatlarda moliyaviy menejmentni tashkil etishda avvalo mazkur shakldagi korxonalarining tashkiliy-huquqiy jihatlari va ulardagi moliyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish va faoliyatini tashkil qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunda ifodalangan. Ushbu qonunning 2-moddasiga muvofiq:

Ustav jamg'armasi muayyan miqdordagi aksiyalarga bo'lingan hamda jamiyatning aksiyadorlar oldidagi majburiyatlari aniq belgilangan xo'jalik yurituvchi sub'ekt - **aksiyadorlik jamiyati deb ataladi.**

Aksiyadorlik jamiyati mavjud korxonalarni qayta tashkil etish yoki yangisini barpo etish yoʻli bilan taʼsis etilishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyati huquqiy shaxs boʻlib, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoyalash toʻgʻrisida"gi va boshqa qonunlar, shuningdek taʼsis hujjatlari asosida ish olib boradi.

Yuridik va jismoniy shaxslar aksiyadorlik jamiyatining muassislari boʻla oladilar. Jamiyatning ustav fondi ular tomonidan tuzilgan taʼsis shartnomasi asosida shakllantiriladi. SHartnomada aksiyadorlik jamiyatini barpo etish yuzasidan birgalikdagi faoliyat tartibini, ishtirokchilarning aksiyalarga yozilgan shaxslar va uchinchi shaxslar oldidagi maʼsuliyatini belgilab qoʻyiladi.

Jamiyat jamlangan kapitaliga qarab maxsus qimmatli qogʻoz – aksiya chiqaradi. Aksiyani sotib olganlar hissadorlarga aylanishadi va foydadan oʻz hissasi – dividendni olib turadilar. Aksiyadorlik jamiyati oʻz majburiyatlari boʻyicha oʻziga tegishli butun mol-mulk bilan javobgar hisoblanadi. Aksiyadorlar jamiyati majburiyatlari boʻyicha javobgar emas va uning faoliyati bilan bogʻliq zararlar uchun faqat oʻzlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida javobgar hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi aksiyadorlar sotib olgan aksiyalarning nominal qiymatlaridan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil boʻlishi lozim. Aksiya boʻlinmas hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatini taʼsis etishda uning jami aksiyalari taʼsischilar orasida tarqatilishi kerak.

Aksiya fond birjalarida muomalada boʻladi, bir shaxsdan boshqasiga erkin oʻtadi va aksiyalar uchun uning hissasi toʻgʻrisidagi hujjat hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatini:

- aksiyadorning umumiy majlisi;
- kuzatuv kengashi;
- ijro organi boshqaradi.

Aksiyadorlarning umumiy majlisi oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, u aksiyadorlik jamiyati faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilish huquqiga ega.

Aksiyadorlik jamiyatida umumiy yig'ilishlar o'rtasidagi muddatda hissadorlar manfaatlarini ifodalash va ustavda ko'zda tutilgan vazifalarni bajarish uchun aksiyadorlik jamiyatining kengashi (kuzatuv kengashi) tuziladi.

Kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlik ahamiyati ijroiya organining a'zolari bo'la olmaydilar.

Ustavda ko'zda tutilgan boshqaruv organi aksiyadorlik jamiyatining ishini tashkil etadi, umumiy yig'ilishga yillik hisobotini taqdim etadi.

Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi bevosita umumiy yig'ilish va kengashi (kuzatuv kengashi) vakolatiga taalluqli masalalardan tashqari barcha masalalarni hal qiladi.

Boshqaruv ishiga uning raisi rahbarlik qiladi. Rais aksiyadorlik jamiyati Ustaviga binoan tayinlanadi yoki saylanadi. Rais jamiyat nomidan harakatlarni ishonch qog'ozisiz bajara oladi.

Jamiyat boshqaruvining moliya-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni taftish komissiyasi amalga oshiradi. Aktivlar qiymati 1 milliard so'mdan ortiq jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi oshiradi. Moliya-xo'jalik faoliyatining tashqi auditi manfaatlari jamiyat va uning aksiyadorlari bilan bog'lanmagan mustaqil auditor tomonidan bir yilda kamida bir marotaba o'tkazilishi kerak. Moliyaviy hisobot taftish komissiyasi va tashqi audit tomonidan tasdiqlangach, ochiq matbuotda e'lon qilinishi lozim.

Aksiyadorlik shaklidagi tadbirkorlikning quyidagi afzalliklari bor:

- aksiyadorlik jamiyati – bu biznesning ko'proq demoqratik shaklidir. Unga xohlagan kishi bevosita yoki obuna bo'lish yo'li bilan aksiyani sotib olib, a'zo bo'lishi va mulk egasiga aylanishi mumkin;

- vaqtincha bekor turgan sarmoyalar markazlashuviga erishiladi;

- nisbatan samarali sohalarga kapital oqimini tashkil qilish imkoniyati tug'iladi;

- davlat mulkini xususiylashtirish imkoniyatlari kengayadi;
- moliyaviy barqarorlikka erishiladi;
- tadbirkorlikda tavakkalchilik xavfi kamayadi (hissador o'z aksiyasi miqyosida ziyon ko'rsa, korxonaga egasi butun mulkidan ajraladi);
- bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchilar, tovar yetkazib beruvchilar, haridorlar va mahalliy davlat organlari manfaatlarining o'zaro muvofiqlashuviga erishiladi.

Aksiyadorlik jamiyati har yili ommaviy axborot vositalarida:


- yillik hisobotni;
- buxgalterlik balansini;
- foydalar va zararlar schyotini;
- jamiyat aksiyalari emissiyalari prospektini;
- umumiy majlisni o'tkazish sanasi va joyini ma'lum qilib turishi shart.

Aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish uchun quyidagilar zarur:

- jamiyatni tashkil etish va birgalikda faoliyat ko'rsatish hamda bir yoki bir necha shaxsga jamiyatni tashkil etish uchun vakolat berish to'g'risida shartnoma tuzish;
- aksiyalarga obuna o'tkazish;
- ta'ris konferensiyasini o'tkazish;
- jamiyat va uning aksiyalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Jamiyatni tashkil etishdagi xarajatlar shartnomaga imzo chekkan shaxslarga taqsimlanadi.

SXEMA № 2.1



Davlat mulkini xususiylashtirish orqali quyidagi usullarda AJ tashkil etilishi mumkin:

- oddiy yo‘l bilan, ya’ni bunda fuqarolar yopiq yoki ochiq AJ larining ob’ektlarini auksion orqali yoki konkurs yo‘li bilan sotib olishadi;
- davlat korxonasi mehnat jamoasi tomonidan yopiq AJ ni tashkil etadi va ma’lum yuridik shaxs tomonidan korxonani sotib olinadi;
- davlat yoki ijara korxonalarini ochiq AJ lariga aylantiriladi.

Barcha jamoa korxonalarini uchun quyidagi umumiy jihatlari mavjud:

- nizom kapitalining tegishli bo‘laklarga yoki aksiyalarga majburiy bo‘linishi;
- jamiyatning o‘z majburiyatlari va faqat o‘zining mulki bo‘yicha cheklangan javobgarligi;
- aksiyador (sharik)lar orasidagi o‘zaro munosabatlar, daromad va mulkni taqsimlash, korxonani boshqarish bo‘yicha munosabatlar ularning kiritgan ulushlari miqdoriga qarab taqsimlanadi;
- jamiyat a‘zolari uning kapitaliga o‘z ulushlarini kiritishlari zarur, ammo o‘z mehnatlari bilan uning faoliyatida ishtirok etishlari majburiy emas.

Ustav fondi teng nominal qiymatdagi aksiyalarning muayyan miqdoriga bo‘linadi. Jamiyat, ustav fondi natija shaklidagi mol-mulk berilganidan tashqari hollarda, agar ilgari chiqarilgan aksiyalar nominal qiymatidan kam bo‘lmagan qiymat bo‘yicha tamomila to‘langan bo‘lsa, o‘z ustav fondini oshirish huquqiga ega.

Ustav fondini ko‘paytirish aksiyalar nominal qiymatini oshirish va yangi aksiyalar chiqarish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ustav fondini qisqartirish aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarni bekor qilish maqsadida egalik qiluvchilardan sotib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik jamiyatini boshqarishning eng asosiy hujjati ularning ustavi hisoblanadi. Jamiyatning ustavini aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi ko‘rib chiqadi va uni tasdiqlaydi. Ustavda jamiyat faoliyati asosiy qoidalari, vazifalari, majburiyatlari, boshqarish organlari va moliyaviy boshqarish organlari ko‘rsatiladi.

Aksiyadorlik jamiyati ustaviga binoan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi hissadorlarning yarmidan ko'pi ishtirok etganlari taqdirdagina vakolatli hisoblanadi. Umumiy yig'ilshlarda ovoz berishga bir aksiya bir ovoz qoidasi bo'yicha o'tkaziladi.

Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, uning ustavini o'zgartirish masalalariii hal qilish uchun barcha aksiyadorlarning roziligi zarur bo'ladi. Boshqa barcha masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentni tashkil etishda moliyaviy menejerlar jamiyatning Ustav fondi korxonaga passivining juda muhim qismi ekanligiga alohida e'tibor qaratishlari lozimdir. Albatta passivdagi o'z mablag'lari manbalari tarkibidagi boshqa elementlar ham muhim ahamiyatga ega. Ularga avvalo, qo'shilgan kapital va taqsimlanmagan foyda kiradi. Qo'shilgan kapital mazmunan ustav fondiga juda yaqin turadi. Qo'shilgan kapital aksiyadorlarning nominaldan yuqoriroq bahoda sotilishi natijasida hosil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan mazkur tafovut aksiyadorlik jamiyatining daromadi deb emas, balki kapitalining bir qismi deb qaraladi. SHuning uchun qo'shilgan kapitalni aksiyadorlar o'rtasida daromad sifatida taqsimlanishi mumkin emas hamda xuddi ustav fondi singari korxonaga mablag'lari barlamchi manbaini ifodalaydi.

Taqsimlanmagan foyda ham korxonaga o'z mablag'lari manbaidir. U korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati natijasida hosil bo'ladi va real ravishda korxonaga o'z kapitalining bir qismi sifatida maydonga chiqadi. SHu bilan birga, taqsimlanmagan foyda daromad sifatida taqsimlanishi yoki zararlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin. Bu hol uni o'z kapitalini shakllantirishning nisbatan beqaror manbaiga aylantiradi.

Korxonaga o'z kapitali tarkibida taqsimlanmagan foyda ulushining katta ekanligi, bir tomondan, korxonaga muvoffaqiyatli faoliyat olib borayotganligini, olingan foydani daromad sifatida istemolga emas, balki korxonani yanada rivojlantirishga yo'naltirayotganligini ifodalasa, ikkinchi tomondan, uni iste'mol

maqsadlariga ishlatilishi ehtimoli kuchli ekanligi tufayli kreditorlar manfaatlarini nuqtai nazaridan u ustav fondi va qo'shilgan kapital singari ayniqsa uzoq muddatli davr uchun ishonchli manba bo'la olmaydi,.

Aksiyadorlik jamiyati aksiyalari sotilishining birlamchi va ikkilamchi bozorlarini farqlaydilar. Birlamchi bozor aksiyalar muomalaga dastlab chiqarilishidagi ularning sotilishidir. Bu holda jamiyat ta'sis etilayotganda muassislar aksiyalarni nominal qiymati bo'yicha baholarda sotib oladilar. Aksiyalar qo'shimcha emissiyasida bozor bahosida sotiladi. Lekin, yuqorida qayd etilganidek, aksiyadorlarning qo'shimcha emissiya aksiyalarini imtiyozli sotib olish huquqi doirasida, aksiyadorlarga qo'shimcha aksiyalar ularning ustav fondidagi ulushiga mutanosib ravishda sotilishi mumkin. Ta'kidlash lozimki, aksiyalar bozor bahosi birlamchi bozorda ularning nominal qiymatidan past bo'lishi mumkin emas. Chunki, bu korxonaning real qiymati uning shakllanishi lozim bo'lgan ustav fondidan kamroq bo'lishiga olib keladi, ya'ni korxonaning vujudga kelishi bilan bankrotlik alomatiga ega bo'ladi.

Aksiyalarning ikkilamchi bozordagi baholari birinchi navbatda kutilayotgan dividendlarga, qolaversa korxonaning bozordagi mavqei, moliyaviy-iqtisodiy ahvoli, jamiyatdagi nufuzi (ijtimoiy ahamiyati), kelajagi va boshqa omillarga bog'liq. Albatta, dividendlar darajasi aksiya bahosini belgilovchi eng muhim omildir. SHuning uchun moliyaviy menejerlar o'z faoliyatida jamiyat aksiyalarini qiymatini oshirishga erishishni asosiy vazifa deb bilishlari kerak. Aksiyalar bozori birja bozori va birjadan tashqari bozorga bo'linadi. Fond birjasida asosan birja ro'yxatiga kirgan aksiyalar, ya'ni yirik va ishonchli kompaniyalar va korxonalarining aksiyalari oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Birja ro'yxatiga kiritilish har qanday kompaniyaning katta muvaffaqiyati hisoblanadi. Chunki, ro'yxatga kiritishdan oldin kompaniyaning moliyaviy ahvoli har tomonlama tahlil etiladi. Buni birja huzuridagi ekspert komissiyasi amalga oshiradi. Korxonaning aksiyalarining fond birjasida sotuvga qo'yilishi – kompaniyaning yuksak obro'sidan darak beradi va uning reklamasi bo'lib xizmat qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning maqsadi korxonaning yoki uning foyda markazi bo'lgan alohida ishlab chiqarish – xo'jalik zvenolarining maqsadga erishishi uchun moliyaviy usullar, vositalar va mexanizmlarni ishlab chiqish va qo'llashdir.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- aksiyadorlik jamiyatlarida moliya menejeri jamiyat bilan tuzilgan shartnoma asosida korxonaga pul oqimlarini boshqaradi;
- moliya menejeri o'z faoliyatini faqat aksionerlik jamiyatlariga oid bo'lgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib boradi;
- moliyaviy menejer o'z faoliyatini yilning natijalariga ko'ra korxonaga sof foydasini oshirishga qaratadi, chunki pirovardida korxonaning kelajagi erishilgan sof daromadga qarab belgilanadi;
- Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri - bu korxonaga aksiyalarini qimmatli qog'ozlar bozori va fond birjalaridagi bahosini oshirish va ularning emission harakatini boshqarish zarurligidir.

2.4. Notijorat tashkilotlarida moliyaviy menejment

Notijorat tashkilotlarda moliyaviy menejmentni tashkil etilishini tadqiq qilishda, avvalambor, notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining moliyaviy manbalarini shakllanishini o'rganib chiqish muhim ahamiyatga ega. Notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishi ikki omilga bog'liq bo'ladi.

1. Ko'rsatayotgan xizmatlar ko'rinishi.
2. Iste'molchiga yetkazib berilishi usuli (pullik yoki bepul).

Moliya iqtisodiy munosabatlarida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Uning o'ziga xosligi shundayki, u doim pul shaklida keladi, taqsimot xarakteriga ega va

moddiy ishlab chiqarish sohasi qatnashchilarining turli daromad va jamg'armalarining shakllanishi va ishlatalishini aks ettiradi.

Hozirgi kun tajribasi dalolat bermoqdaki, ayrim xizmatlar to'raligicha tekinga amalga oshirilsa, ayrimlari to'raligicha pullik xizmat sifatida ko'rsatiladi va yana ma'lum xizmatlar mavjudki, ular xam tekinga xam pullik usullarini o'zida aks ettiradi.

Masalan davlat boshqaruv organlari va mudofaa xizmati xodimlarining xizmatlarini iste'mol qilayotgan har bir yuridik va jismoniy shaxs tekinga foydalanish imkoniyatiga egadirlar. Mazkur muassasalar moliyaviy resurslarining shakllanish manbaini esa davlat byudjet mablag'lari tashkil etadi.

1. *Iqtisodietning notijorat sektorining salmoqli qismi ijtimoiy va madaniy tadbirlarni amalga oshiruvchi korxonalar hisobiga to'g'ri keladi. Bular behisob rang-barangdir. Demak, moliyaviy resurslar manbalari xam turlicha.*

Notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar moliyaviy manbalarining tarkibi:

- Davlat byudjeti mablag'lari.
- Aholiga va boshqa iste'molchilarga ko'rsatilgan pullik xizmatlardan daromadlar.
- Xayrixohlik badallari va tekinga berilgan material boyliklar.
- Boshqa daromadlar.

Barcha manbalardan shakllangan pul resurslari korxonaning moliyaviy resurslarini tashkil etib, quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi.

1. Ish haqi to'lash.
2. Materiallar va shunga tenglashtirilgan xarajatlar.
3. Boshqa tashkilotlar bilan hisob-kitoblar.
4. Iqtisodiy ragbatlantirish fondlarini tashkil etishga va boshqalar.

Barcha notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, agarda ular mustaqil balansga va hisob-kitob raqamiga ega bo'lsa, bank kreditlaridan foydalanish huquqiga egadirlar.

Iqtisodiyotning notijorat sektorida faoliyat ko'rsatayotgan xujalik sub'ektlarining moliyaviy resurslarni jalb qilishi va foydalanishi turli xil bulib, u xo'jalik yuritish usuliga bog'liqdir. Ular asosan smetali moliyalashtirish va to'lik o'z-o'zini koplash bilan farqlanib turadi.

Smetali moliyalashtirishda, moliyaviy resurslarning asosini davlat byudjeti mabagag'lari tashkil etadi.

Nodavlat notijorat faoliyat ko'rsatayotgan muassasalar moliya rejalarini mustaqil ravishda ishlab chiqadilar. Agarda korxonalar bevosita byudjetdan moliyalashtirilsa, moliya rejasini smeta xarajatlari usulida tuzadilar. Agarda tashkilot nafaqat davlat byudjeti hisobidan, balki boshqa manbalar hisobidan ham moliyalashtirilsa, xarajatlar va daromadlar smetasini ishlab chiqadi. Smeta rejasida tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar moliya rejasidagiga qaraganda ham smetaning xarajatlar qismi chuqurroq asoslab berilishi talab etiladi.

Muassasalar smeta rejasini tuzishda dastlabki ma'lumotlar sifatida nazorat raqamlaridan va iqtisodiy normativlardan foydalanishadi.

Nazorat raqamlari ma'lum bir korxonada faoliyatining xususiyatini, rivojlantirish istikbolini belgilovchi ko'rsatkichlardir.

Masalan, o'quv muassasalarida o'rtacha o'quvchilar soni, o'quvchilar va studentlar, stavkalar miqdori (maktablarda o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlarida esa professor-o'qituvchilar).

Sog'likni saqlash muassasalarida koykalar soni, vrachlar va kichik tibbiy xodimlarning stavkalari va boshqalar.

Yig'ma xarajatlarda quyidagilar ko'rsatiladi:

- Material va shunga tenglashtirilgan xarajatlar.
- Ish haqi fondi.
- Ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlantirish fondi.
- Moddiy rag'batlantirish fondi.
- Boshqa fondlar va rezervlar.

Yig'ma daromatlarda quyidagilar ko'rsatiladi:

- Byudjetdan moliyalashtirish.

- Aholiga qo‘shimcha pullik xizmatlar.
- Yuridik shaxslarga shartnoma asosida xizmat ko‘rsatish.
- Bino va boshqa jihozlarini ijaraga berishdan shakllangan tushum.

2.5. Xususiy (kichik) korxonalarda moliyaviy menejment

O‘zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuniga binoan tadbirkorlikning quyidagi shakllari mavjud:

- Yakka tartibdagi tadbirkorlik;
- jamoa tadbirkorligi;
- mikrofirma va kichik korxonalar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (Yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqsiz, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq tufayli o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunlarda, nikoh shartnomasida yoki er-xotin o‘rtasidagi o‘zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, erning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Jamoa tadbirkorligi - Jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatidir. Tadbirkorlikning bu shakli er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat, yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo‘jaligini nazarda tutadi.

Er-xotinga umumiy birgalikdagi mulk huquqida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, ish muomalalarida er-xotin nomidan erning yoki xotinning roziligi bilan ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik Yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilayotganda tasdiqlanishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyati ob'ekti sifatida uy-joydan foydalanish bilan bog'liq oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, uy-joy mulkdorlaridan birining ish muomalalariga kirishishi oilaning voyaga etgan boshqa a'zolarining notarial tasdiqlangan roziligi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar faqat Yakka tartibdagi tadbirkorlar tariqasida davlat ro'yxatidan o'tganlaridan keyin ular birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat shartnomasi taraflari bo'lishlari mumkin.

Dehqon xo'jaligi va oddiy shirkatni tuzish, ularning faoliyat yuritishi va faoliyatini tugatish bilan bog'liq munosabatlar qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Yuridik shaxs tashkil qilmay, o'z faoliyatini amalga oshiradigan tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxsga davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma beriladi va u jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish reestrda qayd qilinadi. Ushbu guvohnoma bankda hisob-kitob varag'i ochish, soliq organlaridan ro'yxatdan o'tish, muhr va boshqa rekvizitlarni tayyorlash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida xususiy korxonalar asosiy o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi"gi Qonunga muvofiq tadbirkorlik daromad yoki foyda olish uchun o'z mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida amalga oshiriluvchi tashabbuskor xo'jalik faoliyatini anglatadi.

Xususiy tadbirkorlikning mulki uning o'z mol-mulki asosida yoki davlat, kooperativ yoxud bo'lak korxonalar mulkining hammasi yoxud bir qismi fuqaroning mulki sifatida unga o'tishi yoki sotib olinishi, ijara mulkini sotib olish yohud uni qonunda ko'zda tutilgan boshqa usullar bilan shaxsii jamg'armalar, bank qarzlari asosida, davlat mulki va jamoat taitkilotlari mulkidan tadbirkorlikning foydalanish

yohud yuqorida ko'rsatilgan usullarini o'yg'unlashtirilgan holda qo'lga kiritish oqibatida yuzaga keladi.

Xususiy korxonalar yuridik shaxs hisoblanadi, o'z mustaqil balansiga, muhriga va hisob raqamiga ega bo'ladi. Uzi joylashgan yerdagi tuman shahar va shahardagi tuman hokimligida davlat ro'yxatidap o'tkazilgan kundan boshlab yuridik shaxs maqomini oladi. Yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat yuritish istagini bildirgan tadbirkor o'z turar joyidagi tuman, shahar va shahardagi tuman hokimligiga ariza beradi. Xususiy korxonalar o'z faoliyatlarida tarmoq korxonalariga va vakolatxonalariga ega bo'lishi mumkin. Xususiy korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan korxonalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Xususiy korxonalar xodimlarni yozma ravishda o'zaro tuzilgan hamda tomonlarning huquq, majburiyatlari bayon etilgan mehnat shartnomasi asosida ishga yollaydi. Mehnat shartnomasi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

-malaka yoki muayyan mutaxassislik, lavozim bo'yicha vazifalarini bajarish majburiyati:

-shartnoma amal qiladigan muddat;

-mehnat sharoitlari va ish haqi, ijtimoiy va tibbiy sug'urta ijtimoiy ta'minot tartibi;

-xodimning ijtimoiy jihatdan himoyalash;

-mehnat shartnomasini buzganlik uchun javobgarlik;

-tomonlar roziligi bilan belgilanadigan boshqa ma'lumotlar.

Asosiy va aylanma mablag'lar, shuningdek korxonaning mustaqil balansida qiymati ifodalangan boshqa boyliklar xususiy korxonalar mulkini tashkil etadi.

Mulkdorning pul va moddiy ajratmalari, xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar, banklar va boshqa qarz beruvchidan olingan qarzlilar, qimmatbaho qog'ozlar harakatidan yoxud ularni sotishdan olingan daromadlar; meros tariqasida, almashtirish va sovg'a qilish yo'li bilan, shuningdek O'zbekiston

Respublikasi qonunlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalardai tushgan moltiplik xususiy korxonalar mulkini- shakllantirish manbalari bo'lishi mumkin.

Xususiy korxonalar o'z majburiyatlari bo'yicha mulkdorga xususiy va shaxsiy mulk huquqida tegishli bo'lgan mulk bilan javobgar bo'ladi.

U o'z ishlab chiqarishi va kapital qurilishini iqtisoslashgan ta'minot-savdo tashkilotlari, birjalar, yarmarkalar, kim oshdi savdolari xizmatidan foydalanib yoki bevosita ishlab chiqaruvchilar bilan munosabatga kirishib, shuningdek chetdan keltirish yo'li bilan moddiy-texnika jihatidan mustaqil ta'minlaydi.

Davlat xususiy tadbirkorlikning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi, erkin holda raqobat uchun shart-sharoitlarni yaratadi, moddiy-ashyoviy, moliyaviy, axborot va boshqa resurslarga erishuvning teng imkoniyatlarini ta'minlaydi, bunda ularning bozorga Yakka egaligiga yo'l qo'ymaydi. Davlat yoki boshqa idoralar tomonidan o'z vakolatiga yoxud qonun talablariga nomuvofiq qarorlar qabul qilingan va bu xususiy tadbirkor haq-huquqlarini cheklashga sabab bo'lgan hollarda u bunday hujjatlar haqiqiy emas deb e'tirof etilishi so'rab sudga murojaat qilish huquqiga ega. Davlat idoralari yoxud ularning mansabdor shaxslarining ko'rsatmalarini amalga oshirish va uning huquqlariga daxl qilish natijasida tadbirkorga etkazilgan zararlar bu idoralar tomonidan qoplanishi kerak.

Bank bilan xususiy korxonalar o'rtasidagi munosabatlar shartnomaviy xarakterga ega. Xususiy korxonalar mijoz sifatida o'ziga kredit hisob-kitob va kassa xizmatini ko'rsatadigan bankni mustaqil taplaydi.

Banklar kreditning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash borasida mijozlarning garovlarini, kafolatlarini, ishonchnomalarini va boshqa shakldagi majburiyatlarni qabul etadi.

Xususiy korxonalar va Yakka tartibda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi asosida soliqlar to'laydilar.

Xususiy korxonalar va Yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar o'zlari joylashgan joyidan soliq idoralariga har oy yozma ma'lumot beradilar.

Moliyaviy menejment tadbirkorlik tuzilmasi faoliyatini to'raligicha yoki alohida qismini moliyaviy jihatdan boshqaradi.

Tadbirkorlik tuzilmasining moliyaviy menejmenti uchun qo'yidagilar xos:

- mahsulot ishlab chiqarish, sotish va xizmatlar ko'rsatish darajasini bozor talablari asosida optimallashtirish;
- o'z kapitalini joylashtirish;
- uzoq muddat davomida o'z kapitalidan va unga tenglashtirilgan kapitaldan foydalanish;
- o'z iqtisodiy faoliyati bo'yicha majburiyatlar olish, shartnomalar bitimlar tuzish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish;
- ishlab chiqarish dasturini tashkil etish va o'zining ishlab chiqarayotgan mahsuloti bo'yicha sotuvchi va iste'molchilar bilan aloqalar bog'lash;
- bahoni shakllantirish;
- ish haqi fondini belgilash va tartibga solish, xodimlarni rag'batlantirish.

Moliyaviy menejning malakasi, korxonada faoliyati ichki va tashqi sharoitlardagi o'zgarishlarni tez payqay olishi muhim ahamiyatga ega. Jamiyatdagi sog'lom muhit ham moliyaviy menejment samaradorligini oshiradi.

Tadbirkorlik jarayonida moliyaviy menejer pul resurslari fondini tashkil etish va pul oborotini tartibga solishda ma'lumotlar bazasini doimiy ravishda o'zgartirib turishi lozimdir. Bundan tashqari doimiy ravishda iqtisodiy qonunchilikni o'zgarishini ham hisobga olish kerak. (soliq sohasida, to'lov hisob-kitoblar, kredit, baho va boshqalar).

Moliyaviy menejment, bir tomondan, yuqori raqobat pozitsiyasini yaratishga harakat qiladi, ikkinchi tomondan esa yuqori raqobat pozitsiyasiga tayanib, yuqori foydaga erishishga, korxonada moliyaviy ahvolini yanada yaxshilashga intiladi. Yuqori raqobat pozitsiyasi strategik maqsadlarga, ya'ni firmani moliyalashtirish manbalarini ta'minlashga, moliya bozorida alohida o'rin egallashga, kredit olishga, qo'shimcha aksiya va obligatsiyalar chiqarishga imkoniyat yaratadi.

2.6. Qo'shma korxonalarda moliyaviy menejment

Qo'shma korxonalar o'zaro manfaatdorlik negizida, hukumatlararo shartnomalar asosida tashkil qilinib, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va boshqa vazifalarni echishga qaratilgan. Ular sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, savdo, fan va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida tarkib topishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda qo'shma korxonalar muhim rol o'ynaydi. "CHet el investitsiyalari, xalqaro birlashmalar va tashkilotlar ishtirokidagi korxonalarni, shuningdek ularning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va bu korxonalarining faoliyat tartibi to'g'risida"gi nizomga binoan mulkida o'zbek va chet el huquqiy shaxslari hamda fuqarolari ishtirok etuvchi korxonalar O'zbekiston Respublikasi hududidagi qo'shma korxonalar hisoblanadi.

Qo'shma korxonalarni qo'yidagi yo'llar bilan tashkil etish mumkin:

- yangi huquqiy shaxsni tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasining ishlab turgan korxonasida chet el huquqiy shaxslari va fuqarolari tomonidan hissa sotib olish;
- O'zbekiston Respublikasi huquqiy shaxslari va fuqarolari tomonidan xorijiy korxonada hissa sotib olish yo'li bilan tashkil etish.

Qo'shma korxonalar bevosita O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sub'ektlari va xorijiy ishtirokchilar tomonidan tashkil etiladi.

Bir yoki bir necha O'zbekiston huquqiy shaxslari va fuqarolari hamda bir yoki bir necha xorijiy huquqiy shaxslar va fuqarolar qo'shma korxonaning ishtirokchilari bo'la oladilar. Qo'shma korxonani ustav fondi O'zbekistonlik va xorijiy ishtirokchilarning hissalarini ular o'rtasidagi kelishuv bo'yicha belgilanadi.

Hissalar, paylarni bir-biriga berish, shuningdek ularni uchinchi shaxsga berish qo'shma korxonaning ishtirokchilari tomonidan amaldagi qonunlarga binoan hal qilinadi. Xorijiy ishtirokchilar hissalarini yoki paylarini sotib olishda O'zbekistonlik ishtirokchilar ustun huquqqa ega bo'ladilar.

Qo'shma korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etishda korxonaning Nizom jamg'armasidagi chet ellik investorlarning ulushiga proporsional ravishda dividend hisobini yuritish, eksport-import operatsiyalari bo'yicha narxlarni real

belgilanishi ustidan nazorat oʻrnatish, chet ellik sheriklar bilan tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan moliyaviy masalalar boʻyicha majburiyatlarini (iqtisodiy sanksiya, foiz, jarima va boshqalar) bajarilishini nazorat qilish, tashqi iqtisodiy faoliyat natijalari boʻyicha oʻzaro teng tovar ayirboshlash va maksimal foydaga erishish choralarini belgilash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

2.7. Moliya-sanoat guruhlarida moliyaviy menejment

Moliya-sanoat guruhi kredit-moliya va investitsiya muassasalari, korxonalar boshqa muassasalar va tashkilotlarning xoʻjalik assotsiatsiyasi boʻlib, foyda olish maqsadlarini koʻzlab mablagʻlarni birlashtirish asosida faoliyat koʻrsatadi.

Moliya-xoʻjalik guruhlarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tuzilishi va tugatilishi Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari bilan tartibga solinadi.

Mulkchilik turidan qatʼiy nazar, har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalar, shuningdek kredit-moliya va boshqa muassasalar, investitsiya muassasalari, tashkilotlari, shu jumladan xorijiy tashkilotlar moliya-sanoat guruhining ishtirokchilari boʻla oladilar. Unga kirishi mumkin boʻlgan tijorat banklarining miqdori cheklanmaydi.

Bunda ularning moliya-sanoat guruhi nizomiy jamgʻarmasidagi umumiy mulki bu jamgʻarmaning 10% dan ortib ketmasligi kerak.

Moliya-sanoat guruhlariga quyidagi tartibda shakllanadi:

- ishtirokchilari tomonidan ixtiyoriy tartibda yoki guruh ishtirokchilaridan biri tomonidan sotib olinadigan boshqa ishtirokchilar aksiyalari paketini jamlash yoʻli bilan;

- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori boʻyicha;

- Hukumatlararo bitimlar asosida tashkil etiladi.

Moliya-sanoat guruhlarini ixtiyoriy tartibda yoki aksiyalar paketlarining birlashtirish tartibida qoʻyidagicha shakllantiriladi;

- guruh ishtirokchilari tomonidan ochiq yoki yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan tartibda ta'sis etish;

- guruh ishtirokchilari tomonidan guruhga kiruvchi korxonalar va moliya kredit muassasalarining o'z tasarrufida bo'lgan aksiyalar paketlarini guruhlarining ishtirokchilaridan biriga ishonchli boshqaruv uchun berib qo'yish;

- guruh katnashchilaridan birining guruh ishtirokchilariga aylanuvchi boshqa korxonalar, shuningdek muassasalar va tashkilotlar aksiyalari paketlarini sotib olish.

Davlatga tegishli aksiyalar paketlarining miqdori, davlatga tegishli aksiyalar paketini ishonchli boshqaruvga berish, yoki sotib olish moliya-sanoat guruhi shakllanishiga olib keluvchi davlat mulki bo'lgan aksiyalar paketining miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan antimonopoliya qonunlarining talablari hisobga olingan holda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari tomonidan moliya-sanoat guruhini shakllantirish chog'ida:

- ustav fondida davlat mulkining, shuningdek jamoat birlashmalari, hayriya va boshqa jamoat jamg'armalari va ularning korxonalari hissasi 15% dan ortiq bo'lgan korxonaga aksiyalarni ishonchli boshqaruvga berish yoki aksiyalarni sotib olishga;

- moliya-sanoat guruhi ishtirokchilari tomonidan tarkibidagi davlat mulki hissasi 50% dan oshadigan mablag'larni ixtiyoriy birlashtirishga;

- mablag'lari tarkibida moddiy aktivlar 50%-dan kam bo'lgan xo'jalik assotsiatsiya, shuningdek xoldinglarning moliya-sanoat guruhida ipgirokiga;

- moliya-sanoat guruhi ishtirokchilari gomonidan aksiyalarga o'zaro kesishgan egalik qilinishiga;

- guruhga kiruvchi moliya-xo'jalik muassasalari yoki investitsiya muassasasining shu guruh ishtirokchisi bo'lgan har qanday korxonalarining aksiyalarining 10% dan ko'p qismiga egalik qilishiga, shuningdek shu guruh korxonalarining

aksiyalariga ko'rsatilgan muassasalar aktivlarinish 10% dan ortig'ini joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat mulkining 50%-dan ziyod hissasi bo'lgan davlat korxonalari, shirkat korxonalari, shuningdek byudjetdan mablag' bilan ta'minlanuvchi tashkilotlar va muassasalar moliya-sanoat guruhlarida ishtirok etishi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining roziligi, yoki uning topshirigiga binoan davlat mulkini tasarruf etishga vakil qilingan idoraning roziligi talab qilinadi.

Texnologik va iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq ishlab chiqarish, savdo va moliya korxonalarining birlashtirilishi raqobatga bardoshli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun moliyaviy mablag'larni investitsiyalanishi, sarf-xarajatlarini kamaytirilishi, shuningdek ishlab chiqarish, moliyaviy va savdo operatsiyalarini, axborot, huquqiy, harid va ta'minot bo'limmalarini (ayniqsa, tashqi faoliyatga nisbatan) saqlab turish bilan bog'liq muamolarni hal etishni engillashtiriladi.

Bunda davlat, tabiiyki, yangi tarmoq va mintaqaviy monopoliyalar paydo bo'lishidan va raqobatchilarning ichki hamda tashqi bozorga chiqishini qiyinlashuvidan manfaatdor emas. Shuning uchun u tovarlar bozorini Yakka o'zi egallab olmagan gorizontal integratsiyalashgan moliya-sanoat guruhlarining vujudga kelishining rag'batlantiradi.

Moliya-sanoat guruhi ishtirokchilarining manfaatlari, qoida tariqasida, davlat manfaatlariga asosan to'g'ri keladi. Guruh a'zolari ishlab chiqarish va muomala sarf-xarajatlarini kamaytirish hisobiga o'z faoliyatlari samaradorligini oshiradilar. Ular bupga umumiy infrastrukturani vujudga keltirish, boshqa shunday guruhlar ishtirokchilari bilan mustahkam aloqalar o'rnatish va bu aloqalarni muntazam qo'llab-quvatlash orqali erishadilar.

Moliya-sanoat guruhini vujudga keltirish jarayonida ishtirokchi korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bu korxonalarining tashqi investorlari manfaatlarini ta'minlash, to'lov kobilyatini mustahkamlash masalalari tug'ilishi mumkin. Bu kabi muammolarning hal etilishi moliya-sanoat guruhlarining o'z doirasida boshqaruvning oqilona tuzilmasining yaratilishi,

ularning oyoqqa turishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ham ko'zda tutadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllarini tavsiflab bering.
2. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslar qanday tashkil topadi?
3. Qo'shma korxonalarini boshqarishda moliyaviy menejment qanday rol o'ynaydi?
4. Xususiy korxonalarini boshqarishda moliyaviy menejmentni roli nimalarda ifodalanadi?
5. Moliya-sanoat guruhlarini kimlar tomonidan tashkil etiladi?

Testlar

1. Aksiyadorlik jamiyatlarining ijobiy jihatlari:
 - A) aksiyadorlik kapitalining teng taqsimlangan, erkin muomaladagi ulushlar - aksiyalarga taqsimlanishi;
 - B) aksiyadorlar jamiyat majburiyatlari uchun javobgarligining aksiyalar qiymati hajmida cheklanganligi;
 - V) aksiyadorlik kapitalining hajmi va a'zolar sonini osonlik bilan o'zgartirish imkonini beruvchi Ustav asosida birlashish;
 - G) barcha javoblar birgalikda to'g'ri.

2.

Xususiy korxonalar mulkining shakllanishi manbalari

- A) mulkdorning pul va moddiy ajratmalari;
 - B) xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar;
 - V) meros tariqasida, almashtirish va sovg'a qilish yo'li bilan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalardai tushgan mol-mulk;
 - G) barcha javoblar birgalikda to'g'ri.
3. Xo'jalik assotsiatsiyasida

A) jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o‘zaro hamkorlikda xo‘jalik yuritish uchun majburiy ravishda birlashtiriladi;

B) unga faqat davlat korxonalari birlashadilar;

V) unda birlashuvga kiruvchi sub’ektlar o‘z mustaqilligini saqlab qolmaydilar;

G) unda birlashuvga kiruvchi sub’ektlar o‘z mustaqilligini saqlab qoladilar.

4. Nodavlat notijorat faoliyat ko‘rsatayotgan muassasalar

A) moliyaviy faoliyati davlatdan mustaqil audit tekshiruvidan o‘tkaziladi;

B) davlat tomonidan moliyalashtirilishi mumkin;

V) mustaqil ravishda moliya rejalarini ishlab chiqadilar.

G) barcha javoblar birgalikda to‘g‘ri.

5. Aksiyalarning ikkilamchi bozordagi baholarini belgilovchi omillar

A) kutilayotgan dividendlar,;

B) korxonaning bozordagi mavqei;

V) korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli;

G) barcha javoblar birgalikda to‘g‘ri.

III BOB. KORXONALARDA MOLIYAVIY TA'MINOT JARAYONINI BOSHQARISH

3.1. Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash

Korxonalar raqobotbardoshligiga ularning moliyaviy resurslarining harakatini samarali boshqarish orqali erishiladi. Moliyaviy resurslarni tashkil etish va boshqarish mexanizmi ularning mohiyatini tushinishni, amaliyotda moliyaviy imkoniyatlarni boshqarish usullari va ko'rsatmalaridan, shu jumladan moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, tahminlar tuzish va rejalashtirish hamda moliyaviy tahlillardan foydalanishni talab etadi.

Moliyaviy resurslar har bir korxonaning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash hamda maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun pul jamg'armalari va boshqa moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

Moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan oqilona foydalanish korxonaning moliyaviy munosabatlari orqali ta'minlanadi.

Korxonaning moliyaviy faoliyati pul fondlarini tashkil etish va foydalanishda ifodalanadi. Bu pul fondlari korxonaga xo'jalik faoliyatini olib borish, ishlab chiqarishni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot jarayonini moliyalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirish, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, byudjet va bank bilan hisob-kitoblarda ishga solinadi.

Korxonaga moliya resurslari – bu pul daromadlari va mablag'larning tushumi bo'lib, xo'jalik sub'ektining har xil moliyaviy majburiyatlarini bajarish, xarajatlarni moliyalash va iqtisodiy rag'batlantirish ishlarini olib borish uchun manbadir.

Korxonaga pul fondlarini tashkil etilishida quyidagi jihatlar mavjud:

1. Korxonaning o'z mablag'larini shakllantirish:

- ustav kapitali;
- qo'shilgan kapital;

- rezerv kapitali;
- jamg'armalar fondi;
- maqsadli moliyaviy mablag'lar tushishi;
- boshqalar.

2. Qarz mablag'lari shakllanishi:

- bank kreditlari;
- zayomlar;
- tijorat krediti;
- faktoring;
- lizing;
- kreditlar va boshqalar.

3. Qarz shakliga ega bo'lmagan holda mablag'lar jalb etilishi:

- iste'mol fondi uchun ajratilgan mablag'lar;
- to'lanmay turgan dividendlar;
- kelgusi davr daromadlari;
- hisob-kitoblarni va to'lovlarni olib borish jarayonidagi daromad.

4. Operativ ravishda pul fondlari ishlatilishi:

- ish haqi to'lovlari;
- dividendlarni to'lanishi;
- byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlari;
- kredit va qarzlarni qaytarilishi;
- boshqalar.

5. Korxonada moliyaviy resurslarini maqsadli ravishda yo'naltirish:

- aylanma mablag'larni shakllantirish;
- investitsion faoliyat;
- valyuta jamg'armalari va boshqalarni shakllantirish.

Korxonalarining moliyaviy resurslarini shakllanishini quyidagi chizma asosida (Sxema № 3.1) keltirish mumkin:


Korxonada faoliyatining keyingi yillarida ishlab chiqarishni moliyalashtirish uchun o'z mablag'laridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, bunda

korxonalar joriy ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashdan tashqari ma'lum miqdorda foyda olishga ham erishmog'i lozim. Dastlabki yillarda korxonalar o'z quvvatlari va ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida foydaning aksariyat qismini ishlab chiqarishga qayta moliyalashtirishga harakat qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'risidagi Nizom»ga muvofiq korxonalarda moliyaviy mablag'lar (pul mablag'lari)ning hosil bo'lish manbalari quyidagilardan iborat:

- mahsulot sotish, ish va xizmatlar ko'rsatishdan olingan pul tushumi;
- asosiy faoliyatdan kelgan boshqa daromadlar (operatsion daromadlar);
- moliyaviy faoliyatdan kelgan daromadlar;
- favqulodda daromadlar.

Mahsulot sotish, ish bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan sof pul tushumi xo'jalik daromadlarining asosini tashkil etadi. Agar sanoat xususiyatiga ega mahsulotlar sotilsa, ularning qiymatiga qo'shilgan qiymat yoki aksiz solig'i ham qo'shiladi. Bunda sof pul tushumi qo'shilgan qiymat yoki aksiz solig'ini chegirib tashlash orqali hisoblanadi.



Sxema № 3.1. Tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy resurslarining hosil bo'lish manbalari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalarini kengaytirish maqsadida asosiy ishlab chiqarish faoliyati bilan birga boshqa faoliyat turlarini ham olib borishga intiladi. **Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarga** quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagan qarzlilar va xo'jalik shartnomalarini buzganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari (masalan, kichik biznes korxonalarining boy berilgan foydasini to'lash yoki etkazilgan ma'naviy zararni qoplash);
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar foydasi;
- mol-mulkni qisqa muddatga (bir yilgacha) ijaraga berishdan renta daromadi;
- yordamchi tarmoqlardan ko'rilgan daromadlar;
- tadbirkorlik sub'ektining ortiqcha asosiy fondlari va boshqa mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar;
- da'vo muddati o'tgan kreditorlik va deponentlik qarzlilarini hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;
- tovar-moddiy boyliklarni qayta baholashdan ko'rilgan daromadlar;
- davlat subsidiyalaridan daromadlar;
- xolisona moliyaviy yordam;
- boshqa operatsion daromadlar.

Hozirgi kunda tadbirkorlik sub'ektlari bozor iqtisodiyotining muhim elementi hisoblanadigan moliya va qimmatli qog'ozlar bozorida ham faol ishtirok etib, daromad olishlari mumkin.

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- boshqa sarmoyasiga ulush qo'yish natijasida keladigan daromadlar;
- aksiyalar bo'yicha dividendlar, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan foiz ko'rinishidagi daromadlar;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar (lizing to'lovini olish);

- balans valyuta moddalarining ijobiy kurs farqlanishi va sarflangan mablag‘larning qayta baholanishidan olinadigan daromadlar.

Ayrim holatlarda favqulodda holatlar (sel, jala, yong‘in, er silkinishi va h.k.) natijasida ko‘rilgan zararni qoplash yuzasidan ham daromad olish mumkin va uni **favqulodda daromadlar** deb ataladi.

Ammo moliyaviy mablag‘larning ushbu hosil bo‘lish manbalari hali sub’ekt ixtiyorida qoladigan haqiqiy daromad (sof foyda)ni aks ettirmaydi, chunki, kelgusi yilda takror ishlab chiqarishga jalb etish mumkin bo‘lgan mablag‘ faqatgina yilning sof foydasi hamda amortizatsiya ajratmalari hisobiga ta‘minlanishi mumkin.

3.2. O‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta‘minlash va o‘z-o‘zini moliyalashtirish

Tadbirkorlik faoliyatini olib borish jarayonida moliyaviy mablag‘lar ta‘minoti birinchn navbatda o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlashga va o‘zini-o‘zi moliyalashga asoslanadi.

O‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash tadbirkor joriy davrda olingan daromadidan qilingan moliyaviy xarajatlarni qoplab, ma‘lum miqdorda foyda olib ishlayotganligini bildiradi.

O‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlashni nazorat qilish ishlab chiqarish va muomala xarajatlari kalkulyasiya smetasi orqali, xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, elektr energiyalar uchun o‘rnatilgan normativlar asosida olib boriladi.

Korxonada o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash talablarini amalga oshirishi uchun joriy xarajatlarni boshqarish va tartibga solish talab etiladi.

M.X.Meskon va M.Albert «Menejment asoslari» kitobining 203-betida xarajatlarni boshqarish bu xarajatlarni qisqartirish emas, balki daromadlarni oshiradigan yo‘nalishlar bo‘yicha ta‘minlash tadbirlaridir deb ko‘rsatib o‘tilgan. Bu tamoyil kompaniyaning barcha bo‘linmalaridagi xarajatlarni boshqarishni o‘z ichiga oladi.

Firma va kompaniya xarajatlarni boshqarish orqali korxonaga aylanma kapitalini aylanishini tezlashtiriladi, bu korxonani daromadlilik darajasini oshirishga olib keladi.

Katta korxonalarining pul kapitallarini boshqarishda asosiy rol o'zini- o'zi mablag' bilan ta'minlash egallaydi.

Korxonaga o'zini-o'zi moliyalashtirish jarayonida o'z mablag'lari hisobiga, agar o'z mablag'lari etishmasa esa bank kreditidan foydalanib ish olib boradi. Byudjet mablag'lari va yuqori tashkilotlarni mablag'laridan foydalanmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaga o'zini-o'zi moliyalashtirishning mohiyati korxonaga ichki imkoniyatlarga asoslangan holda o'zini-o'zi moliyalashtirishdir.

O'zini-o'zi moliyalashtirish – bu korxonaga pul mablag'lar fondini strategik boshqarib, kapitalni jamg'arish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tashkil etishdir. O'zini-o'zi moliyalashtirish korxonani yuqori darajada kapital jamg'arishi va daromadlari oshirilishini ta'minlaydi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni xarajatlarini ta'minlash to'rt shaklda amalga oshiriladi:

1. O'z-o'zini moliyalashtirish. Bunda korxonalar takror ishlab chiqarish jarayonlari uchun zaruriy xarajatlarni ichki moliyaviy resurslar hisobiga qoplashi mumkin. Uning moliyaviy manbai korxonalar foydasi va amortizatsiya va boshqa o'ziga tegishli moliyaviy resurslar hisoblanishi mumkin.

2. Kreditlash. Bunda xo'jalik sub'ekti xarajatlarni muddatlilik, qaytaruvchanlik, maqsadlilik va ta'minlanganlik shakllari asosida banklar va boshqa kredit muassasalaridan kreditlari evaziga qoplaydilar.

3. Jalb qilingan mablag'larni shakllantirish. Bunda takror ishlab chiqarish jarayoni xarajatlari moliyaviy bozorlarga qimmatbaho qog'ozlar chiqarish yuli bilan koplanishi mumkin.

4. Davlatdan moliyalashtirish. Bunda barcha xarajatlar byudjet va byudjetdan tashqari boshqa davlat fondlari vositasida koplanadi

3.3. Moliyaviy rivojlanish strategiyasi

Moliyaviy strategiya–bu korxonani pul mablag‘lari bilan ta‘minlash bo‘yicha harakatlarining bosh rejasi hisoblanadi. U bozor munosabatlari sharoitida korxonaning moliyaviy mustahkamligini ta‘minlash bo‘yicha masalalarni qamrab oladi. Moliyaviy strategiya nazariyasi xo‘jalik yuritishning bozor sharoitlarini ob‘ektiv qonuniyatlariga monand ravishda faoliyat ko‘rsatishdagi moliyaviy usullar va shakllarini ishlab chiqadi, moliyaviy operatsiyalarni yuritish va tayarlash strategiyasini asoslab beradi.

Korxonaning moliyaviy strategiyasi o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ◆ moliyaviy holatni tahlil qilish;
- ◆ asosiy va aylanma mablag‘larni optimallashtirish,
- ◆ foydani taqsimlashni optimallashtirish,
- ◆ naqd pulsiz hisob-kitoblarni optimallashtirish,
- ◆ soliq siyosati;
- ◆ baho siyosati,
- ◆ qimmatbaxo qog‘ozlar bo‘yicha siyosatni optimallashtirish.

YUqoridagilarga asoslanib, korxonaning moliyaviy strategiyasi quyidagi qismlar bo‘yicha tuziladi:

- ◆ daromadlar va mablag‘larning tushumi;
- ◆ xarajatlar va ajratmalar;
- ◆ byudjet bilan hisoblashishlar;
- ◆ kredit va bank bilan munosabatlar.

Moliyaviy strategiya har tomonlama korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini, ichki va tashqi omillariining ob‘ektiv xususiyatlarini hisobga oladi. Agar korxonaning moliyaviy strategiyasi mahsulotlar bozoridagi vujudga kelgan sharoitga va korxonaning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlariga javob bermasa bu salbiy oqibatlariga olib keladi.

Bosh strategik maqsadlari va ayrim strategik vazifalarning bajarilishi strategiyasiga (ayrim strategik maqsadlarga erishishlar) qarab ***bosh va tezkor moliyaviy strategiyani*** farqlash lozim.

Bosh moliyaviy strategiya deb bir yilga korxonaning faoliyatini aniqlaydigan, uning hamma darajadagi byudjetlar bilan o'zaro munosabatlarini, korxonaning daromadini shakllantirish va undan foydalanishni, moliyalashtirish manbalari va talab miqdorlarini aniqlaydigan moliyaviy strategiyaga aytiladi.

Joriy davrda mavjud moliyaviy resurslarga moslashish uchun, ichki zahiralarni jalb qilish va mablag'larni foydalanish ustidan nazorat qilish uchun, ba'zan esa iqtisodiy nochor sharoitda, moliyaviy strategiyalar bir chorak, oyga yoki zarur bo'lganda undan ham qisqa muddatga ishlab chiqiladi.

Tezkor moliyaviy strategiyaning bosh moliyaviy strategiyadan farqi shundaki, u barcha yalpi daromadni va mablag'lar tushumlarini (ish haqi, sotilgan mahsulotlar uchun sotib oluvchilar bilan hisob-kitoblar, kredit operatsiyalar bo'yicha tushumlar) va barcha yalpi chiqimlarni (etkazib beruvchilarga to'lovlar, ish haqi, barcha darajadagi byudjetlar va banklardan qarzlarni qoplash) qamrab oladi. Bunday tushumlarning va xarajatlarning tarkibini sinchiklab o'rganish rejalashtirilaetgan davrga pul tushumlari va xarajatlari bo'yicha oborotlarni oldindan aniqlashga imkon beradi. Daromadlar bilan xarajatlarning tengligi yoki daromadlarning xarajatlarga nisbatan oshishi normal holat hisoblanadi.

Moliyaning bosh strategik maqsadi korxonani zarur va etarli darajadagi pul resurslari bilan ta'minlash hisoblanadi. SHuning uchun bozor talabiga va korxonaning imkoniyatlariga mos keladigan moliyaviy strategiya ishlab chiqiladi va shuning asosida ishning yo'nalishlari va bajaruvchilari bo'yicha moliyani tashkil qilish vazifalari aniqlanadi va taqsimlanadi.

Korxonaning moliyaviy strategiyasi bosh strategik maqsadga erishish uchun quyidagi usullarni va harakatlarni o'ziga qamrab oladi:

- moliyaviy resruslarni shakllantirish va ularni markazlashgan holda strategik boshqarish;

- echimi topilishi lozim bo'lgan asosiy moliyaviy muammolarni aniqlash va ularni hal etish uchun korxonaning moliyaviy boshqaruvi tomonidan zahiralardan foydalanishni tashkil etish;

- maqsadlarni bosqichlarga ajratish va har bir bosqich bo'yicha maqsadlarni belgilab olish;

- moliyaviy harakatlarning korxonaning moddiy imkoniyatlari va iqtisodiy sharoitiga mos kelishi;

- har bir vaqt mobaynida korxonaning real moliyaviy ahvolini va moliyaviy-iqtisodiy sharoitini ob'ektiv hisobga olish;

- strategik zahiralarni tayerlash va shakllantirish;

- o'zining va raqobatchilarning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olish;

- raqobatchilar tomonidan bo'ladigan bosh tahdidlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish uchun asosiy kuchlarni jalb qilish va moliyaviy operatsiyalarning yo'nalishlarini tanlash;

- raqobatchilar ustidan g'alabaga erishish uchun sa'y-harakat qilish.

Ayrim maqsadlarga erishish strategiyasi bosh strategik maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlashga yo'naltirilgan moliyaviy operatsiyalarning bajarilishini tashkil etishga qaratilgan bo'ladi.

Moliyaviy strategiyaning vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik yuritishning bozor sharoitida moliyaning shakllanishining qonuniyatini va xarakterini tadqiq qilish;

- nochor va moliyaviy krizis holati sharoitida moliyaviy boshqaruv faoliyati va korxonaning moliyaviy resurslarini shakllantirishning imkoniyatli variantlarini tayyorlash shartlarini ishlab chiqish;

- etkazib beruvchi va xaridorlar, barcha darajadagi byudjetlar, banklar va boshqa moliyaviy institutlar bilan moliyaviy munosabatlarni aniqlash, ishlab chiqarish quvvatlaridan, asosiy fondlar va aylanma mablag'lardan ratsional foydalanish uchun korxonaning rezervlarini aniqlash va resurslarini jalb qilish;

- korxonani ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash;
- korxonaning vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini maksimal foyda olish maqsadida samarali jalb qilishni ta‘minlash;
- moliyaviy strategiyani amalga oshirish va moliyaviy imkoniyatlarni strategik foydalanish usullarini aniqlash;
- raqobatchilarning moliyaviy strategiyasi qarashlarini, ularning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini o‘rganish, moliyaviy mustahkamlikni ta‘minlash bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- krizis moliyaviy holatda va nochor sharoitda krizisdan chiqishga tayergarlik usullarini ishlab chiqish.

Moliyaviy strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirishda asosiy e‘tibor korxonaning pul daromadlarini maksimallashtirishga, ichki resurslarni jalb qilishga, mahsulotlarning tannarxini maksimal darajada pasaytirishga, foydani to‘g‘ri taqsimlash va foydalanishga, aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashga qaratiladi.

Moliyaviy strategiyaning ahamiyatli qismi bulib ichki normativlarni ishlab chiqishdir. Masalan, foydani taqsimlash yo‘nalishlarini aniqlash normativlari. Bunday ichki normativlar hozirgi kunda chet el kompaniyalari amaliyotida foydalanilmoqda.

Moliyaviy strategiyada inflyasiyaning tebranishlari, to‘lay olmaslik risklari va boshqa fors-major (oldindan ko‘zga ko‘rinmaydigan) holatlari hisobga olinib, tegishli choralar nazarda tutiladi. Ular ishlab chiqarish vazifalari bilan mos kelishlari kerak va zaruriyat tug‘ilganda o‘zgartiriladi va to‘g‘rilanadi.

Moliyaviy strategiyani amalga oshirish ustidan nazorat qilish daromadlarni tushumini tekshirishga, undan tejamli va ratsional foydalanishni ta‘minlashga imkon beradi. YAxshi yulga quyilgan moliyaviy nazorat pul oqimlarini oshirish yuli bilan ichki zahiralarni kengaytirishga, xo‘jalikning rentabelligini oshirishga yordam beradi.

Strategik moliyaviy menejmentning o'ziga xos xususiyati va mezonlari – bu doimiy ravishda jang'arishni ta'minlashdan iboratdir.

Strategik moliyaviy menejmentning asosiy elementi – bu uning o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligidir. Firmalar strategik rivojlanishni belgilashda samara bermaydigan ishlarni moliyalashtirish ishlari bilan shug'ullanmaydilar.

Strategik moliyaviy menejment vositasida samarali rivojlanishga ikkita asosiy yo'l bilan erishish mumkin: ichki va tashqi. Ichki yo'l korxonaning o'z tajribasi va imkoniyatlariga suyanadi. Tashqi yo'l – bu boshqa samarali ishlayotgan korxonalarni yutuq va tajribalarining ishlayotgan korxonaga joriy etilishi.

Moliyaviy menejment moliyaviy qo'yilmalarga, moliyalashtirish jarayoni va yuqori foyda olishga tabaqalashtirilgan holda yondoshadi. Kapital harakatini olib borish jarayonida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash, to'lov qobiliyatini yaxshilash va bankrotlikning oldini olishga harakat qilish lozim. Moliyaviy menejmentni strategiyasi maqsadi - doimiy uzoq yillar davomida foyda olishdir.

3.4. Faktoring va trast operatsiyalarini boshqarish

Faktoring – sub'ektlar o'rtasida qarzlarni undirishda vositachilik faoliyatidir. Faktoringda o'rtada turuvchi sub'ekt (odatda bank) qarz bergan sub'ektdan ma'lum bir komission to'lov evaziga qarzdordan mablag'ni undirish huquqini qo'lga kiritadi. Faktoring shartnomasi tuzilishi bilan sub'ekt undirolmay turgan qarzning aksariyat qismini faktoring sub'ekti (yoki bank)dan qo'lga kiritadi. So'ngra faktoring sub'ekti debitor sub'ektga qarzni undirish bo'yicha da'vo qo'zg'atadi.

Faktoring operatsiyalari kreditning kichik biznes sub'ektlari uchun qulay shakllaridan biridir. O'z xususiyatiga ko'ra, uni kreditning bilvosita shakli deb ham atash mumkin.

Bank tomonidan mijozlarga faktoring xizmati ko'rsatishning asosiy mazmuni mijozlarning debitor hisoblarini inkassolash va boshqa iqtisodiy sub'ektlardan ular uchun to'lovlarni undirib olishdan iborat bo'lib, bank bunday xizmatni ikki xil yo'l bilan amalga oshirishi mumkin.

Birinchisida bank mijoz uchun to'lovni uning qarzdoridan undirilishida vositachi bo'lib maydonga chiqadi va bu mijozning o'z qarzdori bilan tuzgan xo'jalik shartnomasida qayd etilgan bo'ladi.

Ikkinchi holda bank mijozdan uning to'lovni talab qilish huquqini beruvchi hujjatni sotib oladi (tegishli ravishda diskontlangan holda) va to'lovni to'lovchidan mustaqil ravishda undiradi. Ikkinchi hol o'z mazmuni bo'yicha mijoz bank kredigidan foydalanayotganligini bildiradi.

Faktoring xizmatlari ko'rsatilganda bank mijozdan komission haq yoki faktorning krediti bo'yicha foiz olishi mumkin. Faktoring krediti bo'yicha foiz stavkalari qayta moliyalash stavkalaridan yuqoriroq bo'lgani ma'qul, chunki faktoring operatsiyalarining tavakkalchilik darajasi ancha yuqori hisoblanadi.

Faktoring xizmatlari ko'rsatish bank mijoz bilan o'zaro shartnoma tuzadi. SHartnomada bevosita faktoringdan tashqari u bilan bog'liq boshqa qator xizmatlar ko'rsatilishi haqida ham shartlashib olish mumkin:

- mijozdagi debitor qarzlari buxgalteriya hisobini yuritish;
- mijozga xo'jalik shartnomalari tuzish, to'lovlarni o'z vaqtida undirish, hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish bo'yicha maslahatlar berish;
- mijozni bozor va undagi baholar hakida, potensial xaridorlarning to'lov qobiliyati va boshqa ma'lumotlar bilan ta'minlash va boshqa xizmatlar.

SHartnomada faktoring turi, faktoring krediti hajmi va foizlari, vositachilik haqi, o'zaro majburiyatlarning ado etilishi kafolatlari va majburiyatlarni bajarmaganlik uchun moddiy javobgarlik, hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi va boshqa jihatlar batafsil bayon etilishi lozim.

Faktoring shartnomasi tuzishdan oldin bank mijozning moliyaviy ahvolini sinchiklab o'rganadi: balans likvidligi ko'rsatkichlari, debitor qarzlari tarkibi va muddatlari tahlil qilinadi, korxonada mahsulotini sotish imkoniyatlari, bozor

kon'nyukturasi, xaridorlarning to'lov qobiliyati aniqlab olinadi. Faktoring shartnomasi summasini belgilashda mijozning xaridorlar bilan xo'jalik shartnomalariga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

Bankning mijozlardan boshqa emitentlar vekselarini sotib olishi (veksellarni hisobga olish) ham o'z mazmuniga ko'ra faktoring operatsiyasidir. CHunki bunda bank veksel bo'yicha to'lovni undirishni o'z zimmasiga oladi.

Tijorat banklarining asosiy moliyaviy xizmat turlaridan yana biri ***-trast operatsiyalaridir.***

Ma'lumki, har bir kredit muassasasi amalga oshiradigan operatsiyalarning turi va tarkibi ko'plab omillarga bog'lik bo'ladi. Bankning hajmi va strategiyasi, sho'balararo aloqalarining rivojlanganligi, kerakli barcha ruxsatnomalarning mavjudligi, ko'shimcha daromad olishga bo'lgan intilish va boshqalar shular jumlasidandir. SHu jihatdan olib qaraganda, ko'p banklar asosiy operatsiyalar bilan bir qatorda, boshqa operatsiyalar deb nomlanadigan operatsiyalarni xam amalga oshiradilar. Ushbu operatsiyalar qatoridan trast operatsiyalari bevosita salmoqli o'rin egallaydi.

Trast operatsiyalari – bu mijozga tegishli bo'lgan va boshqa aktivlarni boshqarish bo'yicha olib boriladigan operatsiyalardir. Hozirgi paytda banklarning o'z mijozlari va bozor o'rtasida to'la huquqli vositachi agent sifatida ish olib borishi, natijada bir qator daromad manbalarini qo'lga kiritishi bois trast operatsiyalari ancha muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Trast tufayli bank bir qancha imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- qo'shimcha mablag'larni qo'lga kiritadi va ularni o'z manfaati yo'lida tasarruf etadi;
- trast shartnomasi bo'yicha komissiya daromadlariga yoki tasarrufdagi qimmatbaho kog'ozlardan keladigan foydadan hissaga ega bo'ladi;
- o'zga kapital bilan ish olib borish davomida bank faqatgina trast shartnomasi chegaralarida javobgar bo'ladi;

- trust operatsiyalarining hisobi bankning balans hisobvarag'iga ta'sir ko'rsatmaydi, ammo ulardan keladigan daromad bankning umumiy daromadiga qo'shilib ketadi.

Trust shartnomasini tuzishdan asosiy maqsad – bu bir tarafning ikkinchi taraf foydasini ko'zlagan holda ma'lum bir mulkni (pul mablag'lari, qimmatbaho kog'ozlar, mulkiy va boshqa huquqlar) boshqarish vazifasini o'z zimmasiga olishi bo'yicha ikki taraflama ishonch munosabatlarini o'rnatishdan iborat.

Trustning ob'ekti sifatida qonun talablariga javob beradigan har qanday turdagi, shu jumladan, garovga qo'yilgan mulklar olinishi mumkin. YA'ni, bu korxonalar va ularning aktivlari, mahsulotlar, er maydonlari, ko'chmas mulk, pul mablag'lari, qimmatbaho kog'ozlar, valyuta va moddiy boyliklari, mulkiy huquqlar bo'lishi mumkin.

Trust operatsiyalari bo'yicha munosabatlar muassis va mulk egasi tomonidan tuziladigan shartnomaning imzolanishidan so'ng boshlanadi. Trust operatsiyalarini boshqarish aktivlarga egalik qilishning barcha yoki ayrim tomonlarini o'z ichiga olishi mumkin. YA'ni:

- saqlash;
- ishonchli shaxsning manfaatini ko'zlab chiqish (hissadorlar majlisi, ssuda va xokazo);
- daromad va investitsiyalash faoliyatini boshqarish;
- aktivlar oldi-sotdisi;
- kog'ozlarni jalb qilish va to'lash, qimmatbaho kog'ozlar chiqarish va joylashtirish;
- yuridik shaxsning tashkil etilishi, kayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog'liq rasmiyatchiliklarni amalga oshirish;
- mulkka bo'lgan egalik huquqini boshqa shaxsga o'tkazilishi (sovg'a, meros, hadya va b. sifatida);
- mijozning shaxsiy bank hisob raqamini, kassa va moliyaviy xo'jalik ishlarini yuritish xamda majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- korxonaning kayta tashkil etilishi yoki bankrotlikka uchrashi chiqaida chiqainchalik boshqaruvni o'z qo'liga olishi va boshqalar.

Jaxon amaliyotida odatda, bank trust operatsiyalari uch turga bo'linadi:

1. Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan trust xizmatlari.
2. Tijorat korxonalariga ko'rsatiladigan trust xizmatlari.
3. Notijorat tashkilotlarga ko'rsatiladigan trust xizmatlari.

Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan trust xizmatlari chet el banklari tomonidan keng takdim etiladi. Ular shaxsiy mulkni boshqarish, vositachilik, o'z ta'minotiga olish va boshqalardir.

Meros bo'yicha tashkil etiladigan trustlar „meros trustlari“ deyiladi va faqatgina mulk egasining vafotidan so'ng kuchga kiradi. Jismoniy shaxslar shuningdek, xayot davomidagi trustlarni tashkil etishi mumkin. Bunda trust mulk egasining xayotligida ham ishlayveradi. Meros trustlari ko'pincha mulk egasining o'z mulkini trust shaklida bo'lib berish niyati paydo bo'lgan paytlarda tashkil etiladi.

Bundan tashqari, bank otaliq vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu borada bank aktivlarining jamlanishi va saqlanishi, barcha da'volar bo'yicha javob berish, kerakli qarz va meros to'lovlarini amalga oshirish ishlarini o'z zimmasiga oladi.

SHaxsiy trust xizmatlarining yana bir turi bu „xususiy agentlik hisobvarag'i“ni olib borish hisoblanadi. Unga asosan bank agent sifatida jismoniy shaxsning asosiy aktivlari, moliyaviy ishlarini boshqarish va kunlik xarajatlarini amalga oshirish ishlarini o'z zimmasiga oladi.

Bunda bank jismoniy shaxs uchun maosh olishi, foiz yoki dividendlar olishi va to'lashi, arenda va karz majburiyatlarini, shaxsiy xarajatlarni to'lash ishlarini amalga oshirishi mumkin. Trustning ushbu turida bank xodimlari kerak bo'lganda o'z irodalariga muvofiq ish yuritishlari mumkin. Unda bu trust „boshqarish huquqiga ega ishonch schyoti“ deb nomlanadi.

Tijorat korxonalariga ko'rsatiladigan trust xizmatlarini ikki turga ajratish mumkin: agentlik va kafillik.

Agentlik trastlariga, asosan, bank firmaning xususiy agenti sifatida ish yuritib, ko'pincha mijoz manfaatini ko'zlagan holda qimmatbaxo kog'ozlarni chiqaradi, ular bo'yicha dividendlar to'laydi hamda hissadorlarning talablariga asosan, ularni qaytadan moliyalashtiradi va muddati kelgan majburiyatlar bo'yicha qarzini uzadi.

Kafillik operatsiyalari bo'yicha esa trastlar, asosan, katta kompaniyalarning ta'minlanmagan mablag'lari sotiladigan tijorat kog'ozlar bozorining ishlashi bilan bog'lik. Banklardagi trast bo'limlari tijorat kog'ozlarni sotib olish bo'yicha hisobni yuritadi, realizatsiya kilinadigan qimmatli qog'ozlarni investorlarga yetkazib berishni ta'minlash hamda muddati kelgan qimmatli kog'ozlarning egalariga qaytarish ishlarini bajaradi.

Hozirda jaxon mikyosida notijorat tashkilotlarga ko'rsatiladigan trast operatsiyalariga bo'lgan raqobat kuchayib bormoqda. Ular qatoriga asosan pensiya, korporativ va hukumat fondlari kiradi. Trast bo'limlari xuddi shu tashkilotlarning fondlarini boshqarishga intiladi. Bu jarayon to'g'ridan to'g'ri va diskretion shakllarda amalga oshirilishi mumkin. To'g'ridan to'g'ri agent trastga ishonch tariqasida topshirilgan shaxsiy mulkning hamda ular bo'yicha hisobotlarni yuritilishi uchun javob beradi. Diskretion agent esa aksincha, investitsion qarorlar qabul qiladi va aksariyat hollarda o'zining xohish-irodasiga qarab ish olib boradi.

Trast faoliyatining eng asosiy masalalaridan biri – tijorat banklari mijozlarining qimmatli qog'ozlari portfelini boshqarishdan iborat. Katta-katta kompaniyalar, pensiya fondlari, o'zlarining mablag'larini tijorat banklariga ishonib topshiradi. Ushbu katta kompaniyalar bo'yicha banklarga kat'iy qoidalar o'rnatiladi. Unga banklar rezervlarini ishonchlilik, diversifikatsiya, qaytarib berishlik, foydalilik va likvidlilik prinsiplariga amal qilgan holda joylashtiradi.

G'arbdagi ko'plab bankirlar trast bo'limlarini „dunyoning boshqa bir qismi“ sifatida ko'radilar. Bundan asosiy maqsad trast xizmatlarini oddiy bank ishidan ajratib olishdir. Chunki trast bo'limining xodimlari o'z mijozlarining manfaatlarini ko'zlaydi, bankning manfaati bilan mijozning manfaati aksariyat

xollarda bir-biriga mos xam kelmaydi. Lekin shunga qaramasdan, trast bo‘limlari o‘zining faoliyati bilan bankka katta miqdorda qo‘shimcha daromad keltiradi.

Trast bo‘limining daromadlari bevosita va bilvosita daromad shaklida 2 ga bo‘linadi:

– bevosita daromodlar asosan xizmat uchun gonorar va komissiya to‘lovlaridan iborat bo‘ladi;

– bilvosita daromadlarga esa – xizmat uchun to‘lanadigan kat’iy yoki o‘zgaruvchan foiz stavkalari hamda trast aktivlarining hajmi va qiymatiga bog‘lik ravishda belgilanadigan komissiya to‘lovlari kiradi.

3.5. Lizing operatsiyalari. Moliyaviy lizing

«Lizing» so‘zi inglizcha bo‘lib, «Lease» fe‘lidan kelib chiqqan va taxminan, «mulkni ijaraga berish» yoki «mulkni ijaraga olish» ma‘nolari ifodasini bildiradi. Ba‘zi manbalarda ta‘kidlanishicha, mashina, jihoz, transport vositalari va boshqa ishlab chiqarishga taalluqli harakatlanuvchi mulkni uzoq muddatli ijaraga olishdir².

Bir qator mahsus adabiyotlarda ham shunga yaqin ta‘rif beriladi, ularning mualliflari, lizing biznesiga xos ijara munosabatlarining uzoq muddatliligini ta‘kidlaydilar³. Biroq o‘z mohiyatiga ko‘ra, bu munosabatlarning kredit xususiyatiga ega bo‘lgan tabiatini ko‘pincha inkor etadilar. Ko‘pchilik mualliflar lizingning mohiyatini ochib beruvchi o‘ziga xos xususiyatlarni nazardan chetda qoldiradilar. Ma‘lumki, lizing oddiy ijara emas, balki bu — uning o‘ziga xos — kreditga yaqinlashtiruvchi xossa. Ijaradan farqli o‘laroq unda, qoidaga ko‘ra, uchta

² Кредиты. Инвестиции — Москва, «Приор» 1994, — 144, — VIII — Л.О. 97-107 б.

³ Бланк И. А. Инвестиционный менеджмент — Киев, МП «ИТЕМ» ЛТД, «Юнайтед Лондон Трейд Лимитед», 1995 — 448 б. Л-408 с; Марков О. М., Сахарова Л.С., Сидоров В. Н. Коммерческие банки и их операции: Учебное пособие. — М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1995. — 65-75 б; Ричард Брейди, Споарт Майерс. Принципы корпоративных финансов: Б 87. Пер. с англ. — М.: ЗАО «Олимп — Бизнес», 1997. — 1120 б. Л 715-732 б; Букато В. И., Львов Ю. И. Банки и банковские операции в России\Под ред. М. Х. Лapidуса. — М.: Финансы и статистика, 1996., 226-332 б.; Российская банковская энциклопедия. Редколлегия: О. И. Лаврушки и др. М.: Энциклопедическая творческая Ассоциация, 1995, 227 б.

va undan ortiq sub'ekt qatnashadi: uskunalarni yetkazib beruvchi, lizing (moliya) kompaniyalari va foydalanuvchilar.

Iqtisodchilar orasida, «lizing — ijara haqidagi oddiy kengaytirilgan bitim» yoki «ijara butun muddati mobaynida ijaraga oluvchining mulkka egalik huquqi saqlangan ijara shartnomasi» yoki «lizing ijara munosabatlarining alohida turi»⁴ deb hisoblovchilar ham mavjud.

Lizing mohiyatini quyidagi ibora bilan orqali ifoda etsak bo'ladi: "Boylik, mol-mulkka egalik qilishdan emas, balki undan foydalanishdan iborat bo'ladi". Mazkur jumla lizingning asosiy g'oyasini to'liq namoyon etadi. Korxonalar yoki tadbirkorga ishlash va daromad topish uchun mol-mulkka egalik qilish shart emas, balki muayan muddat davomida undan foydalanishning o'zi kifoyadir. Bu ayniqsa asbob-uskunani mul qilib sotib olish moliyaviy imkoniyatlar cheklangan korxonalar uchun muhimdir. Lizing mexanizmi bunday korxonalarga asbob-uskunadan muayan muddat davomida maqbul miqdordagi lizing to'lovlari evaziga foydalanish huquqini qo'lga kiritish imkoniyatini beradi. SHuningdek, ushbu asbob-uskunadan foydalanish muddati tugagandan so'ng uni korxonaning mulkiga o'tkazish imkoniyati ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonunida lizingga quyidagicha ta'rif berilgan: «Lizing (moliyaviy ijara) ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob'ektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Lizing shartnomasi odatda lizing ob'ektining ijarachi tomonidan ijara muddati so'ngida butunlay sotib olinishini nazarda tutadi va to'la berilgan ijara summalari ob'ekt bahosining to'langan qismi deb qabul qilinadi. Lizing ob'ekti

⁴ Ричард Брейли, Стюарт Майерс. Принципы корпоративных финансов: Б 87. Пер с англ. — М.: ЗАО «Олимп — Бизнес», 1997. — 1120 б. Л. 715-732 б; Козлова Е. П. Бухгалтерский учет в коммерческих банках. — М.: Финансы и статистика. 1996. — 432 б.; Банки и банковские операции: Учебник для ВУЗов/Е. Ф. Жуков, — М.: Банки и биржи «ЮНИТИ», 1997.; Европейская федерация национальных ассоциаций по лизингу оборудования (Leaseurope).

ijarachi tomonidan sotib olinishini nazarda tutmaydigan ijara operativ lizing deb ataladi hamda u ko‘pincha qisqa muddatli (bir yilgacha) bo‘ladi. Lizing ob‘ekti ijarachi ixtiyorida butunlay qolishi esa *moliyaviy lizing* deb ataladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan «Lizing to‘g‘risida»gi qonunida lizingning ikki turi, ya‘ni moliyaviy va operativ turlari belgilangan. 2002 yil 13 dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasini ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq lizingni moliyaviy turi qoldirildi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan moliyaviy lizingda quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- lizing shartnomasi muddati tugagandan so‘ng lizing ob‘ekti lizingga oluvchi ixtiyorida qolishi lozim;

- lizing shartnomasining muddati lizing ob‘ektining xizmat muddatini 80 foizdan oshadigan muddatni yoki shartnoma muddatini tugashiga lizing ob‘ektining qoldiq qiymati birlamchi qiymatining 20 foizdan oz miqdorni tashkil etishi kerak;

- lizing shartnomasining muddati tugashi bilan lizingga oluvchi lizing ob‘ektini sotish kunidagi bozor bahosidan past narxda sotib olish huquqiga ega bo‘lishi lozim;

- shartnomaning amal qilish davrida amalga oshirilgan lizing to‘lovlarining umumiy hajmi lizing ob‘ekti qiymatining 90 foizdan ortiq qismini tashkil etgan bo‘lishi lozim .

Mazkur shartlarning bittasi bajarilmagan taqdirda lizing turi operativ lizing bo‘ladi.

Operativ lizing uchun odatda quyidagi belgilar xos bo‘ladi:

- ijara muddati ijaraga berilayotgan mulkning to‘la jismoniy eskirishi davrini qamrab olmaydi;

- mulk buzilishi yoki yo‘qotilishi tavakkalchiligi ijaraga beruvchi zimmasida qoladi;

-ijara muddati tugagandan so'ng mulk boshqa ijarachiga ijaraga beriladi yoki butunlay sotib yuboriladi.

Bir yilgacha muddatga ijarani bildiruvchi lizing renting deb ataladi, bir yildan uch yilgacha muddatga esa xayring deb nomlanadi. Bunday operatsiyalar bilan banklar deyarli shug'ullanmaydilar, ular ixtisoslashgan lizing kompaniyalari uchun xos.

Mulkni uning haqi qismlariga bo'lib turadigan tarzda sotib olish yoki ijaraga olib foydalanish iqtisodiy jihatdan ma'qulroq bo'lgan hollarda lizing xizmatlariga murojaat qilinadi. Ijarachi mulkdan amalda o'ziga tegishli mulk kabi foydalanadi, lekin yuridik jihatdan mulkning qonuniy egasi deb lizing beruvchi hisoblanadi. Lizing oluvchi (ijarachi) lizing bo'yicha xarajatlarni to'la-to'kis tannarxga qo'shadi va shu orqali o'zining moliyaviy tavakkalchiligini ancha kamaytiradi.

Banklar asosan *moliyaviy lizing* bilan shug'ullanishni ma'qul ko'radilar. Moliyaviy lizing xizmat ko'rsatish bilan birgalikdagi lizing, loverij-lizing va "paket" tarkibida lizing kabi turlarga bo'linadi. Xizmat ko'rsatish bilan birgalikdagi lizingda moliyaviy lizing bilan birgalikda ijaraga berilayotgan mulkdan foydalanish bilan bog'liq qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilishi haqida ham shartnoma tuziladi. Loverij-lizingda topshirilayotgan mulkning bir qismi bankdan, ikkinchi qismi (ko'prog'i) uchinchi tomondan ijaraga olinadi. "Paket" tarkibidagi lizingda bino va inshootlarni korxonaga kredit hisobiga sotib oladi, uskuna esa korxonaga lizing shartlari bilan topshiriladi.

Ijaradagi mulk ekspluatatsiyasi bilan bog'liq xarajatlar, ijarachi zimmasiga yuklanadigan lizing munosabatlari sof lizing, bu mulkka texnikaviy xizmat ko'rsatish ijaraga beruvchi zimmasida bo'lgan lizing esa to'la lizing deb ataladi.

O'z mazmuniga ko'ra lizing kredit bitimidir. Ijarachi lizing ob'ektida mujassamlashgan qiymatni qaytarib berish, muddatlilik va haq to'lash shartlari bilan vaqtincha foydalanish uchun bankdan qarzga oladi.

Lizing o'zining tashqi shakli bo'yicha ijara ko'rinishida bo'lsa ham, mazmuni bo'yicha undan muhim ravishda farqlanadi. Lizing oluvchi ijarachi kabi

mulkni uzoq muddatli foydalanish uchun oladi. SHu bilan birga lizing oluvchiga mulkka egalik huquqi bilan bog'liq majburiyatlar ham yuklanadi: mulkning qiymatini to'lash, mulk tasodifan nobud bo'lishi talofatlarini qoplash, mulkni sug'urtalash, texnikaviy xizmat ko'rsatish, ta'mirlash. Biroq, moliyaviy lizing munosabatlari tugagunga qadar lizing beruvchi mulkning egasi bo'lib qolaveradi.

Lizing ob'ekti nobud bo'lishi yoki ob'ektdan foydalanish imkoiiyati yo'qligi lizing oluvchini qarzni to'la ravishda to'lab berish majburiyatidan ozod qilmaydi. Lizing oluvchi ijarachidan farqli ravishda mulkning butun qiymatini to'lab beradi.

Lizing ob'ektida nuqsonlar aniqlangan hollarda lizing beruvchi kafolat majburiyatlaridan ozod hisoblanib, lizing oluvchi barcha da'volarni ob'ektni yetkazib beruvchi (sotuvchi) ga yo'naltirilishi lozim.

Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan lizing operatsiyalarining asosiy turi sof moliyaviy lizing, ya'ni ijaradagi mulkka xizmat ko'rsatish xarajatlari to'lasicha ijarachiga yuklangan va ijara muddati davomida mulk qiymati to'la to'lab beriladigan lizingdir. Sof moliyaviy lizingda ijara muddati ijara ob'ektining iqtisodiy hayot muddatiga muvofiq keladi. Ushbu jarayonda bank moliyalovchi vazifasini ijro etadi.

Bank bilan ijarachi o'rtasidagi munosabatlar ular o'rtasida tuziladigan lizing shartnomasida rasmiylashtiriladi. SHartnomada bankning lizingdagi mulkdan ijarachi tomonidan maqsadga muvofiq foydalanishni tekshirish huquqi qayd etiladi. SHartnomaga binoan, lizingdagi mulkdan maqsadga muvofiq kelmaydigan yo'nalishda foydalanilganda, noto'g'ri foydalanish natijasida uning holati yomonlashganda, mulk yo'qotilgan yoki nobud bo'lgan taqdirda bank lizing shartnomasini bekor qila oladi. Ijara haqi to'lovlari uzoq muddatga kechiktirilganda ham bank tomonidan shartnomani bekor qilinishi huquqi nazarda tutilishi mumkin. SHartnomada shartnoma ijarachining aybi bilan bekor qilingan hollarda ijarachi tomonidan bankka ijara bitimining to'liq summasidan kam bo'lmagan miqdorda tovon to'lanishi (shu jumladan muayyan miqdorda jarima ham) kelishib olingan bo'lishi kerak.

Ijarachi bankrot bo'lgan holda mulk bankka qaytarib olinishi hamda lizing shartnomasi bekor qilinishidan bank talofotlari ijarachidan to'la undirilishi lozim.

O'zbekistonda lizing munosabatlarini keng yo'lga qo'yishning huquqiy asoslari yaratilgan. 1995 yilda ustav fondi 4,0 mln. AQSH dollaridan iborat "O'zbeklizing Interneshnl AJ" qo'shma lizing kompaniyasi (keyinchalik 2001 y. da 10,0 mln. AQSH doll.ga oshirildi), 1996 yilda "Bank-lizing" universal lizing kompaniyasi (Ustav fondi 200 mln. so'm), 1997 yilda ustav fondi 5,0 mln. AQSH dollaridan iborat "UzKeysAgrolizing" qishlok xo'jalik lizing kompaniyasi, ustav fondi 24,5 mln. AQSH dollaridan iborat "O'zavializing" aksiyadorlik-lizing kompaniyasi, ustav fondi 1,5 mlrd. so'mdan iborat "O'zmed-lizing» ochiq aksiyadorlik jamiyati ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyalari tashkil etilgan.

Bundan tashqari, lizing munosabatlarini rivojlantirish maqsadida 2000 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2011 yilda "O'zbekiston Respublikasida lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish va tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilingan.

Nazorat uchun savollar:

1. Korxonalar moliyaviy resurslari tarkibiga nimalar kiradi?
2. Korxonalar o'z mablag'lari tarkibiga qanday mablag'lar kiradi?
3. Moliyaviy rivojlanish strategiyasini izohlang.
4. Faktoring operatsiyasi nima?
5. Lizing operatsiyasi nima?
6. Trast operatsiyalari ahamiyatini tushuntiring.

Testlar

1. Korxonaning o'z mablag'lari shakllantirilishi manbalar:
A) ustav kapitali, qo'shilgan kapital;
B) ustav kapitali, qo'shilgan kapital va rezerv kapitali;

V) rezeov kapitali va jamg'armalar;

G) ustav kapitali, qo'shilgan kapital, maqsadli moliyaviy mablag'lar tushishi va boshqalar.

2.Lizingning moliyaviy mazmuni

A) lizing oluvchiga mulkka egalik huquqi bilan bog'liq majburiyatlar ham yuklanadi;

B) moliyaviy lizing munosabatlari tugagunga qadar lizing beruvchi mulkning egasi bo'lib qolaveradi.

V) ijarachi kabi mulkni uzoq muddatli foydalanish uchun oladi;

G) barcha javoblar birgalikda to'g'ri.

3. Faktoring krediti bo'yicha foiz stavkalari qayta moliyalash stavkalaridan yuqoriroq bo'lishi sabablari

A) mijoz kredit olishga majbur;

B) tushumni tezroq qo'lga kiritishga intiladilar;

V) xaridorga ishonch zaifroq bo'lganda qo'llanadi;

G) faktoring operatsiyalarining tavakkalchilik darajasi ancha yuqori hisoblanadi.

4. «Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'risidagi Nizom»ga muvofiq korxonalarda moliyaviy mablag'lar (pul mablag'lari)ning hosil bo'lish manbalari

A) mahsulot sotish, ish va xizmatlar ko'rsatishdan olingan pul tushumi;

B) operatsion daromadlar;

V) moliyaviy faoliyatdan kelgan daromadlar va favqulodda daromadlar;

G) mahsulot sotish, ish va xizmatlar ko'rsatishdan olingan pul tushumi, asosiy faoliyatdan kelgan boshqa daromadlar (operatsion daromadlar), moliyaviy faoliyatdan kelgan daromadlar va favqulodda daromadlar.

IV BOB. KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH

4.1. Moliyaviy rivojlanish strategiyasi moliyaviy rejalashtirishning asosi sifatida

Moliyaviy strategiya–bu korxonani pul mablag‘lari bilan ta‘minlash bo‘yicha harakatlarining bosh rejasi hisoblanadi. U bozor munosabatlari sharoitida korxonaning moliyaviy mustahkamligini ta‘minlash bo‘yicha masalalarni qamrab oladi. Moliyaviy strategiya nazariyasi xo‘jalik yuritishning bozor sharoitlarini ob‘ektiv qonuniyatlariga monand ravishda faoliyat ko‘rsatishdagi moliyaviy usullar va shakllarini ishlab chiqadi, moliyaviy operatsiyalarni yuritish va tayarlash strategiyasini asoslab beradi.

Korxonaning moliyaviy strategiyasi o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ◆ moliyaviy holatni tahlil qilish;
- ◆ asosiy va aylanma mablag‘larni optimallashtirish,
- ◆ foydani taqsimlashni optimallashtirish,
- ◆ naqd pulsiz hisob-kitoblarni optimallashtirish,
- ◆ soliq siyosati;
- ◆ baho siyosati,
- ◆ qimmatbaho qog‘ozlar bo‘yicha siyosatni optimallashtirish.

YUqoridagilarga asoslanib, korxonaning moliyaviy strategiyasi quyidagi qismlar bo‘yicha tuziladi:

- ◆ daromadlar va mablag‘larning tushumi;
- ◆ xarajatlar va ajratmalar;
- ◆ byudjet bilan hisoblashishlar;
- ◆ kredit va bank bilan munosabatlar.

Moliyaviy strategiya har tomonlama korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini, ichki va tashqi omillariining ob‘ektiv xususiyatlarini hisobga oladi. Agar korxonaning moliyaviy strategiyasi mahsulotlar bozoridagi vujudga

kelgan sharoitga va korxonaning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlariga javob bermasa bu salbiy oqibatlarga olib keladi.

Bosh strategik maqsadlari va ayrim strategik vazifalarning bajarilishi strategiyasiga (ayrim strategik maqsadlarga erishishlar) qarab ***bosh va tezkor moliyaviy strategiyani*** farqlash lozim.

Bosh moliyaviy strategiya deb bir yilga korxonaning faoliyatini aniqlaydigan, uning hamma darajadagi byudjetlar bilan o‘zaro munosabatlarini, korxonaning daromadini shakllantirish va undan foydalanishni, moliyalashtirish manbalari va talab miqdorlarini aniqlaydigan moliyaviy strategiyaga aytiladi.

Joriy davrda mavjud moliyaviy resurslarga moslashish uchun, ichki zahiralarni jalb qilish va mablag‘larni foydalanish ustidan nazorat qilish uchun, ba’zan esa iqtisodiy nochor sharoitda, moliyaviy strategiyalar bir chorak, oyga yoki zarur bo‘lganda undan ham qisqa muddatga ishlab chiqiladi.

Tezkor moliyaviy strategiyaning bosh moliyaviy strategiyadan farqi shundaki, u barcha yalpi daromadni va mablag‘lar tushumlarini (ish haqi, sotilgan mahsulotlar uchun sotib oluvchilar bilan hisob-kitoblar, kredit operatsiyalar bo‘yicha tushumlar) va barcha yalpi chiqimlarni(etkazib beruvchilarga to‘lovlar, ish haqi, barcha darajadagi byudjetlar va banklardan qarzlarni qoplash) qamrab oladi. Bunday tushumlarning va xarajatlarning tarkibini sinchiklab o‘rganish rejalashtirilaetgan davrga pul tushumlari va xarajatlari bo‘yicha oborotlarni oldindan aniqlashga imkon beradi. Pul daromadlari bilan xarajatlarning tengligi yoki daromadlarning xarajatlarga nisbatan oshishi normal holat hisoblanadi.

Moliyaviy menejmentning bosh strategik maqsadi korxonani zarur va etarli darajadagi pul resurslari bilan ta‘minlash hisoblanadi. SHuning uchun bozor talabiga va korxonaning imkoniyatlariga mos keladigan moliyaviy strategiya ishlab chiqiladi va shuning asosida ishning yo‘nalishlari va bajaruvchilari bo‘yicha moliyani tashkil qilish vazifalari aniqlanadi va taqsimlanadi.

Korxonaning moliyaviy strategiyasi bosh strategik maqsadga erishish uchun quyidagi usullarni va harakatlarni o‘ziga qamrab oladi:

- moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni markazlashgan holda strategik boshqarish;
- echimi topilishi lozim bo'lgan asosiy moliyaviy muammolarni aniqlash va ularni hal etish uchun korxonaning moliyaviy boshqaruvi tomonidan zahiralardan foydalanishni tashkil etish;
- maqsadlarni bosqichlarga ajratish va har bir bosqich bo'yicha maqsadlarni belgilab olish;
- moliyaviy harakatlarning korxonaning moddiy imkoniyatlari va iqtisodiy sharoitiga mos kelishi;
- har bir vaqt mobaynida korxonaning real moliyaviy ahvolini va moliyaviy-iqtisodiy sharoitini ob'ektiv hisobga olish;
- strategik zahiralarni tayerlash va shakllantirish;
- o'zining va raqobatchilarning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olish;
- raqobatchilar tomonidan bo'ladigan bosh tahdidlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish uchun asosiy kuchlarni jalb qilish va moliyaviy operatsiyalarning yo'nalishlarini tanlash;
- raqobatchilar ustidan g'alabaga erishish uchun sa'y-harakat qilish.

Ayrim maqsadlarga erishish strategiyasi bosh strategik maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlashga yo'naltirilgan moliyaviy operatsiyalarning bajarilishini tashkil etishga qaratilgan bo'ladi.

Moliyaviy strategiyaning vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik yuritishning bozor sharoitida moliyaning shakllanishining qonuniyatini va xarakterini tadqiq qilish;
- nochor va moliyaviy krizis holati sharoitida moliyaviy boshqaruv faoliyati va korxonaning moliyaviy resurslarini shakllantirishning imkoniyatli variantlarini tayyorlash shartlarini ishlab chiqish;
- etkazib beruvchi va xaridorlar, barcha darajadagi byudjetlar, banklar va boshqa moliyaviy institutlar bilan moliyaviy munosabatlarni aniqlash, ishlab

chiqarish quvvatlaridan, asosiy fondlar va aylanma mablag'lardan ratsional foydalanish uchun korxonaning rezervlarini aniqlash va resurslarini jalb qilish;

- korxonani ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;

- korxonaning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini maksimal foyda olish maqsadida samarali jalb qilishni ta'minlash;

- moliyaviy strategiyani amalga oshirish va moliyaviy imkoniyatlarni strategik foydalanish usullarini aniqlash;

- raqobatchilarning moliyaviy strategiyasi qarashlarini, ularning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini o'rganish, moliyaviy mustahkamlikni ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- krizis moliyaviy holatda va nochor sharoitda krizisdan chiqishga tayergarlik usullarini ishlab chiqish.

Moliyaviy strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirishda asosiy e'tibor korxonaning pul daromadlarini maksimallashtirishga, ichki resurslarni jalb qilishga, mahsulotlarning tannarxini maksimal darajada pasaytirishga, foydani to'g'ri taqsimlash va foydalanishga, aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga qaratiladi.

Moliyaviy strategiyaning ahamiyatli qismi ichki normativlarni ishlab chiqishdir. Masalan, foydani taqsimlash yo'nalishlarini aniqlash normativlari. Bunday ichki normativlardan hozirgi kunda chet el kompaniyalari amaliyotida foydalanilmoqda.

Moliyaviy strategiyada inflyasiyaning tebranishlari, to'lay olmaslik risklari va boshqa fors-major (oldindan ko'zga ko'rinmaydigan) holatlari hisobga olinib, tegishli choralar nazarda tutiladi. Ular ishlab chiqarish vazifalari bilan mos kelishlari kerak va zaruriyat tug'ilganda o'zgartiriladi va to'g'rilanadi.

Moliyaviy strategiyani amalga oshirish ustidan nazorat qilish daromadlar tushumini tekshirishga, undan tejamli va oqilona foydalanishni ta'minlashga imkon beradi. YAXshi yo'lga qo'yilgan moliyaviy nazorat pul oqimlarini oshirish

yoʻli bilan ichki zahiralarni kengaytirishga, korxonaning rentabelligini oshirishga yordam beradi.

Strategik moliyaviy menejmentning oʻziga xos xususiyati va mezonlari – bu doimiy ravishda jamgʻarishni taʼminlashdan iboratdir.

Strategik moliyaviy menejmentning asosiy elementi – bu uning oʻzgaruvchanligi va moslashuvchanligidir. Firmalar strategik rivojlanishni belgilashda samara bermaydigan ishlarni moliyalashtirish ishlari bilan shugʻullanmaydilar.

Strategik moliyaviy menejment vositasida samarali rivojlanishga ikkita asosiy yoʻl bilan erishish mumkin: ichki va tashqi. Ichki yoʻl korxonaning oʻz tajribasi va imkoniyatlariga suyanadi. Tashqi yoʻl – bu boshqa samarali ishlayotgan korxonalarni yutuq va tajribalarining ishlayotgan korxonaga joriy etilishi.

Moliyaviy menejment moliyaviy qoʻyilmalarga, moliyalashtirish jarayoni va yuqori foyda olishga tabaqalashtirilgan holda yondoshadi. Kapital harakatini olib borish jarayonida korxonaning moliyaviy barqarorligini taʼminlash, toʻlov qobiliyatini yaxshilash va bankrotlikning oldini olishga harakat qilish lozim. Moliyaviy menejmentni strategiyasi maqsadi - doimiy uzoq yillar davomida foyda olishdir.

4.2. Moliyaviy rejalashtirish - moliyaviy boshqarishning tarkibiy qismi. Moliyaviy rejalashtirishning mohiyati, tamoyillari va vazifalari

Bozor munosabatlari sharoitida turli shakldagi tadbirkorlik subʼektlari tashkil etilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirkorlik subʼektlarining moliyaviy boshqaruvida rejalashtirish asosiy rol oʻynaydi. Iqtisodiyotning barcha shakllarida rejalashtirish ishlab chiqarish va isteʼmol boʻgʻinlarining izchil va bir maromda ishlashi, ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Rejalashtirish – boshqarishning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy tizimning kelgusi holatini, unga erishish yo‘llari, usullari va vositalarini belgilab beruvchi rejalarini ishlab chiqish va amalda qo‘llashdan iboratdir.

Moliyaviy rejalashtirish - muayyan muddat uchun moliyaviy resurslarning harakati va tegishli moliyaviy munosabatlarning harakatini asoslashdan iborat jarayondir.

Tadbirkorlik sub'ektning moliyaviy faoliyatida ayrim hollarda alohida olingan yoki bir turkum operatsiyalar uning faoliyatini muhim ob'ekti bo'ladi. Bunda turli pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish uchun resurslarning harakatigina emas, balki ularga vositachilik qiluvchi moliyaviy munosabatlar hamda yuzaga keladigan narx navo nisbatlari ham hisobga olinadi.

Korxonada faoliyatini moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifasi har bir xo'jalik va moliyaviy operatsiyasining pul mablag'lari ehtiyojini, xarajatlar hajmi va tarkibini, korxonani butun ishi yakunlarini hisob-kitob qilishdan iborat. Moliyaviy rejalashtirish yordamida daromadlar, ularning provard natijalarini hisobga olgan holda oqilona taqsimlash kabilar prognoz qilinadi.

Moliyaviy rejalashtirish iqtisodiyot sohalarida korxonalarining ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rejalashtirishning asosiy va uzviy qismi hisoblanadi.

Moliyaviy rejalashtirish quyidagi tarzda amalga oshiriladi. Avval korxonaning rivojlanish istiqbollari tahlil etilib, mavjud rivojlanish yo'nalishini o'zgartirishga qodir tamoyillar belgilanadi. So'ngra korxonaning raqobatbardoshligi tahlil etiladi, turli faoliyat sohalaridagi taraqqiyot istiqbollari taqqoslab chiqilib, moliyaviy resurslarni taqsimlashning ustuvor yo'nalishlari belgilanadi.

Hozirgi sharoitda dolzarb bo'lgan moliyaviy rejalashtirish metodologiyasini aks ettiruvchi tamoyillar quyidagilarda bayon etiladi:

- *ob'ektiv zaruriylik tamoyili* moliyaviy rejalashtirishdan xo'jalik yuritishning barcha darajalarida moliyalarini boshqarishning birlamchi bosqichi sifatida foydalanish. Bu shuni anglatadiki, mazkur jarayon moliyaviy

imkoniyatlarini aniqlash, oqilona qiymat nisbatlari, va topshiriqlarni bajarish uchun pul resurslarining harakatini prognoz qilish vositasi va usullari sifatida zarurdir;

- *samaradorlik tamoyili* mazkur jarayonning sifat jihatini aks ettirib, uni har bir sub'ekt faoliyatidagi alohida operatsiyalar bo'yicha ijobiy yutuqlarga erishishga, tegishli iqtisodiy yoki ijtimoiy samarani qo'lga kiritishga yo'naltiradi;

- *uyg'unlik va maqsadlar birligi tamoyili*, ishlab chiqarish va moliyaviy topshiriqlarni, moddiy va moliyaviy resurslar harakatini turli boshqaruv darajalaridagi rejalarini muvofiqlashtirib olib borishni taqazo etadi;

- *ilmiylik tamoyili*, u rejalashtirishning asosiy jihatlariga alohida e'tibor berib, belgilanayotgan topshiriqlar realligi va samaradorligini, rejadagi topshiriqlarning ijtimoiy ehtiyojlari uchun resurslarning mavjudligini, moliyaviy topshiriqlarning vaqti va bajarilishini muvofiqlashtirilishni ta'minlaydi.

Rejalashtirishning vazifalariga korxonaning turi va katta-kichikligiga qarab baho berish mumkin.

Har qanday korxonaning boshqaruvi uning turi va katta-kichikligidan qat'i nazar kelgusi davr uchun iqtisodiy faoliyat sohasida qanday vazifalarni rejalashtirishi mumkinligini bilishi shart. SHu bilan birga, ayrim faoliyat turlarini rejalashtirishda oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun qanday iqtisodiy resurslar talab qilinishini bilishi kerak. Masalan, bu sarmoyani jalb etishga va sarmoyalarning hajmini belgilashga taalluqlidir.

Tadbirkorlik sub'ektlarini rejalashtirish tarkibida moliyaviy rejalashtirishning quyidagi asosiy vazifalariga e'tibor berilishi zarur:

- takror ishlab chiqarish jarayonini zaruriy moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash. Bunda moliyalashtirishning maqsadlari, manbalari, ularning shakllantirilishi va foydalanilishiga;

- xo'jalik sub'ektining byudjet va nobyudjet fondlari, banklar va boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarishiga kafolatlarni ta'minlash;

- tovar-moddiy zahiralar harakatlanishi uzluksizligi va bir maromdaligi jarayonini moliyaviy quvvatlab turish;

- korxonaning moliyaviy ahvoli, to'lov qobiliyati va kreditni to'lashga qodirligi ustidan nazorat qilish.

Moliyaviy rejalashtirish takror ishlab chiqarishning qiymat jihatiga qaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi belgilanayotgan loyihalar va ularning samaradorligini ta'minlashning moliyaviy imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat. Moliyaviy rejalashtirish bo'lajak xarajat va daromadlarni yanada aniq belgilashdan, zarur mablag'larning hajmini va bo'lajak moliyaviy natijalarni to'g'ri hisob-kitob qilishdan iborat bo'ladi.

Moliyaviy prognozlash rejalashtirishning muhim elementlari sifatida byudjetni tuzish va kelgusidagi moliyaviy ehtiyojlarni baholashning asosi hisoblanadi.

Moliyalashtirish **ichki va tashqi manbalar** hisobidan amalga oshiriladi. Ichki moliyalashtirish pul mablag'larining harakati natijasida tadbirkorlik sub'ektlarining me'yordagi ishlab chiqarish faoliyatiga monand ravishda amalga oshiriladi, tashqi moliyalashtirish tadbirkorlik sub'ektlarining hamkorlari tomonidan kelib tushgan kapital bilan shuningdek, investorlar va bankning kredit mablag'lari asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub'ektlari kelgusidagi tijorat operatsiyalari va ular bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni chamalab ichki moliyalashdagi ehtiyojlarini oldindan baholashlari mumkin.

4.3. Moliyaviy rejalashtirishning asosiy ko'rsatkichlari va usullari

Moliyaviy rejalashtirish muddatlari va ko'rsatkichlariga ko'ra odatda uch turga—uzoq muddatli, o'rta muddatli va qisqa muddatli rejalashtirishga bo'linadi.

Uzoq muddatli rejalashtirish. Uzoq muddatli rejalashtirish o'rta va qisqa muddatli rejalashtirish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi va jahon amaliyotida keng qo'llaniladi. Uzoq muddatli reja, odatda, **uch va besh yillik** davrlarni o'z ichiga oladi. U ko'proq bayon ko'rinishida bo'lib, korxonaning umumiy strategiyasini belgilab beradi, chunki bunday uzoq muddat uchun barcha

hisob-kitoblarni aniq bashorat qilish ancha qiyin. Uzoq muddatli reja korxonalar rahbariyati tomonidan ishlab chiqilib, unda korxonaning istiqboldagi asosiy strategik maqsadlari belgilanadi.

Uzoq muddatli rejalashtirishda belgilanadigan asosiy sohalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- tashkiliy tarkibi;
- ishlab chiqarish quvvatlari;
- kapital quyilmalar;
- moliyaviy mablag'larga talablar;
- tadqiqot va ishlanmalar;
- bozor ulushi va hokazolar.

Korxonaning tashkiliy tarkibi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- optimal shaffoflikni, ya'ni uning imkon qadar oddiy, aniq va tushunarli bo'lishini;

- oraliq bo'g'inlarni mumkin qadar kamroq o'z ichiga olishni, ko'rsatma beruvchi va axborot tizimining juda katta bo'lmasligi;

- kelajak uchun menejerlar tayyorlash shart-sharoitini yaratishi kerak.

Pul mablag'larining sarfida, xususan, sarmoyani takror ishlab chiqarishga yo'naltirish, investitsiyalarda pul mablag'lari kreditlash tizimi hamda qimmatli qog'ozlar bozori orqali jalb etilishi mumkin.

Moliyaviy resurslar muayyan vaqt mobaynida hal qiluvchi darajada mahsulotni sotishdan pul tushumlaridan shakllanadi. Aynan sotishdan naqd pul tushumining nooqilona boshqarilishi moliyaviy-iqtisodiy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi, naqd mablag'larning yo'qligi yoki etishmasligi hatto foydaning yo'qligiga qaraganda ham tezroq sinishga olib keladi. Demak, korxonalar faoliyatiga solingan sarmoyaning dastlab naqd pul ko'rinishida bo'lib tovar zahirasiga, so'ngra debitorlik qarzigacha va nihoyat, yana naqd pulga aylanadigan zarur eng kam miqdori qancha bo'lishi lozimligini oldindan belgilab olish kerak bo'ladi.

Foydadan ham, xarajatlardan ham moliyalashtiriladigan maxsus zahira va jamg'armalar barqarorlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qilmog'i lozim. Amaliyot

korxonalarining naqd pulni jamg'arishlari shart ekanligini ko'rsatmoqda. Bu kelgusi ehtiyojlar uchun chunonchi, soliqlarni to'lash, qarzdan uzilish, asbob-uskunalarni almashtirish, pul to'lovlarini amalga oshirish uchun kerak.

Qisqa muddatli moliyaviy reja korxonaga uchun alohida ahamiyatga ega. Bunday reja barcha qolgan rejalarni hisobga olgan holda aktivni tahlil etish va nazorat qilish imkonini beradi, unga kiritilgan zahiralarning esa zarur bo'lgan aktiv mablag'lar haqida ma'lumot beradi.

Qisqa muddatli rejalashtirish yarim yillik, oylik va hokazo bo'lishi mumkin. Yillik qisqa muddatli reja ishlab chiqarish hajmini, foyda va boshqalarni rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Bu reja turli sheriklar va mol yetkazib beruvchilarni yaqindan bog'laydi va shu sababli bunday rejalarning alohida jihatlari korxonaga - mahsulot ishlab chiqaruvchi va uning sherigi uchun umumiy bo'lishi mumkin, mazkur rejalar ular o'rtasidagi kelishishlarning qanday darajada tashkil etilishiga ham bog'liq.

Qisqa muddatli moliyaviy rejalashtirish quyidagi rejalardan tarkib topadi:

- navbatdagi moliyaviy rejadan, joriy xarajatlar (hom ashyo, mehnat haqi), joriy faoliyatdan ko'riladigan foyda yoki zarar;
- korxonaning faoliyati bo'yicha betaraf tomonning moliyaviy rejasidan: daromad (eski asbob-uskunalarni sotish), xarajat, faoliyatidan ko'riladigan foyda yoki zarar;
- kredit rejadan;
- aktivlarni ta'minlash rejasi, u o'zidan oldingi rejalarni foyda yoki zararlarni o'z ichiga oladi: foyda va zararlarning summasi, mavjud aktiv mablag'lar zahirasi tarkibi bilan ham bog'liq.

YUqorida keltirilgan rejalashtirishning turlari va ko'rsatkichlaridan to'g'ri foydalanilsa, juda katta samara beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt ham uzoq muddatli, ham qisqa muddatli rejalashtirishni qo'llashi lozim. Masalan, ko'pchilik ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik sub'ektini oladigan bo'lsak, unda rejalashtirish bo'yicha uzoq muddatli va qisqa muddatli rejalashtirishni birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki mahsulot ishlab

chiqarishni rejalashtirish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, qo'yilgan maqsad, unga erishish muddatlari, tovarlarning turi va hokazolar bilan belgilanadi.

Korxonalarining tadbirkorlik faoliyati jarayonida moliyaviy tushumlar va ulardan foydalanish istiqbolini belgilash zaruriyati tug'iladi. Moliyaviy resurslar va eng avvalo, **foyda moliyaviy rejalashtirish ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.** Foydaning taqsimlanishi moliyaviy rejada va pul mablag'lari fondlarini tashkil etish hamda sarflash smetalarida aks ettiriladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyasi *foydani taqsimlash va ishlatish* jarayonining dinamikasini turli ichki va tashqi omillar ta'sirini hisobga olgan holda tahlil qilish va nazorat etishni o'z ichiga oladi.

Bozor sharoitida mikro darajada moliyaviy rejalashtirishning ahamiyati ortadi. Chunki sub'ektlarning har bir qadami tavakkal bilan bog'liq bo'lib, uning daromad yoki zarar keltirishi turli ko'rinishlarda hisob-kitob qilingan va asoslangan bo'lishi lozim.

Rejalashtirishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, korxonalar faoliyatini rejalashtirishning oldiga qo'yiladigan **asosiy talab va vazifalarga** javob berishi lozim:

1. Rejalarning ichki va tashqi foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi.
2. Rejalashtirish tizimi, shakllari va usullari.

Rejalashtirish usullari: balans usuli, hisob-konstruktiv usuli, maqsadli-dasturiy usul, iqtisodiy-matematik usul, me'yoriy-resurs usuli va boshqalar.

3. Qisqa muddatli (joriy, operativ), o'rta muddatli va uzoq muddatli (istiqboli) rejalar. Prognozlashtirish va uni tuzish usullari.

4. Ichki xo'jalik faoliyatini rejalashtirish tizimi. Ish dasturlari va operativ rejalar tarkibi, ularni tuzish tartibi: ishlab chiqarish bo'yicha reja topshiriqlari, ishlab chiqarish resurslarini sarflash me'yorlari, ishlab chiqarish xarajatlari limitlari, mahsulot va materiallar (xizmatlar) uchun hisob baholari, ish va mehnat haqini baholashlar va boshqa topshiriqlar.

5. Yillik rejalarni mazmuni va tarkibi.

6. Moliyaviy reja. Moliyaviy rejalashtirish tamoyillari.

7. Korxonaning moliyaviy faoliyatini prognozlashtirish, moliyaviy faoliyatni joriy rejalashtirish va operativ rejalashtirish.

8. Korxonaning moliyaviy strategiyasini shakllantirish bosqichlari. Joriy moliyaviy rejalar tizimi: operatsion faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarning rejasi, investitsiya faoliyati bo'yicha daromadlar va xarajatlarning rejasi, pul mablag'larining kirimi va chiqimi rejasi, balans rejasi.

9. Byudjet turlari va ularning xususiyatlari. Joriy byudjet va kapital byudjetni shakllantirish.

10. Investitsiyalar va kreditlarni jalb etishga yo'naltirilgan biznes rejalarining mazmuni va ularga qo'yiladigan asosiy talablar.

11. Biznes-reja ustida ishlash, uning tarkibi va bo'limlarini shakllantirish: titul varag'i, biznes rejaning mundariyasi, amalga oshirilishi mo'ljallangan biznesning qisqacha tasnifi, korxonaga to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

12. Biznes-rejaning moliyaviy jihatlarini ishlab chiqish va boshqarish yo'llarini, usullarini tashkil etishni ta'minlash.

13. Investitsiya loyihalarni amaliyotga tadbiq qilishni boshqarish. Ob'ektlarni foydalanishga kiritish va qurilish bilan bog'liq investitsiya faoliyati.

4.4. Moliyaviy rejalashtirish va taxminlashtirish tizimi hamda ularni qo'llash

Korxonalarining moliyaviy faoliyatini boshqarish mexanizmining asosini **moliyaviy rejalashtirish** tashkil etadi. Moliyaviy rejalashtirish o'zida moliyaviy reja tizimini ishlab chiqish jarayonini va korxonalarining rivojlanishida zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha meyoriy reja ko'rsatkichlarini va joriy moliya yili hamda istiqboldagi moliyaviy faoliyatining samarali rivojlanishini aks ettiradi.

Moliyaviy rejalashtirish korxonada (yoki ichki firma moliyaviy rejalashtirish) uning uchta asosiy tizimidan foydalanish asosida tashil qilinadi:

- moliyaviy faoliyatni prognozlashtirish;

- moliyaviy faoliyatni joriy rejalashtirish;
- moliyaviy faoliyatni tezkor rejalashtirish.

Har bir moliyaviy rejalashtirish tizimining alohida davri va alohida natijalarini amaliyotga joriy qilish shakllari mavjud.

Jadval 4.1

Moliyaviy rejalashtirish tizimi va uning natijalaridan korxonada foydalanish shakllari

Foydani rivojlantirish tizimi	Moliyaviy rejalashtirish natijalarini amaliyotga joriy qilish shakllari	Rejalashtirish davri
1. Moliyaviy faoliyatni prognozlash tirish	Moliyaviy faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy moliyaviy strategiya va moliyaviy siyosatni ishlab chiqish	3 yilgacha
2. Moliyaviy faoliyatni joriy rejalashtirish	Moliyaviy faoliyatning alohida jihatlari bo‘yicha joriy moliyaviy rejalashtirishni ishlab chiqish	1 yil
3. Moliyaviy faoliyatni tezkor rejalashtirish	Moliyaviy faoliyatning barcha asosiy masalalari bo‘yicha to‘lov kalendari, byudjetlarning ijrosi va boshqa shakldagi tezkor reja vazifalarini ishlab chiqish	chorak, oylar

Moliyaviy rejalashtirishning barcha tizimi o‘zaro aloqada bo‘lib, ulardan aniq ketma ketlikda foydalaniladi.

Rejalashtirishning boshlang‘ich (dastlabki) boskichi prognozashtirishning asosiy yo‘nalishlarini, moliyaviy faoliyatning maqsadli parametrlarini, korxonani umumiy moliyaviy faoliyatining **strategiyasini** ishlab chiqish, joriy moliyaviy rejalashtirish parametrlari va belgilangan vazifalari orqali amalga oshirishdan iborat. O‘z navbatida joriy moliyaviy rejalashtirishning asoslarini korxonani moliyaviy faoliyatining barcha jihatlari bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri tezkor ijro etuvchi byudjetlarni ishlab chiqish va ularga etkazish lozim.

Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish aniq ***moliyaviy yoʻnalish (gʻoya)*** asosida shakllantiriladi.

Korxonalarning moliyaviy yoʻnalishi (gʻoyasi) alohida korxonaning moliyaviy faoliyatini amalga oshirishda tashkil qiluvchi tamoyillar tizimini tasvirlaydi, ular taʼsischi va menejerlarning moliyaviy mintaliteti va «missiyasini» aniq tavsiflaydi.

Korxonalarning moliyaviy yoʻnalishi (gʻoyasi) bevosita tadbirkorlik moliyaviy faoliyatini prognozlash va shu asosida korxonaga moliyaviy strategiyasini ishlab chiqishga yoʻnaltiriladi.

Korxonaning moliyaviy strategiyasi oʻzida moliyaviy faoliyatining uzoq muddatli maqsadlari tizimini, uning moliyaviy gʻoyasini aniqlash va samarali natijalarga erishish yoʻllarini aks ettiradi

2. Moliyaviy faoliyatni joriy rejalashtirish tizimi ishlab chiqilgan **strategiya** va moliyaviy faoliyatning alohida jihatlari boʻyicha **moliyaviy siyosat** negizida amalga oshiriladi. Bu rejalashtirish tizimining vazifasi joriy moliyaviy rejaning aniq shakllarini ishlab chiqishdan, korxonaga rivojlanishi oldida turgan barcha moliyalashtirish manbalarini aniqlash, daromadlar va xarajatlar tarkibini shakllantirish, korxonaning doimiy toʻlovga qobilligini taʼminlash, rejalashtirilgan davr yakuni, uning aktivlari va kapitallari tarkibini oldindan aniqlashdan iborat.

Moliyaviy faoliyatning joriy rejasi joriy moliya yili choraklari boʻyicha ishlab chiqiladi.

Korxonaning **joriy moliyaviy rejasini** ishlab chiqish **quyidagilarni oʻz ichiga oladi:**

- Korxonaga moliyaviy strategiyasi va moliyaviy faoliyatning asosiy yoʻnalishlari boʻyicha oldida turgan davrda maqsadli strategik meʼyorlarni ishlab chiqish;
- Korxonaga moliyaviy faoliyatining alohida jihatlari boʻyicha moliyaviy siyosatni ishlab chiqish;
- rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish va mahsulot sotish hajmi va korxonaga operatsion faoliyatining boshqa iqtisodiy koʻrsatkichlari;

- ishlab chiqilgan me'yorlar va alohida resurslarning xarajatlari bo'yicha me'yorlar tizimi;
- amaldagi soliq stavkasi to'lovlarining tizimi;
- amaldagi eskirishni hisoblash me'yorlari tizimi;
- moliyaviy bozorda kredit va depozit foizlarining o'rtacha stavkalari;
- o'tgan davrdagi moliyaviy tahlil natijalari.

Korxonada ishlab chiqilayotgan joriy **moliyaviy rejaning asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi.**

Operatsion faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarning rejasi korxonada joriy moliyaviy rejasining asosiy turlaridan biri bo'lib, joriy rejalashtirishning dastlabki bosqichida tuziladi. Bu rejani ishlab chiqishdan maqsad korxonaning operatsion faoliyatidan olinadigan sof foyda summasini aniqlash hisoblanadi.

Bu rejani ishlab chiqish jarayonida mahsulot sotishdan olinadigan (yalpi va sof) daromad, xarajat, soliq to'lovlari, korxonaning sof va balans foydasi bo'yicha reja ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash talab etiladi.

Investitsiya faoliyati bo'yicha daromadlar va xarajatlarning rejasi ushbu faoliyatning asosiy moliyaviy jihatlarini ta'minlashni aks ettiradi.

Bu rejani ishlab chiqishdan maqsad belgilangan investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarga ehtiyojlarning hajmini, shuningdek, investitsiya faoliyati davomida bunday resurslar tushumining ehtimollarini aniqlash hisoblanadi (mulklarni hisobdan chiqarish natijasida keladigan daromad, investitsiya foydasi va boshqalar).

Bu reja moliyaviy yilda real investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq barcha xarajatlar, shuningdek, uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar hajmining o'sishini aks ettiradi.

Pul mablag'larining tushumi va chiqimi rejasi pul oqimlarini prognozlashtirish natijalarini aks ettirishga qaratilgan.

Bunday rejani ishlab chiqishdan maqsad rejalashtirilayotgan davrning barcha bosqichlarida to'lov qobiliyatining doimiy ta'minlanishini bildiradi.

Ushbu rejada pul mablag'larining yil boshidagi qoldiq ko'rsatkichi reja davridagi tushum va chiqimi hamda pul mablag'larining yil oxiridagi qoldiq ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Balans reja o'zida korxonadagi moliyaviy mablag'lardan foydalanishning tuzilishi va aktivlari tarkibining reja davri oxiridagi natijalarini prognozlashtirishni aks ettiradi.

Balans rejani ishlab chiqishning maqsadi ayrim aktivlar turlarining o'sishi, ichki balanslashtirishni ta'minlash zaruriyati, shuningdek, Korxonaning etarli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapitalning optimal tarkibini shakllantirish hisoblanadi.

4.5. Korxonada byudjetni tuzish va byudjet rejasini ishlab chiqish

Moliyaviy faoliyatni tezkor rejalashtirish tizimi xo'jalik faoliyatini moliyaviy ta'minlashning asosiy yo'nalishlari bo'yicha qisqa muddatli reja vazifalarini kompleks ishlab chiqishdan iborat. Bunday moliya-reja vazifalarining asosiy shakli **korxonada byudjeti hisoblanadi.**

Byudjet o'z-o'zidan qisqa muddatli davrda tezkor moliyaviy rejani, bir yilgacha bo'lgan davrda (qoida bo'yicha, chorak yoki oylik davr doirasida), xo'jalik faoliyatining aniq shakllarining harakati jarayonida moliyaviy mablag'larning tushumini va xarajatlarini aks ettiradi.

U joriy moliyaviy reja ko'rsatkichlarining har bir bo'limi bo'yicha va javobgarlik markazlarining barcha shakllarida yetkazib beruvchi bosh reja hujjati hisoblanadi.

Rejali byudjetni ishlab chiqish ikki asosiy vazifani echishga qaratilgan:

- a) korxonaning bo'limlari va alohida tarkibiy birlikdagi faoliyati bilan bog'liq xarajatlarning tarkibi va hajmini aniqlash;
- b) bu xarajatlarni moliyaviy resurslar bilan qoplashni turli manbalardan ta'minlash.

Tezkor moliyaviy rejalashtirish jarayonida byudjetlarni guruhlashtirish qator xususiyatli belgilarga ko‘ra qo‘llaniladi .

Korxonada faoliyatining sohalariga ko‘ra, byudjetlar **operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat** bo‘yicha ajratiladi. Bu byudjetlar joriy moliyaviy rejaning tarkibini ishlab chiqish tartiblarini choraklar yoki oylar bo‘yicha detallashtirib aks ettiradi.

Joriy byudjet korxonaning daromad va xarajatlarining rejasini aniqlashtiradi. U ikki bo‘limdan iborat: 1) **joriy xarajatlar**; 2) operatsion faoliyatdan olingan **joriy daromadlar**. Joriy byudjetning taxminiy shakli jadvalda keltirilgan.

Jadval 4.2

Joriy byudjetning taxminiy shakli

Ko‘rsatkichlar	CHorak bo‘yicha jami	SHu jumladan, oylar bo‘yicha		
		yanvar	fevral	mart
1	2	3	4	5
I. Joriy xarajatlar				
1. Material xarajatlar (xarajatlarning alohida moddalari bo‘yicha)				
2. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi				
3. Mehnat haqi bo‘yicha xarajatlar				
4. Mehnatga haq to‘lash fondidan ajratmalar				
5. Soliq to‘lovlari				
6. Boshqa bevosita xarajatlar				
7. Joriy ustama xarajatlar				
Jami joriy xarajatlar				
II. Operatsion faoliyatdan daromadlar				
1. Mahsulotlarni sotishdan tushgan daromadlar				
2. Boshqa operatsion faoliyatdan tushgan daromadlar				
Jami operatsion daromadlar				
III. Mahsulot bahosiga kiruvchi soliqlar (QQS, aksiz va boshqalar)				
IV. Sof daromad (II-III)				
V. YAlpi operatsion foyda (IV –I)				

VI. Foydadan to‘lanadigan soliq to‘lovi va yig‘imlari				
VII. Sof operatsion foyda (V- VI)				

Kapital byudjet – aniq ijrochilarga kapital qo‘yilmalarning joriy rejasini yetkazib berish shaklidir. U ikki bo‘limdan iborat. Kapital byudjetning taxminiy shakli quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval 4.3

Kapital byudjetning taxminiy shakli

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>CHorak bo‘yicha jami</i>	<i>SHu jumladan, oylar bo‘yicha</i>		
		<i>yanvar</i>	<i>fevral</i>	<i>mart</i>
1	2	3	4	5
Kapital xarajatlar				
1. Bino va inshootlar sotib olish yoki qurish				
2. Mashina va mexanizmlar sotib olish				
3. Asbob – uskunalar sotib olish (inventar va xo‘jalik jihozlaridan tashqari)				
4. Nomoddiy aktivlarni sotib olish				
5. Boshqa turdagi kapital xarajatlar				
6. Investitsion faoliyat bo‘yicha soliq va boshqa majburiy to‘lovlar				
7. Kapital xarajatlarning zahirasi				
Jami xarajatlar				
Mablag‘lar tushumining manbalari				
1. Investorning kapital xarajatlarni moliyalashga yo‘naltirilgan o‘z mablag‘lari				

2. Aksiyadorlar(paychilar)ning pay badallari 3. Moliyaviy lizing 4. Obligatsiya emissiyasi 5. Bank kreditlari 6. Moliyaviy resurslarni jalb etishning boshqa manbalari				
Jami mablag'larning tushumi				
Mablag'larning tushumi va xarajatlarning qoldig'i				

4.6. Moliyaviy o'sish rejasi

Korxonada faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning o'z manbalari kengayib borishi moliyaviy o'sishning mazmunini tashkil etadi. Qarz manbalar hisobiga korxonada moliyaviy resurslari kengaytirilishi tom ma'noda moliyaviy o'sish deb qaralishi o'rinli emas, chunki buning hisobiga erishilgan moliyaviy o'sish vaqtinchalik xarakterda bo'lib, qarzlar qaytarilganda moliyaviy resurslar ham muvofiq ravishda kamayadi. Demak, korxonadagi moliyaviy o'sish jarayoni korxonada kapitali umumiy hajmining ortib borishida ifodalanadi. Kapital hajmining nominal ravishda ortishi korxonada kapitaliga yangi ulushlar qo'shilishi, taqsimlanmagan foydaning ko'payishi, grantlar va subsidiyalar olinishi, shuningdek korxonada aktivlari balansdagi qiymatining ularni qayta baholash natijasida ortishi orqali sodir bo'lishi mumkin. Lekin, so'nggi holda kapitalning real hajmi amalda o'zgarishsiz qoladi. Chunki aktivlarni qayta baholashda hech qanday yangi boylik hosil bo'lmaydi.

Korxonada kapitalini oshirishning eng maqbul varianti foyda hajmini oshirishga erishish hisoblanadi. Buning uchun esa ishlab chiqarish va savdo faoliyati samarali olib borilishi lozim. Kapitalni yangi ulushlar hisobiga kengaytirish eng ko'p darajada aksiyadorlik jamiyatlariga, ayniqsa ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga xos.

Korxonada moliyaviy o'sishni ta'minlashda ichki manbalar etakchi rol o'ynashi eng maqbul hisoblanadi. Chunki foydaning ortishi aksiyalarga

to'lanadigan dividendlar miqdori orqali aksiyalarning jozibadorligini va bozor bahosini oshiradi. Ikkilamchi bozordagi aksiyalar bahosi aksiyalar qo'shimcha emissiyasida birlamchi bozordagi baholarning ham yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Bu holda aksiyalar emissiyasi orqali jalb etilayotgan mablag'lar miqdori aksiyalarning nominal qiymatidan yuqori bo'ladi va korxonadagi moliyaviy o'sishga ko'maklashadi. O'z navbatida korxonaning foyda va rentabellik ko'rsatkichlari moliyaviy menejmentning sifatiga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun moliyaviy o'sishni rejalashtirishda ushbu omillarni hisobga olish lozim bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Yillik rejalarning mazmuni va tarkibini tushuntiring.
2. Moliyaviy rejalashtirishning tamoyillarini aytib bering.
3. Korxonaning moliyaviy faoliyatini prognozlashtirish, moliyaviy faoliyatni joriy va tezkor rejalashtirishga ta'rif bering.
4. Korxonaning moliyaviy strategiyasini shakllantirish bosqichlari. Joriy moliyaviy rejalar tizimi: operatsion faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarning rejasi, investitsion faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarning rejasi, pul mablag'larining kirimi va chiqimi rejasi, balans rejasi haqidagi tushunchalaringizni bayon eting.
5. Korxonaning byudjetining turlari va ularning xususiyatlari, joriy byudjet va kapital byudjetni shakllantirishni tushuntiring.
6. Moliyaviy o'sish rejasini qanday tushunasiz?

Testlar

1. Korxonaning moliyaviy strategiyasi quyidagi qismlar bo'yicha tuziladi:
 - A) daromadlar va xarajatlarning bo'yicha;
 - B) xarajatlarning va ajratmalar bo'yicha;
 - V) byudjet bilan hisoblashlar bo'yicha;

G) daromadlar va mablagʻlarning tushumi, xarajatlar va ajratmalar, byudjet bilan hisoblashlar, kredit va bank bilan munosabatlar boʻyicha.

2. Moliyaviy rejalashtirish quyidagi tarzda amalga oshiriladi.

A) korxonaning rivojlanish istiqbollari tahlil etiladi;

B) rivojlanish yoʻnalishini oʻzgartirishga qodir tamoyillar belgilanadi;

V) korxonaning raqobatbardoshligi tahlil etiladi;

G) yuqoridagilar asosida turli faoliyat sohalaridagi taraqqiyot istiqbollari taqqoslab chiqilib, moliyaviy resurslarni taqsimlashning ustuvor yoʻnalishlari belgilanadi.

3. Moliyaviy boshqaruv samarali boʻlishi uchun korxonaning tashkiliy tarkibi quyidagilarni taʼminlashi lozim:

A) optimal shaffoflikni, yaʼni uning imkon qadar oddiy, aniq va tushunarli boʻlishini;

B) oraliq boʻgʻinlarni mumkin qadar kamroq oʻz ichiga olishni, koʻrsatma beruvchi va axborot tizimining juda katta boʻlmasligi;

V) kelajak uchun menejerlar tayyorlash shart-sharoitini yaratishi kerak;

G) barcha javoblar birgalikda toʻgʻri.

4. Moliyaviy oʻsishning mazmuni

A) qarz manbalar hisobiga korxonada moliyaviy resurslari kengaytirilishi;

B) korxonada aktivlari balansdagi qiymatining ularni qayta baholash natijasida ortishi;

V) kapital hajmining nominal ravishda ortishi;

G) korxonada faoliyatini moliyaviy resurslar bilan taʼminlashning oʻz manbalari kengayib borishi.

5. Korxonaning joriy moliyaviy rejasini ishlab chiqish quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

A) korxonada moliyaviy strategiyasi va moliyaviy faoliyatning asosiy yoʻnalishlari boʻyicha oldida turgan davrda maqsadli strategik meʼyorlarni ishlab chiqish;

B) korxonada moliyaviy faoliyatining alohida jihatlari bo'yicha moliyaviy siyosatni ishlab chiqish;

V) rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish va mahsulot sotish hajmi va korxonada operatsion faoliyatining boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlari;

G) barcha javoblar birgalikda to'g'ri.

V BOB. KORXONA AKTIVLARINING TARKIBI VA ULARNI BOSHQARISH

5.1. Korxonada aktivlarining iqtisodiy mohiyati va guruhlanishi

Korxonada ixtiyorida iqtisodiy resurslar korxonaning aktivlari deb ataladi. Aktivlarning eng muhim xususiyati shundaki, ular joriy davrda va (yoki) kelajakda korxonaga iqtisodiy naf keltiradi. O'z navbatida bu iqtisodiy naf korxonada aktivlarining ko'payishida yoki iqtisodiy majburiyatlarning kamayishida ifodalanadi.

Korxonaning joriy davrda iqtisodiy naf keltiruvchi aktivlari joriy (qisqa muddatli) aktivlarni tashkil etadi. Joriy davrdan tashqarida naf keltiruvchi aktivlar esa, uzoq muddatli aktivlar deb yuritiladi. Joriy aktivlarda mujassamlashgan mablag'lar korxonaning *aylanma mablag'laridir*. Uzoq muddatli aktivlarda mujassamlashgan mablag'larni ba'zan *oborotdan tashqaridagi aktivlar* deb aytadilar. Ularning qaytadan pul resurslariga aylanishi aylanma mablag'larga nisbatan ancha sekin kechadi.

Korxonada kapitalning *uzoq muddatli aktivlarni* shakllantirishni moliyalash uchun xizmat qilayotgan qismi *asosiy kapitalni* tashkil etadi. Uzoq muddatli aktivlar tarkibiga *asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar* uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar, kapital qo'yilmalar va uzoq muddatli debitorlik qarzlari kiritiladi.

Xo'jalik amaliyotida *asosiy vositalar* va *nomoddiy aktivlar* tarkibiga bir yildan ko'proq muddat xizmat qiladigan, ishlab chiqarish, tijorat yoki ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan, qayta sotish uchun mo'ljallanmagan aktivlar kiritiladi.

Qiymatining mahsulot tannarxiga yoki davr xarajatlari tarkibiga o'tib borishi xususiyatlariga ko'ra moddiy aktivlar uch guruhga bo'linadi:

- 1) amortizatsiya qilinadigan moddiy aktivlar (binolar, uskunalar va boshqa shu kabilar);

2) emirilishga tegishli bo'lgan moddiy aktivlar (foydali qazilmalar, o'rmon boyliklari);

3) emirilishga tegishli bo'lmagan va amortizatsiya qilinmaydigan moddiy aktivlar (yer).

Asosiy vositalar hisoblanmaydigan boshqa tahlil qilinadigan aktivlar qatoriga tugallanmagan qurilish, eskirish qiymati bilan nomoddiy aktivlar va boshqalar kiritiladi.

Moliyaviy menejmentning asosiy vazifasi asosiy mablag'larlar tahlil ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasiga asoslangan holda ularni moliyalashtirishning ustivor yo'nalishlarini aniqlashdir.

Korxonalarda joriy aktivlarni boshqarish aktivlarni boshqarish tizimining muhim bug'inlaridan biri sanaladi. Joriy aktivlar ko'p xollarda aylanma mablag'lar yoki aylanma kapital deb ham yuritiladi. Umuman olganda korxonalarining aylanma mablag'lari - bu uning joriy aktivlariga quyilgan kapitallarning qismi hisoblanadi.

Korxonalar aylanma mablag'larining tarkibi va ularni boshqarish masalalari alohida bobda keltiriladi.

5.2. Asosiy vositalar harakatini boshqarish

Korxonaning asosiy vositalari deb, ishlab chiqarish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etib, o'zining qiymatini mahsulot qiymatiga o'tkazib boruvchi aktivlarga aytiladi. Asosiy vositalarning miqdorini pulda ifodalash uchun asosiy fondlar atamasidan ham foydalaniladi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb ataladi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko'ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari o'z mohiyatiga ko'ra, korxonaning ishlab chiqarish potensialini tashkil qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

* ishlab chiqarish binolari va inshootlari;

- * uzatish qurilmalari;
- * quvvat mashinalari va uskunalari;
- * ishchi mashinalar va uskunalari;
- * transport vositalari;
- * o'lov, tartibga solish asbob-uskuna va qurilmalari;
- * foydalanish muddati bir yildan kam bo'lmagan va qonunchilikda

belgilab qo'yilgan qiymatlardagi asbob-uskuna va ishlab chiqarish inventari.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari *korxonada asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo'lib, shu sababli o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazmaydi.* Bular qatoriga asosan korxonada balansida turuvchi turar joy, oshxona, qozonxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog'chasi va yashilar, sport-sog'lomlashtirish va boshqa ob'ektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog'lomlashtirish yo'nalishidagi noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish asosiy fondlari bilan foydalanish muddati, natural shaklning saqlanishi, o'z qiymatini sekin-asta yo'qotishi kabi ko'p jihatlari bilan o'xshashdir.

Asosiy fondlar mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan rolga qarab ikki qismga bo'linadi:

- 1) aktiv (faol) fondlar,
- 2) passiv (nofaol) asosiy fondlarga.

Aktiv (faol) asosiy fondlarga kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari va asbob-uskunalar, o'tkazgich jihozlari, o'lchash va tartibga solish asboblari kiradi. **Passiv (nofaol)** qismga esa binolar, inshootlar va transport vositalari kiritiladi. Asosiy fondlarning aktiv (faol) qismi ishlab chiqarish asbob uskunalaridan iborat bo'lganligi uchun, ular mehnat vositalari sifatida mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashadilar. Asosiy fondlarning passiv (nofaol) qismi esa mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydi, lekin ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz olib borish uchun shart-sharoit yaratadi. Odatda asosiy fondlarning aktiv (faol) qismining salmog'i qancha ko'p bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati ham shuncha ko'p bo'ladi. Asosiy

fondlarning aktiv (faol) qismining oshirish yo'llari quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi:

- 1) ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasini oshirish;
- 2) ishlab chiqarish maydonlaridan oqilona foydalanish;
- 3) bino va inshootlarni qurishda qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish va hokazolar.

Asosiy vositalarni sotib olish, qurish, ishlab chiqarish yoki holatini yaxshilash to'g'ridan to'g'ri xarajatlarni, jumladan, undan maqsadli foydalanish uchun zarur bo'lgan o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati - bu asosiy vositalarni yaratish (qurish va qayta qurish) yoki sotib olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar qiymati bo'lib, jumladan to'langan va qayta qoplanmaydigan soliqlar va yig'imlar, shunindek tashib keltirish va montaj qilish, o'rnatish va foydalanishga topshirish bo'yicha xarajatlarni va aktivni tayyor holga keltirish bo'yicha boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati davriy ravishda **qayta baholanadi**. Qayta baholash natijasidan keyingi asosiy vositalar qiymati **tiklash qiymati** deb ataladi. Ma'lum sanada amal qilaetgan bozor baholari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati **joriy qiymat** deb ataladi. **Qoldiq qiymat** - asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati yoki joriy qiymatidan to'plangan amortizatsiya summasini ayirib aniqlangan qiymatdir. **Tugatish qiymati** - bu asosiy vositalarni tugatishda paydo bo'ladigan daromaddan tutish (ekspluatatsiya) xarajatlarini ayirgandan keyingi qiymatdir.

Asosiy vositalarning eskirishi va eskirgan qiymatning xarajatlar tarkibiga kiritilishi asosiy vositalarning **amortizatsiyasida** ifodalanadi.

Amortizatsiyani hisoblash usullari:

- 1) qiymatni bir tekisda hisobdan chiqarish usuli;
- 2) bajarilgan ishlar hajmiga proporsional ravishda amortizatsiyani hisoblash usuli (ishlab chiqarish usuli);
- 3) tezlantirilgan hisoblash usuli:

- sonlar yig'indisi bo'yicha qiymatni hisobdan chiqarish usuli;
- qoldiqni kamaytirish (kamayib boruvchi qoldiq) usuli.

Qiymatni bir tekisda hisobdan chiqarish usulida ob'ektning amortizatsiyalanadigan qiymati uning xizmat qilish muddati davri mo'aynida bir tekisda hisobdan chiqariladi. Amortizatsiyalanadigan qiymat ob'ektning boshlang'ich qiymatidan uning tugatish qiymatining ayirmasi sifatida aniqlanadi. Amortizatsiya normasi esa xizmat muddatiga mutanosib ravishda hisoblab chiqiladi, masalan xizmat muddati 5 yil bo'lganda amortizatsiya normasi 20 foizga teng bo'ladi.

Bajarilgan ishlar hajmiga proporsional ravishda amortizatsiyani hisoblash usuli (ishlab chiqarish usuli) eskirish ekspluatatsiya natijasidir va uni hisoblash jarayonida vaqt rol o'ynamaydi degan fikrga asoslanadi .

Qiymatni tezlashtirilgan hisobdan chiqarish usuli asosiy vositalarning eskirishida *ma'naviy eskirish* ustun turadi degan farazga asoslanadi. SHuning uchun dastlabki yillarda hisoblanayotgan amortizatsiya summasi yuqori bo'ladi va yil sayin kamayib boradi. Amortizatsiya normasi aniqlanishini quyidagi misolda ko'rsatish mumkin. YUK mashinasining taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddati 5 yil. Foydalanish yillari summasi - 15 yil (kumulyativ son, 1dan 5gacha sonlar yig'indisi 15ga teng). Birinchi yil uchun amortizatsiya normasi 5:15, ikkinchi yil uchun amortizatsiya normasi 4:15, uchinchi yil uchun amortizatsiya normasi 3:15, to'rtinchi yil uchun amortizatsiya normasi 2:15 va beshinchi yil uchun amortizatsiya normasi 1:15 deb olinadi. Demak, beshinchi yil uchun hisoblanadigan amortizatsiya summasi birinchi yildagidan 5 marta kamroq bo'ladi.

Kamayib boruvchi qoldiq usulida amortizatsiya normasi sifatida bir tekis usuldagiga nisbatan ikki baravar oshirilgan norma qabul qilinadi. Lekin amortizatsiyalanadigan qiymat sifatida asosiy vositaning tegishli yildagi qoldiq qiymati olinadi. YA'ni birinchi yilda amortizatsiya *boshlang'ich qiymatga* nisbatan hisoblanadi. Ikkinchi yilda boshlang'ich qiymatdan birinchi yil hisoblangan amortizatsiya summasi chiqarib tashlanadi va hosil bo'lgan *qoldiq qiymatga* nisbatan amortizatsiya hisoblanadi va hokazo.

Korxonada mavjud asosiy vositalarning butligini ta'minlash va ulardan oqilona foydalanishni nazorat qilib borish uchun asosiy vositalarning **inventarizatsiyasi**, ya'ni yo'qlamasi o'tkaziladi. Bu *moliyaviy boshqaruv* jarayonidagi muhim tadbirlardan biri bo'lib, yo'qlama qilishni boshlangunga qadar quyidagilarni tekshirish zarur:

- inventar varaqalari, inventar daftarlari yoki ro'yxatlarining mavjudligi va qanday holatdaligi;
- texnik pasportlar yoki boshqa texnik hujjatlarning mavjudligi va qanday holatdaligi;
- korxonada tomonidan ijaraga, saqlashga va vaqtincha foydalanishga topshirilgan yoki qabul qilingan asosiy vositalarga doir hujjatlarning mavjudligi. Hujjatlar yo'k bo'lsa, ularning olinishi yoki rasmiylashtirilishini ta'minlash zarur bo'ladi.

Buxgalteriya hisobi registrlari yoki texnik hujjatlarda tafovutlar, yoxud noaniqliklar topilgan taqdirda ularga tegishli tuzatishlar va aniqliklar kiritilishi kerak.

Asosiy vositalarni inventarizatsiyalovchi komissiya ob'ektlarni natura (ashyo) ko'rinishida ko'zdan kechiradi va yo'qlama qilish ro'yxatlarida ularning *to'lik nomi, vazifasi, inventar raqamlari va asosiy texnik yoki foydalanish ko'rsatkichlarini va ahvolini* qayd etadi.

Hisobga aks ettirilmagan ob'ektlar aniqlaganda, shuningdek, hisob registrlarida ularni tavsiflaydigan ma'lumotlar bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan ob'ektlar aniqlansa, komissiya yo'qlama qilish ro'yxatiga ana shu ob'ektlarni yoki etishmaydigan yoki to'g'ri ma'lumotlarni kiritadi.

Inventarizatsiyalash natijasida aniqlangan, lekin *hisobda bo'lmagan ob'ektlarni baholash joriy qiymat* bo'yicha amalga oshiriladi, eskirish esa ob'ektlarning haqiqiy texnik holati bo'yicha belgilanadi. Baholash va eskirish to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Asosiy vositalar ro'yxatga ob'ektning asosiy vazifasiga muvofiq nomlari bo'yicha qayd etiladi. Agar ob'ekt tiklangan, ta'mirlangan, kengaytirilgan va yoki

qayta jixozlangan va buning oqibatida uning asosiy vazifasi o'zgargan bulsa, u ro'yxatga *yangi vazifasiga muvofiq keladigan nom* bilan kiritiladi.

Agar komissiya tomonidan kapital xarakterdagi amalga oshirilgan ishlar (yangi qavatlarni qurish, yangi qo'shimcha xonalar qurish va boshqa) yoki qurilish va inshootlarni qisman tugatish (ayrim konstruksiya elementlarini buzish) ishlari buxgalteriya hisobida noto'g'ri aks ettirilganligi aniqlansa, komissiya tegishli hujjatlar bo'yicha ob'ektning boshlang'ich qiymatining ko'payishi yoki kamayishi summasini aniqlashi va amalga oshirilgan o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni ro'yxatda keltirilishi lozim.

Bir vaqtning o'zida komissiya bunda ayibdor shaxslarni va u yoki bu ob'ektlardagi o'zgarishlar hisob registrlarida aks etmaganligi sabablarini aniqlashi lozim.

Mashinalar, uskunalar va kuch kurilmalari yo'qlama qilish ro'yxatlariga Yakka tartibda, *inventar raqami, tayyorlagan zavodi, chiqarilgan yili, vazifasi, quvvatlari* va hokazolar ko'rsatilgan holda kiritiladi.

Bir xil qiymatli, bir sex yoki bo'limga bir vaqtda kelib tushgan va guruhlab hisobga olish inventar kartochkasida hisobga olingan xo'jalik inventarlari yo'qlama qilish ro'yxatlarida bu buyumlarning sonini ko'rsatgan holda nomlari bo'yicha keltiriladi.

Asosiy vositalarning inventar ob'ektlariga berilgan raqamlar, qoidaga ko'ra, **o'zgarmasligi kerak**. Ob'ektlar o'zlarining texnik-ishlab chiqarish vazifasiga bo'yicha kiritilishi kerak bo'lgan asosiy vositalar guruhidan boshqa guruhga xato ravishda kiritilgan hollarda, shuningdek noto'g'ri raqam kuyilganligi aniqlangan hollarda raqamlar o'zgartirilishi mumkin.

Invetarizatsiya paytida xo'jalik yurituvchi sub'ektdan tashqarida bo'lgan asosiy vositalar ob'ektlari (uzoq reyslarda bo'lgan dengiz va daryo kemalari, temir yo'l harakatdagi tarkibi, avtomashinalar, kapital ta'mirlashga yuborilgan mashina va uskunalar va hokazo) doimiy ishlaydigan yoki ishchi komissiya tomonidan, ular xo'jalikdan vaqtincha chiqib ketishi paytiga qadar yo'qlama qilinishi kerak.

Foydalanishga yaroqsiz va tiklab bo'lmaydigan asosiy vositalar, yo'qlama qilish **ro'yxatiga kiritilmaydi**. Ana shu ob'ektlarga **alohida ro'yxat** tuziladi va ularni foydalanishga topshirish vaqti va ushbu ob'ektlarni yaroqsiz holga keltirgan sabablar (shikastlanish, to'la eskirish va hokazolar) ko'rsatiladi. Bunday ob'ektlarni hisobdan chiqarish buxgalteriya hisobi qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zining asosiy vositalarini inventarizatsiya qilish bilan bir qatorda **ijaraga olingan** va **ma'suliyatli saqlashda** bo'lgan asosiy vositalar ham tekshiriladi. Bunday ob'ektlar bo'yicha alohida ro'yxat tuziladi, unda ana shu ob'ektlar ma'suliyatli saqlash yoki ijaraga qabul qilinganligini qaysi hujjatlar bilan amalga oshirilganligi ko'rsatiladi.

Asosiy vositalarning dastlabki qiymati **infllyasiyani** va boshqa omillarni e'tiborga olgan holda vaqti-vaqti bilan **qayta baholanishi** mumkin. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi borasidagi qonunchiligiga binoan asosiy vositalar **har yili** qayta baholab boriladi.

Asosiy fondlarni qayta baholashda **Adliya vazirligida 2002 yil 4 dekabrda 1192-son bilan ro'yxatdan o'tgan «1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida» gi Nizomga** amal qilinadi.

1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholash oldingi qayta baholash natijasida olingan ob'ektlarning dastlabki (tiklash) qiymatidan, yil davomida kelib tushgan asosiy fondlar bo'yicha esa xarid qilish qiymatidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Nizomga binoan asosiy vositalar buxgalteriya hisobiga qabul qilingandagi ularning dastlabki qiymatini o'zgartiradigan operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- belgilangan tartibga asosan vaqti - vaqti bilan o'tkaziladigan qayta baholash (qo'shimcha baholash, arzonlashtirish);
- asosiy vositalar ob'ektlarini qurib bitkazish, qo'shimcha jihozlash;
- rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish;
- qisman tugatish.

Nizom quyidagi asosiy vositalar ob'ektlarini **qayta baholashni nazarda tutadi**:

- korxonada uning xo'jalik yuritishida, tezkor boshqaruvda va uzoq muddatli ijarada (lizingda) bo'lgan, ularning texnik holatidan qat'iy nazar;
- ishlab turgan va foydalanilmaydigan, konservatsiyada bo'lgan;
- hisobdan chiqarishiga tayyorlangan, lekin belgilangan tartibda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan;
- tugallanmagan qurilish ob'ektlari va o'rnatish uchun mo'ljallangan uskunalari.

Yer uchastkalari va tabiatdan foydalanish ob'ektlari singari asosiy vositalar ob'ektlari **qayta baholanmaydi**.

Moliya yili davomida qayta baholash Respublika Hukumatining qarori va korxonada mol-mulki egalari (muassislari) ning qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

2002 yildan boshlab mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar 1 yanvar holatiga o'zlarining asosiy vositalarini yillik qayta baholashga majburlar. Mazkur qoida Vazirlar Maxkamasining 2001 yil 31 dekabrda 2002 yilgi «O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjetining parametrlari to'g'risida» 490-son qarori bilan qonunlashtirilgan.

«1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni xar yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida» gi Nizom asosiy vositalar qiymatini qayta hisoblashning ikkita usulini nazarda tutadi:

- 1 yanvarga shakllangan, baholanayotganlariga aynan o'xshash bo'lgan, yangi ob'ektlarga hujjatlar asosida tasdiqlangan **bozor narxlari** bo'yicha ob'ektlar qiymatini **bevosita qayta baholash**;

- asosiy fondlar turlari bo'yicha va ularning xarid qilish davrlariga bog'liqlikda tabaqalangan asosiy fondlar qiymatini **o'zgartirish indekslarini** qo'llagan holda ayrim ob'ektlarning dastlabki (*tiklanish*) **qiymatini indekslash**.

Asosiy vositalar qiymatini bevosita qayta baholash usuli maqbulroqdir, chunki u ob'ektlarning joriy qiymatlari to'g'risidagi xolis axborotga asoslanadi:

- tayyorlovchi tashkilotlar va ularning rasmiy dilerlari, tovar-xom ashyo birjalari, ko'chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan xuddi shunday mahsulotga doir narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

- qayta baholashni o'tkazish sanasiga va asosiy fondlarni xarid qilish sanasiga Markaziy Bankning valyuta kurslarini qo'llagan holda asosiy fondlarning qiymati to'g'risidagi (tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganida) ma'lumotlar;

- tegishli davlat organlarida mavjud bo'lgan narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- qayta baholashni o'tkazish davrida ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyolarda e'lon qilingan narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- asosiy fondlar qiymati to'g'risidagi ekspert xulosalari.

Asosiy vositalarni bevosita qayta hisoblash usuli bilan qayta baholash paytida buxgalteriya hisobida qayd etilgan *eskirish summasi* qayta baholashdan keyingi *tiklanish qiymatining* qayta baholashgacha bo'lgan qiymatga nisbati bilan hisoblab chiqariladigan **qayta hisoblash koeffitsienti bo'yicha indekslanishi kerak.**

Asosiy fondlarni qayta baholashning **indeks usuli** O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 31 dekabrga qadar navbatdagi qayta baholash bo'yicha qo'llash uchun tegishli indekslar ishlab chiqilishini va rasmiy ravishda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishini nazarda tutadi.

5.3. Nomoddiy aktivlar tarkibi va ularni boshqarish

Xo'jalik qonunchiligida *nomoddiy aktivlar* deb yuridik huquqlar, shu jumladan mulk huquqi bilan bog'liq bo'lgan, *moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan*, xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan xo'jalik faoliyatida foydalanish yoki boshqarish uchun foydalanish maqsadida nazorat qilinadigan, shuningdek

uzoq vaqt (bir yildan ko'p) ishlatish uchun mo'ljallangan mol-mulk ob'ektlari tan olinadi.

Shunga ko'ra quyidagi sifatlarga ega bo'lgan aktivlar nomoddiy aktiv deb ataladi:

- moddiy-ashyoviy ko'rinishga ega bo'lmasligi;
- nomoddiy aktivning kelajakda korxonaga iqtisodiy naf (daromad) keltirishga qodirligi;

- uzoq vaqt, 12 oydan ko'p ishlatilishi. (korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida foydalanish muddati 12 oydan kam bo'lgan intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquq nomoddiy aktivlar tarkibiga kiritilishi mumkin emas);

- korxonada ushbu aktivni keyinchalik qayta sotishni rejalashtirmaydi;
- mahsulot ishlab chiqarishda yoki korxonaning boshqaruv ehtiyojida foydalanish. Nomoddiy aktivlardan mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish jaraenida foydalanish isboti bo'lib texnologik hujjatlar, smetalar, ushbu nomoddiy aktivlar bilan xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirilganligini qayd etadigan boshqa hisob hujjatlari xizmat qilishi mumkin;

- korxonaning boshqa mulkidan identifikatsiya (ajratish, bulish) qilish mumkinligi. Bir hisob ob'ektining boshqasidan identifikatsiya qilinishining asosiy belgisi uning mahsulot ishlab chiqarishda, ish bajarishda yoki korxonaning boshqaruv ehtiyojlari uchun mustakil vazifalarni bajarishida ifodalanadi;

- aktivning o'zining mavjudligini tasdiqlovchi rasmiylashtirilgan hujjatlar va korxonada intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mutlaq huquqning (patentlar, litsenziyalar, guvohnomalar, boshqa himoyalov hujjatlari) mavjudligi.

Intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanish huquqini olish va bu bilan bog'liq operatsiyalarni korxonada buxgalteriya hisobida aks ettirish bunday huquq egasi bo'lgan shaxs va foydalanuvchi o'rtasida tuzilgan litsenziya, mualliflik va shunga o'xshash boshqa shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida **nomoddiy aktivlarning turli xillari mavjud** bo'ladi. Ko'pincha ularning ikki guruhini farqlaydilar:

- intellektual mulk ob'ektlari;

- boshqa nomoddiy aktivlar.

Fuqarolik kodeksining 1031-moddasi *intellektual mulk ob'ektlariga* quyidagilarni kiritadi:

1) intellektual faoliyat natijalari:

- fan, adabiyot va san'at asarlari;

- radio eshittirish va teleko'rsatuv tashkilotlarining ijrolari, fonogrammalari va eshittirish va ko'rsatuvlari;

- elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumot bazalari;

- ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

- seleksiya yutuqlari;

- oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);

2) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:

- firma nomlari;

- tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);

- tovarlar ishlab chiqarilgan joy nomi;

3) Fuqarolik kodeksida yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar.

Fuqarolik kodeksining qoidalariga binoan intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk ob'ektidan uz xohishiga ko'ra har qanday shaklda va har qanday usulda qonuniy foydalanish **mutlaq huquqi** tegishli bo'ladi. Huquq egasiga mutlak huquq asosida tegishli bo'lgan intellektual mulk ob'ektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat *huquq egasining roziligi* bilan yo'l qo'yiladi. Intellektual mulk ob'ektiga nisbatan mutlaq huquq egasi bu huquqni boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazishga, intellektual mulk ob'ektidan boshqa shaxs foydalanishiga ruxsat berishga hakli va, agar bu Fuqarolik kodeksi va

boshqa qonunlarning qoidalariga zid bo'lmasa, ularni boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli.

Demak, nomoddiy aktivlarni tashkil etuvchi intellektual mulk ob'ektlariga ulardan foydalanishning mutlaq huquqlari kiradi. Ushbu mezonga asosan nomoddiy aktivlarga - intellektual mulk ob'ektlariga quyidagilar kiritilishi kerak:

- intellektual faoliyat natijasiga nisbatan mutlaq huquqlar;
- fuqarolik muomalasi qatnashchilari, tovarlar, ishlar va xizmatlarni shaxsiylashtirish vositalariga nisbatan mutlaq huquqlar;
- intellektual faoliyatning boshqa natijalariga va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalariga, tovarlarga, ishlarga va xizmatlarga nisbatan mutlaq huquqlar.

Bulardan tashqari nomoddiy aktivlarga tashkiliy xarajatlar va firmaning amaliy mavqeini (*firmaning narxi yoki gudvill*) kiritadilar.

21-son Buxgalteriya hisobi milliy standartida nomoddiy aktivlarning yanada aniqroq tasnifini keltirilgan:

- patentlar, litsenziyalar va nou-xau;
- tovar markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari;
- dasturiy ta'minot;
- er va tabiiy boyliklardan foydalanish huquqi;
- tashkiliy xarajatlar;
- franchayz;
- mualliflik huquqlari;
- gudvill;
- boshqa nomoddiy aktivlar.

Patent - tan olingan va yuridik ro'yxatdan o'tgan mutlaq huquq. Patent huquqi patent joriy qilinadigan mahsulotning alohida turidan, o'ziga xos jarayondan, faoliyatdan patentning amal qilish muddati davomida boshqa shaxslar ishtirokisiz foydalanishning, ularni ishlab chiqarish, sotish va nazorat qilishning mutlaq huquqini mustahkamdaydi. Patent huquqlari haq evaziga sotib olinishi

mumkin. Tegishli hollarda bu o'z ichiga maslahat va yuridik xizmatlar, hujjatlarni chop etish va ko'paytirishga ketgan qo'shimcha xarajatlarni ham oladi.

Nou-xau - «ishlab chiqarish sirlari», texnik, iqtisodiy, ma'muriy, moliyaviy va boshqa o'ziga xos ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan to'liq yoki qisman maxfiy bilimlar, tajriba, malakalar. Nou-xau loyihalash, hisob-kitob, qurilish va mahsulotlarni ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar o'tkazish, materiallar va buyumlar tarkibi va retsepti va boshqalar bo'yicha patentlanmagan bilimlar va jarayonlar, amaliy tajriba, uslublar, usullar va malakalar, shuningdek dizayn, marketing, boshqaruv, iqtisod sohalariga oid tajriba bo'lishi mumkin. Nou-xau korxonalar muassislari tomonidan korxonalar ishtirokchilari yoki muassislari kelishuvi bilan belgilangan qiymat bo'yicha korxonaning ustav kapitaliga kiritilishi mumkin. Nou-xauni tijorat taomillari asosida berish litsenziya munosabatlari bilan rasmiylashtiriladi.

Tovar markasi - kompaniyalarni, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni yoki xizmatlarni *identifikatsiya* qilish uchun xizmat qiladigan va undan foydalanish mutlaq huquqini mustahkamlash maqsadida ro'yxatdan o'tkazilgan timsol yoki nom. Tovar markalarini ro'yxatdan o'tkazish egalik qilishni asoslash uchun amalga oshiriladi, ro'yxatdan o'tgandan so'ng yangilanishi mumkin.

Tovar belgisi - bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shu turdagi tovarlaridan *farqlash uchun* xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgi. Tovar belgisiga bo'lgan huquq egasi o'ziga tegishli belgidan foydalanishda va uni tasarruf etishda mutlaq huquqqa, shuningdek tovar belgisiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishdan iborat mutlaq huquqqa ega. Tasvirlar, so'zlar, muayyan shakl tarzidagi belgilar va boshqa belgilar yoki ularning istalgan bir rangidagi yoki turli rangdagi jamlama ifodasi tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

Sanoat namunalariga huquq - buyumning tashqi ko'rinishini ifodalaydigan badiiy-konstruktorlik echimlardan (dizayn) foydalanishga alohida imtiyozlar.

Dasturiy ta'minot - elektron hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari. EHM uchun yaratilgan dastur - muayyan natija olish maqsadida EHM, EHM tarmoklari va boshqa kompyuter vositalarining ishlashi uchun mo'ljallangan ma'lumotlar va ko'rsatmalar majmui. Ma'lumotlar bazasi - ob'ektiv shaklda ifodalangan hamda EHM yordamida topish va ishlov berish mumkin bo'ladigan tarzda bir tizimga solingan ma'lumotlar (masalan: maqolalar, hisob-kitoblar) majmui.

Yer uchastkalaridan foydalanish huquqi. Er xususiy mulk bo'lmagan sharoitlarda bu huquqni pulda ifodalashda muayyan qiyinchiliklar kelib chiqadi. Ko'pincha er uchastkalaridan foydalanish huquqi ishtirokchilarning korxonaga ustav kapitalida ulush qiymatining bir qismi bulishi mumkin. Ushbu huquqlar qiymati korxonaga tashkil qilinaetgan erning bahosiga bog'liq va taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Tashkiliy xarajatlar - korxonani tashkil qilish davrida vujudga keladigan xarajatlar. Ushbu xarajatlar korxonaga faoliyatining texnik-iqtisodiy asosini, ta'sis shartnomalarini ishlab chiqish korxonani ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha yig'implarni to'lash, maslahatchilar xizmatlari , reklama tadbirlari va boshqa xarajatlardan tashkil topadi, korxonaga faoliyatining boshlang'ich davridagi operatsion xarajatlar va nobudgarchiliklar bundan mustasno. Tashkiliy xarajatlarning kelgusi davrda foyda keltirishi mumkinligi ushbu xarajatlarni kapitalizatsiya qilishga asos bo'ladi. Xarajatlarga ketgan barcha summani faoliyatning birinchi yiliga kiritish xarajatlarning daromadlar bilan mos kelmasligiga olib keladi. Tashkiliy xarajatlar odatda korxonaga tomonidan mustaqil tanlangan vaqt davomida amortizatsiya qilinadi (lekin, Soliq kodeksi qoidalariga binoan ko'pi bilan besh yil va korxonaga faoliyati muddati ichida).

Korxonaga faoliyat ko'rsataetgan davrda uning *tashkiliy huquqiy shakli* o'zgarganligi sababli ta'sis va boshqa hujjatlarni qayta rasmiylashtirish, korxonaga kengaytirish, faoliyat turini o'zgartirish, mansabdor shaxslar imzolari namunalarini taqdim qilish, yangi shtamplar, muhrlar va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan korxonaning xarajatlari tashkiliy xarajatlarga kiritilmaydi va kapitallashtirilmaydi.

Franchayz - muayyan formulalar, texnologiyalar va tashki ko‘rinishdan foydalanishga bo‘lgan mutlaq huquq. Franchayzlar aniq yunalish va aniq xizmatlardan foydalanishga bo‘lgan huquqqa ega bo‘lish uchun taqdim qilinadi. Franshiza to‘g‘risidagi har bir alohida kontrakt franshiza haqiqiy bo‘lgan vaqt davrini, shuningdek franchayzor (imtiyozni taqdim qiladigan sub’ekt) va franchayzi (ushbu imtiyozni qabul qiladigan sub’ekt)ning huquqlarini va majburiyatlarini aniqlashtiradi. Franchayz atamasi shuningdek, katta korporatsiya (firma) lar tomonidan unga mutlaq tegishli bo‘lgan tovar belgilari firma nomi, nou-xau va boshqa huquqlaridan ma’lum hudud va vaqt doirasida boshqa kichik tadbirkorlar tomonidan ma’lum foiz to‘lov evaziga foydalanish holatlarida ham qo‘llaniladi.

Mualliflik huquqi - ilmiy, adabiy, Musiqiy va boshqa asarlar mualliflariga muallif hayot davrida va muallif vafotidan so‘ng 50 yil davomida davlat tomonidan taqdim qilinadigan himoya shakli.

5.4. Asosiy fondlarni qiymati, eskirishi va ularni baholash

Amaliyotda asosiy vositalarning korxonalar balansi va hisobotlarida aks ettiriladigan (ya’ni, boshlang‘ich, belgilangan tartibda o‘tkaziluvchi qayta baholashdan keyin esa tiklanish), qiymati **balans qiymati** deb ataladi. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ularning balans qiymatidan eskirish summasini ayirib tashlash orqali aniqlanadi.

Qabul qilingan baholash usuli va korxonalar balansida aks ettirilgan ma’lumotlar asosida, **korxonalar asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati** ($F_{o'r}$) belgilanib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$F_{o'r} = F_n + \frac{F_p T_1 - F_v T_2}{T_1 - T_2};$$

12

Bu yerda:

F_n – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati;

F_p – yil davomida kelib tushgan (foydalanishga topshirilgan) asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

F_v – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo‘q qilingan) asosiy fondlar qiymati;

T_1 - foydalanishga topshiriluvchi asosiy ishlab chiqarish fondlari amalda bo‘luvchi o‘rtacha muddati (oylarda), qabul qilingandan keyingi oydan boshlab;

T_2 – ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo‘q qilingan) asosiy ishlab chiqarish fondlari foydalanilmaydigan o‘rtacha muddat (oylar) chiqarilgan oydan to yil oxirigacha).

Asosiy fondlarni boshlang‘ich yoki tiklanish qiymati bo‘yicha baholashdan tashqari eskirish summasi ham hisobga olinadi. Asosiy fondlar jismoniy va ma‘naviy jihatdan eskirishi mumkin.

Jismoniy (moddiy) eskirish asosiy fondlarning birlamchi xislatlarini ishlab chiqarishda foydalanish va tabiiy eskirish natijasida yo‘qotishdan yuzaga keladi. U asosan bir xilda kechmaydi hamda ko‘p jihatdan iqlimning ta‘siri, asosiy fondlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish, jumladan, xodimlarning malakasiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Jismoniy eskirishni (IF) quyidagi formula asosida hisoblab topish mumkin:

$$IF = \frac{T_{\phi}}{T_n} \times 100; \quad \text{yoki} \quad IF = \frac{I}{P_c} \times 100.$$

Bu yerda:

T_f - asosiy fondlarning haqiqiy xizmat qiluvchi muddati;

T_n - asosiy fondlar xizmat qilishi kerak bo‘lgan normativ muddat;

I - hisoblangan amortizatsiya summasi (eskirish summasi);

P_s – asosiy fondlarning boshlang‘ich(qayta tashkil qilish) qiymati.

Ma‘naviy eskirish - asosiy fondlarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo‘qotilishidir. U ikki shaklda yuzaga keladi: birinchi shaklda asosiy fondlar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa, ikkinchi shaklda asosiy fondlarning qadrsizlanishi yangi,

fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida, yanada samaraliroq fondlarning paydo bo'lishi natijasida ro'y beradi. Asosiy fondlar ma'naviy eskirishining yuqorida keltirilgan shakllarini quyidagi tarzda aniqlash mumkin:

$$\text{ИМ}_1 = \frac{\Pi - B}{\Pi} \times 100;$$

$$\text{ИМ}_2 = \frac{\Pi_n - \Pi_c}{\Pi_n} \times 100.$$

Bu yerda:

P - asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati;

V - asosiy fondlarning tiklanish qiymati;

P_n - yangi texnikaning unumdorligi.

Asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish, ya'ni jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlarning o'rnini iqtisodiy to'ldirish uchun korxonada bu vositalar qiymatidan *amortizatsiya ajratmalarini* ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar keyinchalik xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Amortizatsiya ajratmalari quyidagi formula asosida aniqlanuvchi amortizatsiya normalari (N_a) asosida aniqlanadi:

$$H_a = \frac{A}{\Pi} * 100$$

Bu yerda:

A - amortizatsiya ajratmalari;

P - asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati.

Yillik amortizatsiya ajratmalari (A) miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$A = \frac{\Pi + P_k + M - O}{T}$$

Bu yerda:

R_k - asosiy fondlar xizmat qilgan muddat davomida kapital ta'mirlashga sarflangan xarajatlar;

M - uskuna, mashina va qurilmalarni, ular xizmat qilgan davr mobaynida modernizatsiya qilishga sarflangan xarajatlar;

O - asosiy fondlarning qoldiq (likvidatsion) qiymati;

T - asosiy fondlarning xizmat qilish muddati, yil.

Amalda amortizatsiya mablag‘lari asosiy fondlarni to‘liq qayta tiklash (renovatsiya), kapital ta‘mirlash va uskunalarni modernizatsiya qilish uchun alohida ravishda yo‘naltiriladi. Bundan kelib chiqqan holda amortizatsiya normasi ikki qismdan - fondlarni renovatsiya qilish (N_v) hamda kapital ta‘mirlash va modernizatsiya qilish (N_r) uchun ajratiluvchi mablag‘dan iborat bo‘ladi.

Birinchi holda amortizatsiya normasi quyidagi formula:

$$H_{\epsilon} = \frac{\Pi - O}{T\Pi} \times 100;$$

ikkinchi holda esa:

$$H_p = \frac{P_{\kappa} + M}{T\Pi}$$

asosida aniqlanadi

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta‘mirlash orqali tiklash zaruriyati tug‘iladi. O‘z vaqtida ta‘mirlash asosiy fondlar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy fondlarni ta‘mirlash kapital, o‘rta va joriy turlarga bo‘linadi. Bino va inshootlarni ta‘mirlash o‘z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag‘larga ko‘ra, mashina va uskunalarni ta‘mirlashdan farq qiladi.

Masalan, mashina va asbob-uskunalarni **kapital ta‘mirlashda** ular to‘liq qismlarga bo‘linadi va eskirgan qismlar almashtiriladi. Uskunalarni ikki marta kapital ta‘mirlash orasidagi muddat *ta‘mirlash sikli* deb ataladi. Mashina va uskunalarni, qoidaga ko‘ra, maxsus zavodlarda ta‘mirlanadi.

O‘rtacha ta‘mirlash texnik mazmuni, murakkabligi, bajariladigan ish hajmi va davriyligiga ko‘ra, kapital ta‘mirlashdan farq qiladi hamda sarflanuvchi mablag‘, vaqt va kuchni nisbatan kamroq talab etadi. Joriy ta‘mirlash kabi u ham

mashina yoki uskunadan foydalanuvchi korxonaning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

Joriy ta'mirlashda asosan asbob-uskunalar tozalanadi, moylanadi, tekshiriladi, mayda kamchiliklari bartaraf qilinadi, ya'ni uskunalarining foydalanishga doimiy tayyorligi ta'minlanadi.

5.5. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari

Asosiy vositalarning mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir etuvchi qismi aktiv asosiy vositalar deb ataladi (mashinalar, uskunalar va shu kabilar), bilvosita ta'sir etuvchi qismi esa passiv asosiy vositalar (binolar, inshootlar) deb ataladi. Asosiy vositalar tarkibida aktiv va passiv turlari salmog'i turli tarmoqlarda farqlanadi. Asosiy fondlarni passiv qismi salmog'i qo'yidagi sohalarda yuqori bo'ladi: oziq-ovqat, tikuvchilik, go'sht, sut sa'noati, qurilish materiallari va yoqilgi sanoatida. Qo'yidagi sanoat korxonalarida asosiy fondlarni aktiv qismi salmog'i yuqori: to'qimachilik, ximiya, neftni qayta ishlash sanoatlari, elektro energiya, mashinasozlik komplekslarida.

Asosiy fondlardan foydalanishni baholashda fond samaradorligi darajasi va fond sig'imi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi.

Fondlarning samaradorligi darajasi asosiy fondlarning bir so'miga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini bildiradi. Uni quyidagi formula bilan hisoblab chiqish mumkin.

$$F_s = \frac{YAm}{Af}$$

bunda: F_s - fondlarning samaradorlik darajasi;

YAm - tovar yoki sof mahsulot hajmi, so'm;

Af - asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati, so'm.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari samaradorlik ko'rsatkichining ortishi ishlab chiqarish fondlaridan yaxshi foydalanganlikdan darak beradi.

Fond sigʻimi asosiy ishlab chiqarish fondining samaradorlik darajasiga teskari koʻrsatkich boʻlib, quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Ft = \frac{Af}{YAm}$$

Fond sigʻimi deb, bir soʻmlik yalpi mahsulotga toʻgʻri kelayotgan asosiy fondlar qiymatiga aytiladi.

Fond samaradorligi oʻsib borishi uchun mehnat unumdorligining oʻsish tezligi fond bilan taʼminlanish oʻsishidan yuqori boʻlishi kerak.

Fond bilan taʼminlanish ishlab chiqarishning asosiy fondlar bilan taʼminlanganlik darajasini ifodalaydi, u esa quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Ft = \frac{Af}{Ssx}$$

Bu yerda: Ft — fond bilan taʼminlanganlik;

Af – asosiy fondlar qiymati;

Ssx – sanoat ishlab chiqarish xodimlarining umumiy soni.

Fond samarasi, fond bilan taʼminlanganlik va mehnat unumdorligi koʻrsatkichlari bir-birlari bilan chambarchas bogʻliqdir, yaʼni

$$Mu = \frac{Fs}{Ft}$$

Bunda: Mu - mehnat unumdorligi, soʻm.

Asosiy fondlarni eskirishi ularning sifat xolatini ifodalaydi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Fo = \frac{Mx}{Mn} \cdot 100\%$$

Bunda: Mx – asosiy fondlarni ishlatilishining haqiqiy muddati, yil hisobida;

Mn - asosiy fondlarning normativdagi xizmat qilish muddati, yil hisobida.

SHuni taʼkidlash kerakki, fond samaradorligi darajasi ishlab chiqarilgan mahsulotga, ishlab chiqarish hajmi asosiy fondlarning faol va sust qismlaridan qanday foydalanayotganligiga bogʻliqdir. SHu maqsadda mashina uskunalardan ekstensiv va intensiv foydalanish koʻrsatkichlari qoʻllaniladi.

Ekstensiv foydalanish deganda, mashina uskunalardan qancha muddat foydalanganlik, smenalik koeffitsienti (sutkasiga ishlash soatlari oshirilishi, mashina uskunalarning bir tekis ishlagan kunlari miqdori ko'paytirilishi, smenalararo bekor turib qolishlarning qisqartirilishi) tushuniladi. Bu esa ekstentiv (ish vaqtida) foydalanish koeffitsienti (Keks) orqali ifodalanadi:

$$K_{EKS} = \frac{A_K}{A_N}$$

bunda: A_K – asosiy ishlab chiqarish fondlarining korxonaga balansiga o'tgan vaqtdagi kalendar vaqti, sana;

A_N – asosiy ishlab chiqarish fondlarining korxonaga balansiga o'tgan vaqtdagi kalendar vaqti, soat.

Intensiv foydalanish koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi.

$$K_{INT} = V_N \cdot V_n$$

Bunda: V_x - vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulotning amaldagi hajmi;

V_n - xuddi shu davrda belgilangan texnikaviy norma yoki reja bo'yicha mahsulot hajmi.

5.6. Kapital tarkibi va uni optimallashtirish

Kapital – moliyaviy menejmentda doimiy foydalanib kelinayotgan iqtisodiy kategoriyalardandir, mamlakatni bozor munosabatlariga o'tishi bilan o'zining yangi mazmuniga ega bo'ldi. Korxonaning tashkil etilishi va rivojlanishida bosh iqtisodiy negiz bo'lib, kapital o'zini mavjudligi va harakati jarayonida davlat, mulkdorlar va ishchi xodimlar manfaatlarini ta'minlaydi.

Kapital korxonaga ixtiyoridagi mol-mulkning tashkil topish manbalarini xarakterlaydi. Korxonaga mulkining tashkil topishi manbalariga ko'ra ikkiga bo'linadi: o'z mablag'larining manbai va majburiyatlar. O'z mablag'larining manbai korxonaga ta'sischilar tomonidan kiritilgan va ishlab topilgan mablag'laridan tashkil topadi. Ularga quyidagilar kiradi: *ustav kapitali, qo'shilgan va zahira kapitali, taqsmatlanmagan foyda*.

Ustav kapitali — ta'sis hujjatlarda belgilangan hissalarining (pul ifodasida) yig'indisidir. Ustav kapitaliga hissa shaklida qo'shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sisshilar kelishuviga yoki yuridik shaxs ijroiya organining qaroriga ko'ra baholanadi va hisobga olinadi. Ustav kapitali korxonada mulkini shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi. Uning summasi korxonada ustavida yozilgan bo'ladi va uning o'zgartirilishi uchun korxonada ustaviga o'zgartirish kiritilishi va korxonalarini ro'yxatga oluvchi organda qayta ro'yxatdan o'tkazish lozim bo'ladi.

Qo'shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini hamda ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'ladigan kurs farqlarini aks ettiradi.

Zahira kapitali mol—mulkni qayta baholash chog'ida xosil bo'ladigan inflyasiya zahiralarini, shuningdek tekinga olingan mol—mulk qiymatini aks ettiradi. SHu bilan birgalikda qonunchilikda belgilangan tartibda va miqdorda rezerv kapitalini tashkil qiladi. Rezerv kapitalini tashkil qilish uning miqdori va tartibi korxonada ustavida yozilgan bo'lishi lozim.

Taqsimlanmagan foyda — foydaning jamg'arilayotganini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav kapitaliga qo'shilishi mumkin.

Zahiralar — hisobot yilida korxonada tomonidan kelgusi xarajatlar va to'lovlarni amalga oshirish va ularni ishlab chiqarayotgan mahsulot tannarxiga bir maromda qo'shib borish uchun ichki imkoniyatlar hisobidan tuziladigan jamg'armalardir. Ularga dargumon qarzlari bo'yicha rezervlar, ishchilarga mehnat ta'tili uchun rezervlar, asosiy vositalar remonti uchun rezervlar va boshqalar kiradi.

Maqsadli tushumlar — ma'lum bir maqsadlar uchun kelib tushayotgan pul mablag'lari kiradi. Ularga grant, subsidiya, a'zolik badallari, maqsadli foydalanish uchun soliqlar bo'yicha imtiyozlar va boshqalar kiradi.

Korxonada majburiyatlari bo'lib korxonaga qarz sifatida jalb qilingan mablag'larni ifodalaydi. Ular o'z navbatida ikkiga bo'linadi: qisqa va uzoq muddatli majburiyatlar.

— hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida hisob-kitob qilinadigan majburiyatlar joriy majburiyat hisoblanadi;

— majburiyatlarning qolgan moddolari uzoq muddatli hisoblanadi.

Joriy majburiyatlar: tavsifi joriy aktivlar tavsifiga o'xshashdir. Kreditorlik qarzi, ish xaqi, soliqlar bo'yicha qarzlari va boshqa operatsiya xarajatlari bo'yicha qarzlari kabi ayrim joriy majburiyatlar joriy aktivlar hisobidan hisob-kitob qilishni talab qiladi. Ular korxonaning odatdagi operatsiya siklida foydalaniladigan aylanma mablag'ni tashkil etuvchi moddalar bo'yicha vujudga keladi. Joriy majburiyatlarga shuningdek bank overdraftlari, to'lanadigan dividendlar, daromad soliqlari, savdo bilan bog'liq bo'lmagan o'zga kreditorlik qarzlari, foizlarni to'lashni talab qiladigan qisqa muddatli majburiyatlarning joriy qismi kiradi.

Kapital tarkibini optimallashtirishda :

1. Korxonada xo'jalik faoliyatini kelajakda rivojlanishini hisobga olish (kapital hajmi va tarkibini shakllanishi jarayoni uning xo'jalik faoliyatini ta'minlash vazifasiga bo'ysunishi nafaqat korxonaning boshlang'ich bosqichi harakatida, shuningdek yaqin kelajakdagi faoliyati uchun ham zarur. Rivojlanishni ta'minlash korxonada kapitali shakllanishida barcha ehtiyojlarni qo'shish yo'li bilan biznes reja loyihalarini tuzishni talab etadi).

2. Korxonada shakllantirilgan aktivlari hajmini jalb qilingan kapitallari bilan mos kelishini ta'minlash. (Korxonalar kapitalga bo'lgan umumiy ehtiyoji uning oborot va oborotdan tashqari aktivlariga bo'lgan ehtiyojidan tuziladi.)

Yangi tuzilayotgan korxonada kapitalga bo'lgan umumiy ehtiyojlarini aniqlashda odatda ikki asosiy usuldan foydalaniladi:

- To'g'ridan-to'g'ri hisob usuli – bu yangidan tuzilayotgan korxonalar xo'jalik faoliyatini boshlash maqsadida ma'lum belgilangan zaruriy aktivlar summasini aniqlash orqali uning kapitalga umumiy ehtiyoji hisoblanadi. Bu hisob usuli quyidagi algoritmdan chiqadi: Aktivlarni umumiy summasi jalb qilingan (joylashtirilgan) kapitalning umumiy summasiga teng. Aktiv - kapital. Bunda yangi tuzilayotgan korxonalar aktivlarga ehtiyoji 3 ta variantda hisoblanadi (minimal zaruriy aktivlar summasi, zaruriy aktivlar summasi, maksimal zaruriy

aktivlar summasi, ya'ni alohida shakllar bo'yicha sug'urtali zahiralarini etarli hajmda ta'minlashi).

- Bilvosita hisob usuli. Kapitalga umumiy ehtiyoji turli ko'rsatkichlardan foydalanish orqali oydinlashtiriladi. «Mahsulotning kapital sig'imi» - bu bir birlik ishlab chiqariladigan mahsulot yoki sotilgan mahsulotga to'g'ri keladigan kapital miqdorini anglatadi (o'z va jalb qilingan kapital). Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$U_k = K_p \times M_X + B_X,$$

U_k - yangi korxonani tuzish uchun umumiy kapitalga ehtiyoj.

K_p - mahsulotga kapital sig'imi ko'rsatkichi (tarmoq va analogik).

M_X - rejalashtirilgan o'rtacha yillik mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari.

B_X – boshlangich xarajatlar.

3. Kapital tarkibini uni samarali xarakati yo'li bilan optimallashtirishni ta'minlash. Korxonada faoliyatini yuqori yakuniy natijalarini shakllantirish shartini ahamiyatli darajasi foydalaniladigan kapital tarkibidan iborat.

Kapital tarkibi o'zida o'zining xo'jalik faoliyati jarayonida o'z va jalb qilingan moliyaviy mablag'larni, korxonada foydalanishni solishtirishni ifodalaydi. Korxonada foydalaniladigan kapital tarkibi bir qator jihatlar bilan aniqlanadi, u nafaqat moliyaviy balki operatsion va investitsion faoliyatni ifodalaydi. U aktivlarning rentabelligi va o'z kapitallari koeffitsientlariga ta'sir qiladi. SHuningdek, (iqtisodiy va moliyaviy rentabellik darajasiga) moliyaviy barqarorlik va to'lovga qobillik koeffitsientlar tizimini aniqlaydi va yakuniy hisobda foydalilik darajasini va korxonada rivojlanishi jarayonida shakllantirishda xavf-xatarlarni aniqlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Korxonada aktivlarining iqtisodiy mohiyati nimalarda ifodalanadi?
2. Korxonada aktivlari qanday guruhlanadi?
3. Asosiy vositalar harakatini qanday boqariladi?
4. Nomoddiy aktivlar tarkibini aytib bering.

5. Asosiy fondlar qiymati, eskirishi va ularni baholash tartibini tushuntiring.

6. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini aytib bering.

7. Korxonalar kapitalini iqtisodiy mohiyatini tushuntiring.

8. Kapital tarkibini optimallashtirish zarurligini izohlang.

Testlar

1.

A

ktivlarning moliyaviy-iqtisodiy mohiyati shundaki

A) ular hozir ishga solinadi;

B) ularni erkin bozorda sotish mumkin;

V) ular pulda aniq ifodalanadi;

G) eng muhim xususiyati - ular joriy davrda va (yoki) kelajakda korxonaga iqtisodiy naf keltiradi.

2. Aktiv (faol) asosiy fondlarga kiradi

A) harakatlanuvchi vositalar;

B) chetdan olingan asosiy vositalar;

V) yangi texnologiyalarni qo'llashga qaratilgan vositalar;

G) kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari va asbob-uskunalar, o'tkazgich jihozlar, o'lchash va tartibga solish asboblari.

3. Amortizatsiyani hisoblash usullari:

A) qiymatni bir tekisda hisobdan chiqarish usuli;

B) bajarilgan ishlar hajmiga proporsional ravishda amortizatsiyani hisoblash usuli (ishlab chiqarish usuli);

V) tezlashtirilgan hisoblash usuli:

- sonlar yig'indisi bo'yicha qiymatni hisobdan chiqarish usuli;

- qoldiqni kamaytirish (kamayib boruvchi qoldiq) usuli.

G) barcha javoblar birgalikda to'g'ri.

4. Fond sig'imi ko'satkichi qanday anilanadi?

A) sotilgan mahsulot : asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati;

B) foyda : asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati;

V) yalpi mahsulot : asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymati;

G) yalpi mahsulot : asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati.

5.. Nomoddiy aktivlarning asosiy belgilari:

A) moddiy-ashyoviy ko‘rinishga ega bo‘lmasligi;

B) nomoddiy aktivning kelajakda korxonaga iqtisodiy naf (daromad) keltirishga qodirligi;

V) uzoq vaqt, 12 oydan ko‘p ishlatilishi. (korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida foydalanish muddati 12 oydan kam bo‘lgan intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquq nomoddiy aktivlar tarkibiga kiritilishi mumkin emas);

G) barcha javoblar birgalikda to‘g‘ri.

VI BOB. AYLANMA MABLAG‘LARNI MOLIYALASHTIRISH JARAYONINI BOSHQARISH

6.1. Korxonaning aktivlarining mazmuni. Korxonaning aktivlarining turkumlanishi

Aktivlarning eng muhim xususiyati shundaki, ular joriy davrda va (yoki) kelajakda korxonaga iqtisodiy naf keltiradi. O‘z navbatida bu iqtisodiy naf korxonaning aktivlarining ko‘payishida yoki iqtisodiy majburiyatlarning kamayishida ifodalanadi.

Korxonaning joriy davrda iqtisodiy naf keltiruvchi aktivlari joriy (qisqa muddatli) aktivlarni tashkil etadi. Joriy davrdan tashqarida naf keltiruvchi aktivlar esa, uzoq muddatli aktivlar deb yuritiladi. Joriy aktivlarda mujassamlashgan mablag‘lar korxonaning *aylanma mablag‘laridir*. Uzoq muddatli aktivlarda mujassamlashgan mablag‘larni ba‘zan *oborotdan tashqaridagi aktivlar* deb aytadilar. Ularning qaytadan pul resurslariga aylanishi aylanma mablag‘larga nisbatan ancha sekin kechadi.

Korxonaning kapitalining *uzoq muddatli aktivlarni* shakllantirishni moliyalash uchun xizmat qilayotgan qismi *asosiy kapitalni* tashkil etadi. Uzoq muddatli aktivlar tarkibiga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalar, kapital qo‘yilmalar va uzoq muddatli debitorlik qarzlari kiritiladi.

Xo‘jalik amaliyotida *asosiy vositalar* va *nomoddiy aktivlar* tarkibiga bir yildan ko‘proq muddat xizmat qiladigan, ishlab chiqarish, tijorat yoki ma‘muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan, qayta sotish uchun mo‘ljallanmagan aktivlar kiritiladi.

Moliyaviy menejmentning asosiy vazifasi mablag‘larlarning tahlil ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasiga asoslangan holda ularni moliyalashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashdir.

Korxonalarda joriy aktivlarni boshqarish aktivlarni boshqarish tizimining muhim bo‘g‘inlaridan biri sanaladi. Joriy aktivlar ko‘p hollarda *aylanma mablag‘lar* yoki *aylanma kapital* deb ham yuritiladi. Umuman olganda

korxonalarining *aylanma mablag'lari* - bu uning aktivlariga quyilgan kapitalning bir qismi hisoblanadi.

Korxonalar aylanma mablag'larining tarkibi va ularni boshqarish masalalari alohida keltiriladi.

Asosiy va aylanma kapitalning bir qismi moliyaviy mablag'lar yoki moliyaviy aktivlar ko'rinishida bo'ladi. SHu o'rinda kapital atamasi korxonalar aktivlarini ta'riflashda ishlatilishi bilan birga korxonalar balansi passivida mablag'lar kelib o'z manbalarini ko'rsatish uchun (qarz yoki chetdan jalb etilgan manbalardan farqli ravishda) ham qo'llanadi. Lekin kapital atamasi ikkala holda ikki xil ma'noda keladi. Birinchisida kapital boylikning o'zini ifodalasa, ikkinchisida boylikning manbaini ifodalaydi.

Moliyaviy aktivlar. Investitsion aktivlar. Iqtisodiyot sub'ektlari daromadlari bir qismi jamg'armaga aylanadi. Jamg'armalar esa investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qiladi. Investitsiya vositasida ishlab chiqarish kengaytiriladi, texnik va texnologik jihatdan takomillashtiriladi. Investitsiya tadbirkorlik faoliyatining moddiy-iqtisodiy negizidir. Investitsiya samarasi, bir tomondan. tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy natijalarida, qiymat ko'rinishida ifodalansa, investitsiyaning qancha muddatda o'zini oqlashi mumkinligi uning samaradorligini vaqt birligi orqali ifodalaydi.

Investitsiya tushunchasi kapital qo'yilmalar tushunchasiga nisbatan mazmun jihatdan olganda kengroqdir.

Asosiy fondlarni yangilashga va kengaytirishga sarf etiladigan mablag'larga kapital qo'yilmalar deb ataladi. Investitsiya - bu pul, moliyaviy mablag'lar. U orqali materiallar, mehnat resurslari va real kapital ishlab chiqarishni kengaytirish, modernizatsiya va rekonstruksiyalashga yo'naltiriladi.

Investitsiya qo'yish ob'ektlari kapital qo'yilmalar ob'ektlariga nisbatan ancha kengroqdir. Kapital qo'yilmalar ob'ektiga asosiy fondlar kirsalar, investitsiya ob'ektlariga aylanma mablag'lar, aksiya, obligatsiya va boshqa moliyaviy ob'ektlar, shuningdek mulklardan foydalanish va egalik qilish huquqlari, ilmiy-texnika mahsulotlari, nou-xau, qadrlar tayyorlash va boshqalar ham kiradi.

Investitsiyalar, qo'yiladigan ob'ektlarga qarab, real, moliyaviy va intellektual investitsiyalarga bo'linadi.

Asosiy fondlar va aylanma mablag'larga investorlar qo'yadigan barcha turdagi mablag'lar real investitsiya deb ataladi.

Hozir Respublikamiz milliy iqtisodiyotini tarkibiy qayga qurish uchun yangi texnika, texnologiya va katta hajmdagi qurilish ishlarini amalga oshirish zarurligi sababli real investitsiyalarga ehtiyoji juda kattadir. Bu ehtiyojni qondirishning asosiy yo'nalishlaridan biri korxonalar investitsion faoliyatni rag'batlantirish hisoblanadi.

Aksiya, obligatsiya va boshqa turdagi qimmat baho qog'ozlarga investorlar qo'yadigan barcha turdagi mablag'larga moliyaviy investitsiya deyiladi.

Korxonalar mablag'lari investitsiyalangan qimmatli qog'ozlar yig'indisi investitsiya portfelini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilinadi: xavfsizlik (tavakkalchilikni kamaytirish), daromadlilik, likvidlik va qo'yilmalarning o'sishiga erishish. Bu tamoyillar muayyan darajada bir-biriga nisbatan muqobil xarakterda bo'ladi. Masalan, daromadlilikni oshirishga intilish tavakkalchilikni kuchaytiradi, ya'ni investitsiya qiymatini boy berish xavfi ortishiga olib keladi. YUqori likvidlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar hamma vaqt ham yuqori daromad keltirmaydi. Davlat qimmatli qog'ozlari likvidlik darajasi yuqori, tavakkalchilik past, lekin korxonalar qimmatli qog'ozlariga nisbatan pastroq daromad keltiradi.

YAngi tashkil topgan, innovatsion xarakterdagi (fan-texnika yangi yo'nalishlariga asoslangan) korxonalar aksiyalariga daromadlar past darajada kafolatlanadi, lekin kapitalning kelajakda o'sishi nuqtai-nazaridan ular istiqbolli hisoblanadi.

YUqorida ko'rsatilgan barcha tamoyillarga muhim darajada rioya etilishiga erishilgan investitsion portfel muvozanatli portfel deyiladi. Taniqli va ishonchli firmalarning qimmatli qog'ozlaridan shakllangan portfel, konservativ portfel bo'ladi. Agressiv portfel likvidligi yuqori bo'lmagan, xatar darajasi kuchli, lekin

kelajakda tez yuksalishi kutilayotgan kompaniyalar qimmatli qog'ozlaridan tashkil topadi.

Investitsion portfel o'z tarkibiga qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni ham, aksiyalar va obligatsiyalarni ham olishi mumkii.

Investitsion portfelni shakllantirish usullari ko'p. Ulardan eng obro'lisi Uilyam SHarp va Garri Markovitslarning investitsion porgfel nazariyasidir. Bu nazariyaning qoidalari quyidagicha:

- 1) investitsiyalar aktivlar turlari bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi lozim;
- 2) muayyan turdagi qimmatli qog'ozga investitsiya tavakkalchiligi foydaning kutilayotgan darajadan farqlanishi ehtimoli bilan belgilanadi;
- 3) investitsion portfelning umumiy daromadliligi va xatarini uning tarkibini o'zgartirish orqali o'zgartirish mumkin;
- 4) investitsion portfelni shakllantirishda nazarda tutilayotgan barcha mo'ljallar va mezonlar ehtimoliy xarakterda.

Portfelning bir necha turlari mavjud:

- o'sish portfeli – narxi tez usayotgan qimmatbaho qog'ozlar to'plami;
- daromad portfeli – yuqori va qat'iy joriy daromadni ta'minlovchi qimmatbaho qog'ozlar to'plami;
- xatarli sarmoya portfeli – yangi, "yosh" va agressiv korxonalarining qimmatbaho qog'ozlar to'plami;
- maxsus (ixtisoslashgan) portfel – qimmatbaho qog'ozlarning ayrim guruhlarinigina o'z ichiga oladi;
- balansdagi yoki aralash portfel – turli xildagi qimmatbaho qog'ozlar to'plami.

Portfelni shakllantirishdagi asosiy maqsad tavakkalchilik bilan daromadning investor uchun optimal nisbatiga erishish hisoblanadi.

Optimallik iloji boricha xatar hisobiga yo'qotishlarni kamaytirish va eng yuqori daromadlilik bilan harakterlanadi. Xatarni minimallashtirishga ko'pincha diversifikatsiya, ya'ni xilma-xil fond qiymatliklarini sotib olish hisobiga erishiladi.

Bir turdagi qimmatbaho qog'ozdan olingan past daromad boshqa turdagi qimmatbaho qog'ozdan olingan yuqori daromad hisobiga qoplanadi.

Portfelni tashkil qilishda sarmoyador qo'yidagi maqsadlarga e'tibor berishi lozim:

- 1) portfeldan daromadni maksimallashtirish maqsadi;
- 2) portfelga kirgan qimmatli qog'ozlarni kurs bo'yicha bahosining oshirishga mo'ljallangan maqsadlar;
- 3) portfel tarkibida o'zi uchun xatar va daromadlilik darajasi bo'yicha maqbul bo'lgan investitsiyalar salmog'ini aniqlash.

Portfelni nazariy va amaliy boshqarishda 2 xil yondashish mavjud: an'anaviy va zamonaviy.

An'anaviy yondashish fundamental va texnik tahlilga asoslangan. U ko'proq qog'ozlarni tarmoqlar bo'yicha keng doirada sotib olishga mo'ljallanadi.

Portfellarni zamonaviy boshqarish nazariyasi statistik va matematik usullardan foydalanishni nazarda tutadi. Uning o'ziga xos xususiyati – bozor tavakkalchiligi va daromadlilik orasidagi bog'lanish optimallik mezoni orqali aniqlanadi. Bunda kompyuter texnikasi va matematik hisoblash usullari ishga solinadi.

Portfellar strategiyasi moliyaviy menejmentni strategiyasining ajralmas qismini tashkil qiladi. Portfellar strategiyasini vazifasi tashqi investitsion strukturadan samarali foydalanishiga sharoit yaratish.

Portfellar strategiyasi korxonada va tijorat tashkilotidagi moliyaviy menejment strategiyasiga bo'ysundiriladi.

6.2. Aylanma kapitalni baholash shakli va tartibi

Tadbirkorlik faoliyati moliyaviy mablag'larini boshqarish jarayonida muhim o'rinni korxonaning aylanma mablag'larini baholash egallaydi. Korxonada aylanma mablag'lari quyidagi ko'rinishlarda mavjud bo'ladi:

- tovar-moddiy zahiralar qiymati;

- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- debitorlik qarzlari;
- qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar;
- pul mablag'lari;
- kelgusi davr xarajatlari joriy qismi.

Haqiqiy tannarx bo'yicha xom ashyo, materiallar va yordamchi materiallar, yonilg'i, yarim fabrikatlar va komplekt buyumlari, zahira qismlar va idishlar baholanadi. Haqiqiy tannarxga yana quyidagi xarajatlar qo'shiladi: moddiy resurslarni keltirish uchun qilingan xarajatlar, kredit foizini to'lash uchun qilingan xarajatlar, ustama va ko'shimchalar, komission xarajatlar, ta'minotchi tashkilotlarga to'lovlar, tashqi iqtisodiy tashkilotga to'lovlar, birjada qilinadigan xarajatlar, transport xarajatlari, tovarlarni saqlash va boshqa xarajatlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy resurslariipg baholari o'zgarib turadi. SHuningdek resurslarni yetkazib kelish bo'yicha xarajatlar ham o'zgaruvchan xarakterda bo'ladi. Muvofiq ravishda tovar-moddiy zahiralarni qiymatini baholashda baholash amalga oshirilayotgan payt ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tovar-moddiy zahiralarni baholashda quyidagi yondashuvlar mavjud bo'lishi mumkin:

- joriy bahoda baholash;
- material resurslarni haqiqiy sotib olingan bahoda baholash;
- sotib olingan materiallarni o'rtacha baholar orqali baholash.

Joriy bahoda baholash moddiy zahiralarni ishlab chiqarishga sarflanishida ularning oxirgi partiyasi sotib olingan baholar bo'yicha baholanishini bildiradi. Bu usul xo'jalik amaliyotida LIFO usuli deb ataladi.

Material resurslarni haqiqiy sotib olingan bahoda baholashda mahsulotning tannarxini hisoblashda moddiy resurslar qanday baholarda sotib olingan bo'lsa, shu baholarda xarajatlarga kiritiladi.

Bu usulni xo'jalik amaliyotida FIFO usuli deb ataladi.

Inflyasiya sharoitlarida LIFO usuli korxonada foydasini kamaytirib ko'rsatadi, FIFO usuli esa foydani oshirib ko'rsatadi.

Korxonalar va firmalarda xarajatlarni moliyalashtirish jarayonida moliyaviy menejment quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- alohida ko'rinishdagi joriy xarajatlarga mablag'larni samarali sarflab, yuqori rentabellik darajasiga erishish;

- moliyalashtirish jarayoni ustidan nazorat olib borish.

Moliyaviy menejment asosiy e'tiborni ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirishga qaratishi lozim. Joriy xarajatlarni boshqarishni amalga oshirishda ishlab chiqarish, muomala xarajatlarining smetasini nazorat qilib boriladi. Bunday moliyaviy ma'lumotlar korxonalar ichida va uning bo'limlarida olib borilayotgan xarajatlarning nazoratini kuchaytiradi.

Korxonalarining aylanma mablag'larini shakllanishi. Moliyaviy boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari korxonalaridagi takror ishlab chiqarish jarayonining o'zluksiz ravishda davomiyligini ta'minlash uchun zaruriy aylanma mablag'larning miqdorini aniqlash va aylanma mablag'larga bo'lgan moliyaviy ehtiyojni ta'minlashning muqobil variantlari bo'yicha *moliyaviy qaror qabul qilish* hisoblanadi.

Korxonaning o'z aylanma mablag'larini tashkil qilish manbalari quyidagilardan iborat:

- dastlab korxonaning tashkil bo'lishi vaqtida uning o'z mablag'lari bo'lib, ular o'z aksini ustav fondida topadi;

- xo'jalik yuritish jarayonida:

- a) korxonaning olgan foydasi hisobiga; b) agar olgan foydasi etarli bo'lmasa, u holda bank krediti hisobiga; v) aylanma mablag'larni tashkil qilishning o'ziga xos manbalaridan biri-*barqaror passivlardir*, chunki aylanma mablag'larining manbalari tarkibiga «barqaror passivlar» sifatida kiritiladigan qismi ham shartli ravishda o'z manbalariga tenglashtiriladi.

Barqaror passivlarga ishchi va xizmatchilarga mehnat haqi bo'yicha doimo mavjud qarzarlar; kelgusi davr xarajatlari va to'lovlarni qoplash zahiralari va h.k. kiritiladi.

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish korxonaning o'z mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'larni aniqlashdan boshlanadi.

O'z mablag'lari va unga tenglashtirilgan mablag'lar (balans passivining 1 bo'limi) manbalarining umumiy summasiga barqaror passivlarning normativi doirasi bo'yicha bo'lgan summasi qo'shib asosiy fondlar va oborotdan tashqari aktivlarning (balans aktivining 1 bo'limi) qiymati chegirib tashlanadi. Hosil bo'lgan natija aylanma mablag'lar shakllanishining o'z manbalarini ifodalaydi va bu ko'rsatkich korxonaning xo'jalik faoliyati va moliyaviy holatining barqarorligini baholash uchun katta ahamiyatga ega. O'z aylanma mablag'lari muntazam ravishda etishmaydigan korxonalarga tijorat banklari tomonidan kredit bilan ta'minlashdan maxrum etishga qadar choralar qo'llash masalasi qo'yilib, ular nochor korxonalarining qatoriga kiritiladi.

Pul mablag'larining aylanishi sodir bo'ladigan vaqt oralig'i ishlab chiqarish-tijorat jarayoning davomiyligini o'zida aks ettiradi. Korxonalarining *xususiy aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji* moliyaviy rejalashtirishning ob'ekti hisoblanadi va uning moliyaviy rejasida o'z aksini topadi.

Korxonaning *aylanma mablag'larini* shakllantirish manbalari masalasi boshqa nuqtai nazarda muhim hisoblanadi. CHunonchi, bozor konyunkturasi doimiy ravishda o'zgarib turadi, shuning uchun uning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlari ham o'zgarib turadi. *Aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda* buxgalteriya balansi asosiy axborotlar manbai hisoblanadi. Korxonaning rahbari buxgalteriya balansi bilan tanishib chiqib, aylanma mablag'lar dinamikasiga ishonch hosil qilishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish zahiralari summasining o'sishi yoki kamayishi korxonaning o'z ishlab chiqarish hajmining oshib borayotganligini yoki uning xom ashyo va materiallar bo'yicha o'rnatilgan meyordan ortiqcha zahiralarni to'plab borayotganligini ko'rsatish mumkin.

Aylanma mablag'larning aylanish tezligi va uning samardorlik darajasini aniqlash korxonalar uchun qarz mablag'larini shakllantirishning optimal imkoniyatlarini aniqlab beradi. CHunki, qarz mablag'larini oqilona manbalarini

shakllantirish *moliyaviy menjmentning* oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda qarz mablag'larini shakllantirish bo'yicha *moliyaviy qaror qabul* qilish masalalari passivlarni boshqarishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Albatta, passivlarni boshqarishning mazkur usullari uchun ham axborotlar manbalari sifatida asosan korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini o'zida aks ettiruvchi korxonaning yillik hisob tizimi elementlaridan keng foydalaniladi.

6.3. Korxonaning aylanma mablag'larini boshqarish

Korxonalarda *aylanma mablag'larni* boshqarish aylanma mablag'larning aylanishi, samaradorlik ko'rsatkichlarini moliyaviy mezonlar asosida o'rganishga tayanib olib boriladi. Bunday ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilar kiritiladi:

- xom ashyo va materiallarning aylanuvchanligi;
- kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi;
- tayyor mahsulotning aylanuvchanligi;
- debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi;
- pul mablag'larining aylanish davri.

Moliyaviy menjmentning boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun zaruriy bo'lgan bunday ko'rsatkichlari tizimini hisoblash uchun axborotlar manbai sifatida korxonaning balans ma'lumotlari va moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi. *Aylanma kapital*ning elementlari uzluksiz ravishda ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga o'tadi. Aylanma kapitalning bir qismi doimiy ravishda ishlab chiqarishda bo'ladi (ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot), boshqa qismlari esa muomala sohasida bo'ladi (yuklab jo'natilgan tovarlar, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar). SHuning uchun sub'ektlarning aylanma kapitalining tarkibi va miqdori nafaqat ishlab chiqarish bilan balki muomala sohasi uchun ham mos kelishi lozim.

Ishlab chiqarish va muomala sohasi uchun *aylanma mablag'lariga* ehtiyoji turli xo'jalik faoliyati uchun bir xilda bo'lmaydi chunki aylanma mablag'larning moddiy mazmuni, aylanish tezligi, ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarishning texnologik va tashkiliy asoslari va boshqa omillar bilan aniqlanadi. Amaliyotda aylanma kapitalni rejalashtirish, hisob va tahlil qilish uchun quyidagi belgilari bo'yicha guruhlanadi:

- ishlab chiqarishdagi funksional roliga bog'liq ravishda aylanma ishlab chiqarish mablag'lari va muomala fondlari;
- nazorat, rejalashtirish va boshqarish amaliyotiga bog'liq ravishda-normallashtirilgan va normallashtirilmagan aylanma mablag'lar;
- aylanma kapitalning shakllanish manbalariga bog'liq ravishda-xususiy aylanma mablag'lar va qarz aylanma mablag'lar;
- likvidlilik ko'rsatkichlariga bog'liq ravishda-absolyut likvidli aylanma mablag'lar, tezda sotish mumkin bo'ladigan aylanma mablag'lar, sekinroq sotish mumkin bo'ladigan aylanma mablag'lar;
- moddiy mazmuniga bog'liq ravishda mehnat buyumlari(xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, tugallanmagan ishlab chiqarish va boshqalar), tayyor mahsulotlar, tovarlar, pul mablag'lari va boshqalar;
- hisob standartlari va balansda aks ettirilishi bo'yicha - zahiradagi aylanma mablag'lar, pul mablag'lari va boshqalar;
- kapitallar quyilishining xatarlari darajasi bo'yicha - minimal xatarli aylanma kapitallar, yuqori darajadagi xatarli aylanma kapitallar;
- aylanma kapitallarning funksional belgilari bo'yicha - ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlariga bo'linishi ishlab chiqarish jarayonida aylanma mablag'larning ishtirok etish vaqtini tahlil qilish uchun muhimdir.

Aylanma mablag'larning ishlab chiqarish jarayonidagi funksional roli
bo'yicha tarkibi va tuzilishi

	Aylanma mablag'larning guruhlari	Aylanma mablag'laring tarkibi	Axborotlar manbai sifatida buxgalteriya hisobi raqamlari
	Aylanma ishlab chiqarish fondlari(ishlab chiqarish jarayonidagi aylanma mablag'lari)	1.1 Ishlab chiqarish zahiralari: -xom ashyo -asosiy materiallar -yarim fabrikatlar -yokilgi -yordamchi materiallar -inventar va jihozlar, 1.2 Ishlab chiqarish jarayonidagi mablag'lar: -tugallanmagan ishlab chiqarish -xususiy yarim fabrikatlar -kelgusi davr xarajatlari	1010 1010 1020 1030 1060 1080 2010 2110 3110
	Muomala fondlari (muomaladagi aylanma mablag'lar)	2.1 sotilmagan mahsulotlar: -tayyor mahsulot -yuklab jo'natilgan mahsulot -qayta sotish uchun tovarlar 2.2. Pul mablag'lari: -kassa -hisob raqami -valyuta raqami -qimmatli qog'ozlar -boshqa pul mablag'lari -boshqa sub'ektlar bilan hisobla-shishlar-debitorlar	2810 2810 2910 5010 5110 5200 5810 5500,5600 40 00-4800
	Aylanma mablag'larning umumiy summasi	(p1+p2)	

Aylanma mablag'lar balans aktivining 2-bo'limida aks etib, aylanishdagi mablag'larning puldagi ifodasidir. Asosiy fondlardan farqli ravishda aylanma mablag'lar bir ishlab chiqarish siklida to'la o'zlashtirilib, o'z qiymatlarini tayyor mahsulotning tannarxiga o'tkazadi va ham buyum-natura, ham qiymat ifodasida qayta tiklanadi, shu tariqa bevosita harakatda bo'ladi.

Ko'rib turibmizki, aylanma kapital xo'jalik muomalalari o'zluksiz oqimining bir qismi hisoblanadi. Korxonalarda sotib olish jarayoni ishlab chiqarish

zahiralarini va kreditorlik qarzlari ko'payishiga olib keladi; ishlab chiqarish tayyor mahsulot hajmining o'sishiga olib keladi; sotish natijasidagi debitorlik qarzlari kassadagi va hisoblashish schetidagi pul mablag'larining ko'payishiga olib keladi. Bu muomalalar sikli ko'p marta takrorlanadi va umuman bunday muomalalar pul tushumlari va pul to'lovlari sifatidagi soddagina harakatni o'zida aks ettiradi.

Aylanma mablag'larning samaradorligi. Qiymat ko'rinishidagi aylanma mablag'larni samarali boshqarish mezonini sifatida vaqt omili xizmat qiladi. Aylanma mablag'lar qanchalik ko'p bir ko'rinishda (pul yoki tovar) tursa, aylanish davri sekinlashadi va bu o'z navbatida korxonaga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aylanma mablag'lar qanchalik tez aylansa, korxonaning moliyaviy ahvoli yaxshilanib bordi.

Korxonaning moliyaviy natijalari ko'p jihatdan aylanma mablag'lardan oqilona foydalanish va ular bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Aylanma mablag'lardan foydalanish darajasini oborot qilish ko'rsatkichlari aks ettiradi, ular barcha aylanma mablag'lar bo'yicha yoki aylanma mablag'larning muayyan turlari bo'yicha hisoblab chiqiladi. Oborot qilish ko'rsatkichlarini joriy aktivlarning alohida tarkibiy qismlari (ishlab chiqarish zahiralari, debitorlik va kreditorlik qarzlari) bo'yicha baholash likvidlik ko'rsatkichlari tahlilini to'ldiradi va chuqurlashtiradi.

Aylanma mablag'larning bir marotaba aylanish davri (AD) quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$A_D = \frac{A_{MK} * 360}{M_{MS}}$$

Bunda: A_{MK} – aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i so'm.

M_{MS} – sotilgan mahsulot miqdori, so'mda.

Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsientini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$K_a = \frac{M_{MS}}{A_{MK}}$$

Aylanma mablagʻlarning aylanish davrini hisoblashni osonlashtirish uchun yillik kunlar sonini 360 kun, chorakni 90 kun, oyni 30 kun deb qabul qilingan.

Misol: korxonada bir yilda 25 million soʻmlik mahsulot sotilgan boʻlsa, aylanma mablagʻlarning oʻrtacha yillik qoldigʻi 5 million soʻm boʻlganda, aylanish koeffitsienti $=25/5 = 5$ ga teng boʻladi.

6.4. Debitorlik qarzlari va ularni boshqarish

Debitor qarzdorlik - bozor iqtisodining obʻektiv unsuri va uning darajasi firmaning kredit siyosati va iqtisodiy shart-sharoitiga taʼsir koʻrsatadi. Debitor qarzdorligining oʻsishi sotishning kengayishi bilan bogʻliq, demak, daromad oshadi. Lekin, boshqa tomonidan debitor qarzlarni undirish va chorasiz qarzlarni boʻyicha yoʻqotishlar xavfi oshadi. Moliyaviy menejerning vazifasi debitor qarzlari oqilona chegaralarini aniqlab olishdir.

Normal iqtisodiy sharoitlarda debitorlik qarzlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga, korxonaning moliyaviy axvolini yaxshilashga yordam beradigan zarur hodisadir. Lekin uning nooqilona koʻlamlari mikro va makro darajalarda korxonalarining likvidsizligini, toʻlovga qobiliyatsizligini keltirib chiqaradi. Bular esa korxonalarni bankrot boʻlishga olib boradi, davlat byudjetiga daromad tushishini kamaytiradi.

Normal jarayon tufayli kelib chiqqan debitorlik qarzigina quyidagilar kiradi:

- mahsulot yetkazib beruvchilarga shartnoma asosida berilgan boʻnaklar (gaz, elektr energiyasi, avtotransport va aloqa xizmatlari, materiallar xarid qilish);
- toʻlovlarning tovar bilan qaytarilmagan qismi;
- hisobot berish sharti bilan pul olgan (berilgan bunaklar boʻyicha) shaxslarning belgilangan hisobot topshirish muddatlari doirasidagi qarzlari.

Normal boʻlmagan debitorlik qarzi: kamomadlar, talon-tarojlar va oʻgʻriliklar boʻyicha qarzlarni, tovarlar (yoki xizmatlar) miqdori va sifati belgilangan assortimentga mos kelmasligi tufayli bildirilgan hamda javob beruvchilar tan olgan yoki hakamlar qaror qilgan qarzlardir.

Xo‘jalik faoliyati jarayonida tugallanmagan hisob-kitoblar bo‘yicha normal kreditorlik qarzlari qonuniy tarzda vujudga keladi. Bular quyidagilardan iborat:

- hisobvaraqlar bo‘yicha belgilangan haq to‘lash muddatlari doirasida mahsulot yetkazib beruvchilar oldidagi qarzdorlik;
- mehnatga haq to‘lash bo‘yicha ishchi va xizmatchilar oldidagi hamda ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar bo‘yicha kasaba tashkilotlari oldidagi qarzdorlik;
- moddiy boyliklar ularning haqini to‘lash muddatiga qaraganda oldinroq kelganligini munosabati bilan paydo bo‘lgan qarzdorlik;
- soliqlar bo‘yicha davlat oldidagi qarzdorlik va boshqalar.

Debitorlik qarzi – korxonaning aylanmasidan chiqib qolgan va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarda turgan mablag‘laridir. Korxonaning o‘z mablag‘lari yoki boshqa korxonalarining mablag‘lari bu qarzlarni qoplash manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Debitorlik qarzi–mablag‘larni aylanmadan immobilizatsiyalash, kreditorlik qarzi – boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning mablag‘larini ishlab chiqarishga vaqtincha jalb etishdir.

Debitorlik qarzi qaytarilganida hisob-kitob varaqlari, valyuta hisobvaraqlaridagi, kassadagi pul mablag‘lari yoki tovar-moddiy boyliklar ko‘payadi. Balans yakuni o‘zgarmaydi. Lekin agar korxonalar boshqa korxonalar yoki banklardan kreditlar olish hisobiga mablag‘ olgan bo‘lsa, balans yakuni shu summaga ko‘payadi, ya’ni kreditorlik qarzi – boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlar summasi ko‘payadi.

Debitorlik qarzi aylanma aktivlarning bir qismi bo‘lib, «Aylanma aktivlar» degan balans aktivining 2-bo‘limida ko‘rsatiladi. U balansning quyidagi moddalari bo‘yicha guruhlariga ajratilgan:

- xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar;
- bo‘nak to‘lovlari;
- byudjet bilan hisob-kitoblar;
- xodimlar bilan hisob kitoblar;
- sho‘ba korxonalar bilan hisob-kitoblar;

- uyushmaga kirgan korxonalar bilan hisob-kitoblar;
- muassislar bilan hisob kitoblar;
- boshqa debitorlar.

«Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar» degan modda buyurtmachilarga berilgan tovarlar, topshirilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzni aks ettiradi. Bunda qarzning tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha to'lovlarni korxonaga hisob-kitob varagiga tushirish, o'zaro talablarni inobatga olish yoki olingan veksellar bilan ta'minlash orkali to'languncha bo'lgan paytdagi holati aks ettiriladi.

Har bir korxonaga raxbari debitorlik qarzlari holati faqat shu korxonaning emas, balki unga hamkor korxonalarining va umuman butun respublika iqtisodiyotining moliyaviy ahvoriga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri ekanini doimo nazarda tutishi kerak

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi. Debitorlik majburiyatlari yoki qarzlari tahlilida ularning aylanuvchanligiga alohida etibor beriladi. Negaki debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasi korxonaga moliyaviy axvoliga baho berishning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Korxonaga «Aylanma aktivlar»ida debitorlik qarzdorligini aks ettirilishini shartli misolda ko'rib chiqamiz:

Debitorlik qarzdorlik holati (ming so'mda)

Debitorlik qarzdorlik moddalari	Davri oxiriga jami	Shu jumladan yuzaga chiqish muddatlari bo'yicha				
		1 oygacha	1 oydan 2 oygacha	3 oydan 6 oygacha	6 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortiq
1.Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar	235470	98670	89000	26470	20190	1140
2.Bo'nak (avans) to'lovlari	18840	*	18840	*	*	*
3.Byudjet bilan hisoblashishlar	465	465	*	*	*	*
4.Xodimlar bilan hisoblashishlar	795	375	*	*	420	*
5.SHu'ba korxonalar bilan hisoblashishlar	44385	*	44385	*	*	*

6.Ta'sischi bilan hisoblashlar	-	*	*	*	*	*
7.Uyushma korxonalar bilan hisoblashlar	38760	*	29970	8790	*	*
8.Boshqa debitorlar	6540	1815	3810	*	782	133
Jami	345255	101305	186000	35265	21392	1273

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi deganda qarz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koeffitsienti tushuniladi. Bu bevosita bugungi yuzaga kelgan majburiyatning necha kundan keyin naqd pulga aylanish darajasini xarakterlaydi.

Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi sotishdan olingan tushumni debitorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini davrning kalendar kunlari soniga ko'paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida debitorlik qarzlarning bir marta aylanishi uchun kunlar soni aniqlanadi.

Korxonada debitorlik majburiyatlarining holati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 160410 ming so'mga oshgan. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasi ham o'tgan yilning shu davriga nisbatan 972525 ming so'mga o'sgan. Buning ta'sirida debitorlik majburiyatlarining undirilish davri o'tgan yilga nisbatan 3 kunga tejalishiga erishilgan. YA'ni debitorlik majburiyatlarining undirib olinishi bir qadar tezlashgan. Bu tezlashish bevosita mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushum summasining oshishi hisobiga ro'y bergan.

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligini tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi
1.Debitorlik qarzlari jami (<i>ming so'mda</i>)	184845	345255	+160410
2.Mahsulot sotishdan olingan sof tushum (<i>ming so'mda</i>)	1015935	1988460	+972525
3.Oborot aktivlari (<i>ming so'mda</i>)	846420	1430730	+584310
4.Muddati o'tgan debitorlik qarzlari (<i>ming so'mda</i>)	1877	1273	-604
5.Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti (2q/1q)	5,496	5,759	+0,263
6.Debitorlik qarzlarning aylanish davri, kunda (1q*360/2q)	65,5	62,5	-3
7.Oborot aktivlari tarkibida debitorlik qarzlari, foizda (1q/3q*100)	21,8	24,1	+2,3

8.Muddati o'tgan debitorlik qarzlari ulushi, foizda. (4q/1q*100)	1,01	0,36	-0,65
---	------	------	-------

Joriy davrda debitorlik majburiyatlarining jami oborot aktivlari tarkibidagi salmog'i o'tgan yining shu davriga nisbatan 2.3 % ga ortishi avvalo debitorlik majburiyatlari summasining ortishi hisobiga ro'y bergan. Muddati o'tgan debitorlik qarzlarning jami debitorlik qarzlari tarkibidagi salmog'i o'tgan yilning shu davrida 1,01 % ni joriy davrning oxirgi hisobot sanasiga esa 0,36 % ni tashkil qilgan.

Yuqoridagi bog'lanishlardan bevosita debitorlik majburiyatlarining aylanishiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir darajalarini ham aniqlashimiz mumkin.

Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti va aylanish davri o'zgarishining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Debitorlik qarzlarni aylanish koeffitsienti	Debitorlik qarzlarni aylanish davri
1.O'tgan yil	5,496	65,5
2.SHartli hisobot yili	10,757	33,4
3.Hisobot yili	5,759	62,5
Jami farq	+0,263	-3
Ta'sir etuvchi omillar	*	*
1.Sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi	+5,261	-32,1
2.Debitorlik qarzlari summasining o'zgarishi	-4,998	+29,1

Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti va aylanish davriga omillar ta'siri qo'yidagicha bo'lgan. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti o'tgan yilga nisbatan +0,263 ga ortgan. Bu o'zgarishda mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi ta'sirida aylanish koeffitsienti +5,261 ga (10,757-5,496) debitorlik qarzlari xajmining o'zgarishi hisobiga esa aylanish koeffitsienti -4,998 ga (5,759-10,757) kamaygan. Xar ikkala omil ta'sirida aylanish koeffitsienti +0,263 (5,261-4,998) koeffitsientga o'zgargan.

Ushbu omillar ta'siri debitorlik qarzlarning aylanish davri ko'rsatkichi bo'yicha quyidagicha bo'lgan. YA'ni; sotishdan olingan sof tushum summasi hisobiga o'zgarish -32,1 kunga, debitorlik majburiyatlari summasining usishi hisobiga +29,1 kunga o'zgarish kuzatilgan.

Debitorlik qarzlarning shartli aylanish koeffitsienti va aylanish davrining hisobi. Debitorlik qarzlarning shartli aylanish koeffitsienti quyidagi formulaga asosan aniqlanadi:

$$K\partial = \frac{Tc}{Dm}$$

Debitorlik qarzlarning shartli aylanish davri esa quyidagi formula asosan aniqlanadi:

$$D\partial = \frac{Dm \times 360}{Tc}$$

Ushbu formulalarda:

Ts – Sotishdan olingan sof tushum (hisobot yilda haqiqatda).

Dm - Debitorlik qarzlari (o'tgan yilning shu davri bo'yicha).

Debitorlik qarzlarning holatini yaxshilashning asosiy yo'llari quyidagilardan iboratdir:

- zarur mahsulotni yetkazib berish va xarid qilish shartnomalarini o'z vaqtida va to'g'ri tuzish;
- hisob-kitob va to'lov hujjatlarini o'z vaqtida to'g'ri rasmiylashtirish;
- mahsulot yetkazib beruvchilar va xaridorlarning moliyaviy ahvolini o'rganish;
- mahsulot hajmini oshirish va sifatini yaxshilash;
- korxonada marketing xizmatlarini yaxshilash;
- mahsulot yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- korxonalarining moliyaviy ahvolini o'z vaqtida tahlil qilish hamda ularning natijalarini maqsadga muvofiq holatda ushlab turish choralarini ko'rish.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bajarilishi kechikishlarining oldini olish maqsadida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish maqbuldir:

- o‘zaro shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning masulligini oshirish va ularning shartlariga qat’iy amal etish;
- muddati o‘tkazib yuborilgan har qanday to‘lovlar summasi bo‘yicha huquqiy javobgarlik choralari ko‘rish;
- zamonaviy hisob-kitob shakllaridan foydalanish;
- dargumon qarzlari bo‘yicha rezervlar tashkil qilish mexanizmini ishlab chiqish va boshqalar.

Debitorlarga ta’sir ko‘rsatishning eng keng qo‘llanadigan usullariga xat jo‘natish, telefon qilish, shaxsan borib kelish, debitor qarzlarni boshqa tashkilotlarga sotib yuborish kiradi.

Debitorlik qarzlari boshqa tashkilotlarga sotib yuborish - faktoring operatsiyasi deb ataladi.

Faktoring – debitor qarzni undirish huquqini vositachiga o‘tkazayotgan sub’ektning qarzi undirish tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida tuziladigan shartnomadir. Sub’ektlar o‘rtasida debitorlik va kreditorlik qarzlari muammosi paydo bo‘lganda, ya’ni tovar-moddiy qiymatliklarni jo‘natgan sub’ekt xaridordan mahsulot haqini o‘z muddatida undirolmasa yoki bunday qarzlari shubhali, ularni undirish ehtimoli kam bo‘lsa faktoring vositasida qarzni undirish amaliyoti qo‘llaniladi.

Faktoringda vositachi korxonasi (odatda bank) qarzi bergan sub’ektdan ma’lum bir komission to‘lov evaziga qarzdordan mablag‘ni undirish huquqini qo‘lga kiritadi. Faktoring shartnomasi tuzilishi bilan sub’ekt undirolmay turgan qarzni aksariyat qismini faktoring sub’ektidan (yoki bankdan) oladi. So‘ngra faktoring korxonasi qarzdor korxonaga qarzni undirish bo‘yicha da’vo qo‘zg‘atadi.

Faktoringning afzalligi shundaki, u noto‘lovlar muammosini qisman bo‘lsada echishga imkon beradi.

Debitor qarzlarni nazorat va tahlil qilishning umumiy sxemasi odatda o‘z tarkibiga quyidagi bosqichlarni oladi.

1-bosqich. Alohida debitor qarzlarning kritik darajasi belgilab olinadi. Bu summadan yuqori bo'lgan har bir qarzdorlikning hisob-kitob hujjatlari to'la tekshirib chiqiladi.

2-bosqich. qolgan hisob-kitob hujjatlaridan nazorat uchun to'plam tanlab olinadi, tanlashning turli usullari qo'llanishi mumkin.

3-bosqich. Tekshirish uchun tanlab olingan hisob-kitob hujjatlaridagi debitor qarzlari qanchalik real ekanligi tekshiriladi. Xususan, qarzdorlardan bu summaning xaqiqiyligini tasdiqlashlari so'ralishi mumkin.

4-bosqich. Aniqlangan xatolarning muhimligiga baho beriladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aylanma aktivlarni boshqarish siyosati nimalarda ifodalanadi?
2. Aylanma aktivlar turlarini sanab bering.
3. Korxonada aylanma aktivlarini boshqarishning asosiy bosqichlarini aytib bering.
4. Tovar-moddiy zahiralarni boshqarish zarurligi va ahamiyatini ko'rsating.
5. Aylanma mablag'larning samaradorligi nimalarda ifodalanadi?
6. Debitorlik qarzlarning holatini yaxshilashning asosiy yo'llarini tushuntiring.

Testlar

1. Korxonada aylanma mablag'lari tarkibi quyidagilardan iborat:
A) tovar-moddiy zahiralarning qiymati va tugallanmagan ishlab chiqarish;
B) debitorlik qarzlari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar;
V) pul mablag'lari va kelgusi davr xarajatlari joriy qismi;
G) yuqoridagilar barchasi birgalikda.
2. Debitorlik qarzi nima?
A) boshqalarga har qanday qarz berish;
B) o'z xodimlariga qarz berish;
V) unilirilishida qiyinchilik mavjud qarzlarning;

G) korxonaning aylanmasidan chiqib qolgan va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarda turgan mablag'laridir. Korxonaning o'z mablag'lari yoki boshqa korxonalarining mablag'lari bu qarzlarni qoplash manbai bo'lib xizmat qiladi.

3. Tovar-moddiy zahiralarni baholash usullari

- A) joriy bahoda baholash;
- B) material resurslarni haqiqiy sotib olingan bahoda baholash;
- V) sotib olingan materiallarni o'rtacha baholar orqali baholash;
- G) yuqoridagilar barchasi birgalikda.

4. Aylanma mablag'lar qanchalik tez aylansa,

- A) korxonada faoliyatiga ta'sir qilmaydi;
- B) korxonada faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi;
- V) ko'proq qarz olishga to'g'ri keladi;
- G) korxonaning moliyaviy ahvoli yaxshilanib boradi.


VII BOB. XARAJATLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA DAROMADLARNI MAKSIMALLASHTIRISH MASALALARI

7.1. Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati, tarkibi va elementlari

Har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshiradi. Mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan moddiy resurslar (asosiy vositalarning eskirishi, materiallar, urug‘lik, o‘g‘it, yonilg‘i-moylash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqa) va jonli mehnat sarflari ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil qiladi.

Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish, sotish va boshqa moliyaviy - xo‘jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarini quyidagicha turkumlash mumkin (7.1-chizma):

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokiga ko‘ra:
 - ishlab chiqarish xarajatlari;
 - noishlab chiqarish xarajatlari.
2. Ishlab chiqarishda sarf etiladigan resurslarning manbaiga ko‘ra:
 - ichki xarajatlar;
 - tashqi xarajatlar.
3. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga nisbatan:
 - doimiy xarajatlar;
 - o‘zgaruvchan xarajatlar.
4. Mahsulotning tannarxiga olib borilishi jihatidan:
 - bevosita xarajatlar;
 - bilvosita xarajatlar.
5. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa xo‘jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan:
 - mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
 - davr xarajatlari;
 - moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar;
 - favqulodda zararlar.

Korxonalar xarajatlarining turkumlanishi

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

- bevosita moddiy material xarajatlari;
- bevosita mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga taalluqli ustama xarajatlar.

Bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatga **noishlab chiqarish xarajatlari** deb yuritiladi. Uning tarkibiga:

- mahsulotni sotish bilan bog‘liq xarajatlar;
- ma‘muriy boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;
- moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar;
- favqulodda zararlar kiradi.

Korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan o‘ziga tegishli resurslar sarfi uning **ichki xarajatlarini**, tashki mol yetkazib beruvchilar va boshqa sub’ektlardan sotib olingan resurslar uchun to‘lovlar korxonaning **tashqi xarajatlarini** tashkil qiladi.

Qisqa muddatli davrda mahsulot hajmining o‘shishiga nisbatan doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlar farq qiladi.

Doimiy xarajatlar mahsulot hajmining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmay, korxonaning ma‘lum bir vaqt oralig‘ida sarflashi qat’iy belgilab qo‘yilgan o‘zgarmas xarajatlarini ifoda etadi. Bunga asosiy vositalarning eskirish, boshqaruv xodimlarining mehnat haqi, sug‘urta to‘lovlari, telefon uchun abonentlik to‘lovi ijara to‘lovlari va shunga o‘xshashlarni misol qilib keltirish mumkin. Doimiy xarajatlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, mahsulot hajmining oshib borishi bilan bir birlik mahsulotga to‘g‘ri keluvchi doimiy xarajatlar kamayib boradi.

O‘zgaruvchan xarajatlarning miqdori mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘shishi yoki kamayishiga qarab o‘zgarib turadi, ya’ni mahsulotning hajmiga mutanosib bo‘ladi. O‘zgaruvchan xarajatlarning tarkibiga ishchilarning

mehnat haqi va unga nisbatan ajratmalar, xom ashyo, yonilg'i-moylash materiallari, yoqilg'i va energiya, transport xarajatlari hamda boshqa resurslarning sarfi kiradi. O'zgaruvchi xarajatlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mahsulot hajmining oshib borishi bir birlik mahsulotga to'g'ri keluvchi o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarning yig'indisi xo'jalikning **umumiy xarajatlarini** tashkil qiladi. Bundan tashqari bir birlik mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan **o'rtacha umumiy xarajatlar** tushunchasi ham mavjud. **O'rtacha doimiy xarajatlar**, doimiy xarajatlar summasini mahsulotni ishlab chiqarish hajmiga bo'lish orqali hisoblanadi. Xuddi shuningdek, **o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlarni**, o'zgaruvchi xarajatlar summasini mahsulotni ishlab chiqarish hajmiga bo'lish orqali topish mumkin.

Ishlab chiqarishning dastlabki bosqichida, hali moddiy resurslar va asosiy vositalar to'la bandlik darajasiga erishmagan davrda o'rtacha doimiy xarajatlarning qiymati yuqori bo'ladi va ishlab chiqarish hajmining oshib borishi bilan u kamayib borish xususiyatiga ega. O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmi optimal chegaraga etguncha kamayib boradi, ammo undan keyin ishlab chiqarishga jalb etilgan ortiqcha resurslarning samarasiz bo'lishi tufayli, o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar ortib boradi.

Keyingi har bir qo'shimcha mahsulotning birligini ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar **chegaraviy xarajatlar** deb yuritiladi. Uni umumiy xarajatlar summasining o'sgan qismini mahsulot hajmining o'sgan qismiga bo'lish orqali topish mumkin. CHegaraviy xarajatlar ishlab chiqarilayotgan har bir qo'shimcha mahsulot birligi xo'jalikka qanchaga tushishini ko'rsatadi.

Ayrim turdagi ishlab chiqarish xarajatlarini yaratilayotgan mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritish mumkin. Unga ishlab chiqarishdagi ishchilarning mehnat haqi va iste'mol qilingan moddiy resurslar sarfini kiritish mumkin. Bunday xarajatlarning turlari **bevosita ishlab chiqarish xarajatlari** deb yuritiladi.

Ikkinchi bir xarajat turlari bir necha xil mahsulot etishtirish jarayonida ishtirok etishi tufayli (masalan, transport vositalari va texnologik jihozlarning eskirishi), ularga ketgan xarajatlarni shu mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi ishtirokiga mutanosib taqsimlashga to'g'ri keladi. Bunday xarajatlar **bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari** deb yuritiladi.

Xo'jalikning ishlab chiqarish, operatsion, moliyaviy va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq quyidagicha turkumlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bo'yicha ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlarning eskirish;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydani aniqlashda hisobga olinadigan davr xarajatlarining elementlari:

- boshqaruv xarajatlari;
- mahsulotni saqlash va sotish xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar.

3. Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydasini aniqlashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:

- foizlar bo'yicha to'lovlar;
- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga (lizingga) olish to'lovlari;
- xorijiy valyuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;

- qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;
- moliyaviy faoliyatga oid boshqa xarajatlar.

4. Korxonaning odatdagi faoliyatiga mos kelmaydigan, bir necha yillar davomida takrorlanib turmaydigan va korxonaga (mulk egasining) qabul qilgan boshqaruv qarorlariga bog'liq bo'lmagan holda vujudga keladigan voqealar va hodisalar (suv toshqini, yong'in, jala, do'l kabi tabiiy ofatlar va mamlakat qonunchiligining o'zgarishi) natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash xarajatlari.

7.2. Mahsulot tannarxi tarkibiga kiruvchi xarajatlarning guruhlanishi

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxi mahsulotni ishlab chiqarish yoki qayta ishlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) jarayonida foydalanadigan tabiiy resurslar, xom ashyo, materiallar, yoqilgi, energiya, asosiy vositalar, mehnat resurslari sarfining, shuningdek ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlarning qiymat bahosini ifodalaydi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish bilan bog'liq, ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etilishi orqali zarur bo'lgan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilardan iborat:

- materiallarga doir to'g'ri xarajatlar;
- mehnatga doir to'g'ri xarajatlar;
- bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish ahamiyatidagi ustama xarajatlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiladigan xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga muvofiq ravishda quyidagi elementlari bo'yicha turkumlanadi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari (ishlatiladigan chiqindilar qiymati chegirib tashlanadi);
- ishlab chiqarishga oid to'g'ri mehnatga haq to'lash xarajatlari;

- ishlab chiqarishga taalluqli asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqarishga oid moddiy xarajatlar quyidagi moddalarni o'z ichiga oladi:

- tashqaridan sotib olinadigan, ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibiga kirib, uning asosini tashkil etadigan yoki mahsulot tayyorlashda (ish bajarishda, xizmat ko'rsatishda) zarur komponent hisoblanadigan xom ashe va materiallar;

- mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur me'yoriy texnologik jarayonni ta'minlash uchun va mahsulotni o'rash va boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sotib olingan materiallar, shuningdek, jihozlarni, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, inventar, xo'jalik ashyolari va asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydigan mehnat vositalarini qiymati;

- korxonada montaj qilish va qo'shimcha ishlov berish uchun sotib olingan butlash buyumlari va yarim tayyor mahsulotlar;

- chet tashkilotlar yoki jismoniy shaxslar, shuningdek korxonaning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lmagan, ishlab chiqarishlari va xo'jaliklari tomonidan bajariladigan ishlab chiqarish tavsifiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar. Ishlab chiqarishda iste'mol qilingan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash, xom ashe va materiallarga ishlov berish bo'yicha operatsiyalarni bajarish; iste'mol qilinadigan xom ashyo va materiallar sifatini belgilash uchun sinovlar o'tkazish; belgilangan texnologik meyorlarga rioya qilinishi ustidan nazorat; asosiy ishlab chiqarish vositalarini ta'mirlash va hokazolar kiradi. CHet tashkilotlarining korxonada yuk tashish bo'yicha transport xizmatlari (xom ashyo, materiallar, asboblari, detallar, yarim tayyor mahsulotlar boshqa xil yuklarni bazis (markaziy) ombordan sexlarga olib utish va tayyor mahsulotni saqlash omborlariga yetkazib berish) ham ishlab chiqarishga oid xizmatlarga kiradi;

- tabiiy xom ashyo (yerni madaniylashtirishga ajratmalar, erlarni madaniylashtiradigan maxsus korxonalariga to'lov), o'rmon hududlaridan yog'och materiallari sifatida olish uchun to'lov, suv xo'jaligi tizimidagi sanoat korxonalari

oladigan suv uchun to'lov (me'yor chegarasida va undan ortiq). Sanoatni xom ashyo tarmoqlari uchun yog'och materiallaridan foydalanish huquqini amortizatsiyalanadigan qiymati yoki foydali qazilmalar (rudalar) qiymati yoki atrof muhitni tiklash xarajatlari;

- korxonada transporti bilan ishlab chiqarish uchun bajarilgan xizmatlarda, texnologik maqsadlar, binolarni isitish, barcha turdagi quvvatni ishlab chiqarishda sarflanadigan, chetdan sotib olingan yoqilg'ining hamma turlari;

- korxonani texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish, shuningdek, xo'jalik zaruriyatlariga sarflanadigan sotib olinadigan barcha turdagi quvvat (korxonada elektr va boshqa turdagi quvvatni hosil qilish, shuningdek, sotib olingan quvvat istemol joyigacha etkazish va quvvatni pasaytirib berish xarajatlari tegishli xarajat moddalariga kiradi);

- moddiy resurslarning kamomadi va buzilishidagi yo'qotishlar;

- korxonaning transporti va xodimlarining moddiy resurslarni keltirish bilan bog'liq xarajatlari (yuklash-tushirish ishlari qo'shilgan holda) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli moddalari (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlari va boshqalar)ga kiritiladi;

- moddiy resurslar qiymatiga moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olingan idish va o'ramlar uchun to'langan korxonada xarajatlari ham qo'shiladi;

- mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan chiqariladigan chikindilar hamda idish va o'ramlarning haqiqiy qiymati sotish, ishlatish yoki omborga kirim qilish narxlarida chegiriladi. Korxonada joriy etilgan texnologiyaga muvofiq boshqa sexlar, bo'linmalarga bundan keyin ham ana shu yoki boshqa mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun to'laqonli xom ashyo yoki materiallar sifatida berilayotgan moddiy resurslar koldiklari tannarxdan chegiriladigan chiqindilarga kiritilmaydi.

Tannarxdan chegiriladigan chiqindilarni baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

- agar chiqindilardan asosiy ishlab chiqarish uchun, yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari, keng iste'mol buyumlarini (madaniy-maishiy va xo'jalik-

ro'zg'or mollari) tayyorlash uchun foydalanish yoki chetga sotish mumkin bo'lsa, ehtimoliy foydalanish narxi bo'yicha;

- agar chiqindilar to'laqonli resurs sifatida foydalanish uchun chetga sotilsa, birlamchi oddiy resurslarni to'liq narxi bo'yicha hisobga olinadi.

«Moddiy xarajatlar» moddasi bo'yicha aks ettirilgan moddiy resurslar qiymatiga xarid qilish narxlari, qo'shimcha (ustama) haqlar, ta'minot tashkilotlariga to'lanadigan vositachilik haqlari, tovar birjalari, shu jumladan brokerlik xizmatlari haqlari, bojxona bojlari va yig'implari, transport xarajatlari kiritiladi.

Ishlab chiqarish taalloqli mehnatga haq to'lash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- korxonada qabul qilinadigan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay haqlari, tarif stavkalari va mansab maoshlari asosida, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi, shu jumladan ishlab chiqarish rejasi bo'yicha dastlabki hujjatlarda ko'zda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar;

- kasb mahorat va murabbiylik uchun tarif stavkalari va maoshlarga ustamalar;

- ish tartibi va mehnat shartlari bilan bog'liq kompensatsiya tarzidagi to'lovlar, shu jumladan:

texnologik jarayon jadvalida ko'zda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va maoshlarga ustama hamda qo'shimcha haqlar;

ko'p smenali tartibda ishlaganlik, kasblarni o'rindoshlik bilan bajarganlik va xizmat ko'rsatish doiralarini kengaytirganlik uchun ustama haqlar;

og'ir, zararli, o'ta og'ir mehnat sharoitlarida va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ish haqiga ustamalar, shu jumladan ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxatlariga ko'ra ish haqiga ustamalar;

aloqa, temir yo'l, suv, avtomobil transporti va tosh yo'llar xodimlari hamda faoliyatlari doimiy harakatda yoki ko'chma (sayyor) xususiyatga ega bo'lgan

xodimlar ish haqiga ishga ketgan vaqtdan korxonaga qaytib kelish vaqtigacha sutkasiga to'lanadigan ustamalar;

bevosita qurilish, qayta jihozlash va mukammal ta'mirlash ishlarida, shuningdek vaxta usulida ish bajarilganida ishning ko'chma (sayyor) xususiyatlari uchun xodimlarga amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan ustama haqlar;

yer osti ishlarida doimiy band xodimlarga ularning kirish joyidan shaxta (kon)dagi ish joyiga borish va qaytishga me'yorlangan vaqti uchun qo'shimcha to'lovlar;

mehnatga haqto'lashning hududiy tartibga solinishi orqali belgilab qo'yilgan, shu jumladan tuman koeffitsientlari hamda cho'l, suvsiz va baland tog'lik joylarda ishlaganlik uchun koeffitsientlar bo'yicha amaldagi qonunchilikka muvofiq to'lovlar;

vaxta usulida ish bajarilganida vaxtada ishlash jadvalida ko'zda tutilgan korxonada joylashgan joydan (yig'ilish maekanidan) ish joyiga borish va qaytishda yo'lda bo'lgan kunlar uchun, shuningdek xodimlarning obi-havo sharoitlari yoki transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib kolgan kunlari uchun tarif stavkasi, maosh miqdorida to'lanadigan haqlar;

- ishlarni vaxta usulida tashkil etilganda ish vaqti yig'indisini hisobga olgan holda va boshqa hollarda amaldagi qonunchilikda belgilangan me'yordagi ish vaqtdan so'ng bajarilgan ishlar uchun beriladigan dam olish kunlari uchun xodimlarga to'lanadigan ish haqi;

- ishlab berilmagan vaqt uchun haq, shu jumladan: amaldagi qonunchilikka muvofiq, navbatdagi (har yilgi) va qo'shimcha ta'til to'lovlari (foydalanilmagan ta'til uchun kompensatsiyalar), o'smirlarning imtiyozli soatlari, yosh bolasini ovqatlantirish uchun onalarning ishdagi tanaffuslari, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun to'lovlar;

- ish haqi qisman saqlanib, majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga to'lovlar;

- tskshtiruv, qon topshirish va qon topshirishning har bir kundan keyin beriladigan donor xodimlarga haq;

- davlat majburiyatlarini bajarganlik uchun mehnat haqi (harbiy yig'in), favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va hokazo);

- agar bajarilayotgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitoblar bevosita korxonaning o'zida qilinsa, ular tomonidan fukarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar, shu jumladan pudrat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarganlik uchun korxonada xodimlar jadvaliga kiritilmagan xodimlar mehnatiga haq to'lash;

-

qonunda belgilangan tartibga muvofiq, ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovning boshqa turlari.

Ishlab chiqarish xodimlarining ijtimoiy ta'minoti uchun ajratmalar qonunchilikda belgilangan me'yorlar bo'yicha hisoblanadi. Ular davlat pensiya fondi, bandlik fond va kasaba uyushmalariga o'tkaziladi.

Korxonada nodavlat pensiya fondlariga, ixtiyoriy tibbiy sugurtaga va ijtimoiy sugurtaning boshqa turlariga ajratmalar qilishi mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarning hisoblangan amortizatsiyasi summolari ham kiradi. Ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya bo'yicha xarajatlar quyidagilardir:

- asosiy ishlab chiqarish vositalarning, shu jumladan lizing bo'yicha xarid qilingan, qonunchilikda belgilangan me'yorlarda, ularning dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib, hisoblangan amortizatsiya ajratmalari (hisoblangan eskirish) summolari, shu jumladan qonun hujjatlariga muvofiq; amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya;

- ishlab chiqarish maqsadidagi nomoddiy aktivlar eskirishi (amortizatsiyasi). Bu ularning dastlabki qiymatidan va foydali ishlatish muddatidan (lekin korxonaning faoliyat muddatidan ortiq bo'lmagan) kelib chiqib hisoblanadi. Agar nomoddiy aktivning foydali ishlatish muddatini belgilash mumkin bo'lmasa, korxonaning faoliyat muddatidan oshib ketmagan holda, bu muddat besh yil deb belgilanadi.

Ishlab chiqarish maqsadidagi boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

-

ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari, shu jumladan:

ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yoqilg', asboblari, moslamalar, boshqa vositalar va mehnat buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari;

asosiy ishlab chiqarish vositalarini ishchi holatida tutib turish xarajatlari (texnik ko'rik va xizmat ko'rsatish, o'rta, joriy va mukammal ta'mirlash xarajatlari);

sanitariya-gigiena me'yorlari bajarilishini ta'minlash xarajatlari;

ta'mirlashni o'tkazish uchun zahira barpo etish xarajatlari. Zarurat tug'ilganda korxonalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ruxsati bilan kapital ta'mirlash ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zahirasi barpo etishlari mumkin. Ushbu zahiraga ajratmalar "Ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlari" elementi tarkibida aks ettiriladi va xarajatlarning taxmin qilinayotgan qiymatidan va asosiy vositalar har bir ob'ektining kapital ta'mirlanishi davriyligidan kelib chiqib belgilanadi. Zahiraga ajratmalar me'yori har bir hisobot yilining oxi-rida qaytadan ko'ib chiqiladi va zarurat tug'ilganda yangi moliya yilida ajtmalar miqdorlari ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar kapital ta'mirlashga zahira qilingan mablag'lar summalar mazkur ob'ektni tamirlashning haqiqatdagi xarajatlaridan oshib ketsa, oshgan summa ishlab chiqarish xarajatlaridan chegirib tashlanadi. Agar haqiqatdagi xarajatlari rezerv qilinganidan oshib ketsa, oshgan summa "Ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlari"ga kiritiladi;

- yongindan saqlanish va qo'riqlashni ta'minlashga doir hamda korxonalarini texnik ishlatish, ular faoliyatini nazorat qilish qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash xarajatlari. Idoradan tashqari qo'riqlash xarajatlari, mazkur ishlab chiqarishning qo'riqlanishi maxsus talab qilinsagina, mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilishi mumkin. Aks hilda ular davr xarajatlariga kiritiladi;

- ishlab chiqarish faoliyatiga taalluqli asosiy ishlab chiqarish vositalarining joriy ijarasi bilan bog'liq xarajatlari;

- tabiatni muhofaza qilish maqsadidagi vositalarni tutib turish va ishlatish bilan bog‘liq joriy xarajatlar, atrof tabiiy muhitni ifloslantirganligi va chiqindilarni joylashtirganligi uchun kompensatsiya to‘lovlari;

- ishlab chiqarishning xususiyatlari bilan bog‘liq, va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan, mehnat va xavfsizlik texnikasining bir maromli sharoitlarini ta‘minlash xarajatlari;

- bevosita xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida ishtiroki bilan bog‘liq sog‘likni muhofaza qilish xarajatlari;

- ayrim tarmoqlar xodimlariga bepul taqdim etiladigan kommunal xizmatlar, ovkatlanish, oziq-ovkat mahsulotlari qiymati, korxonada xodimlariga taqdim etilgan bepul uy-joyga to‘lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va hokazolar uchun pul kompensatsiyasi summalari);

- amaldagi qonunchilikka muvofiq. bepul beriladigan, doimiy shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar (shu jumladan maxsus kiyim-kechak, maxsus ovkatlanish) qiymati (yoki ularni pasaytirilgan narxlarda sotish muno-sabati bilan imtiyozlar summasi);

- texnik boshqaruv vositalari, aloqa tarmoqdari, ogohlantirish vositalari, ishlab chiqarish jarayoniga tegishli boshqa texnik boshqaruv vositalari, hisoblash markazlarini tutib turish va xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

- qonunchilikka muvofiq, ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun tibbiy muassasalarga to‘lanadigan haq;

- ishlab chiqarish jarayoniga taalluqli ishlab chiqarish xodimlarining xizmat safarlari xarajatlari;

- ishlab chiqarish xodimlari va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sugurtalash xarajatlari:

- yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar;

- kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli ta‘mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

- ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko‘ra ishsiz turishlari tufayli yo‘qotishlar;

- mahsulot (xizmat)ni majburiy sertifikatlash xarajatlari, bunga kapitallashtiriladiganlar kirmaydi;
- sud qarorlariga asosan yoki ularsiz ishlab chiqarishda shikastlanganlik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq nafakalar. Kasb kasalligi munosabati bilan nafakalar to'lanishi;
- umumiy foydalanishdagi yo'lovchi transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga va uyiga tashish bilan bog'liq xarajatlar.
- ob'ektlar davlat kapital qo'yilmalari evaziga bunyod etilayotganda qurilish xatarlarini sug'urtalash bilan bog'liq xarajatlar;
- nomoddiy aktiv - gudvill (firma narxi)ning, ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan mol-mulkka doir qismi summaenni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlar;
- kon kazish tarmoqlarida tayyorgarlik ishlari bo'yicha xarajatlar, agar ular kapital xarajatlar tarkibida hisobga olinmasa (ya'ni asosiy vositalar sifatida kapitallashtirilmagan bo'lsa).

7.3. Yalpi foydadan qoplanadigan xarajatlar

Davr xarajatlari - ishlab chiqarish jarayoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, bo'lmagan xarajatlar davr xarajatlari toifasiga kiritiladi. Ularga boshqaruv, tijorat xarajatlari, umumxo'jalik maqsadidagi boshqa xarajatlar, shu jumladan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlari kiradi. Ushbu xarajatlarninguchinchi guruhi korxonaning mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'lanmaganligi. lekin mahsulot (ishlar, xizmatlar) va sotish bo'yicha asosiy faoliyati bilan umumiy ravishda bog'langanligi uchun ularni boshqa operatsion xarajatlar deb ataladi. Davr xarajatlari tarkibidagi xarajatlarning anchagina qismi ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot yoki tovarlar hajmiga bog'liq emas, aksincha, vaqtga, xo'jalik faoliyatining qancha davom etishi bilan ko'proq bog'liq. Ushbu xarajatlar ular paydo bo'lgan hisobot davrida yig'iladi va moliyaviy natijalarga kiritiladi. Davr xarajatlari quyidagi xarajatlardan iborat:

- mahsulotni sotish xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar, shu jumladan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlari, ishlab chiqarish va boshqaruv tizimini rivojlantirish xarajatlari;
- kelgusida soliq solish bazasidan chiqarib tashlanadigan hisobot davri xarajatlari.

Sotish xarajatlariga quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tovarlarni temir yo'l, havo, avtomobil, dengiz, daryo orqali va ot-ulovda tashish xarajatlari. Bunga transport vositalarining to'xtab qolishi uchun to'langan jarimalar ham kiradi;

savdo va umumiy sovqatlanish korxonalarining sotish bo'yicha xarajatlari, shu jumladan:

mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi bilan bog'liq mehnatga haq, to'lash xarajatlari, bunga ma'muriy-boshqaruv apparati xodimlariga haq to'lash kirmaydi;

ish haqiga taalluqli ijtimoiy sug'urta xarajatlari; savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga bsrish, sakdash va ta'mirlash xarajatlari;

asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

sanitariya kiyimlari, sochiq va dasturxonlar, arzon invsntar va xo'jalik ashyolari, oshxona anjomlari va idish-tovokdarning eskirishi;

gaz, yoqilg'i, elektr quvvati xarajatlari;

tovarlarni saqlash, ishlov berish va navlarga ajratish xarajatlari;

savdo reklamasi xarajatlari;

tashish, saqlash va sotishda me'yorlar doirasida va ulardan ortiqcha tovarlar talafotlari;

idishlar xarajatlari;

mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug'urtalash xarajatlari;

mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi xarajatlari;

havo haydagichlarni oʻrnatish va saqlash. mashinalar va ularning harakatlanadigan qismlari, tuynuklar, teshiklar va hokazolarni gʻov bilan oʻrab qoʻyishning joriy (nokapital tUSDagi) xarajatlari;

maxsus kiyim va maxsus poyabzalning eskirishi;

maxsus kiyim, maxsus poyabzal va Yakka tartibdagi himoyaning boshqa vositalari, dasturxon va sochiqlar hamda sanitariya kiyimini yuvish, tuzatish va dezinfekdiyalar uchun korxonalar, taʼmirlovchi va boshqa yuridik shaxslarga haq toʻlash;

maxsus kiyim va poyabzalni tozalash va tuzatish uchun sarflangan materiallar qiymati;

umumiy soʻvqatlanish va savdo xodimlarini tibbiy kurikdan oʻtkazganlik uchun tibbiy muassasalarga toʻlanadigan haq;

kassa xoʻjaligini yuritish va tushumni inkassatsiyalar chiqimlari;

umumiy ovqatlanish korxonalarida qogʻoz dastroʻmolchalar, dasturxonlar, stakan va taqsimchalar, bir marotaba foydalaniladigan anjomlar qiymati;

- sotish bozorlarini oʻrganish xarajatlari (marketing, reklama xarajatlari);

- yuqorida qayd etilmagan sotishga doir boshqa xarajatlar.

Maʼmuriy xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- boshqaruv apparati xodimlariga taalluqli mehnatga haq toʻlash xarajatlari;

- boshqaruv apparati xodimlariga taalluqli ijtimoiy sugʻurtaga ajratmalar;

- yengil xizmat avtotransporti va boshqa mikroavtobuslarni saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari;

- xoʻjalik yurituvchi subʼekt va uning tarkibiy boʻlinmalarini tashkil etish va boshqarish xarajatlari;

- boshqaruvning texnik vositalari, aloqa tarmoqdari. ogohlantirish vositalari, hisoblash markazlari va ishlab chiqarishga taalluqli boʻlmagan boshqa texnik boshqaruv vositalarini saqlash va ularga xizmat koʻrsatish xarajatlari;

- ijara, xizmatlar koʻrsatgani uchun aloqa tarmoqlariga haq (ATS, mobil, yoʻldosh, peyjing aloqasi va Internet):

- xalqaro va shaharlararo telefon soʻzlashgulariga haq toʻlash;

- ma'muriy-boshqaruv ehtiyojpari uchun bino va xonalar ijarasiga haq to'lash;

- ma'muriy maqsaddagi asosiy vositalarni saqlash va ta'mirlash xarajatlari, shuningdek ularning eskirishi (amortizatsiyasi);

- yuqori tashkilotlar va yuridik shaxslar birlashmalari: vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar va hokazolarni saqlashga ajratmalar:

- ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'lanmagan xodimlar va mol-mulkning majburiy va ixtiyoriy sug'urtasi xarajatlari;

- boshqaruv xodimlarining xizmat safarlari xarajatlari;

- vakillik xarajatlari;

- xonalarni bepul berish xarajatlari, umumiy ovqatlanish korxonalariga kommunal xizmatlar qiymatini to'lash va hokazo;

- bevosita ishlab chiqarish jarayoniga taallukli bo'lmagan, tabiatni muhofaza qilish maqsadidagi vositalarni saqlash va foydalanish bilan bog'liq, joriy xarajatlar, atrof tabiiy muhitni ifloslantirganligi va chiqindilarni joylashtirganligi uchun kompensatsiya to'lovlari.

Boshqa operatsion xarajatlar quyidagilardan iborat:

- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, bundan yangi joriy etilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektda ishlashga qabul qilinadigan xodimlar mustasno;

- loyihalar va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek ob'ekt huzuridagi omborga tashishda yuz bergan shikastlanish va nosozliklarni bartaraf etish xarajatlarini qoplash, zanglashga qarshi himoya vositalari nuqsonlarini yuzaga keltirgan sabablarni taftish (uskunani muhofazalash) xarajatlari va yetkazib berish hamda ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga, kamchiliklar, shikastlanish yoki zararlar uchun mas'ul yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobiga mazkur xarajatlar to'lanishi mumkin bo'lmagan darajada amalga oshiriladigan shunga o'xshash boshqa xarajatlar;

- maslahat va axborot xizmatlari uchun to'lanadigan haqlar;

- auditorlik xizmatlariga to'lanadigan haq;

- o'zining xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklarini saqlashdan ko'riladigan zararlar;

- bevosita xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida ishtiroki bilan bog'lanmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil etish tadbirlari;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar (xizmat)larni bajarish xarajatlari (shaxar va kurgonlarni obodonlashtirish ishlari, kishlok xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar);

- kompensatsiyalovchi va rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar, shu jumladan:

O'zbekistan Respublikasi Hukumatining qarorlari bo'yicha kompensatsiya to'lovlari;

ko'p yil ishlagani uchun bir galgi mukofotlar, taqdirlash va to'lovlar, shu jumladan xo'jalik yurituvchi sub'ektning qaroriga ko'ra naturadagi to'lovlar, shuningdek ular bo'yicha ijtimoiy fondlarga hisoblangan summalar;

majburan ishga kelmaganlik yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik vaqti uchun qonun hujjatlariga muvofiq yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektning qaroriga ko'ra haq to'lash;

mehnat qobiliyati vaqtincha yo'qotilgan taqdirda qonun hujjatlariga binoan belgilangan haqiqiy ish haqiga qadar qo'shimcha to'lovlar;

malaka oshirish va xodimlarni qayta tayyorlash tizimida o'qitilgan vaqtda asosiy ish joyidan ishchilarga, ular ishdan ajralgan holda, xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishchi va xizmatchilariga to'lanadigan ish haqi;

o'n ikki yoshgacha ikki va undan ortiq bolalari yoki o'n olti yoshgacha nogiron bolalari bo'lgan ayollarga qonunga muvofiq qo'shimcha ta'til uchun haq to'lash;

xodimlarga bepul tovarlar, mahsulot va boshqa boyliklar berish yoki xodimlar uchun ishlar, xizmatlarni bajarish;

xodimlar xarajatlarini to'lash (ovqatlanish, yo'lda yurish. dam olish va davolanishga yo'llanmalar, ekskursiyalar, sport seksiyalari, to'garaklar,

klublardagi mashg'ulotlar, madaniy ko'ngil ochish va jismoniy tarbiya (sport) tadbirlarida qatnashish, obuna, xodimlarning shaxsiy iste'moli uchun tovarlar va shunga o'xshash boshqa to'lovlar);

ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to'lov va xarajatlar, shu jumladan:

pensiyaga ustamalar, pensiyaga chiqayottan mehnat faxriylariga to'lanadigan bir yo'la nafaqalar;

korxonani qayta tuzish, xodimlar soni va jadvali qisqarishi munosabati bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan bo'shatib olinayotgan xodimlarga qonunga muvofiq, to'lanadigan to'lovlar;

xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam;

- sog'liqni saqlash ob'ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, sog'lomlashtirish maskanlari, madaniyat va sport ob'ektlari, xalq ta'limi muassasalari va uy-joy fondi ob'ektlarini tutib turish xarajatlari (shu jumladan amortizatsiya ajratmalari va barcha turlardagi ta'mirlashni o'tkazish xarajatlari);

- vaqtincha to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob'sktlarii saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari);

- bank va depozitariy xizmatlariga haq to'lash;

- ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamgarmalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasa va tashkilotlariga badallar;

- byudjetga majburiy to'lovlar, soliqdar. yig'imlar, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan va xo'jalik yurituvchi sub'ekt xarajatlariga kiritiladigan, davlatning maqsadli jamgarmalariga ajratmalar, shuningdek, Hukumat qarorlariga muvofiq, davlatlararo tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash;

- zararlar, jarimalar, penyalar, shu jumladan:

bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha talafotlar;

bevosita ishlab chiqarish jarayoniga taalluqli bo'lmagan moddiy boyliklarning galafotlar va kamomadlari;

ishlab chiqarish zahiralari va tayyor mahsulotni past baho usuli yoki sotishning sof qiymati bo'yicha qayta baholash yoki narxni tushirish natijasida ko'rilgan zararlar;

- idish bilan bog'liq, operatsiyalar bo'yicha zararlar;

- sud chiqimlari;

- dargumon qarzlari bo'yicha zahiraga ajratmalar;

- da'vo muddati o'tib ketgan debitorlik qarzi va undirish mumkin bo'lmagan boshqa qarzlarni hisobdan chiqarish zararlari, shuningdek qonunga muvofiq. yuridik va jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblar bo'yicha dargumon qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar;

hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar operatsiyalari bo'yicha zararlar;

tabiiy ofatlardan ko'rilgan qoplanmaydigan talafotlar va zararlar (ishlab chiqarish zahiralari, tayyor buyumlar va boshqa moddiy boyliklarning yo'q. qilinishi va buzilishi, ishlab chiqarish to'xtashidan ko'rilgan talafotlar va hokazo), shu jumladan tabiiy ofatlarning oldini olish va oqibatlarni tugatish bilan bog'liq xarajatlar;

aybdorlari aniqlanmagan yoki zarur summalarni aybdor hisobiga qoplab bo'lmaydigan hollarda o'g'irliklardan ko'rilgan zararlar;

xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy vositalari va boshqa mol-mulki (aktivlari) chiqib ketishidan (balansdan hisobdan chiqarishdan) ko'rilgan zararlar;

xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun, shu jumladan yetkazib beruvchilar va debitorlar aybi bilan belgilangan yoki e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagan to'lovlar va boshqa xil choralar, shuningdek etkazilgan zararlarni to'lash xarajatlari;

soliq, qonunchiligi va boshqa qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarima va penyalar;

to'langan boshqa jarimalar;

- xodimlarga beriladigan yoki yordamchi xo'jaliklar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektning umumiy sovqatlanish korxonasi uchun ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narx tafovutlari;

- ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan mol-mulk bo'yicha gudvill (firma narxi)ning belgilangan tartibda hisobdan chiqarish bilan bog'liq, xarajatlar;

- yangi texnologiyalar yaratish va qo'llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, shuningdek ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari olib borish, xom ashyo va matsriallarning yangi turlarini yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash bilan bog'liq mahsulotlar sifatini oshirish xarajatlari;

- ishlab chiqarish tushidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-sinov ishlarini olib borish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo'yicha modellar va namunalarni tayyorlash va sinash, ko'rgazmalar va ko'riklar, tanlovlarni, sertifikatlashni hamda ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha boshqa tadbirlarni tashkil etish, mualliflar haqini to'lash xarajatlari va boshqa xarajatlar;

- ijaraga berilgan asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

7.4. Sof foydadan qoplanadigan xarajatlar

Quyidagi xarajatlar mahsulot tannarxini aniqlashda ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilsada, soliq qonunchiligi ularning soliqlar to'langandan so'ng korxonada ixtiyorida qoladigan sof foydadan qoplanishi lozimligi belgilab qo'ygan:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan suv xo'jaligi tizimlaridan belgilangan limitlardan ortiqcha olinadigan suv uchun to'lov;

- ishlab chiqarish soxasida moddiy boyliklarning tabiiy ishdan chiqish normalaridan ortiqcha nobudgarchiliklar, buzilishlar va kamomadlar.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ishlab chiqarish ishchilari va boshqa xodimlari mehnatiga xarajatlar bo‘yicha quyidagilar soliqqa tortiladigan bazaga qaytarib kiritiladi:

- ayrim tarmoqlar xodimlariga bepul ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlar, bepul beriladigan ovqatlar, mahsulotlar qiymati, xodimlarga bepul beriladigan uy-joy haqini to‘lash xarajatlari (bepul berilmagan uy-joy, ko‘rstilmagan kommunal xizmatlar va shu kabilar uchun pul kompensatsiya summasi);

- xo‘jalik yurituvchi sub’ekt xodimlariga Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizomning «Ishlab chiqarish tannarxi» bo‘limining I.2.7 - bandida ko‘rsatiltan qo‘shimcha to‘lovlarning boshqa turlari:

 - moddiy yordam (shu jumladan, kooperativ uy-joy kurilishi boshlangich badal uchun, kooperativ va yakka tartibda uy-joy qurilishiga kreditni qisman to‘lash uchun xodimlarga bepul moddiy yordam).

- jamoa shartnomasi bo‘yicha xodimlarga qo‘shimcha ravishda (qonunchilikda nazarda tutilgandan ortiqcha) berilgan tatillar, ular bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlari:

 - xodimlarga beriladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ektning umumiy sovqatlanish uchun yordamchi xo‘jaliklar tayyorlaydigan mahsulotlar narxlari bo‘yicha tafovutlar:

 - xo‘jalik yurituvchi sub’ekt rahbarlari qaroriga ko‘ra amalga oshiriladigan, ishlab chiqarish xodimlarining qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan ortiqcha xizmat safarlari bilan bog‘liq to‘lovlar.

Ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar bo‘yicha quyidagilar sof foydadan qoplanishi lozim:

- nodavlat pensiya jamgarmalariga, ixtiyoriy tibbiy sug‘urtaga va ixtiyoriy sug‘urtaning boshqa turlariga ajratmalar.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo‘yicha quyidagilar sof foydadan qoplanadi:

- jadallashtirilgan usulda amortizatsiyaga ajratilgan summa bilan soliq haqidagi qonunlarga muvofiq belgilangan normalar bo'yicha amortizatsiyaga ajratilgan summa o'rtasidagi tafovut.

Ishlab chiqarish tushadigan boshqa xarajatlardan bo'yicha quyidagilar sof foydadan qoplanadi:

- atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalarni yo'l qo'yiladigan chegaraviy normalardan ortiqcha tashlaganlik (oqizganlik) uchun to'lovlar;

- tegishli vakolatli organlar qarorlarisiz go'lanadigan, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar tufayli mehnat qilish layoqatini yo'qotishlar bilan bog'liq nafaqalar.

Davr xarajatlari bo'yicha quyidagilar sof foydadan qoplanadi:

- reklama va marketing uchun belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlardan:

- xizmat yengil transporti va xizmat mikroavtobusini saqlashga sarflanadigan xarajatlardan, ularni yollash va ijaraga olish xarajatlari;

- ijara hamda xizmat ko'rsatganlik uchun uyali, yo'ldosh, peyjing aloqa uzellariga to'lov;

- shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuv belgilangan normativlaridan ortiqcha to'lov;

- yuqori organlar hamda yuridik shaxslar birlashmalari, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar va boshqalar xarajatlari ajratmalar;

- boshqaruv xodimlarining xizmat safarlari uchun belgilangan normalardan ortiqcha xarajat;

- qonunchilikda belgilangan norma va normativlar bo'yicha vakillik xarajatlari;

- umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun bepul binolar berish xarajatlari, ularga kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash va boshqalar;

- ishlab chiqarish jarayoniga bevosita taalluqli bo'lmagan, atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalarni normalardan ortiqcha tashlaganligi (oqizganligi) uchun to'lovlar;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt sohasiga to'g'ri kelmaydigan kasblar bo'yicha

va normalardai ortiqcha kadrlar tayyorlash xarajatlari;

- loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek ob'ekt yonidagi omborga tashib keltirilgungacha sodir bo'lgan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, zanglashdan himoya qilishdagi kamchiliklar oqibatida tekshirib ko'rish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) bo'yicha xarajatlar va shu kabi boshqa xarajatlar yetkazib berish va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga. ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki nobudgarchiliklar uchun javobgar yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobiga undirish mumkin bo'lmagan miqdorda, qoplanadi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt qatnashchilaridan (mulkdorlaridan) birining tashabbusi bo'yicha amalga oshirilgan auditorlik xizmatlari uchun to'lovlar;

- o'z xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklariga sarflangan xarajatlardan ko'rilgan zararlar;

- xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lmagan salomatlikni muhofaza qilish va dam olishni tashkil qilish tadbirlari xarajatlari;

- mahsulot ishlab chiqarish (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa ish turlari) bilan bog'liq bo'lmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan sarflangan xarajatlar;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z qaroriga ko'ra bir yo'la to'lanadigan mukofotlar va taqdirlashlar, uzoq yil ishlaganlik uchun to'lovlar, shu jumladan natura to'lovlari shuningdek ular bo'yicha ijtimoiy jamg'armalarga o'tkazilgan summalar;

- xodimlarga tovarlar, mahsulotlar va boshqa qimmatbaho buyumlarni bepul berish yoki xodimlar uchun ishlar, xizmatlarni bajarish;

- xodimlar xarajatlarini to'lash (ovqatlanishga, yo'l haqiga, davolanish va dam olishga, ekskursiyalarga, sayohatlarga yo'llanmalarga, sport seksiyalarida, to'garaklarida, klublarida mashg'ulotlarga, madaniy ko'ngil ochar tomoshalarga,

jismoniy tarbiya (sport) tadbirlariga, obunaga va xodimlarning shaxsiy iste'mol tovarlariga va boshqa shu kabilarga to'lovlar;

- xodimlarning pensiyaga chiqishida mehnat faxriylariga bir yo'lga to'lanadigan nafaqalar;

- xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam;

- sog'liqni saqlash ob'ektlari, qariyalar va nogironlar uylari va bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog'lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport ob'ektlari, xalq ta'limi muassasalari, shuningdek uy-joy fondi ob'ektlari ta'minotiga (shu jumladan barcha turdagi ta'mirlashlarni o'tkazish uchun amortizatsiya ajratmalari va xarajatlarni ham qo'shgan holda) joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan normativlardan ortiqcha xarajatlar;

- ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga (agar ular yuridik shaxslar sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa), madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar;

- ishlab chiqarish jarayoniga bevosita tegishli bo'lmagan moddiy boyliklarni tabiiy kamayish normalaridan ortiqcha nobudgarchiligi va kamomadi;

- sud xarajatlari;

- to'lanishi shubhali qarzlarni bo'yicha zahiraga ajratmalar;

- aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklardan yoki aybdor tomonidan zarur summani undirish mumkin bo'lmagan hollarda ko'rilgan zararlar;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan uch yildan kam ishlatilgan asosiy vositalarni hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqa mol-mulki (aktivlari)ni sotishdan ko'rilgan zarar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy vositalarini va boshqa mol-mulkini (aktivlarini) hisobdan chiqarish, tekin berish va ularning boshqacha tarzda kamayishidan ko'rilgan zararlar;

- xo'jalik shartnomalari shartlarining, shu jumladan mahsulot yetkazib beruvchilar va debitorlar aybi bilan buzilganligi uchun belgilangan yoki e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, neustoykalar va boshqa xil sanksiyalar, shuningdek, etkazilgan zararlarni to'lash bo'yicha xarajatlar;

- soliq haqidagi qonunlarni va boshqa qonunlarni buzganlik uchun jarimalar va penyalar;

- to‘langan boshqa jarimalar;

- boshqa xarajatlar.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha quyidagi xarajatlar sof foydadan qoplanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalaridan ortiqcha qisqa muddatli bank kreditlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha, shuningdek, to‘lov muddati o‘tgan va muddati uzaytirilgan ssudalar bo‘yicha to‘lovlar;

- uzoq muddatli bank kreditlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lovlar;

- qimmatli qog‘ozlar chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar;

- qimmatli qog‘ozlar qiymatini muddatidan oldin to‘lash munosabati bilan vujudga kelgan diskont, agar u byudjetdan qarzlarni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lmasa.

7.5. Tovar-moddiy zahiralarga tegishli xarajatlar

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik yoki, aniqrog‘i, buxgalteriya hisobi milliy standartlari tovar-moddiy zahiralarning tannarxi quyidagilardan iborat bo‘lishini ko‘rsatib beradi:

a) tovar-modsiy zahiralarni sotib olish xarajatlari, jumladan xarid qiymati, import bojxona bojlari va to‘lovlari, tayyorlov-vositachilik tashkilotlariga to‘langan komission to‘lovlar, boshqa soliqlar (korxonalar keyinchalik qaytarib olishi mumkin bo‘lganlardan tashqari), fraxt qiymati (zahiralarni sotib olish bilan bog‘liq transgyurt tayyorlov va yo‘ldagi tovarlarni sug‘urtalash xarajatlari), sotib olish bilan bevosita bog‘liq boshqa xarajatlar;

b) qayta ishlash xarajatlari, tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq xarajatlar, jumladan:

- ishlab chiqarishga taallukli material xarajatlari;

- asosiy ishlab chiqarishda, ya'ni dastgox va uskunalarda xom ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga qayta ishlash bilan band bo'lgan ishchilarning ish haqi va ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

- bilvosita xarajatlar - bu xarajatlar ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlab chiqarish xarajatlaridir. Masalan, yordamchi ishchilarning vaqgbay ish haqi, ishlab chiqarish asosiy vositalarining amortizatsiyasi, ishlab chiqarish asosiy vositalarining joriy va kapital ta'mirlash xarajatlari va mahsulot hajmining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmagan shartli doimiy xarajatlar.

v) boshqa xarajatlar - TMZlarni kerakli joyga keltirish bilan bog'liq bo'lgan transport va ularni tegishli holatda ushlab turish bilan bog'liq boshqa xarajatlar (tayyor mahsulotni omborga tashib keltirish, Yakka tartibdagi buyurtmalar bo'yicha tovarlarni konstruksiya qilish xarajatlari va boshqalar).

Xizmat ko'rsatish korxonalarida TMZlar tannarxi quyidagilardan tashkil topali:

a) xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xodimlarnish (boshqaruv xodimlari bilan birga) ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar kabi xarajatlar;

b) yordamchi matsriallar xarajatlari;

v) xizmat ko'rsatish jarayonida yuzaga kelgan boshqa ustama xarajatlar.

Hamma sohalarda quyidagilar TMZ tannarxiga kiritilmaydi (xizmat ko'rsatishni ham qo'shgan holda):

a) me'yordan ortiq (korxonada belgilangan eng oqilona bo'lgan xarajatlar me'yori) matsriallar. ish kuchi va boshqa rejada nazardaa tutilmagan xarajatlar;

b) agar texnologik jarayonda zarur bo'lmasa, ishlab chiqarish siklinipg alohida bosqichlari o'rtasida TMZni saqlash xarajatlari;

v) umumiy va ma'muriy - boshqaruv xarajatlari;

g) sotish bilan bog'liq xarajatlar.

3. Tovar-moddiy zahiralarning gannarxini hisoblash usullari

a) yalpi solishtirish (identifikatsiya) usuli - o'zaro almashtirilmaydigan zahiralarining alohida moddalarining yoki ob'ektlarining tannarxi har bir modda yoki ob'ekt bo'yicha alohida aniqlanadi;

b) O'rtacha tortilgan qiymat usuli (AUESO) - TMZlar har bir birligining qiymati hisobot davridagi boshida shu turdagi TMZ birliklari va hisobot davri davomida sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan shu turdagi birliklarning o'rtacha tortilgan qiymati sifatida aniqlanadi. TMZ birligining o'rtacha tortilgan qiymati TMZning butun qiymatini shu zahiralar birliklarining soniga bo'lish bilan aniqlanadi;

v) birinchi xarid baholari bo'yicha baholash usuli (FIFO - birinchi kirim - birinchi chiqim) - birinchi navbatda sotib olingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotib yuborilgan tovarlarga olib borilishi kerak degan taxminga asoslangan. Hisobot davrining oxiriga mavjud bo'lgan tovarlarning tannarxi, oxirgi sotib olingan tovarlarga taalluqli bo'ladi, sotilgan tovarlarning tannarxi esa oldin sotib olinganlarga muvofiq keladi. FIFO usuli tovarlarni amaldagi haqiqiy jismoniy harakatiga bog'liq bo'lmagan holda, har qanday tarmoq korxonalari tomonidan qo'llanilishi mumkin, chunki u tovarlar harakatini emas, qiymat harakatini hisobga oladi. Inflyasiya sharoitida FIFO usuli sof foydaning eng yuqori bo'lgan darajasini ta'minlaydi. Buning sababi shundaki, kompaniyalar joriy narxlar oshganda sotish narxlarini ham oshirishga intiladilar, ammo shu holat inobatga olinmaydiki, material zahiralar narxlarning o'sishidan ilgari sotib olingan bo'lishi mumkin. Narxlarni pasayishi sharoitida esa tegishli ravishda bunga teskari jarayon kuzatiladi. Demak, FIFO usulining asosiy kamchiligi shundan iboratki, u foyda ko'rsatkichiga iqtisodiy rivojlanish sikli ta'sirini kuchaytiradi. Ushbu usulning asosiy afzalligi shundan iboratki, ushbu usulning qo'llanishi tovar zahiralariga joriy xarajatlariga yaqin bo'lgan bahoni bsradi;

g) oxirgi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli (LIFO - oxirgi kirim - birinchi chiqim) - oxirgi xarid qilingan tovarlarning' tannarxi birinchi navbatda sotilgan tovarlarning qiymatini aniqlash uchun, hisobot davrining oxiriga bo'lgan zahiralarining tannarxi esa birinchi navbatda xarid qilingan tovarlar tannarxi

asosida hisob qilinadi degan taxminga asoslangan. Ushbu usulni qo'llash inflyasiya sharoitida eng kam bo'lgan foydani va deflyasiya jarayonlarida esa eng ko'p bo'lgan sof foydani beradi. Demak, iqtisodiy rivojlanish sikli (yuksalish va inqiroz) ta'sirini yumshatish imkoniyatini yaratadi. Ushbu usulning kamchiligi shundan iboratki, vaqt o'gan sari LIFO usuli bo'yicha zahiralarni baholash haqiqatdan borgan sari uzoqlashadi va sotib olishga ketgan haqiqiy xarajatlarni ham, o'rnini bosadigan xarajatlarni ham aks ettira olmaydi.

LIFO usuli inflyasiyaga mos ravishda soliq to'lanishini keyinga surishga imkon beradi. Jahonning ko'p mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda bu usulga ruxsat etilmagan. Mazkur usulda bir aksiyaga to'g'ri keladigan daromad ham kamroq bo'lib ko'rinadi.

Buxgalteriya Hisobining Xalkaro standartlari TMZlarni baholashda LIFO usulini qo'llashniga tavsiya qilmaydi.

7.6. Xarajatlarni rejalashtirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada xarajatlarni rejalashtirish xarajatlarni tarkibini aniqlashdan va mahsulot (ish va xizmat)larning reja tannarxini dastlabki baholashdan boshlanadi.

Xarajatlarni rejalashtirish ishlab chiqarish jarayonida iete'mol qilinadigan tovar-moddiy zahiralarning qiymati va kutilayotgan foyda hajmini aniqlashda yuqori samara beradi.

Xarajatlarni dastlabki baholash va ularni mahsulotning bozor bahosi bilan taqqoslash korxonani bozorgir mahsulotlar ishlab chiqarish sari yo'naltirish imkonini beradi. U quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarish hajmini aniq belgilash;
- mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi;
- materiallarni almashgirish variantlari;
- o'z materiallari va xizmatlaridan foydalanitish bilan chet korxonalar materiallari va xizmatlarining qulayligini baholash.

Ishlab chiqarish xarajatlari byudjetini ishlab chiqish jarayonida asosan smeta va normativ usuldan foydalaniladi.

Smeta usulida korxonaning barcha bo'linmalari rejalari asosida korxonamiqyosida xarajatlarning yig'ma rejasi tuziladi.

O'zbekistonda smeta usuli ancha keng tarqalgan usuldir. Uning qo'llanishi korxonada rejalashtirish jarayonini yagona kompleks tizimga keltirishni ta'minlaydi.

Normativ usul asosida ishlab chiqarish xarajatlari yillik byudjeti tuzib olinadi. Yillik ishlab chiqarish hajmini inobatga olib, alohida mahsulotlar bo'yicha xarajatlarning iqtisodiy zlementlar va kalkulyasiya moddalari bo'yicha shaxmatli jadvallari ishlab chiqiladi.

Xarajatlarni shaxmatli jadvali tuzilgandan so'ng, korxonaning faoliyat davri uchun rejalashtiriladigan xarajatlarning yig'ma byudjetini ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Xalqaro amaliyotda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarni rejalashtirishda normativ usuldan keng foydalanadi. Normativ xarajatlar quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N_x = N_{mx} + N_{ms} + N_{ux}$$

bu yerda:

N_x - mahsulot birligini ishlab chiqarishning normativ xarajatlari;

N_{mx} - normativ moddiy xarajatlar;

N_{ms} - normativ mehnat xarajatlari;

N_{ux} - normativ ustama xarajatlar.

Normativ ustama xarajatlar normativ bevosita mehnat xarajatlariga nisbatan foizlarda ifodalanadi. Normativ mehnat xarajatlaridan ishchi kuchi xarajatlarini rejalashgirish maqsadida foydalaniladi, ularning hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$I_{kx} = R_{mm} \times N_{ms} \times S_s,$$

bu yerda:

I_{kx} - ishchi kuchining rejalashtiriladigan xarajatlari; R_{mm} - rejalashtirilgan mahsulot miqdori, naturada; N_{ms} – mahsulot birligiga mehnat soatlari sarfi; S_s - mehnatpa haq to‘lash soatbay stavkalari (mukofotlarsiz).

Reja ijro etilishi jarayonida normativ xarajatlardan chetlanishni baholash va uning kelib chiqishidagi quyidagi sabablarni aniqlash zarur:

bevosita va bilvosita xarajatlarning o‘zgarishi, sotib olingan materiallar qiymatidagi chetlanishlar natijasida;

mahsulot sifatini ta'minlashga sarflangan xarajatlar natijasida;

normalar va normativlarning o‘zgarishlari natijasida;

ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori, talab, baho ta'eiri yoki boshqa omillar natijasida.

Xarajatlarni oldindan baholash va tahlil qilish tannarxi baland bo‘lishi kutilayotgan va etarli foyda keltirmaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarishdan avval boshdanoq voz kechish imkonini beradi.

Xarajatlarni oldindan baholashga tayanib rejalashtirish jarayonida standart mahsulot tayyorlash uchun barcha zarur xarajatlarni etarli darajada to‘liq hisobga olinadi va bu yangi mahsulot ishlab chiqarishga jalb etiladigan moddiy, mehnat va boshqa resurslardan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan taxminiy moddiy xarajatlar rejalashtirilayotgan mahsulot hajmi va moddiy resurslar sarflari normativlaridan va bozor baholaridan kelib chiqqan holda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$M_{tx} = R_{mm} \times N_{mz} \times T_{mbb},$$

bu yerda:

M_{tx} - taxminiy moddiy xarajatlar;

R_{mm} – rejalashtirilayotgan mahsulot miqdori, naturada;

N_{mz} – mahsulot birligiga moddiy resurs sarfi normasi;

T_{mbb} - tovar-moddiy zahiralarining bozor bahosi.

Mahsulot ishlab chiqarishda sarflanadigan mehnat xarajatlari haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lish uchun xodimlarning asosiy mehnat haqiga ketadigan

taxminiy xarajatlardan tashqari umumishlab chiqarish, ma'muriy-boshqarish, sotish jarayonlaridagi mehnat sarflarini ham e'tiborga olish lozim. Buning asosida mahsulotning to'la tannarxini aniqlash mumkin bo'ladi.

Agar mahsulotning taxminiy to'la tannarxi uning kutilayotgan bozor bahosidan ortiq bo'lsa, bu holat mahsulotning iqtisodiy jihatdan raqobatbardosh emasligini anglatadi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning keskin choralari ko'rilishini talab qiladi.

Mahsulotning alohida turlari tannarxini rejalashtirishdan maqsadlardan biri xomashyo va materiallar, texnologik ehtiyojlar uchun foydalaniladigan yonilgi va energiya, mehnat haqi xarajatlari normativlariga rioya ztilishi ustidan ta'sirchan nazorat olib borishdir. SHuningdek, material va mehnat saflarini normalashtirish va rejalashtirish umumishlab chiqarish, ma'muriy xarajatlari va sotish xarajatlari ustidan nazorat olib borishiga ham ijobiy ta'sir etadi.

7.7. Xarajatlarni optimallashtirishda moliyaviy leverijdan foydalanish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxonada o'z faoliyatida jalb etilgan mablag'lardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Bu mablag'larning bir qismi joriy xo'jalik operatsiyalari natijasida korxonada oborotiga jalb etiladi: xom ashyo va materiallarni oldindan to'lovsiz yoki qisman to'lov bilan sotib olish, qisqa muddatli kreditlardan foydalanish, korxonaning turli sub'ektlarga qisqa muddatli qarzdorligi vujudga kelishi va boshqalar. Ayni paytda korxonada oborotiga chetdan uzoq muddatga jalb etilgan mablag'lar ham mavjud bo'ladi. Bularga uzoq muddatli bank kreditlari, lizing asosida asosiy vositalar olinishi, korxonaning uzoq muddatli obligatsiyalarining muomalaga chiqarilishi kabilar kiradi. Qisqa muddatli jalb etilgan mablag'larni uzoq muddatli jalb etilgan mablag'lardan eng muhim farqi shundaki, ko'pchilik hollarda korxonada qisqa muddatga jalb etilgan mablag'lar uchun mablag' egasiga haq to'lamaydi. Bu mablag'lar o'z muddatlarida qaytarilmagandagina korxonaning ular bo'yicha muayyan xarajatlari vujudga keladi. Uzoq muddatga jalb etilgan mablag'lar bo'yicha doimiy ravishda foizlar

yoki boshqacha ko‘rinishdagi doimiy xarajatlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Bunday majburiy xarajatlar o‘z navbatida foyda miqdorini kamaytirib, korxonaning moliyaviy axvoliga ta’sir etadi.

Korxonadagi o‘z mablag‘lari bilan uzoq muddatga jalb etilgan mablag‘lar o‘rtasidagi nisbat va uning korxonaga moliyaviy natijalariga ta’siri moliyaviy leverij tushunchasi orqali ifodalanadi. Korxonaga faoliyati moliyaviy manbalarida jalb etilgan mablag‘lar ulushi qancha ko‘p bo‘lsa, moliyaviy leverij darajasi shuncha yuqori hisoblanadi.

Albatta, chetdan katta miqdordagi mablag‘larning korxonaga jalb etilishi korxonaga menejmentiga yirik va katta foyda beruvchi loyihalarni amalga oshirishga imkon beradi. Lekin bu holda biron-bir sabablarga ko‘ra daromadlar hajmi kamaysa yoki sekinroq o‘sa boshlasa, bu korxonaga aksiyadorlariga taqsimlab berilishi mumkin bo‘lgan foyda miqdoriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Demak, yuqori moliyaviy leverij sharoitida aksiyadorlar uchun moliyaviy xatar darajasi ortadi. Ayni paytda masalaning ikkinchi tomoni mavjudligini yoddan chiqarmaslik lozim. Korxonaga moliyaviy imkoniyatlari va resurslari kengayishi foyda xajmini oshirishga va dividendlarni ko‘paytirishga imkon beradi. Biroq, buning uchun jalb etilgan moliyaviy resurslardan yuksak samara bilan foydalanish zarur bo‘ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonada moliyaviy leverijni ifodalovchi eng muhim ko‘rsatkichlarning tahlil etib borish lozim. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mablag‘larning o‘z va qarz manbalari nisbati (balansning 540-satrlarining 390-satriga nisbati sifatida aniqlanadi).
2. Moliyaviy qaramlik koeffitsienti (310-satrlarining 390-satrga nisbati).
3. Moliyalash koeffitsienti (390–satrlarining 540–satriga nisbati).
4. Kapitalni jalb etish koeffitsienti (540-satrlarining 310-satrga nisbati).
5. Avtonomiya koeffitsienti (390–satrlarining 310–satrga nisbati).
6. Umumiy likvidlik koeffitsienti ($110+300$ – satrlarining 540–satrga nisbati).

Mazkur koeffitsientlardagi o‘zgarishlarda korxonaga moliyaviy faoliyatidagi eng muhim jihatlarni o‘z ifodasini topadi. Lekin bu boradagi tahlil tahlilchidan moliyaviy bilimlar bilan bir qatorda korxonaga biznesi xususiyatlarini chuqur tushunishni ham talab etadi. Moliyaviy mablag‘lar tarkibida qarz mablag‘lar

ko'payishi yoki kamayishini faqat bir yoqlama baholash mumkin emas. Biznesni tez kengaytirish imkoniyatlariga ega bo'lgan kompaniya qarz mablag'lardan yuksak samara bilan foydalana oladi. Demak, bunday kompaniya uchun moliyaviy leverij yuqori darajasini salbiy baholamaslik kerak. Aksincha ishlab chiqarish va sotish hajmlari o'sishi ob'ektiv omillar bilan cheklangan korxonada moliyaviy leverij ortishi bu yerda mablag'lar samarasiz ishlatilayotganligini ko'rsatadi.

Korxonada kredit siyosatini ishlab chiqish uchun balans passivi tarkibini o'z va qarz mablag'lar nisbati darajasini chuqur tahlil etish lozim. Qisqa muddatli qarz olish masalasi korxonaning o'z aylanma mablag'lari etishmovchiligini mavjud bo'lganda paydo bo'ladi. Albatta, qisqa muddatli kreditlarning kutilayotgan samaradorligi aniq hisob-kitob qilinishi zarur.

Muayyan hollarda uzoq muddatli aktivlarga yo'naltirish maqsadlarida kredit olish masalasi vujudga keladi. Bunday qarorga kelish paytidagi eng muhim mezon olinayotgan uzoq muddatli moliyaviy resurs ishga solinishidan ko'riladigan foyda darajasi foiz stavkasidan etarli darajada yuqori bo'lishidir. Qarz mablag'larini jalb qilish haqida qaror qabul qilishda ularni qaytarish rejasini tuzish, kredit davri uchun foiz stavkasini va foizlar summasini aniqlash, ularning to'lanishi manbalarini topish muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, kreditni olish bilan bog'liq xarajatlar xam hisobga olinishi zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Xarajatlarni moliyaviy boshqarishning mohiyati nimada?
2. Tannarx tarkibiga kiruvchi xarajatlar qanday guruhlarga bo'linadi?
3. Tannarxga kiritiladigan va foyda hisobidan qoplanadigan xarajatlar qanday aniqlanadi?
4. Sof foydadan qaysi xarajatlar qoplanadi?
5. Leverij qanday aniqlanadi?
6. Xarajatlarni rejalashtirish mazmunini tushuntiring.

VIII BOB. MOLIYAVIY RISKLAR MOHIYATI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

8.1. Tavakkalchilik (risk (xatar) tushunchasi va uni boshqarish

Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlanib borishi bilan xo‘jalik yuritishning asosini tashqil etuvchi raqobatning ahamiyati ortib bormoqda. Bunday sharoitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun tadbirkorlar samarali boshqaruv uslublarini bilishlari, tavakkalchilik chegaralarini aniqlay olishlari, mavjud variantlardan eng maqbulini tanlay olishlari kerak. Bu esa tadbirkorning ishbilarmonlik qobiliyati bilan belgilanadi va har bir tadbirkordan ma’lum darajada bilim va malaka talab qiladi.

Tadbirkorlik – foyda olish maqsadida o‘z mol-mulkini tavakkalchilik asosida biznesga tikish jarayoni ekanligi tufayli, bunday faoliyat doimiy ravishda ma’lum bir xatarlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatimiz va xorijda to‘plangan tajribalar tadbirkorlik faoliyatini tavakkalchiliksiz amalga oshirib bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda. SHuning uchun ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan insonlarning hayoti umid va tushkunlik, tinimsiz mehnat va xavotirlarga to‘la bo‘ladi.

Tadbirkor tavakkalchiligi yuqori bo‘lgan ishga tayyor bo‘lgan odamlar qatoriga kiradi. U tavakkalchiligi o‘ta yuqori bo‘lgan loyihalarning masalarini echishi va hal qilishi mumkin yoki tavakkalchilikning darajasi unchalik kuchli bo‘lmagan biznes bilan ham shug‘ullanishi mumkin.

Tavakkalchilik (risk (xatar)) – kelgusidagi vaziyat noaniq bo‘lgan sharoitda pirovard natija yaxshi bo‘lishiga umid bog‘lab, mol-mulk yoki foydadan mahrum bo‘lish (to‘liq yoki qisman) xavfini o‘z bo‘yniga olib amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik sub’ektining faoliyati bilan bog‘liq tavakkalchilik turlarining mohiyati va kelib chiqish xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha turkumlash mumkin :

- tabiiy jarayonlar bilan bog‘liq tavakkalchilik;

- ishlab chiqarish faoliyatiga oid tavakkalchilik;
- mahsulotlarni tashish va asrash jarayoni bilan bogʻliq tavakkalchilik;
- tijorat faoliyatiga oid tavakkalchilik;
- moliyaviy faoliyatga oid tavakkalchilik;
- siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatdagi tavakkalchilik.

Tavakkalchilikni tugʻdiradigan xavflarning turlari xilma-xil boʻlib, ularning baʼzi birlari subʼektning oʻz faoliyatini natijasida yuzaga kelsa, ikkinchi turlari unga bogʻliq boʻlmagan tashqi omillarning taʼsirida yuzaga keladi.

Tavakkalchilikning turlari	Tarkibi
Tabiiy jarayonlar bilan bogʻliq tavakkalchilik	<ul style="list-style-type: none"> - favqulodda yuz beradigan tabiiy ofatlarning (er qimirlashi, yongʻin, suv toshqini, jala, doʻl, dovul, qurgʻoqchilik va boshqa) xavfi; - tabiiy-iqlimiy sharoitlar, ob-havoning keskin oʻzgarishi bilan bogʻliq xavf-xatarlar va boshqalar.
Ishlab chiqarishga oid tavakkalchilik	<ul style="list-style-type: none"> - ishlab chiqarish jarayonining izdan chiqishi yoki toʻxtab qolishi xavfi; - moddiy resurslar boʻyicha taʼminotdagi uzilishlarning xavfi; - texnologik asbob-uskunalarining jismoniy va maʼnaviy eskirishi, ishdan chiqishi va buzilish xavfi; - bino-inshootlarning emirilishi, choʻkishi va qulashi bilan bogʻliq xavflar; - sifatsiz xom ashyo oqibatida yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarish xavfi; - mehnat xavfsizligiga rioya etmaslik oqibatida xodimlarning jarohat olishi xavfi va boshqalar.
Mahsulotlarni asrash va tashishga oid tavakkalchilik	<ul style="list-style-type: none"> - transport vositalarida yuklarni tashish jarayonida roʻy berishi mumkin boʻlgan yoʻqotishlar va nobudgarchiliklar; - mahsulotlarni asrash jarayonida yuz berishi mumkin tabiiy meʼyordagi va undan yuqori boʻlgan buzilishlar va nobudgarchiliklar xavfi; - tovar-moddiy qiymatliklarni oʻgʻirlash va talon-taroj qilish oqibatida koʻrilishi mumkin boʻlgan zararlar.
Tijorat faoliyatiga oid tavakkalchilik	<ul style="list-style-type: none"> - bozor konʼyukturasidagi oʻzgarishlar xavfi; - isteʼmolchilar talabining tushib ketishi xavfi; - bozorda taklif hajmining keskin oshib ketishi xavfi; - mahsulotning sotilmay qolishi xavfi; - raqobat kurashiga bardosh berolmaslik xavfi; - mahsulot bahosining keskin pasayishi xavfi va boshqalar.

Moliyaviy faoliyatga oid tavakkalchilik	<ul style="list-style-type: none"> - pulning qadrsizlanishi va inflyasiya xavfi; - valyuta hisob raqamidagi mablag'larning salbiy farqlanishi xavfi; - investitsion sarflarning o'zini qoplamasligi xavfi; - pul oqimlari va aylanma mablag'larning etishmasligi xavfi; - debitor va kreditor qarzlarning ko'payib ketishi xavfi; - noto'lovlar xavfi; - qimmatli qog'ozlar qiymatining tushib ketishi xavfi; - qarzga olingan mablag'larni qaytarolmaslik xavfi va boshqalar.
Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy harakterdagi tavakkalchilik	<ul style="list-style-type: none"> - milliy mojarolar, harbiy to'qnashuvlar, g'alayonlar, terrorizm xavfi; - ish tashlashlar, korrupsiya va jinoyatchilik xavfi; - kutilmaganda soliq, bojxona va boshqa meyoriy qonunchilik hujjatlarining o'zgarishi; - iqtisodiy beqarorlik va o'sish sur'atlarining pasayishi; - eksport va import tartibini murakkablashtirish xavfi.

Tashqi omillarga bog'liq bo'lmagan tavakkalchilik ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin:

- boshqaruv xodimlarining ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va boshqa sohalarda noto'g'ri qarorlar qabul qilishi;
- xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdagi xatoliklar;
- xodimlarning o'z xizmat vazifasiga mas'uliyatsizlik bilan yondoshuvi;
- sub'ektni rivojlantirish strategiyasi va biznes rejasini noto'g'ri shakllantirish;
- o'zini qoplamaydigan va aniq hisob-kitoblar qilinmagan loyihalarga qo'l urish;
- daromadlar va xarajatlarni doimiy nazorat ostiga olmaslik;
- biznesdagi tashqi sheriklarni tanlashga mas'uliyatsizlik bilan yondoshuv;
- buxgalteriya hisobini to'g'ri va aniq yuritmaslik;
- hisobot shakllarini to'g'ri va aniq to'lg'asmaslik;
- bozor kon'yukturasini, raqobat muhitini, talab va taklif nisbatini, iste'molchilarning hatti-harakatini va boshqa omillarni doimiy kuzatib bormaslik.

Bunday tavakkalchiliklarning turlarini sub'ekt boshqaruvchilari doimiy ravishda kuzatib borishlari va ular natijasida yuzaga keladigan zararlarni pasaytirish tadbirlarini belgilab borishlari mumkin.

Tashqi omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladigan tavakkalchilik turlari sub'ekt boshqaruvchilari yoki xodimlarining hatti-harakatlariga bog'liq bo'lmay, ko'pincha favqulodda shart-sharoitlarning ta'sirida yuzaga keladi.

Har qanday tadbirkorlik firmasi tavakkalchilik bilan bog'liq faoliyat olib borar ekan, doimiy ravishda tavakkalchilik turlarini aniqlaydi, ma'qul bo'lgan chegarasini belgilaydi hamda uning keskin oqibatlaridan o'zini himoyalash yo'llarini qidiradi.

Tavakkalchilikdagi xavf darajasini aniqlash, uning oldini olish yo'llarini izlab topish va oqibatida yuz berishi mumkin bo'lgan zararlarni pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga oid faoliyatni ***tavakkalchilikni boshqarish tizimi*** deb ataladi.

Tadbirkorning ***tavakkalchilikni boshqarish*** doirasidagi faoliyati o'z sub'ektining daromadligiga tahdid soluvchi tavakkalchiliklarning ta'siridan himoya qilishga yo'naltirilgan.

Tavakkalchilikni oqilona boshqarish sub'ektning uzoq muddatli istiqbolda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshiradi, uning moliyaviy holatining yomonlashish xavfini bir muncha bo'lsada kamaytiradi.

Tadbirkor uchun paydo bo'ladigan tavakkalchilikni taxminiy bilish zarurdir, lekin buning o'zi etarli emas. Muhimi, tavakkalchilikning aniq turi korxonaga faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatayotganligi va qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini aniqlab, uni to'g'ri baholay bilish va shundan so'ng sub'ektning iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini hisoblab topishdir. Tavakkalchilikni boshqarish bir-birini to'ldirib boruvchi bir nechta bosqichlardan iborat bo'ladi.

Tavakkalchilikni boshqarishda eng avvalo yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uning turlari aniqlanadi, ular tahlil etiladi va zararining kutiladigan darajasi hisoblanadi. Keyingi bosqichda uning oldini olish, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni pasaytirish yoki sug'urtalash tadbirlari ishlab chiqiladi va uni boshqarish

usullari tanlanadi. Oxirgi bosqichda esa ko‘rilgan zararlarni qoplash, oqibatlarini tahlil etish va bartaraf qilish choralari ko‘riladi.

Umuman olganda, tavakkalchilikni boshqarish tadbirkorga resurslardan yanada oqilona foydalanish, javobgarlikni taqsimlash, firma faoliyatining natijalarini yaxshilash va tavakkalchilikning ta’siridan xavfsizligini ta’minlash imkonini yaratiladi.

8.2. Tavakkalchilikni baholash usullari

Tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonida asosiy e’tibor uni baholashga qaratiladi.

Tavakkalchilikni baholash –uning darajasini miqdoriy yoki sifat o‘lchamlari bilan aniqlashdir.

Tavakkalchilikning taxminiy ehtimolini aniqlash turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik tavakkalchiliklarini baholashning 4 usuli keltiriladi:

- ***Statistik usul;***
- ***Ekspert usuli;***
- ***Analitik usul;***
- ***Kombinatsiyalashtirilgan usul.***

Statistik usulda sub’ektning va tarmoqdagi boshqa turdosh sub’ektlarning bir necha yillik faoliyati davomida yuz bergan tavakkalchilik hodisalari hamda ularning ta’sirida ko‘rilgan zararlarning darajasi o‘rganib chiqiladi.

Ekspert usulida ish tajribasi yuqori va mazkur sohada ekspert hisoblangan yuqori malakali mutaxassislarning fikrlari, aniq hisob-kitoblari va tavsiyalari e’tiborga olinadi.

Analitik usulda iqtisodiy-matematik usullar, vaziyatli ish o‘yinlari va ehtimollar nazariyasidagi modellar yordamida tavakkalchilikning darajasiga baho beriladi.

Kombinatsiyalashtirilgan usul yuqorida keltirilgan barcha usullarni yoki ulardan bir nechtasini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik tavakkalchiligini hal qilish jarayonida tadbirkor oldida mavjud usullardan birini, ya'ni talabga javob beradiganini tanlash masalasi ko'ndalang turadi. Buning uchun tadbirkor barcha holatlarni tahlil qilib chiqishi kerak. Tadbirkorlik tavakkalchiligini baholash va hisoblarning aniqligi mutaxassislarning malakasiga va ular hal qilayotgan holatga bog'liq.

O'z faoliyati uchun ma'qul bo'lgan tavakkalchilik darajasi, qoida bo'yicha, aktivlar va xususiy kapitalning qiymati, pul oqimlarining miqdori, to'lovga qobillik darajasi, sof foyda va rentabellik kabi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi.

Tavakkalchilikning ***yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan, jiddiy zarar tug'diradigan*** va ***o'ta xavfli*** darajalari mavjud bo'ladi.

Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tavakkalchilik darajasida ko'rilgan zararlarning miqdori sub'ektning haqiqatda erishgan sof foydasi miqдорidan oshib ketmagani ma'qul.

$$\text{Zararning miqdori} \leq \text{Sof foyda}$$

Jiddiy zarar tug'diradigan tavakkalchilik darajasida ko'rilgan zararlarning miqdori sub'ektning sof foydasidan yuqori, ammo, joriy likvidlikni ta'minlaydigan aktivlarining qiymatidan oshib ketmasligi lozim.

$$\text{Sof foyda} < \text{Zararning miqdori} \leq \text{Joriy likvidli aktivlar}$$

O'ta xavfli tavakkalchilik darajasida ko'rilgan zararlar sub'ektning joriy likvidligini ta'minlaydigan aktivlarining qiymatidan oshib, xususiy kapitaliga tenglashishi ham mumkin. O'ta xavfli tavakkalchilik oqibatida korxonaning bankrotlikka uchrash ehtimoli vujudga keladi.

$$\text{Joriy likvidli aktivlar} < \text{Zararning miqdori} \leq \text{Xususiy kapital}$$

Ko‘rilgan zararining miqdori korxonaning xususiy kapitalidan ortib ketganda (*Zararning miqdori > Xususiy kapital*) korxonaga to‘lovga qobilligini yo‘qotadi va so‘zsiz bankrot deb e‘lon qilinadi.

Tavakkalchilikni baholashda *koefitsientlardan* foydalanish mumkin. Sof foydaga, joriy likvidli mablag‘larga va xususiy kapitalga nisbatan tavakkalchilik koefitsientlarini hisoblash mumkin:

$$K_{sf} = \frac{3M}{C\Phi}, \quad K_{jlm} = \frac{3M}{JLM}, \quad K_{xk} = \frac{3M}{XK}.$$

Bu yerda,

Ksf, *Kjlm*, *Kxk* – sof foydaga, joriy likvidli mablag‘larga va xususiy kapitalga nisbatan tavakkalchilik koefitsientlaridir;

ZM – ko‘rilgan zararining miqdori, so‘m;

SF – sub‘ektning sof foydasi, so‘m;

JLM – korxonaning joriy likvidli mablag‘lari, so‘m;

XK – korxonaning xususiy kapitali, so‘m.

Tavakkalchilik koefitsientlarini hisoblashda quyidagi holatlarga e‘tiborni qaratish kerak. Agar sof foydaga nisbatan hisoblangan tavakkalchilik koefitsienti birdan ortib ketsa, ko‘rilgan zarar yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan darajadan ortib, jiddiy zarar tug‘diradigan tavakkalchilikka aylanganini bildiradi va zararni miqdorini korxonaning joriy likvidli mablag‘lariga nisbatan solishtirish zaruriyati tug‘iladi. Joriy likvidli mablag‘larga nisbatan hisoblangan tavakkalchilik koefitsienti birdan ortib ketganda esa, tavakkalchilik darajasi korxonaga uchun o‘ta xavfli ekanligidan darak beradi va zarar miqdorini xususiy kapital bilan solishtirish zaruriyati tug‘iladi. Har uchchala formulada ham tavakkalchilik koefitsientlari birdan kichik yoki teng ($Kt \leq 1$) bo‘lsagina hisoblanayotgan tavakkalchilik mezoniga mos keladi.

Korxonaga qancha katta kapitalga egalik qilsa, ishlab chiqarish samaradorligi, rentabellik darajasi va joriy aktivlar likvidligi yuqori bo‘lsa, uning tavakkalchilikka

ta'siri shuncha kam bo'ladi va tadbirkor tavakkalchilik vaziyatlarida qo'rqmasdan masalalarni hal qilishi mumkin.

Tavakkalchilikni baholash har bir tadbirkorning aql-idroqiga bog'liq. Konservativ toifadagi tadbirkorlar, odatda, yangiliklarga ko'p intilmasdan, mumkin bo'lgan har qanday tavakkalchilikdan o'ochishga harakat qiladilar. Boshqa toifadagi tadbirkorlar esa, agar tavakkalchilik me'yor darajasida bo'lib, uni baholash va oldini olish yoki oqibatlarini pasaytirish mumkin bo'lsa, tavakkal qilish yo'lini tanlaydilar. Ko'pchilik mutaxassislar fikriga ko'ra, tavakkalchilikka bormasdan biznesda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Tavakkalchilikka bo'lgan munosabat tadbirkor ega bo'lgan sarmoya miqdoriga ham bog'liq. Masalan, tadbirkorning sarmoyasi 100 ming so'mga teng bo'lsa, uning uchun 20000 so'mlik zarar juda katta yo'qotish bo'ladi. Agar u 10 mln. so'mlik sarmoyaga ega bo'lsachi? Bu holda 20000 so'mga teng zarar bilan tavakkalchilik qilish unchalik xavf tug'dirmaydi.

8.3. Tavakkalchilikni kamaytirish yo'llari

Mavjud noaniqliklar va xatarlar tadbirkorni o'z loyihasining foydaliligini chuqur tahlil etishga, ishlab chiqarish va boshqa xarajatlarni tejamkorlik asosida puxta sarflashga, asosiy vositalar va aylanma mablag'lardan samarali foydalanishga, baho siyosatini to'g'ri belgilashga undaydi. Aks holda korxonada faoliyati inqiroz bilan yakun topishi mumkin.

Tavakkalchilikni kamaytirishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. Tavakkalchilikning paydo bo'lishidan qochish.

2. Tavakkalchilikning ta'sirini kamaytirish.

Birinchi holatda tadbirkor o'z faoliyatiga xavf tug'diradigan har qanday xatarni chetlab o'tishga harakat qiladi.

Ikkinchi holatda esa tadbirkor tavakkalchilikning sub'ekt ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatiga ta'sirini (zararni) pasaytirish choralarini izlaydi.

Tavakkalchilikni kamaytirishning yoʻnalishlarini belgilashda quyidagi holatlarni hisobga olish kerak:

- agar tadbirkorning faoliyat turi muqarrar ravishda tavakkalchilik bilan bogʻlangan boʻlsa, bunday holatda uni chetlab oʻtish imkoniyati boʻlmaydi;
- bir turdagi tavakkalchilikdan qochish uning ikkinchi turini tugʻdirishi mumkin;
- tavakkalchilikdan qochish yuqori darajada foyda keltiradigan sohalarda biznes imkoniyatlarini cheklaydi;
- tadbirkorlik faoliyatining koʻlami yirik va kutilayotgan foydaning miqdori qancha koʻp boʻlsa, tavakkalchilikning yuzaga kelishi ehtimoli ham shuncha yuqori boʻladi va hokazo.

Tavakkalchilikni kamaytirishda tadbirkor uning taʼsirini *oʻziga olishi, taqsimlashi* yoki *boshqalarga oʻtkazishi* mumkin.

Tavakkalchilikni *oʻziga olish* quyidagi koʻrinishlarda boʻlishi mumkin:

1. Oldindan rejalashtirilgan holda zararlarni toʻplovchi maxsus zahira jamgʻarmalarini yaratish.

2. Rejalashtirilmagan tavakkalchilikdan koʻrilgan zararlarni foyda yoki aktivlar hisobidan qoplash.

Oldindan rejalashtirilgan zahira jamgʻarmalarini yaratish oʻzini-oʻzi sugʻurtalash jarayonini anglatadi. Subʼekt favqulodda yuz beradigan tavakkalchilik holatlari uchun foydadan ajratma hisobiga maxsus jamgʻarma (tavakkalchilik jamgʻarmasi) yaratadi. Masalan, yirik tadbirkorlik subʼekti uncha qimmat boʻlmagan uskunani tasodifiy xatarlardan sugʻurtalashni maxsus sugʻurta kompaniyasi orqali amalga oshirishni maʼqul koʻrmaydi. Oʻzini-oʻzi sugʻurtalash zarar ehtimoli kichik boʻlgandagina maqsadga muvofiq. Biroq, zahira jamgʻarmasi foyda keltirmaydigan oʻlik kapital ekanligi uchun, tadbirkorlar bunday jamgʻarmani qisqartirishga harakat qiladilar.

Ikkinchi holatda, yaʼni rejalashtirilmagan tavakkalchilikni oʻziga olishda tadbirkorlik firmasi tavakkalchilik natijasidagi yoʻqotishlarni foyda yoki aktivlardan qoplashiga toʻgʻri keladi. Agar yoʻqotishlar hajmi foydadan katta

bo'lsa, joriy likvidli aktivlar yoki xususiy kapitalning bir qismidan voz kechishga to'g'ri keladi.

Tadbirkorlik tavakkalchiligini pasaytirishning yana bir usuli bu tavakkalchilikni *taqsimlash* yoki *birlashtirish* yo'li bilan yo'qotishlarni qisqartirish hisoblanadi.

Tavakkalchilikni taqsimlash, odatda, tadbirkorlik firmasining aktivlarini taqsimlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Mulk tadbirkor oilasining turli a'zolari nomiga o'tkaziladi yoki shu maqsad uchun yaratilgan korporatsiya va trust firmalari nomiga o'tkaziladi. Bunda bir maqsad atrofida birlashgan tadbirkor oilasining a'zolari yoki yaqin aloqada bo'lgan tadbirkorlarning guruhi (shirkat, korporatsiya, konsern va boshqa) tavakkalchilik qilish oqibatida ko'rilishi mumkin bo'lgan foyda va zararlarni o'zaro taqsimlaydilar.

Tavakkalchilikni taqsimlash orqali kamaytirish usullaridan biri – *diversifikatsiyalashdir*. Uning mohiyati bir-biri bilan bog'liq bo'lgan turli xildagi faoliyat ko'rinishlari o'rtasida kapital quyilmalarni va tovar-moddiy resurslarni taqsimlashdan iborat. Agar tavakkalchilik oqibatida bir faoliyat turidan zarar ko'rilsa, boshqasidan ko'rilgan foyda hisobidan uni qoplash mumkin.

Diversifikatsiyalash ishlab chiqarish, tijorat va investitsiya faoliyati sohalarida tavakkalchilikning darajasini kamaytirish imkonini yaratadi. Uni diversifikatsiyalash quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- kapital sarflarni bir nechta faoliyat turlariga bo'lib sarflash;
- har xil turdagi yuqori daromad keltiradigan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish;
- moddiy-texnik ta'minoti bo'yicha tashqi sheriklarning sonini ko'paytirish;
- turli segmentlarni qamrab olgan bozor va iste'molchilarning talabiga mos tovarlar ishlab chiqarish;
- bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar segmentiga mos keluvchi turli baho siyosatini yuritish;
- yuk tashuvchi turli transport sub'ektlarining xizmatidan foydalanish;

- tovar-moddiy zahiralarni bir nechta joyda boʻlib asrash va hokazo.

Amaliyotda diversifikatsiyalash tavakkalchilikni faqat kamaytirishi emas, aksincha oshirishi ham mumkin. Tadbirkor oʻz mablagʻini samarasiz ishlab chiqarish faoliyatiga sarflagan taqdirda tavakkalchilik ehtimoli ortadi.

Tavakkalchilikni birlashtirish ikki yoki undan ortiq korxonalarining qoʻshilishi natijasida sodir boʻladi va buning natijasida yangi tashkil topgan korxonada dastlabkilariga qaraganda koʻp aktivga ega boʻladi. Tavakkalchilik xatarlarini pasaytirish yoʻlida tadbirkorlarning oʻz kapitallarini birlashtirishi, ular oʻrtasida olingan foydani va zararlarni boʻlish imkonini yaratadi. Ushbu holat korxonani tavakkalchilikdan butunlay holi qilmaydi, lekin uning xatar darajasini bir muncha pasaytirishga yordam beradi.

Tavakkalchilikni boshqalarga oʻtkazish yoki tavakkalchilik transferti – tadbirkorlik tavakkalchiligini kamaytirishning yana bir usuli hisoblanadi. Bunda tavakkalchilik xatarlari shartnoma asosida ikkinchi bir yuridik shaxs zimmasiga oʻtkaziladi.

Tavakkalchilikni boshqalarga oʻtkazishning ikki tomon uchun ham foydali sabablari mavjud:

1. Tavakkalchilikni oʻziga olishda koʻrilishi mumkin boʻlgan zararlarning miqdori tavakkalchilikni oʻtkazishdagiga nisbatan koʻp boʻlishi mumkin.

2. Tavakkalchilik oʻtkaziladigan tashqi subʼekt xatarlarni kamaytirishning samarali usullarini bilishi va koʻproq imkoniyatlarga ega boʻlishi mumkin.

3. Tavakkalchilikni oʻtkazuvchi maʼlum toʻlov evaziga ehtimol tutilgan zararlardan oʻzini himoyalashga erishsa, tavakkalchilikni oluvchi oʻtkazuvchilar badali hisobidan daromad koʻrish imkoniyatiga ega boʻladi.

Tavakkalchilikni oʻtkazishning quyidagi shakllari uchraydi:

1. ***Qurilish shartnomalari*** – bunday shartnomani tuzish orqali tadbirkor turli obʼektlarni qurish bilan bogʻliq boʻlgan barcha tavakkalchilikni qurilish firmasining boʻyniga oʻtkazadi.

2. **Yuklarni asrash va jo'natish shartnomasini** imzolash orqali tadbirkor mahsulotlarni tashish va asrash davrida yuz berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar va buzilishlar bo'yicha xatarni ma'lum to'lov evaziga transport kompaniyasining zimmasiga o'tkazadi.

3. **Sotish, xizmat ko'rsatish va ta'minlash shartnomasi** tadbirkorga tovar va xizmatlarni tarqatish bilan bog'liq tavakkalchilik xatarlarini distribyutorlar zimmasiga o'tkazish orqali, ehtimol tutilgan yo'qotishlarni kamaytirishga imkon yaratadi. Bu yo'l bilan sub'ekt iste'molchi sifatida asosiy vositalar va asbob-uskunalarining buzilishi, ishdan chiqishi xatarlarini kafolat muddati davomida ularni ishlab chiqargan yoki sotgan kompaniyaning zimmasiga o'tkazadi.

4. **Ijara** – tavakkalchilikni o'tkazishning keng qo'llaniladigan usullaridan biri. Keyingi paytlarda keng tarqalayotgan ijara turlaridan biri moliyaviy ijara yoki lizingdir. Ijaraga beruvchi o'z mulkini ma'lum bir davr oralig'iga ijaraga berib, uning saqlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq tavakkalchilikni ijaraga oluvchining zimmasiga o'tkazadi.

5. **Faktoring** – debitor qarz majburiyatini uni undirish bo'yicha vositachiga o'tkazayotgan sub'ektning qarz undirish tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida tuziladigan shartnomadir. Sub'ektlar o'rtasida debitorlik va kreditorlik qarzlari muammosi paydo bo'lganda, ya'ni tovar-moddiy qiymatliklarni jo'natgan sub'ekt xaridordan mahsulot haqini o'z muddatida undirolmasa yoki bunday qarzlarni shubhali, ularni undirish ehtimoli kam bo'lsa faktoring vositasida qarzni undirish amaliyoti qo'llaniladi.

Faktoringda vositachi korxonaga (odatda bank) qarz bergan sub'ektdan ma'lum bir komission to'lov evaziga qarzdordan mablag'ni undirish huquqini qo'lga kiritadi. Faktoring shartnomasi tuzilishi bilan sub'ekt undirolmay turgan qarzning aksariyat qismini faktoring sub'ektidan (yoki bankdan) oladi. So'ngra faktoring korxonasi qarzdor korxonaga qarzni undirish bo'yicha da'vo qo'zg'atadi.

Faktoringning afzalligi shundaki, u noto'lovlar muammosini qisman bo'lsada echishga imkon beradi.

6. Sub'ektning faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilikni o'tkazish-ning eng samarali usullaridan biri – **sug'urtadir**. Sug'urtalashda sub'ektning ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy faoliyati yoki tabiiy omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning tavakkalchiligi ma'lum haq to'lash evaziga, shartnoma asosida sug'urta kompaniyasining zimmasiga o'tkaziladi. Tavakkalchilikning biror turi natijasida sub'ekt zarar ko'rsa, zararining katta qismi sug'urta shartnomasiga asosan sug'urta kompaniyasi tomonidan qoplanadi.

Sug'urta ob'yekti sifatida quyidagilar chiqishi mumkin:

- sub'ekt aktivlarini buzilish, ishdan chiqish, yong'in va boshqa tabiiy ofatlardan sug'urtalash, ya'ni mulk sug'urtasi;
- sub'ekt qabul qiladigan va jo'natiladigan yuklar sug'urtasi;
- qarzga olingan mablag'larning qaytarilmasligi, ya'ni kredit tavakkalchiligi sug'urtasi;
- garovga qo'yilgan mulkni sug'urtalash;
- qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollarini tabiiy ofatlar, kasalliklar va zararkunandalardan sug'urtalash;
- xodimlarni ishlab chiqarish jarag'nidagi baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va hokazo.

7. **Xejirlash yoki xejlash** – moliyaviy yoki tijorat faoliyatida baholarning (valyuta kursining) tebranib turishidan yo'qotishlarni kamaytirish uchun tavakkalchilikni fyuchers shartnomalari yordamida sug'urtalash shakli hisoblanadi.

Baho (kurs)ning o'zgarishi tavakkalchiligini sug'urtalashga xizmat qiluvchi shartnoma «**xej**» deb ataladi. Xejirlashni amalga oshiruvchi sub'ekt «**xajer**» deb ataladi.

Xejirlashning ikki turi mavjud:

1. **Oshishdan xejirlash;**
2. **Pasayishdan xejirlash.**

Oshishdan xejirlash kelgusida sub'ekt iste'mol qiladigan moddiy resurslarning narxlari (valyuta kurslar)ining oshishi ehtimolidan sug'urtalanishi zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Masalan, resursning bahosi (yoki valyuta

kursi, qimmatli qog'oz narxi) uch oydan keyin o'sadi deb taxmin qilinmoqda va u sub'ektga 3 oydan keyin kerak bo'ladi. Baholar (kursning) oshishidan ko'riladigan yo'qotishlarni qoplash uchun, resurslarni bugungi kundagi baholarda sotib olish shartnomasini qo'lga kiritish lozim bo'ladi. Agar 3 oydan keyin resursning bahosi oshib ketgan taqdirda ham, fyuchers shartnomasini sotgan sub'ekt resursni shartnoma sotilgan sanadagi (3 oy oldingi) baholarda yetkazib berish majburiyatini zimmasiga oladi. SHu yo'l bilan oshishdan xedjerlashni amalga oshiruvchi xedjer o'zini kelgusida baholarni oshishidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zarardan sug'urtalaydi.

Pasayishdan xedjirlash kelgusida tovarning bahosi pasayishi tavakkalchiligidan qochib, uning oldi-sotdi shartnomasini fyuchers bozoridagi hozirgi baho darajasida sotish bilan bog'liq birja operatsiyasini anglatadi. Pasayishdan xedjerlashni amalga oshiruvchi xedjer kelajakda sotadigan tovar shartnomasini birjada shoshilinch sotib, o'zini kelajakda ko'rishi mumkin bo'lgan zarardan sug'urtalaydi.

Aytaylik, bo'rdoqichilik bilan shug'ullanuvchi fermer 6 oydan keyin bozorga har biri 500 kilogrammdan bo'lgan 50 ta novvosni sotishni rejalashtirgan. Bozor holatini tahlil etish asosida fermer 6 oydan keyin 1 kg go'shtning bahosi 10000 so'mdan 8000 so'mga tushib ketadi degan taxminga keldi. Bunday holatda u 6 oydan keyin 250 sentner go'sht sotish shartnomasini taxmin qilinayotgan yo'qotishlarni qoplash maqsadida bugungi kundagi baholar qayd etilgan holdpada (10000 so'mdan) sotadi.

Xedjer muddatli shartnomalarni sotish yoki sotib olish yordamida bozorlardagi baholarning noaniqligidan kelib chiqadigan tavakkalchilikni kamaytirishga harakat qiladi.

8.4. Xejlash

39-sonli MHXS ning 121-164 punktlarida xejlash bilan bog'liq operatsiyalar va moddalarning moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi qoidalari

belgilab berilgan. Ularga binoan xejlash dastaklari bilan tegishli xejlanayotgan modda o'rtasida xejlash munosabati mavjud bo'lganda foyda yoki zararining hisobga olinishi adolatli qiymatning yoki pul oqimlarining xejlarini hisobga olish talablariga muvofiq kelishi lozim (121-punkt).

Xejlash, bir tomondan, xejlash dastagiga, boshqa tomondan esa xejlanayotgan moddaga taalluqli bo'lgan adolatli qiymat yoki pul oqimlari o'zgarishlaridan daromadlarning proporsional o'zaro so'ndirilishi bilan bog'liq. Sotuvchisi kompaniyaning o'zi bo'lgan opsiyon bo'yicha potensial zararlar tegishli xejlanayotgan moddaning qiymati potensial ortishidan anchagina ko'p bo'lishi mumkin. SHunday qilib, opsiyonni sotish sof foyda boy berilishi yoki zarar xatarini kamaytirish uchun samaraoi emas. SHuning uchun opsiyonni sotish xejlash dastagi emas. Opsionni sotishning opsiyonni sotib olish bilan, shu jumladan boshqa moliyaviy dastak tarkibiga kiritilgan opsiyonni sotib olish bilan birgalikda qo'llanishi hollari bundan mustasno. CHaqirib olinadigan qarz dastagini xejlash uchun qo'llanadigan opsiyonni sotish xejlash dastagi emas. Va, aksincha, opsiyonni sotib olishda potensial foyda zararlardan ko'p yoki ularga teng, shuning uchun adolatli qiymat yoki pul oqimlari o'zgarishidan sof foyda yo'qotilishi yoki zarar xatarini kamaytirish imkoniyati mavjud. Demak, opsiyonni sotib olish xejlash dastagi talablariga javob beradi (124-modda).

Xejlanayotgan modda sifatida balansda tan olingan aktiv (majburiyat), balansda tan olinmagan qat'iy majburiyat yoki kelajakda kutilayotgan, u bo'yicha hozircha majburiyatlar mavjud bo'lmagan, lekin uni tuzish yuqori ehtimoli bor bitim («bashorat qilinayotgan bitim») maydonga chiqishi mumkin. Xejlanayotgan modda, birinchidan, alohida aktivdan, majburiyatdan, qat'iy majburiyatdan yoki bashoratlanayotgan bitishuvdan, yoki, ikkinchidan, aktivlar, majburiyatlar, qat'iy majburiyatlar yoki bashoratlanayotgan bitishuvlarning guruhidan iborat bo'lishi mumkin. Ikkinchi holda guruhning alohida elementlari xatarning bir xildagi tavsiflariga ega bo'ladi. Berilgan ssudalar va debitor qarzlardan farqli ravishda so'ndirilishiga qadar saqlab turiladigan investitsiyalar foiz xatarini xejlash borasida xejlanayotgan modda bo'lib maydonga chiqa olmaydi. CHunki investitsiyalarning

«soʻndirilishga qadar saqlab turiladigan» toifasiga kiritilishi foiz stavkalarining tegishli oʻzgarishlarini hisobga olishdan voz kechilishini bildiradi. Lekin, soʻndirilishiga qadar saqlab turiladigan investitsiyalar valyuta xatarlarini va toʻlamaslik xatarlarini xejlash borasida xejlanayotgan modda sifatida maydonga chiqishi mumkin (127-punkt).

Nomoliyaviy aktiv yoki majburiyat faqat a) valyuta xatarlari borasida yoki b) toʻlasicha hamma xatarlarga nisbatan xejlanadigan modda boʻlib maydonga chiqishi mumkin. Chunki valyuta xatarlaridan tashqari boshqa muayyan xatarlar boʻyicha pul mablagʻlari oqimlarining yoki adolatli qiymat oʻzgarishining aynan ularga taalluqli qismini ajratib olish va baholash juda murakkab (129-punkt).

Xejlash munosabatlarning uch turi mavjud:

a) adolatli qiymatni xejlash – bu balansda tan olingan aktivning (majburiyatning) yoki shu aktivning (majburiyatning) muayyan qismining adolatli qiymatidagi oʻzgarishlardan zararni xejlash boʻlib, muayyan xatarga taalluqli boʻladi hamda hisobot davrining sof foydasiga taʼsir koʻrsatadi;

b) pul oqimlarini xejlash – bu pul oqimlari oʻzgarishlaridan zararni xejlash boʻlib, u, birinchidan, balansda tan olingan aktiv yoki majburiyat bilan bogʻlangan muayyan xatarga taalluqli boʻladi (masalan, oʻzgaruvchi foiz stavkali qarz majburiyati boʻyicha kelajakdagi alohida yoki barcha foiz toʻlovlarini xejlash), shuningdek kutilayotgan bitishuv bilan bogʻliq xatarga ham taalluqli boʻlishi mumkin (masalan, kutilayotgansotib olish yoki sotishni xejlash); ikkinchidan, hisobot davrining sof foydasi yoki zarariga taʼsir koʻrsatadi. Aktivni kompaniya hisobot valyutasida ifodalangan qayd etilgan bahoda sotib olish yoki sotish boʻyicha balansda tan olinmagan qatʼiy majburiyatni xejlash, hatto adolatli qiymat oʻzgarishi xatariga qaramasdan, pul oqimlarini xejlash kabi hisobga olinadi;

v) xorijiy kompaniyaga sof investitsiyalarni xejlash 21-sonli MHXS . «Valyuta kurslari oʻzgarishlarining taʼsiri»ga muvofiq hisobga olinadi 137-punkt).

39-sonli MHXS da taʼkidlanadiki, xejlash munosabatlari mazkur standartning qoidalari boʻyicha quyidagi shartlar bajarilgan paytdagina va faqat shundagina maxsus ravishda hisobga olinadi:

a) xejlash munosabatlari boshlanishi bilanoq kompaniyaning xatarlarni boshqarish sohasidagi vazifalari va xejlashni amalga oshirish strategiyasi rasmiy hujjatlarda bayon qilinadi. Bu hujjatlarda xejlash dastagini, u bilan bog'langan xejlanayotgan moddani yoki bitishuvni, xejlanayotgan xatarning xarakterini aniqlab berish, shuningdek xejlanayotgan moddaning adolatli qiymati va xejlanayotgan bitishuvning pul oqimlarining xejlanayotgan xatari bilan bevosita bog'langan o'zgarishlaridan yo'qotishlarni kamaytirishga nisbatan xejlash dastagining samaradorligini kompaniya qay tarzda baholashini belgilab olish lozim bo'ladi;

b) muayyan xejlash munosabati uchun avval boshdan ishlab chiqilgan xatarlarni boshqarish strategiyasiga muvofiq ravishda xejlash adolatli qiymatning yoki pul oqimlarining o'zgarishlari xejlanayotgan xatari bilan bog'langan kompensatsiyani (yo'qotishlarni qoplashni) ta'minlovchi yuqori samarali dastak bo'lib chiqadi deb kutiladi;

v) pul oqimlarini xejlashda xejlanishi lozim bo'lgan kutilayotgan bitishuvning amalga oshirilishi yuqori ehtimoli zarur, unga pirovard natijada sof foydaga yoki zararga ta'sir qiluvchi pul oqimlarining o'zgarishlari xatari xos bo'lishi lozim;

g) xejlash samaradorligini etarli darajada ishonchli baholash mumkin, ya'ni xejlanayotgan moddaning adolatli qiymatini ishonchli aniqlash yoki pul oqimlarini ishonchli baholash mumkin, shuningdek xejlash dastagining ishonchli o'lchanishi mumkin bo'lgan adolatli qiymatini aniqlash mumkin;

d) xejlashni baholash doimiy tarzda o'tkazilgan, natijada butun hisobot davri mobaynida uning yuqori samaradorligi aniqlangan (42-punkt).

Odatda, avval boshdan to xejlash tugallanishiga qadar kompaniya xejlanayotgan moddaning adolatli qiymati yoki pul oqimlari o'zgarishi xejlash dastagining adolatli qiymati yoki pul oqimlari o'zgarishlari bilan deyarli to'la qoplab berilishiga mo'ljal qila olsa, xejlash yuqori samarali hisoblanadi, bunda haqiqatda erishilgan natijalar 80 foizdan to 125 foizgacha oraliqda tebranadi. Masalan xejlash dastagi bo'yicha zarar 120 ni tashkil etsa, dastak bo'yicha pul

bozorida foyda 100 ga teng bo'lsa, qoplab berilishi natijalarini 120:100, ya'ni 120 foiz yoki 100:120, ya'ni 83 foiz deb baholash mumkin. Kompaniya xejlash yuqori samarali bo'lib chiqdi degan xulosa qila oladi (146-punkt).

Xejlashning samaradorligini baholashda, odatda pulning vaqtdagi qiymatini hisobga olishga to'g'ri keladi. Xejlanayotgan modda bo'yicha qayd etilgan o'zgarmas stavka adolatli qiymatni xejlashda qo'llanadigan svop bo'yicha qayd etilgan o'zgarmas stavka bilan bir xil bo'lishi shart emas. Xuddi shu kabi foizli aktiv (majburiyat) bo'yicha o'zgaruvchi stavka pul oqimlarini xejlashda qo'llaniladigan svop bo'yicha o'zgaruvchi stavkaga mos kelishi shart emas. Svopning adolatli qiymati qoldiq summalar bo'yicha hisob-kitoblar qilish bilan aniqlanadi. Svop bo'yicha qayd etilgan o'zgarmas stavka va o'zgaruvchi stavkalar, agar ularning har ikkalasi bitta miqdorga o'zgarsa, qoldiq summalar bo'yicha hisob-kitoblarga ta'sir etmagan holda almashinishi mumkin (152-punkt).

Agar hisobot davri mobaynida adolatli qiymatning xejlanishi 39-sonli MHXS dagi xejlashni maxsus ravishda hisobga olish shartlariga muvofiq kelsa, uni quyidagicha hisobga olish lozim:

a) xejlash dastagini adolatli qiymati bo'yicha qayta baholashdan foydani (zararni) o'sha zahoti sof foyda yoki zararga olib borilishi zarur;

b) xejlanayotgan moddaning balans qiymatini xejlanayotgan modda bo'yicha xejlanayotgan xatarga mansub foydani (zararni) hisobga olib tuzatish zarur. Bu foydani (zararni) darhol sof foyda yoki zararga olib borilishi zarur. Mazkur qoida xejlanayotgan moddani baholash adolatli qiymat bo'yicha amalga oshirilib, adolatli qiymatning o'zgarishlari bevosita kapital hisoblarida aks ettirilganda ham amal qiladi. Xuddi shuning o'zi xejlanayotgan moddalarning baholanishi haqiqatdagi xarajatlar bo'yicha olib boriladigan hollarga ham taalluqlidir (153-punkt).

Quyida keltirilayotgan vaziyatlardan har qanday bittasi vujudga kelsa, kompaniya xejlashda hisob yuritishni to'xtatishi zarur:

a) yoxud xejlash dastagining muomalada bo'lishi muddati tugadi, yoxud dastak sotildi yoki ijro etildi (bunday maqsadlar uchun xejlash dastagini boshqa

xejlashg dastagi bilan almashtirilishi yoki muddati uzaytirilishi, agar bunday almashtirish yoki uzaytirish kompaniyaning hujjatlashtirilgan xejlash strategiyasining bir qismi bo'lsa, dastakning amal qilish muddati tugashi yoki to'xtatilishi deb qaralmaydi);

b) xejlash xejlashda hisob yuritishning mezonlariga endi javob bermay qo'ydi (16-punkt).

Agar hisobot davri mobaynida pul oqimlarini xejlash 39-sonli MHXS dagi xejlashda maxsus hisob yuritishning shartlariga javob bersa, uni quyidagicha hisobga olish zarur:

a) samaradorligi aniqlab olingan xejlash dastagi bo'yicha foyda yoki zararining bir qismini bevosita kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotdagi kapitalni hisobga olish hisobiga olib borish zarur:

b) samarasiz qismini quyidagicha aks ettirish zarur:

1) xejlash dastagi derivativ dastak bo'lganida bevosita sof foyda yoki zararda;

2) xejlash dastagi derivativ dastak bo'lmagan kamdan-kam hollarda yoxud sof foyda yoki zararda, yoxud 39-sonli MHXSda ruxsat berilgani kabi, bevosita kapitalda (158-punkt).

Agar xejlanayotgan qat'iy majburiyat (kutlayotgan bitishuv) aktivning yoki majburiyatning tan olinishiga olib kelsa, u holda bu aktivning yoki majburiyatning tan olinishi paytida yuqoridagi 2-deb ko'rsatilgan satrlardagi qoidaga binoan bevosita kapitalni hisobga olish hisobiga olib borilgan tegishli foyda va zararlarni kapital hisoblaridan chiqarib tashlash va bu aktiv yoki majburiyatning qo'lga kiritilishi qiymati dastlabki baholanishiga yoki boshqa balans qiymatiga kiritish zarur (160-punkt).

Oldingi abzatsda ko'rib chiqilganidan tashqari barcha hollarda pul oqimlarini xejlashda bevosita kapitalni hisobga olish hisoblariga olib borilgan summalarni xejlanayotgan qat'iy majburiyat yoki xejlanayotgan kutlayotgan bitishuv sof foyda yoki zararga ta'sir ko'rsatadigan davr o'zining yoki davrlarning

sof foyda yoki zararida aks ettirish zarur (masalan, kutilayotgan sotish real sodir bo'ladigan paytda) (162-punkt).

Kompaniyada yuqorida tavsiflab berilgan xejlashda hisob yuritishni quyidagi vaziyatlardan birortasi vujudga kelsa ham to'xtatish lozim:

a) yoxud xejlash dastagining muomala muddati tugadi, yoxud dastak sotildi yoki ijro etildi (bunday maqsadlar uchun xejlash dastagining boshqa xejlash dastagi bilan almashtirilishi yoki muddati uzaytirilishi, agar bunday almashtirish yoki uzaytirish kompaniyaning xejlash hujjatlashtirilgan strategiyasining bir qismi bo'lsa, dastakning amal qilishi muddati tugashi yoki to'xtatilishi deb qaralmaydi). Bu holda xejlash dastagi bo'yicha olingan, xejlashning amal qilishi davrida dastlab bevosita kapital hisoblariga olib borilgan foydani (zararni) kapital hisoblarida kutilayotgan bitishuv haqiqatda bajarilishiga qadar alohida aks ettirib turish lozim bo'ladi. Operatsiya sodir bo'lganda esa, yuqorida ko'rsatib o'tilgan umumiy qoidalar qo'llanadi;

b) xejlash xejlashda hisob yuritishning mezonlariga javob bermay qo'yadi. Bu holda xejlash bo'yicha olingan, xejlashning amal qilishi davrida dastlab bevosita kapital hisoblariga olib borilgan foydani (zararni) kutilayotgan yoki rasman tasdiqlangan bitishuv haqiqatda sodir etilishiga qadar kapital hisoblarida alohida aks ettirish lozim. Operatsiya sodir etilganda esa, yuqorida ko'rsatilgan umumiy qoidalar qo'llanadi;

v) topshiriq berilgan yoki kutilayotgan bitishuv sodir etilmaydi deb taxmin qilinmoqda. Bu holda bevosita kapitalni hisobga olish hisoblariga olib borilgan tegishli olingan sof foydani (zararni) hisobot davrining sof foydasi yoki zararida aks ettirish lozim (163-punkt).

Xorijiy ishlab chiqarishga sof investitsyalarni xejlashni pul oqimlarini xejlashni hisobga olgan tarzda hisobga olish zarur:

a) samaradorligi aniqlab olingan xejlash dastagi bo'yicha foyda yoki zararni bevosita kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotdagi kapitalni hisobga olish hisoblariga olib borish zarur;

b) samarasiz qismini quyidagicha aks ettiriladi:

1) xejlash dastagi derivativ dastak bo‘lganida bevosita sof foydada yoki zararda;

2) xejlash dastagi derivativ dastak bo‘lmagan kamdan-kam hollarda 21-sonli MHXS «Valyuta kurslari o‘zgarishlarining ta’siri»ga muvofiq ravishda.

Xejlash dastagi bo‘yicha xejlashning samarali qismiga mansub deb topilgan foydani (zararni) bir valyutadan boshqasiga o‘tishda vujudga keladigan kursdagi ijobiy yoki salbiy tafovutlar kabi turkumlash zarur (164-punkt).

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy tavakkalchilikning mohiyatini tushuntiring.
2. Moliyaviy tavakkalchilikning asosiy turlariga ta’rif bering.
3. Moliyaviy tavakkalchilikni boshqarishning tamoyillarini sanab bering.
4. Moliyaviy tavakkalchilik darajasiga ta’sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
5. Moliyaviy tavakkalchilikni kamaytirish yo‘llarini sanang.

IX BOB. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI BOSHQARISH

9.1. Debitorlik qarzlari va ularni boshqarish

Debitor qarzdorlik - bozor iqtisodining ob'ektiv unsuri va uning darajasi firmaning kredit siyosati va iqtisodiy shart-sharoitiga ta'sir kursatadi. Debitor qarzdorligining o'sishi sotishning kengayishi bilan bog'liq, demak, daromad oshadi. Lekin, boshqa tomonidan debitor qarzlarni undirish va chorasiz qarzlarni bo'yicha yo'qotishlar xavfi oshadi. Moliyaviy menejerning vazifasi debitor qarzlarni oqilona chegaralarini aniqlab olishdir.

Normal iqtisodiy sharoitlarda debitorlik qarzlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga, korxonaning moliyaviy axvolini yaxshilashga yordam beradigan zarur hodisadir. Lekin uning nooqilona ko'lamlari mikro va makro darajalarda korxonalarining likvidsizligini, to'lovga qobiliyatsizligini keltirib chiqaradi. Bular esa korxonalarni bankrot bo'lishga olib boradi, davlat byudjetiga daromad tushishini kamaytiradi.

Normal jarayon tufayli kelib chikkan debitorlik qarziga quyidagilar kiradi:

- maxsulot yetkazib beruvchilarga shartnoma asosida berilgan bo'naklar (gaz, elektr energiyasi, avtotransport va aloqq xizmatlari, materiallar xarid qilish);
- to'lovlarning tovar bilan qaytarilmagan qismi;
- hisobot berish sharti bilan pul olgan (berilgan bunaklar bo'yicha) shaxslarning belgilangan hisobot topshirish muddatlari doirasidagi qarzlari.

Normal bo'lmagan debitorlik qarzi: kamomadlar, talon-tarojlar va o'g'riliklar bo'yicha qarzlarni, tovarlar (yoki xizmatlar) miqdori va sifati belgilangan assortimentga mos kelmasligi tufayli bildirilgan hamda javob beruvchilar tan olgan yoki hakamlar qaror qilgan qarzlardir.

Xo'jalik faoliyati jarayonida tugallanmagan hisob-kitoblar bo'yicha normal kreditorlik qarzlari qonuniy tarzda vujudga keladi. Bular quyidagilardan iborat:

- hisobvaraqlar bo'yicha belgilangan haq to'lash muddatlari doirasida mahsulot yetkazib beruvchilar oldidagi qarzdorlik;

- mehnatga haq to‘lash bo‘yicha ishchi va xizmatchilar oldidagi hamda ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar bo‘yicha kasaba tashkilotlari oldidagi qarzdorlik;

- moddiy boyliklar ularning haqini to‘lash muddatiga qaraganda oldinroq kelganligini munosabati bilan paydo bo‘lgan qarzdorlik;

- soliqlar bo‘yicha davlat oldidagi qarzdorlik va boshqalar.

Debitorlik qarzi – korxonaning aylanmasidan chiqib qolgan va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarda turgan mablag‘laridir. Korxonaning o‘z mablag‘lari yoki boshqa korxonalarining mablag‘lari bu qarzlarni qoplash manbai bulib xizmat qiladi.

Debitorlik qarzi–mablag‘larni aylanmadan immobilizatsiyalash, kreditorlik qarzi – boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning mablag‘larini ishlab chiqarishga vaqtincha jalb etishdir.

Debitorlik qarzi qaytarilganida hisob-kitob varaqlari, valyuta hisobvaraqlaridagi, kassadagi pul mablag‘lari yoki tovar-moddiy boyliklar ko‘payadi. Balans yakuni o‘zgarmaydi. Lekin agar korxonalar boshqa korxonalar yoki banklardan kreditlar olish hisobiga mablag‘ bergan bo‘lsa, balans yakuni shu summaga ko‘payadi, ya’ni kreditorlik qarzi – boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlar summasi ko‘payadi.

Debitorlik qarzi aylanma aktivlarning bir qismi bulib, «Aylanma aktivlar» degan balans aktivining 2-bo‘limida ko‘rsatiladi. U balansning quyidagi moddalari bo‘yicha guruhlarga ajratilgan:

- xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar;
- bo‘nak to‘lovlari;
- byudjet bilan hisob-kitoblar;
- xodimlar bilan hisob kitoblar;
- sho‘ba korxonalar bilan hisob-kitoblar;
- uyushmaga kirgan korxonalar bilan hisob-kitoblar;
- muassislar bilan hisob kitoblar;
- boshqa debitorlar.

«Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar» degan modda buyurtmachilarga berilgan tovarlar, topshirilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzni aks ettiradi. Bunda qarzning tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha to'lovlarni korxonaga hisob-kitob varagiga tushirish, o'zaro talablarni inobatga olish yoki olingan veksellar bilan ta'minlash orkali to'languncha bo'lgan paytdagi xolati aks ettiriladi.

Har bir korxonaga raxbari debitorlik qarzlari holati faqat shu korxonaning emas, balki unga hamkor korxonalarining va umuman butun respublika iqtisodiyotining moliyaviy ahvoriga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri ekanini doimo nazarda tutishi kerak

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi. Debitorlik majburiyatlari yoki qarzlari tahlilida ularning aylanuvchanligiga alohida etibor beriladi. Negaki debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasi korxonaga moliyaviy axvoliga baho berishning muxim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Korxonaga «Aylanma aktivlar»ida debitorlik qarzdorligini aks ettirilishini ko'rib chiqamiz.

9.1-jadval

Debitorlik majburiyatlarining holati

(ming so'mda)

Debitorlik majburiyatlari moddalari	Davri oxiriga jami	SHu jumladan yuzaga chiqish muddatlari bo'yicha				
		1 oygacha	1 oydan 2 oygacha	3 oydan 6 oygacha	6 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortiq
1.Haridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar	235470	98670	89000	26470	20190	1140
2.Bo'nak (avans) to'lovlari	18840	*	18840	*	*	*
3.Byudjet bilan hisoblashishlar	465	465	*	*	*	*
4.Hodimlar bilan hisoblashishlar	795	375	*	*	420	*
5.SHu'ba korxonalar bilan hisoblashishlar	44385	*	44385	*	*	*

6.Ta'rischilar bilan hisoblashishlar	-	*	*	*	*	*
7.Uyushma korxonalar bilan hisoblashishlar	38760	*	29970	8790	*	*
8.Boshqa debitorlar	6540	1815	3810	*	782	133
Jami	345255	101305	186000	35265	21392	1273

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi deganda qarz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koeffitsienti tushuniladi. Bu bevosita bugungi yuzaga kelgan majburiyatning necha kundan keyin naqd pulga aylanish darajasini xarakterlaydi.

Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi sotishdan olingan tushumni debitorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kalendar kuniga ko'paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida debitorlik qarzlarning aylanishlar kuni aniqlanadi.

Korxonada debitorlik majburiyatlarining holati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 160410 ming so'mga oshgan. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasi ham o'tgan yilning shu davriga nisbatan 972525 ming so'mga usgan. Buning ta'sirida debitorlik majburiyatlarining undirilish davri o'tgan yilga nisbatan 3 kunga tejalishiga erishilgan. YA'ni debitorlik majburiyatlarining undirib olinishi bir qadar tezlashgan. Bu tezlashish bevosita mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushum summasining oshishi hisobiga ro'y bergan.

9.2-jadval

Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligini tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	hisobot yili	Farqi
1.Debitorlik majburiyatlari jami (<i>ming so'mda</i>)	184845	345255	+160410
2.Mahsulot sotishdan olingan sof tushum (<i>ming so'mda</i>)	1015935	1988460	+972525
3.Oborot aktivlari (<i>ming so'mda</i>)	846420	1430730	+584310
4.Muddati o'tgan debitorlik qarzlari (<i>ming so'mda</i>)	1877	1273	-604
5.Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti (2q/1q)	5,496	5,759	+0,263

6. Debitorlik qarzlarning aylanish davri, kunda ($1q \cdot 360 / 2q$)	65,5	62,5	-3
7. Oborot aktivlari tarkibida debitorlik qarzlari, foizda. ($1q / 3q \cdot 100$)	21,8	24,1	+2,3
8. Muddati o'tgan debitorlik qarzlari ulushi, foizda. ($4q / 1q \cdot 100$)	1,01	0,36	-0,65

Joriy davrda debitorlik majburiyatlarining jami oborot aktivlari tarkibidagi salmog'i o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2.3 % ga ortishi avvalo debitorlik majburiyatlari summasining ortishi hisobiga ro'y bergan. Muddati o'tgan debitorlik qarzlarning jami debitorlik qarzlari tarkibidagi salmog'i o'tgan yilning shu davrida 1,01 % ni joriy davrning oxirgi hisobot sanasiga esa 0,36 % ni tashkil qilgan.

Yukoridagi bog'lanishlardan bevosita debitorlik majburiyatlarining aylanishiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir darajalarini ham aniqlashimiz mumkin.

9.3-jadval

Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti va aylanish davri o'zgarishining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Debitorlik qarzlarni aylanish koeffitsienti (Kd)	Debitorlik majburiyatlarini aylanish davri (Ad)
1. O'tgan yil	5,496	65,5
2. SHartli hisobot yili	10,757	33,4
3. hisobot yili	5,759	62,5
Jami farq	+0,263	-3
Ta'sir etuvchi omillar	*	*
1. Sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi	+5,261	-32,1
2. Debitorlik qarzlari summasining o'zgarishi	-4,998	+29,1

Debitorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsienti va aylanish davriga omillar ta'siri qo'yidagicha bo'lgan. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti o'tgan yilga nisbatan +0,263 ga ortgan. Bu o'zgarishda mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi ta'sirida aylanish koeffitsienti +5,261 ga ($10,757 - 5,496$) debitorlik qarzlari xajmining o'zgarishi hisobiga esa aylanish koeffitsienti $-4,998$ ga ($5,759 - 10,757$) kamaygan.

Xar ikkala omil ta'sirida aylanish koeffitsienti +0,263 (5,261-4,998) koeffitsientga o'zgargan. Ushbu omillar ta'siri debitorlik qarzlarning aylanish davri ko'rsatkichi bo'yicha quyidagicha bo'lgan. YA'ni; sotishdan olingan sof tushum summasi hisobiga o'zgarish -32,1 kunga, debitorlik majburiyatlari summasining ushbu hisobiga +29,1 kunga o'zgarish kuzatilgan.

Debitorlik qarzlarning shartli aylanish koeffitsienti va aylanish davrining hisobi. Debitorlik majburiyatlarining shartli aylanish koeffitsienti quyidagi formulaga asosan aniqlanadi:

$$T_s$$
$$K_d = \frac{T_s}{D_m} ;$$
$$D_m$$

Debitorlik majburiyatlarining shartli aylanish davri esa quyidagi formula asosan aniqlanadi:

$$D_m \times 360$$
$$A_d = \frac{D_m \times 360}{T_s} ;$$
$$T_s$$

Ushbu formulalarda:

T_s – Sotishdan olingan sof tushum (hisobot yilda haqiqatda).

D_m - Debitorlik majburiyatlari (o'tgan yilning shu davri bo'yicha)

9.2. Kreditorlik qarzlari va ularning tahlili

Kreditorlik majburiyatlari qarshi tomonga korxonaning to'laydigan majburiyatlarini xarakterlaydi. Biz yukorida uning tarkibiga nimalar kirishini va ularning yuzaga kelish sabablarini tarkiblab o'tgan edik. Kreditorlik majburiyatlarining yuzaga chiqishining asosiy sababi sifatida bevosita debitorlik majburiyatlarining vaqtida kelib tushmasligini ham ko'rsatish mumkin.

Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi tahlilida qarzdor bo'lgan tomonlar bo'yicha majburiyatlarning qatorlanishi, ularni to'lash muddatlari bo'yicha tarkiblanishiga baho beriladi. SHuningdek debitorlik majburiyatlarining aylanish

koefitsienti va aylanish davrini aniqlashdagi kabi bunda ham kreditorlik majburiyatlarining aylanishi koefitsienti va davri aniqlanadi. Lekin bunda qatnashuvchi ko'rsatkichlar farqlanadi. Kreditorlik majburiyatlari aylanishini o'rganishda asosiy ko'rsatkichlar sifatida nasiyaga olingan yoki hali puli to'lanmagan mollar, ashyolar, ish va xizmatlar summasiga hamda kreditorlik majburiyatlarining haqiqiy ko'rsatkichlariga murojaat qilinadi.

Kreditorlik majburiyatlarini to'lash muddatlari bo'yicha qo'yidagi tarkibini belgilash mumkin:

- to'lash muddati kelgan majburiyatlar
- to'lash muddati o'tib ketgan majburiyatlari

Yil kalendar davrining taqsimi bo'yicha kreditorlik majburiyatlarining qo'yidagi shakllarini belgilash mumkin:

- 1 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- 1 oydan 2 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- 3 oydan 6 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- 6 oydan bir yilgacha bo'lgan majburiyatlar;
- 1 yildan ortiq muddatga bo'lgan majburiyatlar.

9.4-jadval

Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi va tashkil topish muddati bo'yicha tahlili

(ming so'mda)

Kreditorlik majburiyatlari	Jami	SHu jumladan yuzaga chiqish davri bo'yicha				
		1 oygacha	1 oydan 2 oygacha	3 oydan 6 oygacha	6 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortiq
1.Mol yetkazib beruvchilarga qarzlari	32866	21724	5780	3933	457	972
2.Byudjet bo'yicha qarzlari	218	218	*	*	*	*
3.Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari	2016	1980	36	*	*	*
4.Ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzlari	765	742	23	*	*	*
5.Mulkiy va shaxsiy sug'urtalar bo'yicha qarzlari	1476	*	900	540	36	*

6.Byudjetdan tashkari to'lovlar bo'yicha qarzlari	416	216	200		*	*
7.SHu'ba korxonalariga qarzlari	2320	396	1537	387	*	*
8.Uyushma korxonalariga qarzlari	15338	9475	4588	*	1275	*
9.Boshqa kreditorlar	387	387				
Jami	55802	35137	13065	4860	1768	972

Korxonada jami kreditorlik qarzlarning hisobot davri oxiriga bo'lgan holati 55802 ming so'mni tashkil qilgan. SHundan 1 oygacha bo'lgan kreditorlik qarzlari 35137 ming so'mni, 1 oydan 2 oygacha bo'lgan kreditorlik qarzlari summasi 13065 ming so'mni, 3 oydan 6 oygacha bo'lgan kreditorlik qarzlari summasi 4860 ming so'mni tashkil qilgan. Muddati o'tkazib yuborilgan lekin undirilmagan kreditorlik qarzlari summasi 972 ming so'mni tashkil qilgan.

Kreditorlik qarzlarning holatiga ularning aylanish darajalarini o'rganish asosida to'liq baho berish mumkin. Kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi bo'yicha qo'yidagi bog'lanishlar jadvalini keltirib o'tish mumkin.

Korxonada kreditorlik qarzlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26041 ming so'mga usgan. Ularning aylanuvchanlik darajasi ham o'tgan yilga qadar bir qadar yaxshilangan. Jumladan kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti +0,103 ga, kuni esa 3,2 kunga kamaygan. Demakki korxonada kreditorlik qarzini to'lash muddati 3,2 kunga tezlashgan deyish mumkin. Bu albatta katta ko'rsatkich emas. Lekin shunga karamay korxonada ularni tezlashtirish choralarini ko'rmog'i lozim.

Kreditorlik majburiyatlarining jami majburiyatlar tarkibidagi salmog'i o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,7 foizga kamaygan.

9.5-jadval

Kreditorlik majburiyatlarining aylanishi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	hisobot yili	Farqi
1	2	3	4
1.Kreditorlik majburiyatlari, (ming so'mda)	29761	55802	+26041
2.Mahsulot sotishdan olingan sof tushum, (ming so'mda)	100980	195120	+94140
3.Majburiyatlar, (ming so'mda)	52056	117758	+65702

4. Kreditorlik qarzlarning muddati o'tgani, (ming so'mda)	1161	972	-189
5. Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti, (2q/1q)	3,393	3,496	+0,103
6. Kreditorlik qarzlarning aylanish davri, kunda (1q*360/2q)	106,1	102,9	-3,2
7. Majburiyatlar tarkibida kreditorlik qarzlari ulushi, foizda (1q/3q*100)	57,1	47,4	-9,7
8. Muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning jami kreditorlik qarzlari tarkibidagi salmog'i, foizda (4q/1q*100)	3,9	1,7	-2,2

Muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlari esa summa bo'yicha 189 ming so'mga kam bo'lgan, yoki 2,2 foizga $((1161/29761*100)-(972/55802*100))$ kamaygan.

9.6-jadval

Kreditorlik qarzlari aylanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	Kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsienti (Kk)	Kreditorlik qarzlari aylanish davri (Ak)
1. O'tgan yil	3,393	106,1
2. SHartli hisobot yili	6,556	54,91
3. hisobot yili	3,496	102,9
Jami farq	+0,103	-3,2
Ta'sir etuvchi omillar	*	*
1. Sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi	+3,163	-51,2
2. Kreditorlik qarzlari summasining o'zgarishi	-3,06	+48,0

Kreditorlik qarzlarning shartli aylanish koeffitsienti va aylanish davrining hisobi. Kreditorlik majburiyatlarining shartli aylanish koeffitsienti quyidagi formulaga asosan aniqlanadi:

Ts

Kk = -----;

Km

Kreditorlik majburiyatlarining shartli aylanish davri esa quyidagi formula asosan aniqlanadi:

$$K_m \times 360$$

$$A_k = \text{-----};$$

$$T_s$$

Ushbu formulalarda:

T_s – Sotishdan olingan sof tushum (hisobot yilda haqiqatda).

K_m - kreditorlik majburiyatlari (o'tgan yilning shu davri bo'yicha)

Kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsienti o'tgan yilga nisbatan 0,103 darajaga ortgan. Bu o'zgarishda mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishini ta'siri +3,163 ga, kreditorlik qarzlari summasining o'zgarishi esa -3,06 ga teng bo'lgan.

Kreditorlik qarzlarning to'lash muddati o'tgan yilga nisbatan -3,2 kunga tezlashgan. Bu o'zgarishda mahsulotlar tannarxining yoki sotib olingan qiymatliklar va xizmatlar summasining o'zgarishi ta'siri -51,2 kunga, kreditorlik qarzlari summasining o'zgarishi esa +48,0 kunga teng bo'lgan.

9.3. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish yo'llari

Debitorlik kreditorlik qarzlarning oldini olishni bitta tadbir belgilash yoki uni nazorat qilish asosida uddalab bo'lmaydi. Buning uchun bevosita keng kamrovli dastur ishlab chiqish lozim.

Debitorlik qarzlarning holatini yaxshilashning asosiy yo'llari quyidagilardan iboratdir:

- zarur maxsulotni yetkazib berish va xarid qilish shartnomalarini o'z vaqtida va to'g'ri tuzish;
- hisob-kitob va to'lov xujjatlarini o'z vaqtida to'g'ri rasmiylashtirish;
- maxsulot yetkazib beruvchilar va xaridorlarning moliyaviy axvolini o'rganish;
- maxsulot xajmini oshirish va sifatini yaxshilash;

- korxonada marketing xizmatlarini yaxshilash;
- maxsulot yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- korxonalarining moliyaviy axvolini o'z vaqtida tahlil qilish hamda ularning natijalarini maqsadga muvofiq holatda ushlab turish choralarini ko'rish.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining oldini olish maqsadida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish makbuldir:

- o'zaro shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning masulligini oshirish va ularning shartlariga kat'iy amal etish;

- muddati o'tkazib yuborilgan har qanday to'lovlar summasi bo'yicha xukukiy javobgarlik choralarini ko'rish;

- zamonaviy hisob-kitob shakllaridan foydalanish;

- dargumon qarzlari bo'yicha rezervlar tashkil qilish mexanizmini ishlab chiqish va boshqalar;

Debitorlarga ta'sir ko'rsatishning eng keng qo'llanadigan usullariga xat jo'natish, telefon qilish, shaxsan borib kelish, debitor qarzlarni boshqa tashkilotlarga sotib yuborish kiradi.

Debitorlik qarzlarni boshqa tashkilotlarga sotib yuborish - **faktoring** operatsiyasi deb ataladi.

Faktoring – debitor qarzi majburiyatini faktor vositachiga o'tkazayotgan sub'ektning qarzi undirish tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida tuziladigan shartnomadir. Sub'ektlar o'rtasida debitorlik va kreditorlik qarzlari muammosi paydo bo'lganda, ya'ni tovar-moddiy qiymatliklarni jo'natgan sub'ekt xaridordan mahsulot haqini o'z muddatida undirolmasa yoki bunday qarzlari shubhali, ularni undirish ehtimoli kam bo'lsa faktoring vositasida qarzni undirish amaliyoti qo'llaniladi.

Faktoringda vositachi korxonasi (odatda bank) qarzi bergan sub'ektdan ma'lum bir komission to'lov evaziga qarzdordan mablag'ni undirish huquqini qo'lga kiritadi. Faktoring shartnomasi tuzilishi bilan sub'ekt undirolmay turgan

qarzning aksariyat qismini faktoring sub'ektidan (yoki bankdan) oladi. So'ngra faktoring korxonasi qarzdor korxonaga qarzni undirish bo'yicha da'vo qo'zg'atadi.

Factoringning afzalligi shundaki, u noto'lovlar muammosini qisman bo'lsada echishga imkon beradi.

Debitor qarzlarni nazorat va tahlil qilishning umumiy sxemasi odatda o'z tarkibiga quyidagi bosqichlarni oladi.

1-bosqich. Alohida debitor qarzlarning kritik darajasi belgilab olinadi. Bu summadan yuqori bo'lgan har bir qarzdorlikning hisob-kitob hujjatlari to'la tekshirib chiqiladi.

2-bosqich. qolgan hisob-kitob hujjatlaridan nazorat uchun to'plam tanlab olinadi, tanlashning turli usullari qo'llanishi mumkin.

3-bosqich. Tekshirish uchun tanlab olingan hisob-kitob hujjatlaridagi debitor qarzlari qanchalik real ekanligi tekshiriladi. Xususan, qarzdorlardan bu summaning xaqiqiylikini tasdiqlashlari so'ralishi mumkin.

4-bosqich. Aniqlangan xatolarning muhimligiga baho beriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Debitorlik qarzlari nima?
2. Kreditorlik qarzlari nima?
3. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning shartli aylanish koeffitsienti va aylanish davrining hisoblashda qaysi ko'rsatkichlar rol o'ynaydi? .
4. Debitor qarzlarni boshqarishning mohiyati nimadan iborat .
5. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish yo'llarini tushuntiring.

Testlar

1. Debitorlik qarzlarning nooqilona ko'lamlari oqibatlarini
A) mikro va makro darajalarda korxonalarining likvidsizligi;
B) to'lovga qobiliyatsizlik;
V) korxonalarini bankrot bo'lishi;
G) barcha javoblar to'g'ri.

2. Debitorlik qarzlarning holatini yaxshilashning asosiy yo'llari

A) zarur maxsulotni yetkazib berish va xarid qilish shartnomalarini o'z vaqtida va to'g'ri tuzish;

B) hisob-kitob va to'lov xujjatlarini o'z vaqtida to'g'ri rasmiylashtirish;

V) maxsulot yetkazib beruvchilar va xaridorlarning moliyaviy axvolini o'rganish;

G) barcha javoblar to'g'ri.

3. Debitorlik qarzlarni boshqa tashkilotlarga sotib yuborish

A) lizing deb ataladi;

B) derivativ deb ataladi;

V) overdraft deb ataladi;

G) faktoring operatsiyasi deb ataladi.

4. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining oldini olish chora tadbirlari

A) o'zaro shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning masulligini oshirish va ularning shartlariga kat'iy amal etish;

B) muddati o'tkazib yuborilgan har qanday to'lovlar summasi bo'yicha xukukiy javobgarlik choralari ko'rish;

V) zamonaviy hisob-kitob shakllaridan foydalanish;

G) barcha javoblar to'g'ri.

5. Debitorlik qarzlari balansda aks ettirilishi

A) balansda ko'rsatilmaydi;

B) passivning 1-bo'limida;

V) aktivning 1-bo'limida;

G) balans aktivining 2-bo'limida.

X BOB. XO‘JALIK SUB‘EKTLARIDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISH

10.1. Pul oqimlarini boshqarishning mohiyati

Pul oqimlarini boshqarish zaruriyati birinchi navbatda quyidagi holatlar bilan bog‘liq:

1) korxonada joriy faoliyatini olib borish nuqtai nazaridan pul mablag‘lari eng muhim rol o‘ynaydi, chunki xo‘jalik jarayonlaridagi har qanday resurslar etishmovchiligini pulni ishga solish orqali hal etish mumkin, ya‘ni pul universal resurs bo‘lib maydonga chiqadi:

2) foyda va pul mablag‘lari bitta narsa emas, foyda olib ishlayotgan korxonada ham pul mablag‘lariga ega bo‘lmasa yoki pul etishmovchiligi mavjud bo‘lsa jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Xo‘jalik hayotida ehtiyojlarni foyda emas, balki pul mablag‘lari qondiradi;

3) korxonada faoliyati samaradorligini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash uchun pul kirimlari va chiqimlarining asosiy hajmlarini faoliyatning qaysi yo‘nalishlari hosil qilayotganligini bilish lozim.

Korxonada foyda bilan pul oqimlari harakatining o‘zaro muvofiq kelmasligi moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda qo‘llaniladigan usullarning xususiyatlardan ham kelib chiqadi. Foydani aniqlashda hali to‘lab berilmagan, lekin xaridorlarga yetkazib berilgan mahsulot qiymati daromad deb tan olinadi. Natijada foyda hosil bo‘ladi, lekin unga muvofiq keladigan pul tushumi ham mavjud bo‘lmaydi. Albatta korxonada pul mablag‘lari etishmovchiligi ularning noo‘rin sarflanishi yoki majburiyatlar muddatlari va hajmlarini pul tushumlari muddatlari va hajmlariga muvofiq kelmasligi tufayli ham sodir bo‘lishi mumkin barcha hollarda korxonalaridagi pul oqimlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish, bu oqimlarni bashoratlash va rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu vazifalar bajarilishining axborot bazasini ta‘minlash maqsadida korxonalar moliyaviy hisobotlari tarkibida pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot

bo'lishi lozimligi qonunchilikda belgilab qo'yilgan O'zbekiston Respublikasida uning mazmuni va tarkibiy tuzilishi 9-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standartida ko'rsatib berilgan.

Pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobot korxonaning operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyati natijasida olingan va sarflangan o'z pul mablag'larini ko'rsatish orqali hisobot davri ichida pul mablag'larining o'zgarishini tushuntiradi. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni qisobotda aks ettirish quyidagilarni aniqlashga yordam beradi:

-korxonaning pul mablag'larini va ularning ekvivalentlarini ishlab topish qobiliyati va tegishli yo'nalishlarda pul oqimlarini ishlatishga ehtiyoji;

-korxonaning sof aktivlaridagi o'zgarishlar, uning moliyaviy imkoniyatlari (uning likvidligini va to'lov qobiliyati bilan birga) va uning o'zgarib turgan sharoit va imkoniyatlarga moslashish uchun o'z vaqtida pul miqdoriga va pul oqimlariga ta'sir egish qobiliyati;

-har xil korxonalarining operatsion faoliyatlarini taqqoslash.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda quyidagi faoliyat turlari yoritiladi:

Operatsion faoliyat - yuridik shaxsning daromad olish yuzasidan asosiy faoliyati va investitsiya va moliyaviy faoliyagga mansub bo'lmagan boshqa faoliyatidir.

Operatsion faoliyatidan pul oqimlarining hajmi tashkilotning ssudalarni to'lash uchun etarli pul mablag'larini jamlash, ishlab chiqarish darajasini saqlash, dividendlarni to'lash va tashqi moliyalashgirish manbalarini jalb qilmay yangi kapital qo'yilmalarni amalga oshirish ishlarini qila olishining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi.

Investitsiya faoliyati - bu pul ekvivalentlariga kirmaydigan uzoq muddatli aktivlarni va boshqa investitsiyalarini sotib olish va sotish, to'lanadigan kreditlarning berilishi va olinishi.

Moliyaviy faoliyat - bu faoliyat natijasida korxonaning o'z kapitalining va qarzlarning hajmida va tuzilishida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Investitsiya va moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq pulsiz muomalalar. Faqat asosiy vositalarga, uzoq muddatli kredntlarga yoki aksiyadorlik kapitaliga tegishli bo‘lgan investitsiya va moliyaviy xarakterdagi pulsiz muomalalarga uzoq muddatli kreditlar hisobiga asosiy vositalarni sotib olish, obligatsiyalarni oddiy aksiyalarga konvertatsiyalash va boshqalar kiradi. Ular pul harakati to‘g‘risidagi hisobotda aks eggirilmasligi ham mumkin edi, chunki kompapiyaning pul mablag‘ari harakatiga joriy davrda o‘z ta‘sirini ko‘rsatmaydi. Ammo, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning maqsadlaridan biri - investitsiya va moliyaviy faoliyatni aks ettirish bo‘lganligi uchun va shu kabi muomalalar kompaniyaning pul mablag‘larining holatiga kelgusida ta‘sir ko‘rsatgani uchun, bu muomalalar pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi hisobotda aks ettirilishi kerak. Buniig uchun hisobotdaa «Investitsiya va moliyaviy tavsifdagi pulsiz muomalalarning ro‘yxati» deb nomlangan maxsus bo‘limi mavjud.

Operatsion faoliyat jarayonida sodir bo‘lgan pul mablag‘larining harakatlari o‘z tarkibiga qo‘yidagilarni oladi (10.1-jadval).

10.1-jadval

Operatsion faoliyatda pul mablag‘lari harakatlanishining asosiy yo‘nalishlari

Pul mablag‘larining kirimi	Pul mablag‘larining chiqimi
Mahsulot, tovarlar va xizmatlarni sotish	Tovar va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘lovlar
Royaltlardan (patent, avtorlik huquqidan foydalanganlik uchun to‘lovlar va boshqalar), turli tavsifdagi taqdirlashlar, foiz daromadidan, komission yig‘imlardan va boshqalardan daromadlar	Korxonada xodimlariga pullik to‘lovlar, operatsion xarajatlar
Tovar-moddiy zahiralarni kamayishi	Tovar-moddiy zahiralarning ko‘payishi
Savdo va vositachilik maqsadlarida tuziladigan bitimlar bo‘yicha pulning kelib tushishi	To‘langan foizlar
Joriy majburiyatlarining ko‘payishi, jumladan investitsiya va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromad solig‘i bo‘yicha	Joriy majburiyatlarining kamayishi, jumladan investitsiya va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromadga soliq bo‘yicha
Pulsiz xarajatlar: a) asosiy vositalarning va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, tabiiy resurslarining kamayishi b) qarzlarga oid qimmatli kog‘ozlar bo‘yicha chegirmalarining amortizatsiyasi	Pulsiz muomalalari: a) qarzlarga oid qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha ustamaning amortizatsiyasi

Investitsiya faoliyati natijasida, sodir boʻladigan pul mablagʻlarining harakati quyidagilardan iborat boʻlishi mumkin (10.2-jadval).

10.2-jadval

Investitsion faoliyatda pul oqimlar

Pul mablagʻlarining kirimi	Pul mablagʻlarining chiqimi
Yer, binolar, uskunalar, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan tushumlar	Yerni, binolarni, uskunalarni, nomoddiy (masalan, patentlarni) va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish toʻlovlari. Kapitallashtirish bilan bogʻliq tajriba-konstruktorlik ishlariga toʻlovlar hamda pudratchilarni jalb qilmasdan korxonadan tomonidan yaratiladigan er, bino, uskunalarga toʻlovlar
Boshqa tashkilotlarning aksiyalarini yoki boshqa qarz majburiyatlarini chiqib ketishidan yoki sotilishidan kirimlar (pul mablagʻlarning ekvivalentlari deb hisoblangan yoki sotuv uchun saqlanadigan majburiyatlar uchun boʻladigan toʻlovlardan tashqari)	Boshqa korxonalarining aksiyalariga yoki qarz majburiyatlariga qoʻyilmalar. Kapitalda ishtirok etish ulushiga badallar (pul mablagʻlarini ekvivalentlari hisoblangan yoki sotish uchun saqlanayotgan toʻlov hujjatlari boʻyicha toʻlovlardan tashqari)
Boshqa korxonalariga berilgan boʻnaklarning qaytarilishi va qarzlarning toʻlanishidan kirimlar (<u>operatsion faoliyat boʻlgan foiz daromadlaridan tashqari</u>)	Boshqa korxonalariga berilgan boʻnak goʻlovlari va qarzlari

Quyidagilar moliyaviy faoliyatdagi pul oqimlarini tashkil etadi (10.3-jadval).

10.3-jadval

Moliyaviy faoliyatdagi pul oqimlari

Pul mablagʻlarining kirimi	Pul mablagʻlarining chiqimi
Aksiyalarning chiqarishdan kelgan pul mablagʻlari	Qaytarib sogʻib olingan oʻz aksiyalari uchun goʻlovlar
Qarz mablagʻlaridan kelgan tushum (chiqarilgan veksellar, obligatsiyalar garov xatlari va boshqa qisqa va uzoq muddatli qarzlari)	Qarzlarning toʻlanishi (operatsion faoliyatning qarzlari boʻyicha foizlardan tashqari)

	Aksiyadorlarga dividendlarni to'lanishi va kapitalni boshqa turdagi taqsimlanishi. Moliyaviy ijara bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar bo'yicha to'lovlar
--	--

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot pul mablag'lari xarakatlanishiga daxldor bo'lgan operatsiyalarni ajratib ko'rsatishi lozim. Buni amalga oshirish uchun pul mablag'lari kirimi va chiqimini hisoblab chiqarishning to'g'ri va egri usuli qo'llanishi mumkin.

To'g'ri usul asosiy kirim va to'lovlarni yoritilishida pul mablag'lari harakatining har bir moddasi aks ettirilishini ko'zda tutadi. SHuning uchun u kelgusidagi pul oqimlarini aniqlashda kerak bo'lishi mumkin bo'lgan axborot sifatida ham qaralishi mumkin.

To'g'ri usul qo'llanishida malumotlar quyidagilardan olinishi mumkin:

1. Hisob registrlaridan.
2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning sotishdan olingan daromadni, sotishning tannarxi va boshqa moddalaridan tegishli tuzatishlar orqali.
3. Hisobot davri davomida TMZdagi, debitorlik va kreditorlik qarzlardagi o'zgarishlar.
4. Pulsiz moddalar.
5. Natijalari pul mablag'larining harakatiga ta'siri ko'proq investitsiya va moliyaviy faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa moddalar (berilgan eki olingan kreditlar bo'yicha foizlar ia boshqalar).

10.2. Pul oqimlarini prognozlash

Pul oqimlarini prognozlash mohiyatiga ko'ra korxonaga uchun kelgusi davrda kutiladigan pul mablag'lari tushumlari manbalarini va turli yo'nalishlar bo'yicha pul mablag'lari chiqimlarini miqdoran aniqlashdan iborat. Pul mablag'lari harakatini prognozlashda aynan qanday ko'rsatkichlarning tanlab olinishi korxonaga faoliyati xususiyatlariga bog'liq. Unga yiriklashgan (agregat) ko'rsatkichlar bir qatorda batafsilroqlari ham qo'llanishi mumkin. Ko'pchilik holarda

ko'rsatkichlarni katta aniqlik bilan prognozlash qiyin. SHuning uchun odatda pul mablag'lari oqimini prognozlashda rejalashtirilayotgan davr uchun bu oqimning asosiy elementlari hisoblab chiqiladi, ya'ni sotish hajmi, naqd hisob-kitobga sotish, debitor qarzlari, kreditor qarzlari va boshqalar nazarda tutiladi. Prognoz biron-bir davrga, uni kichik davrlarga bo'lgan holda amalga oshiriladi. Yillik prognoz choraklar yoki oylarga ajratilgan holda, choraklik prognoz oylarga ajratilgan holda tuziladi.

Bunda quyidagilar bajariladi:

1. Kichik davrlar bo'yicha pul tushumlarni prognozlash.
2. Kichik davrlar bo'yicha pul mablag'larining chiqib ketishini prognozlash.
3. Kichik davrlar uchun pul mablag'larining sof oqimini aniqlash.
4. Kichik davrlar bo'yicha qisqa muddatli moliyalashga jami ehtiyojni aniqlash.

Birinchi bosqichda olinishi kutiladigan pul tushumlarining hajmi hisoblab chiqiladi. BHMS (Buhgalteriya hisobining milliy standartlari) qoidalarga binoan hisob registrlarida mahsulot sotishdan daromad tovarlar haridorlarga jo'natilgan paytda hisobga olinadi. O'z navbatida tovarlar naqd hisob-kitoblarga va kreditga sotilishi mumkin. Korxonalarining ko'pchiligida sotilgan tovarlar qiymati to'lab berilishi uchun muayyan vaqt o'tadi. SHuning uchun sotilgan mahsulot uchun pul tushumining qanchasi rejalashtirilayotgan davrda va qanchasi undan keyin kelib tushishini aniqlash lozim.

Rejalashtirilayotgan davrda kutilayotgan pul tushumlari oqimini aniqroq prognozlash uchun debitor qarzlarni ularning so'ndirilishi muddatlari bo'yicha guruhlash talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yetkazib berilayotgan tovarlar uchun debitor qarzlari to'lanishi muddati 90 kungacha deb belgilangan. SHunga muvofiq holda xo'jalik amaliyotida debitor qarzlari so'ndirilishi muddati 30 kungacha, 60 kungacha, 90 kungacha va h.k. guruhlarga ajratgan holda tahlil etiladi. Tahlilni oyma-oy amalga oshirish va har bir oyga kelib tushadigan debitor qarzlarni aniqlab olish maqbul deb qaraladi. Pul mablag'lari

kelib tushishining mahsulot sotishdan boshqa manbalari mavjud bo'lsa ular ham har bir davrda e'tiborga olinishi lozim.

Ikkinchi bosqichda pul mablag'larining chiqib ketishi hajmlari hisoblab chiqiladi. Korxonada joriy ho'jalik faoliyatida pul mablag'lari chiqib ketishining uch asosiy yo'nalishlari mavjud: davlat byudjetiga to'lovlar, ish haqi bo'yicha xodimlarga to'lovlar va yetkazib beruvchilarga to'lovlar. Davlat byudjetiga soliqlar bo'yicha to'lovlarning katta qismini joriy davr tugamasdanoq to'lashga to'g'ri keladi. Ish haqi bo'yicha to'lovlar esa davr tugashi bilan amalga oshirilishi lozim. Soliqlar va ish haqi bo'yicha to'lovlarning kechikib bajarilishi bajarilishi korxonaga nisbatan davlat organlari tomonidan ma'muriy va moliyaviy xarakterdagi jiddiy choralar ko'rilishiga olib kelishi mumkin. yetkazib beruvchilarga kreditor qarzlari esa korxonada tomonidan bir muncha "cho'zibroq" bajarilishi mumkin. Bu holda kreditor qarzlari korxonani qisqa muddatli moliyalashning manbaiga aylanadi. Ta'kidlash lozimki, rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida tovarlar asosan kreditga sotilsada, debitor qarzlari tezroq to'lanishini rag'batlantiruvchi chegirmalar keng qo'llaniladi. Bu holda kreditor qarzlari kechiktirib to'lash iqtisodiy jihatdan foydali bo'lmay qoladi. Pul mablag'larining chiqib ketishi foizlar va dividendlar to'lanishi, uzoq muddatli va qisqa muddatli ijara uchun to'lovlar, kapital qo'yilmalarni amalga oshirish va boshqalar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Uchinchi bosqichda avvalgi ikki bosqichning natijalari bir-biriga taqqoslagan holda umumlashtiriladi va sof pul oqimi hisoblab chiqiladi.

To'rtinchi bosqichda qisqa muddatli moliyalashga bo'lgan jami ehtiyoj aniqlanadi. Unda har bir kichik davr uchun pul mablag'larining joriy etishmovchiligini qoplash uchun zarur qo'shimcha mablag'larni qaysi manbalardan qo'lga kiritilishi rejalashtirib olinadi (masalan, qisqa muddatli bank kreditlari). SHu bilan zarur pul mablag'lari miqdorini belgilab olishda korxonaning bankdagi hisob raqamida pul mablag'larining muayyan minimum miqdori mavjud bo'lishi lozimligini etiborga olish lozim. Bu minimum oldindan rejalashtirilmagan, lekin korxonada uchun juda zarur ehtiyojlarni qondirishga yoki o'ta foydali

qo'yilmalar imkoniyati to'satdan paydo bo'lganda undan foydalana olishni ta'minlashga qaratilgan.

10.3. Pul mablag'larining optimal darajasini aniqlash

Bankdagi va kassadagi jami pul mablag'lari optimal qoldig'i miqdorini aniqlash moliyaviy boshqarishning muhim vazifalaridan biridir. Albatta, korxonaning vaqtincha bo'sh pul mablag'lari qisqa muddatli moliyaviy aktivlarga yo'naltirilishi mumkin. Lekin mutlaq likvidligi darajasi bo'yicha pul mablag'lari boshqa barcha aylanma aktivlardan ustun turadi. Har qanday aylanma aktivni pulga aylantirish esa muayyan vaqtni va pulga aylantirish bo'yicha xarajatlarni talab etadi.

yetkazib beruvchilarning hisoblarini o'z vaqtida to'lab berish uchun korxonaga mutlaq likvidlikning muayyan darajasiga ega bo'lishi lozim. Mutlaq likvidlikni ta'minlash muayyan xarajatlarni taqozo etadi. Bu xarajatlarni aniq hisoblab chiqish qiyin. SHuning uchun mutlaq likvidlikni ta'minlash xarajati sifatida pul mablag'lari o'rtacha qoldig'i summasini davlat qimmatli qog'ozlariga (davlat obligatsiyalarga) investitsiyalashdan olinishi mumkin bo'lgan daromad miqdori qabul qilinadi (muqobil xarajatlar nazariyasiga asosan). Buning sababi davlat qimmatli qog'ozlari eng kam xatarga ega ekanligidir. Moliyaviy mazmuniga ko'ra, hisobdagi pul mablag'lari o'rtacha qoldig'i korxonaga ishlatmay saqlayotgan mablag'larni ifodalaydi va korxonaga bu mablag'lardan daromad olmayapti. Korxonaning bankdagi va kassadagi pul mablag'lari zahirasi ortishi bilan likvidlikni ta'minlash xarajatlari ham ortadi. Agar pul mablag'larining korxonaga aktivlaridagi ulushi kam bo'lsa, qo'shimcha pul mablag'lari saqlanishi foydali, lekin pul mablag'lari qoldig'i ko'p bo'lsa ham uni oshirilsa, bu korxonani olinishi mumkin bo'lgan daromadlardan mahrum etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaga pul mablag'lari bo'yicha oqilona siyosat olib borilishi lozim. Bir tomondan, ho'jalik moliya faoliyati ehtiyojlari o'z vaqtida qondirib borilishi uchun bo'sh pul mablag'larining muayyan darajasi

ta'minlab turilishi talab etiladi. Ikkinchi tomondan, bu mablag'lar likvid qimmatli qog'ozlarga joylashtirilgan summa bilan to'ldiriladi. Zarurat tug'ilganda qimmatli qog'ozlar zudlik bilan pulga aylantiriladi. Pul mablag'lari qoldig'ining belgilab olingan darajadan ortiqchasi vujudga kelsa, u likvid qimmatli qog'ozlarga yo'naltiriladi.

SHunday qilib umumiy mazmunga ko'ra pul mablag'lariga nisbatan ham ishlab chiqarish zahiralari boshqarish nazariyasi qoidalarini qo'llash mumkin. Pul mablag'larini boshqarishda quyidagi masalalarning echimini topish lozim bo'ladi:

- a) pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining umumiy hajmi;
- b) pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining qanchasini bankdagi hisoblarda, qanchasini tez sotiladigan qimmatli qog'ozlar ko'rinishida saqlash kerak;
- c) pul mablag'lari va tez sotiladigan aktivlarning qancha miqdorini va qaysi paytlarda bir-biriga aylantirish zarur.

Rossiyalik iqtisodchi V.V.Kovalyovning "Vvedenie v finansovyy meneyment" asarida (Moskva, "Finansy i statistika", 2000, 544-550-betlar) G'arb xoh'alik amaliyotida pul mablag'lari maqbul qoldig'ini aniqlash uchun qo'llaniladigan modellar tavsiflab berilgan.

V.Baumol modeli (1952 y). Korxonada pul mablag'larining maksimal darajasiga ega bo'lgan holda ish boshlaydi va ularni davr mobaynida muntazam ravishda sarflab boriladi deb olinadi. Tovarlar va xizmatlarni sotishdan tushgan barcha pul mablag'lari qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarga yo'naltiriladi. Pul mablag'lari kamayib, korxonada uchun xavfsiz deb hisoblanadigan minimal darajaga tushganda, qimmatli qog'ozlarni sotib, pul mablag'lari hajmini dastlabki miqdorga etkaziladi. Pul mablag'lari hajmini to'ldirish summasi (Q) quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$$Q = \sqrt{\frac{2 \times v \times c}{r}},$$

bu yerda V-davrda (yil, chorak, oy) pul mablag'lariga ehtiyojning prognozlanayotgan hajmi, c - pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga aylantirishning bir martalik xarajatlari, r - qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar (masalan, davlat qimmatli qog'ozlari) bo'yicha olinishi mumkin bo'lgan foiz daromadi darajasi.

Mazkur formulada pul mablag'lari zahirasi o'rtacha summasi $Q : 2$ ga (Q ning yarmiga) teng bo'ladi. Qimmatli qog'ozlarini pulga aylantirish bo'yicha bitishuvlari soni K esa pul mablag'lariga jami ehtiyojning pul mablag'lari o'rtacha zahirasisiga nisbati kabi aniqlanadi:

$$K = \frac{V}{Q}$$

Bunday siyosatni amalga oshirish xarajatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$CT = C \times K + r \times \frac{Q}{2}$$

Formuladagi birinchi qo'shiluvchi ($C \times K$) to'g'ri xarajatlarni, ikkinchi qo'shiluvchi ($r \times \frac{Q}{2}$) esa pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni harakatsiz saqlash tufayli boy berilgan nafni ifodalaydi.

Moliyaviy boshqaruvchi mazkur model bo'yicha ish olib boradigan bo'lsa, pul mablag'larining maqsadli qolig'ini boshqarish bo'yicha tavsiyalar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

a) agar pul mablag'lari va likvidli qimmatli qog'ozlarni bir-biriga aylantirishning bir martalik xarajatlari yuqori bo'lsa, maqsadli qoldiq nisbatan yuqori bo'lishi tavsiya etiladi;

b) agar pul mablag'larini saqlab turish xarajatlari (xatarsiz moliyaviy aktivlar bo'yicha olinmay qolayotgan foiz daromadi) yuqori bo'lsa, maqsadli qoldiqning nisbatan past darajasini saqlash ma'qulroq.

M.Miller va D.Orr modeli (1966 y). Modelni tuzishda Bernulli jarayonidan foydalanilgan, ya'ni davrdan davrga pul mablag'lari kelib tushishi va chiqib ketishi bir-biriga bog'liq bo'lmagan tasodifiy voqealar deb qaralgan. Modelga ko'ra korxonaning pul mablag'lari yuqori darajaga etgunga qadar tartibsiz o'zgarib

boradi. Pul mablagʻlari zahirasi miqdori bu darajaga etishi bilan korxonani belgilab olingan normal darajaga (qaytish nuqtasi) qaytarish uchun likvid qimmatli qogʻozlarni sotib olish boshlaydi. Pul mablagʻlari zahiralarining qisqarishi yoʻnalishida oʻzgaradigan boʻlsa, zahiralarining belgilab olingan minimal darajasiga qadar bunga yoʻl qoʻyiladi. Zahiralar minimal darajasiga etib borganda jamʻarilgan qimmatli qogʻozlar pul mablagʻlarining normal zahirasi erishish maqsadida sotib yuboriladi.

Mazkur yondashuvda moliyaviy boshqaruvchi pul mablagʻlari zahiralarining eng yuqori, normal va minimal darajalarini korxonaning faoliyati xususiyatlaridan va korxonaning faoliyati ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda aniqlashi lozim boʻladi. Eng yuqori va quyi chegaralar oʻrtasidagi tafovutni (variatsiya kengligi) belgilab olishda quyidagi qoidaga rioya qilinishi lozim: pul oqimlarining kunlik oʻzgarishlari yoki qimmatli qogʻozlarni sotib olish va sotish bilan bogʻliq doimiy xarajatlar yuqori boʻlsa, variatsiya kengligini oshirish kerak va aksincha. qimmatli qogʻozlar boʻyicha foiz stavkasi oshganda variatsiya kengligini qisqartirish tavsiya qilinadi.

Model asosida boshqaruv echimlarini ishlab chiqish quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

2. Korxonaning bankdagi hisobida doimiy ravishda saqlab turilishi maqsadga muvofiq boʻlgan pul mablagʻlarining minimal miqdori (S_m) belgilanadi (korxonaning hisoblarini toʻlab berish, bankning va kreditorlarning talablarini qondirish va boshqa ehtiyojlardan kelib chiqib, ekspert yoʻli bilan aniqlanadi).
3. Statistika maʼlumotlar boʻyicha korxonaning hisobiga har kuni kelib tushayotgan mablagʻlar variatsiyasi aniqlanadi (Var).
4. Mablagʻlarni bankdagi hisoblarda saqlash xarajatlari (Z^s) (qisqa muddatli qimmatli qogʻozlardan daromadning kunlik stavkasi summasiga teng deb olinadi) va pul mablagʻlari bilan qimmatli qogʻozlarni bir-biriga aylantirish xarajatlari (Z^t) (bu miqdorni doimiy deb olinadi) aniqlanadi.
5. quyidagi formula asosida bankdagi hisobda pul mablagʻlari qoldigʻi variatsiya kengligi (R) hisoblab chiqiladi:

$$R = 3 \times \sqrt[3]{\frac{3 \times Z_t \times V_{ar}}{4 \times Z_s}}$$

5. Bankdagi hisobdagi pul mablag‘larining yuqori chegarasini aniqlanadi (S^h). Bu chegaradan pul mablag‘lari ortib ketganda, ularning bir qismini qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarga aylantirish zarur:

$$S^h = S_m + R.$$

6. Qaytish nuqtasi (S^r) aniqlanadi. Bu hisobdagi pul mablag‘lari qoldig‘i (S_m, S^h) interval chegaralaridan tashqariga chiqqanda qaytish lozim bo‘lgan hisobdagi pul mablag‘lari miqdori:

$$S^r = S_m + \frac{R}{3}.$$

Nazorat uchun savollar:

1. Pul oqimlarini boshqarish zarurligini izohlang.
2. Pul oqimlari to‘g‘risida hisobotni tushuntiring.
3. Pul oqimlarini rejalashtirish mazmunini ta’riflab bering.
4. Pul mablag‘larini optimallashtirish qanday amalga oshiriladi?

Testlar

1. Korxonada foyda bilan pul oqimlari harakatining o‘zaro muvofiq kelmasligi sabablari

A) moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda qo‘llaniladigan usullarning xususiyatlari;

B). foydani aniqlashda hali to‘lab berilmagan, lekin xaridorlarga yetkazib berilgan mahsulot qiymati daromad deb tan olinishi;

V) korxonada pul mablag‘lari etishmovchiligi ularning noo‘rin sarflanishi yoki majburiyatlar muddatlari va hajmlarini pul tushumlari muddatlari va hajmlariga muvofiq kelmasligi;

G) barcha javoblar to‘g‘ri.

2. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning bo'limlari

A) operatsion faoliyat va moliyaviy faoliyat;

B) investitsiya va moliyaviy faoliyat;

V) faqat asosiy faoliyat;

G) operatsion faoliyat, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va pulsiz operatsiyalar.

3. Pul mablag'larini boshqarishdagi masalalar

A) pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining umumiy hajmini aniqlash;

B) pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining qanchasini bankdagi hisoblarda, qanchasini tez sotiladigan qimmatli qog'ozlar ko'rinishida saqlash kerak;

V) pul mablag'lari va tez sotiladigan aktivlarning qancha miqdorini va qaysi paytlarda bir-biriga aylantirish zarur;

G) barcha javoblar to'g'ri.

4. Operatsion faoliyat

A) faqat ishlab chiqarish faoliyati;

B) ishlab chiqarishva sotish faoliyati;

V) ta'minot va sotish faoliyati;

G) yuridik shaxsning daromad olish yuzasidan asosiy faoliyati va investitsiya va moliyaviy faoliyagga mansub bo'lmagan boshqa faoliyatidir.

5. Moliyaviy faoliyat

A) foyda olishga qaratilgan faoliyat;

B) zararni bartaraf etish bo'yicha faoliyat;

V) moliyaviy natijalarni belgilovchi faoliyat;

G) bu faoliyat natijasida korxonaning o'z kapitalining va qarzlarning hajmida va tuzilishida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

XI BOB. KORXONALARDA SOLIQ MENEJMENTINI TASHKIL ETISH MASALALARI

11.1 Soliq tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Soliqlar xo'jalik yuritish amaliyotidagi murakkab muammolardandir. Soliqlar - ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun davlat tomonidan qonunchilik asosida undirib olinadigan majburiy to'lovlardir. Ular davlat o'z vazifalarini ijro etishi uchun moliyaviy zamin bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida davlat byudjeti daromadlari asosan ulardan (turli mamlakatlarda 50dan 95 foizgacha) tashkil topadi.

O'zbekistonda ham davlat byudjeti daromadlarining ham asosiy qismi soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Soliqlarning huquqiy asosi esa Soliq kodeksida o'z ifodasini topgan. Mamlakatimiz soliq tizimi o'z tarkibiga umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar va yig'implarni oladi.

Soliqlar va yig'implar bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yoki u vakolat bergan davlat organi tomonidan belgilanadi. Soliq solishda barcha yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar qonun oldida tenglik tamoyili asosida yondashiladi. Olingan barcha daromadlarga soliqqa tortilishi nazarda tutiladi.

Soliq kodeksida soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlarini belgilangan, soliq ishlarini yuritish tartibi va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik kabi masalalar tartibga solingan.

Soliqlar o'z mohiyati bo'yicha milliy daromadni qayta taqsimlash mexanizmlaridan biridir. Iqtisodiyotni tartibga solishda ulardan samarali foydalanish zarur. SHuning uchun soliq to'lovlarning amalga oshirilishida tomonlar manfaatlarni muvofiqlashtirish nazarda tutiladi. Soliq mexanizmi – soliq ishini tashkil qilishning elementlari, tamoyillari va uslublaridan iboratdir. Soliq mexanizmi mamlakatdagi yuridik va jismoniy shaxslarning iqtisodiy faolligiga kuchli ta'sir etuvchi omildir.

Soliqlarning asoslanganligi soliq tushumlari etarli hajmiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq mexanizmining ta'sirchanligi aynan shunga bog'liq. Iqtisodiyotni erkinlashtirilishi va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitlarida soliqlarning roli ortib bormoqda. Soliq tizimi va uning amal qilish mexanizmi takomillashib borayotganligi hozirgi paytda mamlakatdagi tadbirkorlik faolligi yuksalishini ta'min etmoqda va iqtisodiy o'zgarishlar muvaffaqiyatini belgilab bermoqda.

Iqtisodiy nashrlarda soliqlarning "manba yaratuvchi", "tashviq qiluvchi - yo'naltiruvchi". "majburlovchi", "ruhiy ta'sir etuvchi" va boshqa shu kabi funksiyalari qayd etiladi. SHuningdek, soliqqa tortishni qiyosiy tahlil etgan holda, xalqaro soliq tajribasini, xususan, rivojlangan mamlakatlar - AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya, YAponiya va boshqa qator davlatlarda soliq dastaklari yordamida milliy iqtisod rivoji uchun shart-sharoitlar yaratilganligi tahlil etiladi.

Xalqaro tajriba soliq munosabatlari har bir mamlakatda o'ziga xos ravishda "aralash iqtisodiyot" orqali erkin tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishini ko'rsatmoqda. Tadbirkorlik faoliyati, birinchi navbatda, soliq siyosati ta'sirida davlat tomonidan tartibga solib va rag'batlantirib turiladi.

Soliq tizimi mamlakat iqtisodiy yuksalishi uchun mustahkam tayanch rolini o'ynaydi. Mazkur tizimni rivojlantirishdagi ustuvor vazifalar:

- qonunchilik, adolatlilik tamoyillariga asoslangan soliq mexanizmini yanada takomillashtirish;
- zamonaviy soliq xizmati idoralari faoliyatini izchillik bilan olib borish;
- soliq va soliqqa tortish sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashning samarali mexanizmini yaratish;
- mamlakatda soliq nazariyasi asoslarini ishlab chiqish va muvaffaqiyat bilan amaliyotga joriy etish;
- soliq to'lovchilarda yuqori soliq madaniyatini qaror toptirishdan iboratdir.

Soliq menejmentiga ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitlarning tahlili uning maqsadli tizim ekanligini ko'rsatadi. Soliq menejmentining uslubiy-amaliy jihatdan murakkabligi, soliqlarning bir vaqtning o'zida iqtisodiy-moliyaviy, siyosiy-huquqiy va ijtimoiy hodisa ekanligi bilan belgilanadi. Tizim sifatida soliq menejmenti soliq sub'ektlaridan turli byudjetlarga majburiy va qaytimsiz to'lovlar ko'rinishidagi pul oqimini rejalashtiradi, muvofiqlashtiradi va uning nazoratini uyushtiradi.

Soliq menejmentining bosh maqsadi turli sub'ektlar va aholiga davlat tomonidan qonunga asoslangan holda joriy etilgan soliqlar va soliq rejimi vositasida ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotning samarali rivojlanishini ta'minlashga qaratilgandir.

11.2. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda daromadlar va ularni soliqqa tortilishining tahlili

Soliq kodeksi va «Yuridik shaxslarning daromadi (foydas) ga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida yo'riqnomaga muvofiq respublikamizda quyidagi yuridik shaxslardan tashqari barcha tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar foyda solig'ini to'laydilar:

- Maxsus Yo'riqnomaga asosan daromad (foyda) solig'ini to'lovchi xorijiy yuridik shaxslar.
- Yagona soliq to'lovchi hisoblangan mikrofirmalar va kichik korxonalar.
- Asosiy faoliyati bo'yicha yalpi daromaddan soliq to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari.
- Asosiy faoliyati bo'yicha yagona er solig'ini to'lovchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtiruvchi korxonalar.

Korxonalarining investitsiyalarini daromad (foyda) solig'iga ta'siri ushbu soliqqa doir ko'rsatkichlarning shakllanishida yorqin namoyon bo'ladi. Ularni hisoblash tartibi respublikamizda Soliq Kodeksi, "Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda oxirgi moliyaviy natijalarni

shaklantirish” to‘g‘risida nizom⁵, shuningdek daromad (foyda) solig‘ini hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash to‘g‘risidagi yo‘riqnoma bilan belgilangan.

Foyda solig‘i to‘lagunga qadar bo‘lgan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) korxonalarining alohida faoliyat turlaridan, shu jumladan investitsiya faoliyatidan, olingan daromad va xarajatlar summalarining farqidan iborat bo‘ladi. Investitsiyalardan olingan daromadlarning alohida turlari, jumladan, quyidagi guruh daromadlarda va ularni aks ettiruvchi schyotlarda o‘z aksini topadi.

Daromadlarning guruhlari	Investitsiya faoliyati bo‘yicha alohida guruhlariga kiruvchi daromadlar va ularni schyotlarda aks ettirilishi
1. Sotishdan olingan daromadlar	<ul style="list-style-type: none"> ■ O‘zi ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarni ta‘sis badali, qarz sifatida boshqa korxonalariga investitsiya qilishdan olingan daromadlar. Ushbu daromadlar : Debet 0600 “Investitsiyalar hisobi schyotlari” Kredit 9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar” yozuvi bilan aks ettiriladi. ■ Tovarlarini ta‘sis badali, qarz sifatida boshqa korxonalariga investitsiya qilishdan olingan daromadlar. Ushbu daromadlar: Debet 0600 “Investitsiyalar hisobi schyotlari” Kredit 9020 “Tovarlarini sotishdan olingan daromadlar” yozuvi bilan aks ettiriladi. ■ Ishlar va xizmatlarni ta‘sis badali, qarz sifatida boshqa korxonalariga investitsiya qilishdan olingan daromadlar. Ushbu daromadlar: Debet 0600 “Investitsiyalar hisobi schyotlari” Kredit 9030 “Bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar” yozuvi bilan aks ettiriladi.
2. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar	<ul style="list-style-type: none"> ■ Materiallar, nomoddiy aktivlarni, tugallanmagan kapital qurilish ob‘ektlarini, o‘rnatishga mo‘ljallangan jihozlarni ta‘sis badali, qarz sifatida boshqa korxonalariga investitsiya qilishdan olingan daromadlar. Ushbu daromadlar: Debet 9220 “Boshqa aktivlarning chiqimi” Kredit 9320 “Boshqa aktivlarning chiqimidan olingan foyda” yozuvi bilan aks ettiriladi.
	<ul style="list-style-type: none"> ■ Asosiy vositalarni ta‘sis badali, qarz sifatida boshqa korxonalariga investitsiya qilishdan olingan daromadlar. Ushbu daromadlar: Debet 9210 “Asosiy vositalarning chiqimi” Kredit 9310 “Asosiy vositalarning chiqimidan olingan foyda” yozuvi bilan aks ettiriladi. ■ Tugallanmagan kapital qurilish ob‘ektlarini inventarizatsiyasida aniqlangan ortiqchalar. Ushbu daromadlar:

⁵ «Маҳсулотлар (иш, хизматлар) ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда охириги молиявий натижаларни шакллантириш тўғрисида низом». ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сон қарори билан тасдиқланган.

	<p>Debet 0810 “Tugallanmagan qurilish”</p> <p>Kredit 9390 “Boshqa operadion daromadlar” yozuvi bilan aks ettiriladi.</p> <p>■ Kapital investitsiyalarga doir kreditorlik va depo-nentlik qarzlarning voz kechilishidan olingan daromadlar. Ushbu daromadlar:</p> <p>Debet 6010 “Ta’minotchilar va pudratchilarga to’lanadigan schyotlar”, 6720 “Deponentlashtirilgan ish haqi”</p> <p>Kredit 9360 “Kreditorlik va deponentlik qarzlarning voz kechilishidan olingan daromadlar” yozuvlari bilan aks ettiriladi.</p>
3. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	<p>■ Investitsiya faoliyatidan dividendlar ko’rinishida olingan daromadlar. Ushbu daromadlar:</p> <p>Debet 4840 “Olinadigan dividendlar”</p> <p>Kredit 9520 “Dividendlar ko’rinishidagi daromadlar” yozuv bilan aks ettiriladi.</p> <p>■ Investitsiya faoliyatidan foizlar ko’rinishida olingan daromadlar. Ushbu daromadlar:</p> <p>Debet 4830 “Olinadigan foizlar”</p> <p>Kredit 9530 “Foizlar ko’rinishidagi daromadlar” yozuvi bilan aks ettiriladi.</p> <p>■ Qimmatli qog’ozlarni qayta baholashdan olingan daromadlar. Ushbu daromadlar:</p> <p>Debet 0610 “Uzoq muddatli qimmatli qog’ozlar”, 5810 “Qisqa muddatli qimmatli qog’ozlar”</p> <p>Kredit 9560 “Qimmatli qog’ozlarni qayta baholashdan olingan daromadlar” yozuvlari bilan aks ettiriladi.</p>
4. Favquloddagi foyda	<p>■ Tabiiy ofatlar, qonunlarning o’zgarishi va inqilobiy o’zgarishlar natijasida vujudga kelgan moddiy aktivlar ko’rinishidagi va voz kechshgan kreditorlik qarzlari sifatidagi favquloddagi daromadlar. Bunday daromadlar moddiy akgivlarni va kreditorlik qarzlarni aks ettiruvchi schetlarning debetida va 9710 “Favquloddagi foyda” schyotining kreditida aks ettiriladi.</p>

Tayyor mahsulot, tovarlar ishlar va xizmatlarni ta’sis badali sifatida kiritishdan ko’rilgan foyda va zararlarni bevosita yuqorida keltirilgan buxgalteriya yozuvlari orqali aniqlab bo’lmaydi. Buning uchun sotishdan olingan daromadlar schyotlarining (9010-9030) krediti bo’yicha investitsiyaga doir sotish hajmiga kiritilgan operatsiyalar summasidan sotish tannarxi schyotlarining (9110-9130) debetida yozilgan sotish tannarxiga kiritilgan investitsiyalarning haqiqiy tannarxdagi summasini ayirish lozim. Agar 9010-9030-schyotlarning kreditiga yozilgan investitsiyalardan olingan daromadlarning summasi 9110-9130-schyotlarning debetiga yozilgan investitsiyalarning tannarxidan qayta bo’lsa, bu tayyor mahsulotlar, tovarlar, shilar va xizmatlarni investitsiya qilishdan olingan foqda summasini, aksinchasi esa ushbu investitsiyadan ko’rilgan zararni ko’rsatadi.

Soliqqa tortiladigan daromad (foyda)ning shakllanishida soliq solish bazasiga qayta qo‘shiladigan, soliq solish bazasidan hisobot yilda chegirib tashlanmaydigan va chegirib tashlanadigan, shuningdek boshqa soliq turini (dividend solig‘ini) ob‘ekti hisoblangan olingan dividendlar va foizlar xam katta rol o‘ynaydilar. Aynan ushbu hisob ob‘ektlari summasiga hisob foydasi va imtiyozlarsiz soliqqa tortiladigan foyda ko‘rsatkichlari bir-biridan farq qiladi. Bu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlar summasida investitsiyalar va investitsiya faoliyatiga doir xarajatlar ham o‘z aksini topadi. Jumladan, soliq solish bazasiga qayta qo‘shiladigan xarajatlar tarkibiga «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida nizom» ning 1-ilovasiga muvofiq investitsiyalar va investitsiya faoliyatiga doir quyidagi xarajat va zararlar ham kiritiladi:

- *Materiallarni, nomoddiy aktivlarni, tugallanmagan kapital qurilish ob‘ektlarini, o‘rnatishga mo‘ljallangan jihozlarni ta‘sis badali, qarz sifatida boshqa korxonalariga investitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar (tannarxdan past baholar bo‘yicha investitsiya qilinganda va investitsiyaga doir QQS korxonada hisobidan to‘langanda);*

- *Asosiy vositalarni ta‘sis badali sifatida boshqa korxonalariga investitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar (korxonada 3 yildan kam muddatda tadbirkorlik faoliyatida ishlatilgan asosiy vositalar bo‘yicha). 3 yildan ko‘p muddatda korxonada tadbirkorlik faoliyatida ishlatilgan va keyinchalik investitsiya sifatida kiritilgan asosiy vositalar bo‘yicha ko‘rilgan zararlar soliq solish bazasiga qayta qo‘shilmaydi.*

- *Tayyor mahsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni investitsiya sifatida kiritishda korxonada hisobidan hisoblangan QQS summasi.*

- *Tugallanmagan kapital qurilish ob‘ektlarini inventarizatsiyasida aniqlangan va korxonada hisobidan qoplangan kamomadlardan ko‘rilgan zararlar.*

- *Kapital qurilish, qarz va kredit shartnomalarini buzish hollari uchun hisoblangan va to‘langan jarimalar.*

- *Tugallanmagan kapital qurilish ob‘ektlarini bepul berishdan ko‘rilgan zararlar.*

- *Qimmatli qog'ozlarni sotishdan ko'rilgan zararlar.*

Yangi barpo etilayotgan korxonalarda qurilish direksiyasini saqlash, unga doir boshqaruv tizimini shakllantirish, yangi yaratilayotgan ish joylari uchun xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek «Xarajatlar tarkibi to'g'risida nizom»ning 2-ilovasida keltirilgan boshqa xarajatlar yuz bergan hisobot davrida 21-son BHMS ga asosan 9440 «Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davrining xarajatlari» schyotida aks ettiriladi. Hisobot yili oxirida ushbu schyotning debetida to'plangan summa 9900 «Oxirgi moliyaviy natija» schyotiga yopiladi. Bir vaqtning o'zida 9900 «Oxirgi moliyaviy natija» schyotiga o'tkazilgan summa balansdan tashqari 012 «Kelgusi davrlarda soliq solish bazasidan chegiriladigan xarajatlar» schyotiga olib boriladi (uning kirim qismiga kiritiladi).

Soliq kodeksi va daromad (foyda) solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga, shuningdek 21-son BHMS ga muvofiq ushbu xarakterdagi xarajatlar yuz bergan hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydi, balki kelgusida ushbu xarajatlarni iqtisodiy manfaat keltirish muddati davomida yoki 10 yil ichida (ularni qaysi birining muddati qisqa bo'lsa, o'sha muddatgacha) bir maromda soliq solish bazasidan chegirilib boriladi. Soliq bazasidan chegirilib tashlanadigan summa 012 «Kelgusi davrlarda soliq solish bazasidan chegiriladigan xarajatlar» schyotining chiqimiga olib boriladi. SHunday qilib, 012 «Kelgusi davrlarda soliq solish bazasidan chegiriladigan xarajatlar» schyotida qolgan qoldiq kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan summani ko'rsatib turadi.

Soliqqa tortiladigan daromad (foyda)ni topishda korxonaning investitsiya faoliyatidan olingan dividend va foizlar ko'rinishidagi daromadlar ham chegirib tashlanadi.

Dividend - korxonalarining boshqa ho'jalik yurituvchi sub'ektlarning aksiyalari bo'yicha hisoblangan, shuningdek ularni ustav kapitalidagi ta'sis badalini hissasiga ko'ra taqsimlanadigan foydadan olingan daromad. Foizlar - depozit schyotlarga qo'yilgan pul mablag'lari, shuningdek qarz va kredit sifatida kiritilgan investitsiyalar bo'yicha hisoblangan daromad.

Soliq qonunchiligiga muvofiq dividend va foizlar ko‘rinishidagi daromadlar soliqqa tortiladi. Ushbu soliq dividend yoki foiz to‘lovchi korxonalar tomonidan ushlab qolinishi va byudjetga o‘tkazib berilishi lozim. Dividend yoki foiz to‘lovchi korxonalar dividend yoki foiz ko‘rinishidagi daromadlarni oluvchi korxonaga hisoblangan va ushlab qolingani soliq to‘g‘risida quyidagi shaklda ma’lumotnoma taqdim etadilar:

Davr	Jami hisoblangan dividend (foiz)	Dividend (foiz)dan ushlangan soliq	To‘lanadigan dividend (foiz)

Dividend va foiz ko‘rinishidagi daromadlar ularni oluvchi korxonalarda hisoblash tamoyiliga muvofiq e‘lon qilingan kundan (tasdiqlovchi hujjatni olgan kundan) boshlab, dividend va foizlarni qachon kelib tushishidan qati nazar, hisobga olinishi lozim.

Dividendlar uni berayotgan korxonaning ustav kapitaliga qo‘shimcha ta’sis badali sifatida qoldirilsa yoki uning qo‘shimcha aksiyalarini sotib olishga yo‘naltirilsa, u holda ushbu dividendlar olingan deb hisoblanadi, lekin soliq qonunchiligiga muvofiq 15% stavkali soliqqa tortilmaydi. Qo‘shimcha ta’sis badali sifatida qoldirilgan yoki qo‘shimcha aksiyalarni sotib olishga yo‘naltirilgan dividendlar summasi tegishli hujjatlar bilan (ustav, ta’sis shartnomasi, kelishuv bayonnomalari, schyot-faktura va boshqalar) tasdiqlanishi lozim.

Moliyaviy qo‘yilmalardan dividend va foizlar ko‘rinishidagi daromadlarni hisoblanishi, ulardan soliqlarni ushlanishi, shuningdek ularga doir boshqa operatsiyalar 21-son BHMSga muvofiq buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Operatsiyaning mazmuni	Debet	Kredit	Asos	Summa
1. Dividend va foizlarni oluvchi korxonalarda				
Hisoblangan dividend summasiga	4840	9520	Ma’lu-motnoma	500000
Hisoblangan foizlar summasiga	4830	9530	Ma’lu-motnoma	200000
Dividend va foizlarning kelib tushishi	5110	4830, 4840	Bank ko‘chirmasi	700000

	Dividendlarni ta'sis badali sifatida qol-dirilishi	0620-0690	4840	Ta'sis shartnoma-si	500000
	Dividend hisobidan yangi aksiyalarning sotib olinishi	0610 5810	4840	SHartnoma, schyot-faktura	500000
	Hisoblangan foizlarni depozit schyotlarda, yangi qarz va kredit sifatida qoldirilishi	0600 5800	4830	SHartnoma	200000
2. Dividend va foizlarni beruvchi korxonalarda					
	Dividendlarni hisoblanishi	8710	6610	Ma'lu-motnoma	575000
	Dividenddan 5% soliqning ushlanishi	6610	6410	Hisob-kitob	75000
	Foizlarning hisoblanishi	9610	6920	SHartnoma	230000
	Foizlardan 5% soliqning ushlanishi	6920	6410	Hisob-kitob	30000
	Dividend va foizlar-ning o'tkazib berilishi	6610 6910	5110	Bank ko'chirmasi	700000
	Dividend va foizlar bo'yicha 5% soliqning byudjetga o'tkazilishi	6410	5110	Bank ko'chirmasi	105000
	Dividendlarning kapitallashuvi	6610	8310 8320 8340	SHartnoma	575000
	Olingan foizlarning qarz va kredit sifatida qoldirilishi	6910	6820 7820	SHartnoma	200000

Soliq qonunchiligi jismoniy shaxslarning investitsiyalardan dividend va foizlar ko'rinishida olingan daromadlar bo'yicha 5% lik soliqni ushlash va byudjetga o'tkazib berishning mas'uliyatini ushbu daromadlarni to'lovchi korxonaga yuklagan. Dividend va foizlardan to'lanadigan 5% lik daromad solig'i byudjetga dividend va foizlar to'lovi amalga oshirilgan oydan keyingi oyning 5 sanasidan kechiktirilmay o'tkazib berilishi lozim. Bundan tashqari dividend va foizlarni to'lovchi korxonalar moliyaviy yil tugagach, 30 kun ichida soliq idorasiga va o'zining investorlariga yuqorida keltirilgan shakldagi ma'lumotnomani taqdim etishlari lozim.

Korxonalarining daromad (foyda) solig'ini hisoblashda soliqqa tortiladigan daromad (foyda) summasidan soliq qonunchiligida belgilab qo'yilgan imtiyozlar, shu jumladan investitsiyaga doir imtiyozlar, chegirib tashlanadi.

Daromad (foyda) solig'ini hisoblashda soliqqa tortiladigan daromad (foyda) summasidan chegirilib tashlanadigan investitsiyalar bo'yicha imtiyozlar

faqat kapital investitsiyalarga taalluqli bo'lib, ular davlatning korxonalariga o'z moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, shuningdek Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq maktablar, akademik litseylar va kollejlarni qurishga xususiy va kreditga olgan mablag'larini sarflagani uchun bergan yordami hisoblanadi.

Soliq qonunchiligiga ko'ra kapital investitsiyalarga sarflangan xususiy va kreditga olingan mablag'lar hisobot yilida hisoblangan eskirish summasini to'liq ishlatgan holda, lekin soliqqa tortiladigan daromad (foyda)ning 30%dan ortiq bo'lmagan miqdorida soliq solish bazasidan chegiriladi. Imtiyozlarni hisoblashda xususiy mablag'lar evaziga qiling'an kapital investitsiyalar bo'yicha haqiqatda sarflangan xarajatlar, kreditga olingan mablag'lar evaziga qilingan kapital investitsiyalar bo'yicha esa olingan kreditlarni haqiqatda qaytarilgan qismi (kreditlar bo'yicha bankka to'langan foizlardan tashqari) asos qilib olinadi.

11.3. Korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatiga soliqlarning ta'siri

Ishlab chiqarish jarayonlarining tezlashuvi, korxonalar iqtisodiy faolligining oshishi nuqtai nazaridan soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'siri ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'ladi. Korxonalarda xo'jalik yuritishning moliyaviy barqarorligi va samaradorligi soliq'larga qay darajada bog'liqligi, soliqlar korxonada qabul qilinadigan moliyaviy qarorlarni qanchalik darajada belgilashi mumkinligi kabi savollarga javob izlash kerak bo'ladi.

Soliqlar qanday manbadan, qanday bazadan, qanday miqdorlarda va qaysi vaqtda undirilishidan qati nazar ular albatta korxonaning u yoki bu moliyaviy natijalarini o'zgartiradi. Soliqlarning to'liq, o'z vaqtida va hech qanday noroziliksiz to'lanishi uchun birinchi navbatda soliqqa tortish mexanizmining naqadar to'g'ri va adolatli tashkil qilinishiga bog'liq bo'ladi. Soliqqa tortish tizimining adolatliligini avvalo yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning davlat, korxonalar va aholi o'rtasida qanday nisbatda taqsimlanayotganligida ifodalanadi.

Yuridik shaxslar faoliyatiga soliqlar ta'sirini o'rganishda asosiy mezon bo'lib soliq yuki hisoblanishi mumkin.

$$\mathbf{Syu = (St/Sb)* 100\%}$$

Bu yerda Syu - soliq yuki, foizda

St — soliq to'lovlari, ming so'mda

Sb - soliq bazasi, ming so'mda

Soliq yukining yuqori bo'lishi ishlab chiqarish hajmini chegaralaydi, tadbirkorlikka rag'batlarni susaytiradi va ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan intilishni yo'qotadi. Bunday sharoitda korxonalar soliqdan qochishga harakat qilishadi.

Soliqlarning korxonalar moliyaviy natijalariga ta'siri nuqtai nazaridan soliq yukini ifodalovchi to'rtta ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish mumkin:

$$\mathbf{Syu1 = ((QQS+Ak+...)/(Mst)) * 100\%}$$

$$\mathbf{Syu2 = ((Ssuv+Smulk+Sekol+Anf)/(Tn)) * 100\%}$$

$$\mathbf{Syu3 = ((Sfoйда+Bsа)/(Fs)) * 100\%}$$

$$\mathbf{Syu4 = ((Ds)/(Ihf)) * 100\%}$$

Bu yerda:

Syu1, Syu2, Syu3, Syu4 — mos ravishda bilvosita soliqlar, tannarxga kiritiluvchi soliqlar, foyda (daromad)dan olinuvchi, ishlovchilar ish haqidan daromad soliqlari yuki, foizda.

QQS - qo'shilgan qiymat solig'i,

Ak - aksizlar,

Ssuv - suv resurslaridan foydalanganlik uchun,

Smulk - yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq,

Sekol – ekologiya solig‘i,
Anf - nobyudjet fondlarga ajratmalar,
Sfoida - daromad (foyda) solig‘i,
Bsa - foyda (daromad) dan boshqa soliq va ajratmalar,
Ds - ishlovchilar daromadidan soliq va to‘lovlarning miqdorlari,
Mst - mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum,
Tn - mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari,
Fs - soliqqa tortiluvchi foyda (daromad),
Ihf - ishlovchilarning ish haqi fondi.

Iste‘mol soliqlari yoki egri soliqlar hisoblanuvchi qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini ko‘rib chiqamiz. Ma‘lumki, iste‘molchilarga nisbatan soliqlarni pasaytirish ularning tovarlarga talabini oshiradi. Iste‘molga soliqlarni kamaytirish faqat barqaror va yuqori iste‘mol mavjud bo‘lgandagina iste‘molni oshira olmaydi. QQSning bir necha ijobiy tomonlari mavjud. Uni korxonalar yakuniy moliyaviy natijasiga neytral deb hisoblaydilar va undirilish darajasi yuqori. Ishlab chiqarishning har bir bosqichida undirilganligi sababli byudjetga uzluksiz daromadlar kelishini ta‘minlaydi. SHunga qaramay, hozirgi vaqtda QQS korxonalar moliyaviy holatiga ancha ta‘sir ko‘rsatmoqda. Masalan, korxonada QQSdan ozod qilingan bo‘lsa yoki ozod qilingan tovar ishlab chiqarsa sotib olingan barcha xom-ashyo va resurslar uchun to‘langan QQSni hisobga olish huquqiga ega bo‘lmaydi va uni ishlab chiqarish tannarxiga kiritadi. Natijada korxonada rentabelligi pasayib, foyda miqdoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday holda korxonada QQSdan ozod etilishga yoki imtiyozli tovar ishlab chiqarishdan manfaatdor bo‘lmaydi. Bu turdagi korxonalar oraliq mahsulotlar ishlab chiqarsa, bu tovarlarni umumiy tartibda soliq to‘lovchi korxonalar sotib olishi qiyin bo‘ladi. CHunki QQSdan ozod korxonada hisob-fakturaga QQSsiz deb yozib beradi, umumiy tartibda soliq to‘lovchi korxonada esa sotib olingan tovarlarning butun aylanmasidan QQS to‘lashiga to‘g‘ri keladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ida soliq solish ob‘ekti bo‘lib tovarlarning sotilish buyicha aylanmalar hisoblanadi.

Korxonalar manfaatlari nuqtai-nazaridan soliqlarning obektga yoki bazaga qanday nisbatda bo'lishi ko'p narsani anglatmaydi, ammo soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini qanday o'zgartirishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish va sotish (muomala) xarajatlari tarkibiga kiritiluvchi soliqlar ham korxonalar ixtiyorida qoluvchi foyda hajmlariga ta'sir etadi. Bu xarajatlar tarkibiga kiritiluvchi soliqlarga quyidagilar kiradi:

- YUridik shaxslar mol-mulk solig'i
- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
- YUridik shaxslar uchun er solig'i
- Ekologiya solig'i
- Majburiy ajratmalar (yul fondi, bandlik fondi, nafaqa fondi, kasaba uyushmalari federatsiyasiga)

Bu soliqlar keyingi vaqtlarda to'g'ri yoki egri soliqlarga tarkibiga kiritilmasdan resurs to'lovlari deb nomlanmoqda. Bu guruh soliqlarning xususiyati shundaki, korxonada foyda olishi yoki olmasligidan qat'iy nazar ular to'lanishi lozim (xuddi egri soliqlardek). Hozirgi iqtisodiy sharoitda ular egri soliqlarga yaqindir, ammo soliq yukiga ta'siri bevositadir, chunki korxonada foyda olmagan taqdirda ham, ular o'zgarishsiz byudjetga to'lanadi va ularning ba'zida zarariga ishlashiga, aylanma mablag'larning kamayishiga ham olib kelishi mumkin. Byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar ham soliq yukiga jiddiy ta'sir qiladi. Bular ham davr xarajatlarida hisobga olinganligi sababli, korxonaning foydasi shakllanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda soliq yukini engillashtirish bo'yicha muntazam choralar ko'rilmoqda. Ilgarilari korxonada foydasidan qat'i nazar, tovar aylanmasidan 3,2 foiz miqdorida davlat maqsadli jamg'armalariga ajratma to'lab kelingan. Bu soliq yuki korxonada daromadining kamida 21 foiziga teng bo'lib, ularning raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishiga xalal berardi. Bu tarzda muammolarni bartaraf etish, soliq yukini kamaytirish va chinakam bozor iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

2019 yildan boshlab soliq turlari 19 tadan 15 tagacha qisqardi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 14 foizdan 12 foizgacha, dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha foyda solig'i stavkasi 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirildi.

Tovar aylanmasidan ajratma to'lash tartibi ham bekor qilinishi natijasida yirik korxonalar o'z ixtiyorida 5 trillion so'mdan ortiq mablag'larni saqlab qoladi. Bunday engilliklar tufayli Xalqaro valyuta jamg'armasi soliq tizimining isloh etilishini O'zbekistonning eng katta yutuqlaridan biri deb e'tirof etdi.

2019 yil 1 yanvardan boshlab, xodimlar sonidan qat'i nazar, tovar aylanmasi 1 milliard so'mdan yuqori bo'lgan sub'ektlar umumbelgilangan soliq to'loviga o'tdi. Soliq tizimida norasmiy faoliyatni legalizasiya qilish bo'yicha bir qator yangiliklar kiritildi. Jumladan, foyda solig'i 14 foizdan 12 foizga tushirilib, tadbirkor faqat daromad olsagina to'lanishi belgilandi. Norasmiy bandlikni kamaytirish maqsadida ish haqidan 30 foizgacha olinadigan daromad solig'i o'rniga yagona 12 foizlik soliq turi kiritildi va 8 foizlik sug'urta badali umuman bekor qilindi. Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirildi. SHuningdek, Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari ham 30 foizga pasaytirildi.

Nazorat uchun savollar:

1. Soliq menejmentining mohiyatini ta'riflang.
2. Soliq menejmenti jarayonini tushuntiring.
3. Soliq menejmentiga ta'sir etuvchi omillarni sanang.
4. Soliq yukining korxonada xo'jalik faoliyatiga ta'sirini tushuntiring.
5. Daromadlar va ularni soliqqa tortilishining boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ta'sirini tushuntiring.

Testlar

1. Soliq tizimini rivojlantirishdagi ustuvor vazifalar

A) qonunchilik, adolatlilik tamoyillariga asoslangan soliq mexanizmini yanada takomillashtirish;

B) zamonaviy soliq xizmati idoralari faoliyatini izchillik bilan olib borish;

V) soliq va soliqqa tortish sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashning samarali mexanizmini yaratish;

G) barcha javoblar to'g'ri.

2. Soliqqa tortish maqsadlarida hisobga olinadigan sotishdan daromadlarga kiritilmaydi

A) o'zi ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarni ta'sis badali, qarz sifatida boshqa korxonalariga investitsiya qilishdan olingan daromadlar;

B) tovarlarni ta'sis badali, qarz sifatida boshqa korxonalariga investitsiya qilishdan olingan daromadlar;

V) ishlar va xizmatlarni ta'sis badali, qarz sifatida boshqa korxonalariga investitsiya qilishdan olingan daromadlar;

G) olinadigan dividendlar.

3. Ishlab chiqarish va sotish (muomala) xarajatlari tarkibiga kiritilmaydigan soliqlar

A) yuridik shaxslar mol-mulk solig'i;

B) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

V) yuridik shaxslar uchun er solig'i;

G) foyda solig'i.

4. To'lanadigan foyda solig'i miqdoriga ta'sietadilar

A) soliqqa tortiladigan daromad (foyda)ning shakllanishida soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar;

B) soliq solish bazasidan hisobot yilda chegirib tashlanmaydigan va chegirib tashlanadigan xarajatlar;

V) boshqa soliq turining (dividend solig'ining) ob'ekti hisoblangan olingan dividendlar va foizlar;

G) barcha javoblar to'g'ri.

XII BOB. KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISH

12.1. Korxonada qimmatli qog'ozlar portfeli tushunchasi, uni boshqarishning mazmuni

Bozor munosabatlari rivojlangan sharoitida boshqalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar qimmatli qog'ozlar portfeli tashkil etadi. Bunday investitsiyalarning maqsadi korxonada moliyaviy resurslarini oqilona harakatlantirib, korxonada oladigan foydani ko'paytirishdir.

Qimmatli qog'ozlar portfeli boshqarish murakkab jarayon bo'lib, u o'z tarkibiga bir qator bosqichlarni oladi. Qimmatli qog'ozlar portfeli boshqarish deganda qimmatli qog'ozlar portfeli shakllantirish, uning tarkibini tahlil qilish va tartibga solish, zarur likvidlik darajasi va xarajatlarni minimallashtirishni ta'minlash, portfel oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur choratadbirlarini amalga oshirish tushuniladi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog'ozlar sotib olish quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

- kapital qiymati qadrliligini saqlash;
- qo'shimcha foyda olish;
- qimmatli qog'ozlar kursining oshishi evaziga kapitalni ko'paytirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida qimmatli qog'ozlar yana qator boshqa maqsadlarda ham sotib olinadi. Bunday maqsadlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qimmatli qog'ozlar sotib olish yo'li bilan mulkiy huquqlarga ega bo'lish, muayyan mahsulot va xizmatlarga erishish;
- muomala shartlariga ko'ra naqd pulning o'rnini bosa oladigan va ayni paytda daromad ham ketiradigan qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- mulki ta'sir doirasini kengaytirish va uni qayta taqsimlanishida ishtirok etish;
- qimmatli qog'ozlar kurslari o'zgarishlari asosida chayqovchilik qilish va h.k.

Portfelning likvidligi qimmatli qog'ozlar portfeli to'raligicha yoki uning muayyan qismi kurs qiymatini yo'qotmagan holda pulga yoki boshqa qimmatli qog'ozlarga almasha olishidir.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog'ozlarning o'ndan ortik turlari mavjud bo'lib, ularning ayrim turlari o'z navbatida, turli shartlar asosida muomalaga chiqarilgan xar xil shakllarga bo'linishi mumkin. Quyidagilar qimmatli qog'ozlarning asosiy turlari tashkil etadi: aksiya, veksel, fyuchers shartnoma, obligatsiya, davlat xazina majburiyatlari, opsiyon, varrant, banklarning jamg'arish va depozit sertifikatlari, konosament, mulkiy varaqa (masalan, uy-joy olish huquqini beruvchi qimmatli qog'oz).

Aksiya – bu aksiyadorlik jamiyatiga mablag' qo'yganlikni tasdiqlovchi va uning egasiga dividend shaklida aksiyadorlik jamiyati (korxonasi) daromadining bir qismini olish huquqini beradigan qimmatli qog'ozdir. Aksiyalar muomalaga harakat etishi belgilanmagan muddatga chiqariladi.

Obligatsiya – bu egasi pul mablag'larini o'tkazganligini tasdiqlaydigan va belgilangan ma'lum muddatga, qat'iy foiz to'lov bilan chiqarilgan qimmatbaho qog'ozdir. Obligatsiya belgilangan ma'lum muddatga chiqariladi.

Davlat xazina majburiyatlari - davlat qimmatbaho qog'ozlari turi bo'lib, ular investorlar keng doirasida ixtiyoriy ravishda joylashtiriladi. Davlat xazina majburiyatlari quyidagi muddatlarda muomalaga chiqariladi:

- uzoq muddatli;
- o'rta muddatli;
- qisqa muddatli.

Uzoq muddatli xazina majburiyatlari 5 yildan 25 yilgacha bo'lgan muddatga chiqariladi. O'rta muddatli xazina majburiyatlari 1 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga chiqarilsa, qisqa muddatlilar 3, 6 va 12 oy muddatga chiqariladi.

Banklarning jamg'arma va depozit sertifikatlari. Banklarning jamg'arish sertifikatlari bu depozit va u bo'yicha foizlarning belgilangan muddati tugashi bilan omonatchi tomonidan olinishi huquqini tasdiqlaydigan yozma guvohnomadir. Jamg'arish sertifikatlari jismoniy shaxslarga muljallangan.

Banklarning depozit sertifikatilari bu yirik nominaldagi muddatli sertifikatlaridir. Ular asosan xo'jalik yurituvchi su'ektlar uchun mo'ljallangan.

Veksel - bu muddat vaqt etib kelganda veksel beruvchining ma'lum bir summani veksel egasiga to'lashi to'g'risidagi qat'iy pul majburiyatini tasdiqlaydigan qimmatbaho qog'ozdir. Veksellar oddiy va ko'chiriladigan bo'lishi mumkin.

Varrant – (ingliz tilidan olingan bo'lib, warrant–vakolat, ishonchqog'oz) ikki usulda qo'llanishi mumkin. Birinchidan, varrant - bu muddatsiz yoki ma'lum bir muddatga qayd etilgan narxda qimmatbaho qog'ozlarni egasiga sotib olish huquqini beradigan sertifikatni bildiradi. Ba'zan, varrant qimmatbaho qog'ozlar bilan birgalikda ularni sotib olish uchun takdim etiladi. Ikkinchidan varrant bu ma'lum bir tovar saqlashga qabul qilinganligi haqidagi tovar omborining guvohnomasi hisoblanadi. U tovarning oldi-sotdi va garovga qo'yishda ishlatiladi. Varrant nomli va taqdim etiluvchi shakllarda bo'lishi mumkin.

Konosament – bu aniq belgilangan tovarga mulk huquqini beradigan qimmatbaho qog'oz. Konosament – dengizda tashib o'tish shartnomasi shartlarini o'zida aks ettiradigan transport hujjati bo'lib uning egasiga yukdan foydalanish huquqini beradigan hujjat hisoblanadi. Konosamentning mazmuni, uning belgilari tuzish shartlari savdo dengiz suzuvi Kodeksida belgilangan.

Opsion - ma'lum bir narxda ilgari qayd etilgan kunda yoki kelishilgan davr mobaynida ma'lum bir aktivni (qimmatbaho qog'ozni, valyutani va h.k.ni) sotib olish yoki sotish huquqini (xaridor uchun) va majburiyatni (sotuvchi uchun) topshirish haqida ikkitomonlama shartnoma (kontrakt).

Opsion uch turga bulinadi:

- sotib olingan narsaga opsion yoki opetsion koll (call) – aksiyalarni, valyutani, boshqa aktivlarni xaridorlarga sotib olish huquqini (lekin majburiyatni emas) beriladi;
- sotuvga bo'lgan opsion yoki opsion put (PUT) aksiyalarni valyutani, boshqa aktivlarni sotishga xaridorga imkoniyat (lekin majburiyat emas) beradi;

- qo'sh opsiyon yoki opsiyon stallej aksiyalarni, valyutani bazis narxida yoki sotib olish, yoki sotish imkoniyatini (lekin bir vaqtning o'zida ham sotib ham sotib olish imkoniyatini emas) opsiyonning egasiga beradi.

Opsionda uning muddati ko'rsatiladi. Opsiionning muddati ma'lum bir kun yoki vaqt davrdan iborat bo'lib, u o'tganidan so'ng opsiyon kuchini yo'qotadi. Opsiionning ikki xili mavjuddir:

- Evropacha;
- Amerikacha.

Evropacha stilga ko'ra opsiondan faqat qat'iy belgilangan muddatda foydalanilishi mumkin. Amerikacha stilda esa undan opsiyon muddati chegarasida istalgan paytda foydalansa bo'ladi.

Opsiion o'zining kursiga egadir. Opsiionning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unga ko'ra oldi-sotdi bitimida sotib oluvchi mulkining (ya'ni aksiyaning) o'zini sotib olmasdan, balki uni sotib olish huquqini sotib oladi. Opsiionning oldi-sotdi bitimi kontrakt deb ataladi.

Fyuchers – kelishuvi paytida mo'ljallangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini belgilaydigan muddatli birja kontraktidir. Fyuchers kontrakti mexanik xarid bilan tugatilishi shart emas. Bu yerda, dastlab birinchi xaridor sotuvchi bilan ma'lum bir summaga kontrakt tuziladi. Bunda kontrakt qimmatbaho qog'oz hisoblanadi va butun ishlatilish davri mobaynida ko'p marta sotilishi va sotib olinishi mumkin.

Mulkiy varaqa – turar joyga egalik qilish huquqini tasdiqlaydigan hujjat.

Qimmatli qog'ozlar va ularning ishonchliligi haqida gap ketganda xalkaro amaliyotda maxsus reyting agentliklari va tashkilotlari qimmatli qog'ozlarni chukur tahlil asosida guruhlara bo'lishadi. Masalan. Qimmatli qog'ozlar «oliy sifatli», «yuqori sifatli», «o'rtadan yuqori sifatli», «o'rta sifatli» va h.k guruhlarga bo'linishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning investitsion sifati likvidlik darajasi xamda daromad keltirish qobiliyati va kursi qiymati barqaror bo'lgan sharoitdagi risk (xatar) holati kabi omillarni baholash asosida belgilanadi.

Ma'lumki, qimmatli qog'ozlar risk (xatar)i qancha past bo'lsa, uning likvidlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Lekin risk (xatar) darajasi past bo'lgan qimmatli qog'ozning daromad keltirish kobiliyati xamda aksariyat hollarda yuqori bo'lmasligi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar portfeli bilan bog'liq, bo'lgan risk (xatar)lar. Kapital risk (xatar)i qimmatli qog'ozlar qo'yilgan barcha mablag'lar uchun umumiy risk (xatar) bo'lib, u zarar ko'rmasdan kapitalni qaytarib olishning real imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Fond bozorida yirik tanazzullar ro'y berish paytlarida (masalan, 1998 yilda Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya, Indoneziya, Malayziya va h.k. davlatlarda) kapital riski (xatari) ayniqsa yaqqol ro'yobga chiqadi. Kuchli o'zgarishlar ro'y berishi bilan bog'liq risk (xatar) natijasida qimmatli qog'ozlar chiqarilishi, qayta ruyxatga olinishi bekor qilinishi, uning shartlari tubdan o'zgarishi mumkin. Natijada ementet va investor qo'shimcha xarajatlar qilish va moddiy yo'qotishlarga duchor bo'lishi mumkin.

Vaqt bilan bog'liq risk (xatar) – qimmatli qog'ozni sotib olish yoki sotish uchun noqulay vaqt tanlangan holatlarda yuz beradi. Qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olishga mavsumiylik yoki takror ishlab chiqarish sikllarining ta'siri o'ta seziladi.

Tanlash risk (xatar)i – qimmatli qog'ozlarning serdaromad vva ishonchli turlarini tanlay olmaslik holati bilan bog'liq bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar investitsion sifatilarini to'g'ri baholay olmagan vaziyatda tanlash risk (xatar)i ruy beradi.

Likvidlik risk (xatar)i – qimmatli qog'ozlar investitsion sifatini baholash o'zgarishi sharoitida uni sotishdan ko'rilgan zarar bilan o'lchanadi.

Inflyasion risk (xatar) - yuqori inflyasiya sur'atlarida investorlarning qimmatli qog'ozlardan oladigan daromadlari tezroq qadrsizlanishi risk (xatar)idir. Jahon amaliyotida inflyasion risk (xatar)ni pasaytirishning juda ko'p usullari bo'lishiga qaramasdan inflyasiyaning yuqori darajadaliligi qimmatli qog'ozlar bozorini buzib yuborishi allaqachon aniqlangan.

Valyuta risk (xatar)i – valyuta risk (xatar)i valyuta almashinuvi kurslarga o‘zgarishi natijasida valyuta qiymatbaho qog‘ozlariga qilingan qo‘yilmalar bilan bog‘liq bo‘lgan risk (xatar)dir.

Regional risk (xatar) - bir yoki ikki turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hududlar farovonligining shu mahsulotlar narxining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan risk (xatar). Mamlakatda yoki alohida regionlarda siyosiy va iqtisodiy separatizmga bog‘liq holda xatarlar vujudga kelishi mumkin.

Tarmoqlar risk (xatar)i – iqtisodiyoti tarmoqlarining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq risk (xatar). SHunga ko‘ra barcha tarmoqlarni bir necha guruhlariga ajratish mumkin:

- a) siklik tebranishlarga ta’sirchan tarmoqlar;
- b) siklik tebranishlarga kamroq ta’sirchan tarmoqlar;
- c) barqaror ishlayotgantarmoqlar;
- d) tezda o‘sib boryotgan yosh tarmoqlarga.

Kredit risk (xatar)i – qimmatli qog‘ozlarni chiqargan emitent chiqarilgan qiymatbaho qog‘ozlar bo‘yicha foizlar yoki asosiy qarzning qaytara olmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan risk (xatar).

Foiz risk (xatar)i – bozordagi foiz stavkalarinining o‘zgarishi natijasida investorlarnining zarar ko‘rishi bilan bog‘liq bo‘lgan risk (xatar). Ma’lumki, bozor foiz darajasinining o‘sishi qimmatli qog‘ozlar kurs qiymatining pasayishiga olib keladi.

Bozor risk (xatar)i – bozor umumiy faoliyatining pasayishi sababli qiymatbaho qog‘ozlar narxining pasayishi natijasida investorlarning zarar ko‘rishi.

Mamlakat risk (xatar)i – investorlarnining ijtimoiy va iqtisodiy nomustahkam davlatlarda joylashgan korxonalariga sarmoya qilish risk (xatar)i.

Korxonalar risk (xatar)i – tarmoqlar risk (xatar)iga o‘xshash. SHu bilan birgalikda bu risk (xatar)ning risk (xatar)ning o‘zgarishiga korxonaning faoliyati ham ta’sir qiladi. Bunga mos ravishda korxonalarni konservativ, agressiv va ularning har ikkalasini birgalikda qo‘llaydigan «oqilona» korxonalariga bo‘lishi mumkin.

Qaytarib olish risk (xatar)i – qaytarib olish huquqiga ega bo‘lgan obligatsiyalar bo‘yicha to‘lanadigan foizlar darajasining bozoridagi foizlar darajasidan oshganligi sababli emitentning zarar ko‘rish risk (xatar)i.

Qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarish. Qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarish bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab operatsiyalardan iborat bo‘lib, ularning qay biri qachon va qaysi shartlar bilan qo‘llanishi, portfelni kim va qanday maqsadlarda boshqarishi bilan belgilanadi. Qimmatli qog‘ozlar portfelini uning egasi yoki egasining topshirig‘iga ko‘ra boshqa shaxs tomonidan boshqarilishi mumkin.

Biz quyida portfelni uning egasi tomonidan boshqarilish jarayonida sodir bo‘ladigan operatsiyalarining asosiylari bilan tanishtirib o‘tamiz. Portfelni uning egasi topshirig‘i bo‘yicha boshqa shaxs boshqarganda ham shu operatsiyalarning aksariyati bajariladi. Boshqarishning ikkala usuli mazmunan bir-biridan keskin farq kilmaydi. Ularning farqi operatsiyalarni amalga oshirish shaklida bo‘ladi. YA’ni, portfel egasi hamma vaqt o‘z nomidan ish ko‘radi, ikkinchi usulida esa alohida shaxs uning topshirig‘i bo‘yicha boshqaruv operatsiyalarini bajaradi.

Bu operatsiyalar fond bozori konyunkturasini o‘rganish va prognoz qilish, konunchilik haqida ma’lum yig‘ish, qimmatli qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar bo‘yicha uslubiy va me’yoriy hujjatlar tayyorlash, kasbiy tayyorlash, portfel umumiy strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, portfelni boshqarishni nazorat qilish, qimmatli qog‘ozlarni baholash, dividend siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi muhim chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’kidlanganidek, moliyaviy qo‘yilmalar o‘z ichiga korxonalar, tashkilot va davlatning qimmatli qog‘ozlariga va boshqa korxonalar, tashkilotlarning ustav kapitaliga qo‘yilmalarni oladi.

Moliyaviy menejment xar xil ko‘rinishdagi qimmatli qog‘ozlarning qiymatini baholaydi va tahlil etadi. Qimmatli qog‘ozlar nominalidan yuqori bahoda sotilsa, korxonaning foydasi ortadi, agar qimmatli qog‘ozlar arzonga narxga sotilsa, unday holda korxonaning foydasi kamayadi yoki zarar ko‘riladi.

Moliyaviy menejerning asosiy vazifasi alohida olingan qimmatli qog'ozlarning daromadlilikini va shu bilan birga investitsiya portfelining (aksiyalar, obligatsiya va depozitli sertifikatlar) o'rtacha daromadlilikini aniklashdan iboratdir.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar daromadliliigi darajasining nisbiy miqdor sifatida olib karash lozim. Qimmatli qog'ozlarning daromadliliigi muqobil daromad bilan, mablag'lar boshqa tarzda yo'naltirilganda olinishi mumkin bo'lgan daromad bilan taqqoslanadi. Muqobil daromad sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilab qo'ygan qayta moliyalash darajasini olish mumkin. Qimmatli qog'ozlardan daromadlar tahlilida inflyasiyani ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Aksiyalarning daromadliliigi aksiya kursi deb nom olgan ko'rsatkichda ifodalanadi:

Dividend

$$\text{Aksiya kursi} = \frac{\text{qayta moliyalash darajasi}}{\text{yoki o'rtacha foiz darajasi}} \times 100$$

Foizlar to'lanmaydigan obligatsiyalar kursi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Obligatsiya kursi} = \frac{\text{obligatsiya bahosi}}{\text{obligatsiya nominal qiymati}} \times 100$$

Foizlar obligatsiya muddatining oxirida to'lab beriladigan obligatsiyaning daromadliliigi quyidagicha aniklanadi:

$$Q = \frac{1 + R}{\sqrt[n]{K : 100}} - 1$$

Bu yerda: Q - daromadlilik darajasi;

R - obligatsiya uchun belgilangan jami daromadning obligatsiya nominal qiymatiga nisbati (obligatsiya butun muddati uchun jami foiz koeffitsienti);

K - obligatsiyani sotib olish bahosining uning nominal qiymatiga nisbati (foiz);

n –obligatsiyaning muomalada bo‘lish muddati.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonada veksellarni sotib olish va sotishdan, depozit sertifikatlariga qo‘yilmalardan, davlat xazina majburiyatlarini sotib olishdan daromadlar olishi mumkin.

Xar bir davr uchun moliyaviy qo‘yilmalardan daromadlar ularni qo‘lga kiritish uchun qilingan real xarajatlar bilan taqqoslab boriladi.

12.2. Investitsiyaning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholashning zarurligi va ahamiyati

Investitsiya samaradorligini baholash juda muhim jarayon hisoblanib, u o‘z ichiga texnik-iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va baholashni qamrab oladi. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash orqali mablag‘larni samarali joylashtirish yo‘llarining eng optimalini tanlash mumkin.

Har qanday investitsiya loyihasini baholashning mazmuni bugungi xarajatlarni loyihadan olinadigan daromadlar oqlaydimi? - degan savolga javobtopishdan iboratdir. Biroq, bu savol shunchalik oddiy bo‘lishiga qaramasdan, agar diqqat bilan ko‘rib chiqilsa, uning ko‘plab qirralari ochiladiki, ba’zan unga bir xil ma’nodagi javobni topish juda mushkul.

Har qanday investitsiya loyihasi, garchi u ko‘pgina ijobiy tavsiflarga ega bo‘lsada, unga qo‘yilgan mablag‘lar, ya’ni qilingan investitsiya xarajatlari loyiha mahsulotini (ish, xizmatni) sotishdan kelgan daromadlar bilan qoplanmasa, ko‘rilgan foyda darajasi ko‘zda tutilgan darajada bo‘lmasa, u amalga oshirilmay qoladi.

Investitsiya loyihalarini tahlil qilish va baholashdan asosiy maqsad, aynan ko‘zda tutilgan natijalarga erishishni realligini baholashdir.

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda loyihadan ko'riladigan daromadning ko'pligiga, mehnat resurslarining kam sarflanishiga, loyihaning amalga oshirish muddatining qisqaligiga, loyiha bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatiga, bozorda tutgan o'rniga, shuningdek, xarajatlarning to'g'ri olib borilishigako'proq e'tibor beriladi. SHu bilan birga, baholashda pul oqimini to'g'ri ishlatilishi va nazorat qilinishi ham katta ahamiyatga ega. Bunda kapital xarajatlarni erni ijaraga olish, u yerda bino va inshootlar qurish, mashina va jixozlar yaratish yoki sotib olish, mutaxassislar tayyorlash kabi ishlarga sarflanishi, joriy xarajatlar esa, xom ashyo va materiallar sotib olish, suv, energiya, mehnat va boshqa resurslarga sarflanishi e'tiborga olinadi hamda daromadlar asosiy faoliyatdan keladigan daromadlar, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, royalti, davlatning obligatsiyalari orqali keladigan daromadlarga e'tibor qaratiladi. Investitsiya loyihalarini turli usullar bilan baholash mumkin, lekin barcha usullarda eng asosiy e'tibor loyihalarning daromadlilik darajasi xamda ko'riladigan foydaning xajmini aniqlashga qaratiladi.

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda aniq natijalarga erishish, ya'ni loyihalashtirishni yakunlash, bozorga chiqish va unda o'z o'rnini mustahkamlash, belgilangan foydaga erishish, qilingan investitsiya xarajatlarini qoplash kabi natijalarga erishish uchun belgilangan muddat ham ayniksa muhimdir. SHuningdek, baholashda ilmiy-tadqiqot va konstruktorlikishlarining samaradorligi ham hisobga olinadi. Buning muhimligi shundan iboratki, tadqiqot va ilmiy izlanishlar ishining qisqa bo'lishi bir tomondan mablag'larning kam sarflanishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan nisbatan kam muddatda loyiha amalga oshirilib, bozorga ertaroq yangi mahsulot olib chiqiladi va hech bo'lmaganda, qisqa muddat ichida korxonada ushbu mahsuloti bilan bozorda monopol mavqega ega bo'lishi mumkin.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda yirik ishlab chiqarish vamolliya korporatsiyalari ana shunday modellardan foydalanadilar. SHuningdek, bunday modellardan investitsiya loyihalarini o'rganuvchi va samaradorligini aniqlovchi turli maslahatchi firmalar ham foydalanadilar.



CHet el mamlakatlarining tajribasini, shu bilan birga YUNIDO (United Nations Industrial Development Organization) tavsiyalarini hisobga olgan holda investitsiya samaradorligini baholash ikki mezon asosida, ya'ni moliyaviy va iqtisodiy baholash orqali amalga oshiriladi. Investitsiya samaradorligini baholashning bu ikkala mezoni ham bir-birini to'ldirib turadi.

Moliyaviy baholash investitsiyani amalga oshirish jarayonidagi likvidligini tahlil qilishda ishlatiladi. Boshqacha aytganda, **moliyaviy baholash** vazifasi, loyihani belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun, uning jami moliyaviy

majburiyatlarini bajarishga korxonaning etarli moliyaviy resurslari bo'lishini belgilashdir.

Iqtisodiy baholash esa, investitsiyaning potensial qobiliyati, shu loyihaga qo'yilgan mablag'larning qiymatini saqlab qolishda va ularning o'sishi sur'atini etarli darajasini yaratib berishda foydalaniladi.

Taqdim etilayotgan ob'ektni investitsiyalashda moliyaviy baholash (yoki moliyaviy asoslanganlik bahosi) investitsiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Investor moliyaviy holati noma'lum bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan hech qanday munosabatlar olib bormaydi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, korxonalar moliyaviy hisobotlarini ommaviy-axborot vositalari orqali yoki har xil to'plamlar holatida chop etilib, e'lon qilish normal holat hisoblanadi. Bu to'plamlar orqali kompaniyalarning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin. Quyidagi rasmda har bir mezon bo'yicha asosiy aniqlash usullari keltirilgan:

Jahon amaliyotida investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini baholashning bir qancha usullari ishlab chiqilgan bo'lib, ularni shartli ravishda ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

- Oddiy (yoki statistik) baholash usullari;
- diskontlashga asoslangan baholash usullari.

Birinchi guruhga quyidagilar kiradi:

- investitsiya qoplash muddati (Payback Period , PP);
- investitsiya samaradorligi koeffitsienti (Accounting Rate of Return, ARR).

Ikkinchi guruhga quyidagilar kiradi:

- sof joriy qiymatni aniqlash usuli (NetPresentValue, NPV);
- foydaningichki me'yorini hisoblash usuli (Internal Rate of Return, IRR);
- investitsiyalarning rentabelligini hisoblash usuli (Profitability Index, PI);

- diskontlashning qoplash muddatini hisoblash usuli (Discount Payback Period, DPP).

12.3. Investitsiyaning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning oddiy (an'anaviy) usullari

Investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini baholashda qo'llaniladigan qoplash muddati va rentabellik darajasi usullari ham avvaldan ma'lum bo'lib, ular milliy va chet el amaliyotida to'p pul tushumlarining diskontlanishiga asoslangan usullarning keng qo'llanilishiga qadar asosiy ko'rsatkichlar sifatida amal qilib kelgan. Ushbu usullarning soddaligi va tushunarliigi va maxsus iqtisodiy bilimga, ko'nikmaga, malakaga, tayyorgarlikka va tajribaga ega bo'lmagan xodimlar o'rtasida ham qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari salohiyatli qarz oluvchilarga investitsion resurslarni taqsimlash shartlarini ma'lum qilishda, odatda, ushbu ikkita usuldan, ya'ni qoplash muddati va rentabellik darajasi ko'rsatkichlaridan foydalanmoqdalar.

Investitsiyalarning qoplash muddatini hisoblash usuli pul oqimlarini diskontlashga asoslangan usullardan farqli ravishda investitsiyalarning nominal miqdorda qaytarilishi mumkin bo'lgan davrni aniqlashga xizmat qiladi. SHunga ko'ra, bu usul investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar hisobiga qilingan investitsiya sarflarini qoplash davrini aniqlashga asoslangan. Qoplash muddatini aniqroq tushunadigan bo'lsak, bu loyihani yakunlash davridagi yoki undan olingan daromad investitsiyalar summasiga teng bo'lgandagi davrga tengdir.

Uni hisoblash formulasi quyidagichadir:

$$PP = \frac{I_0}{CF_t^{(\Sigma)}}$$

bu yerda, I_0 - boshlang'ich investitsiyalar; $CF_t^{(\Sigma)}$ - investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olingan yillik pul tushumi summasi. U sof foydani yoki yillik daromad (D) va harajat (X) o'rtasidagi (amortizatsiyasiz A) farqni ifodalaydi.

Misol. Faraz qilaylik, investitsiya loyihasi uchun 140 mln.so‘m miqdorida investitsiyalash ko‘zda tutilmoqda va loyihani amalga oshirish jarayonida olinadigan pul tushumlari miqdori yillar bo‘yicha quyidagini: birinchi yilda – 37750 ming so‘m, ikkinchi yilda – 42390 ming so‘m, uchinchi yilda-47430 ming so‘m, to‘rtinchi yilda – 51140 ming so‘m va beshinchi yilda 60030 ming so‘mni tashkil etadi. Bunda qoplanish muddati (PP) necha yilga teng ekanligini aniqlang?

Bunda uch yillik pul tushumlari yig‘indisi boshlang‘ich investitsiyalar miqdoridan kichik, ya‘ni yil 127570 ming so‘mni tashkil etadi. To‘rt yil bo‘yicha katta (178710 ming so‘m) ekanligini hisobga olsak, investitsiyalarning aniq qoplanish muddati investitsiya loyihasining to‘rtinchi yilgi faoliyatiga bog‘liqligini ko‘ramiz. Uch yillik olingan daromadlarning (127570 ming so‘m) boshlang‘ich investitsiyalardan (140 mln. so‘m) farqi 12 430 ming so‘mni tashkil etishini hisobga olsak (140 000 ming – 127 570 ming), ushbu qoldiq summaning to‘rtinchi yilda olingan daromadlarga nisabti uning qoplanish muddatini ko‘rsatadi, ya‘ni $12\,430 \text{ ming} / 51\,140 \text{ ming} = 0,24$ koeffitsientni, yil hisobida esa 2 oy-u 28 kunni (3 yil+2 oy-u 28 kun) tashkil etishini hosil qilamiz. SHunday qilib, investitsiya loyihasining qoplash muddati, ya‘ni loyihani amalga oshirishdan olinadigan tushumlarning qilingan harajatlarni qoplash vaqti hisoblanadi.

Ikkinchi yondashuvda qoplash muddatini aniqlashda investitsiyalarning boshlang‘ich summasi yillik tushumlarning (o‘rtacha yillik) miqdoriga bo‘linadi. Bu ko‘rsatkich pul tushumlari yillar bo‘yicha teng bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi.

Investitsiyalarning buxgalteriya rentabellik darajasi (ARR) yoki foydaning oddiy me‘yori (ROI) buxgalteriya hisoboti ma‘lumotlariga asoslangan holda aniqlanadigan o‘rtacha daromadni investitsiyalarning o‘rtacha yillik hajmiga bo‘lish orqali aniqlanadi. Bunda hisob-kitob ishlari foizlarni va soliqlarni to‘lamasdan avvalgi foyda miqdoriga asoslanib amalga oshirilishi mumkin yoki u soliqlarni to‘lagandan keyingi, lekin foiz to‘lovlarigacha bo‘lgan daromadga asoslanadi. Eng yaxshisi soliq to‘langandan keyingi sof foyda miqdori tanlab olinganligi afzalroqdir. CHunki u korxonada ta‘sischilari va investorlar oladigan haqiqiy foydani ifodalaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$ARR = \frac{D(1 - C_c)}{(C_a^b - C_a^0)/2}$$

bu yerda, D - foiz va soliq to'lovlarigacha yoki soliq to'lanib, foizlar to'langungacha bo'lgan daromad; S_s - soliq to'lash stavkasi; S_a^b , S_a^0 -aktivlarning ko'rib chiqilayotgan davriga bo'lgan boshlang'ich va oxirgi summasi, qiymati.

Misol. Faraz qilaylik, investitsiya loyihasi uchun 140 mln so'm harajat qilingan, loyihani amalga oshirish jarayonida olinadigan sof foyda miqdori yillar bo'yicha quyidagiga: birinchi yil – 3350 ming so'm, ikkinchi yil – 10990 ming so'm, uchinchi yil – 15480 ming so'ng, to'rtinchi yil – 21640 ming so'm va beshinchi yil – 22790 ming so'mni tashkil qilsa, u holda foydaning oddiy me'yori (ROI) qanday hisoblanadi?

Bu loyiha bo'yicha olinadigan sof foyda yillar bo'yicha o'zgaruvchan bo'lganligi sababli, avvalom bor o'rtacha yillik foydani hisoblab topamiz.

$$R_{ch} = (3350 + 10990 + 15480 + 21640 + 22790) \text{ ming so'm} : 5 =$$

$$74250 \text{ ming so'm} : 5 = 14850 \text{ ming so'm}$$

SHundan so'ng foydaning oddiy me'yorini (ROI) hisoblaymiz:

$$ROI = 14850 \text{ ming so'm} : 140000 \text{ ming so'm} = 10,6 \%$$

Bu foyda me'yori investor talab qilgan me'yorni beradi. SHuning uchun bu loyihaning jalb etuvchanligi to'g'risida, ya'ni uni ma'qullash mumkin.

Bu usullar asosiy afzalliklari shuki, hisob-kitob ishlarining oddiyligi va qulayligidir. Kamchiliklari esa kelgusi pul tushumlarining qiymatini joriy vaqtga nisbatan hisobga olinmasligidadir.

12.4. Investitsiyaning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini

baholashning diskontlashga asoslangan usullari

Har qanday loyihaning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan baholanishi pul oqimlari haqidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Pul oqimlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib investitsiya loyihasining samaradorligini baholash mumkin emas.

Investitsiya loyihasini baholash loyihani amalga oshirishdan oldin bajarilishi sababli, pul oqimlari haqidagi ma'lumotlar ham oldindan rejalashtiriladi. Loyiha samaradorligini baholashda pul oqimlarini rejalashtirish va ularni hisobga olish jarayoni asosiy o'rinni egallaydi va investitsiya loyihalarining haqiqiy samaradorligini aniqlashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Diskontlash usuli (noan'anaviy usul)ning mazmuni shundan iboratki, pul mablag'larining qiymati muayyan vaqtda bir xil emasligi, ya'ni bugungi bir so'm bir yildan keyingi bir so'mga (iste'mol qiymati bo'yicha) teng emasligi konsepsiyasiga asoslanadi. Diskontlashga asoslangan usullarning barchasi (sof joriy qiymatni aniqlash usuli (Net Present Value, NPV), foydaning ichki me'yorini hisoblash usuli (Internal Rate of Return, IRR), investitsiyalarning rentabelligini hisoblash usuli (Profitability Index, PI), diskontlashning qoplash muddatini hisoblash usuli (Discount Payback Period, DPP)da investitsiya loyihalarining muayyan davrdagi barcha kirim va chiqimlarning o'rtasidagi farq – sof pul oqimi (Cash Flow – CF) aniqlanib, diskontlashtirish yo'li bilan hisoblanadi. Binobarin, diskontlashga asoslangan usullarning mohiyatini tushunish uchun avvalo, korxonada pul oqimlarining mazmunini va sof pul oqimini aniqlash formulasini bilib olishimiz kerak bo'ladi.

Korxonada pul oqimlari asosan quyidagilardan tashkil topadi:

- operatsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (4-shakl, 050-qator);
- investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (4-shakl, 100-qator);
- moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (4-shakl, 180-qator).

Buni quyidagicha 2-rasm orqali tasvirlash mumkin:

12.1.-jadval.

Korxonada pul oqimining xarakteristikasi⁶.

Korxonada faoliyati turi	Foyda (kirim)	Xarajatlar (chiqim)
--------------------------	----------------	---------------------

⁶ А.Узоқов, Э.Носиров, Р.Саидов, М.Султонов. Инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш ва уларнинг мониторинги. Ўқув қўлланма.-Т.: “Иқтисод-молия”, 2006.90- бет.

Investitsiya faoliyati	a) asosiy vositalarni sotish. b) nomoddiy aktivlarni sotish. v) uzoq va qisqa muddatli investsiyalarni sotish. g) oborot kapitalining kamayishi hisobiga tushumlar	a) kapital qo'yilmalar. b) nomoddiy aktivlarni sotib olish. v) oborot kapitalining o'sishi hisobiga harajatlar. g) uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish.
Operatsion faoliyat	a) mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'i. b) operatsion faoliyat ning boshqa pul tushumlari.	a) material tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari. b) xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari. v) operatsion faoliyat ning boshqa pul to'lovlari.
Moliyaviy faoliyat	a) aksiyalar chiqar-ishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instru mentlardan kelgan pul tushumlari. b) olingan foizlar va dividendlar. g) moliyaviy faoliyat ning boshqa pul tushumlari, shu jumladan qarzlar bo'yicha pul tushumlari	a) xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari. b) to'langan foizlar va dividendlar. v) uzoq va qisqa muddat li kreditlar va qarz lar bo'yicha to'lovlar. g) lizing bo'yicha to'lov lar. d) moliyaviy faoliyat ning boshqa to'lovlari.

Pul tushumlari va chiqimlarini tahlil etish investitsiya loyihalarini baholashda juda muhim sanaladi. Investorlarni boylikni o'stiruvchi tushumning qanchaligi, pul mablag'lari kirimi va chiqimigina qiziqtirmasdan, balki korxonaning byudjet oldidagi majburiyatlardan holi bo'lgandagi, ya'ni soliqlarni to'lagandan keyingi qoladigan natija (foyda) qiziqtiradi.

Buni quyidagi ko'rinishdagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\Pi_T = C_T - (X - A) - T_f - T_c$$

bu yerda, P_t - pul tushumlari; S_t - sotishdan olingan tushum;

X -harajatlar yig'indisi (joriy harajatlar); A - amortizatsiya ajratmasi;

T_f, T_c - to'langan foizlar va soliqlar.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya loyihalarining sof pul oqimini topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

+ Sotishdan tushgan tushum

– Joriy xarajatlar

– Amortizatsiya

– Kredit uchun foiz

$$\begin{aligned}
& - \text{Boshqa doimiy xarajatlar} \\
& \hline
& = \text{Soliqqa tortiladigan baza} \\
& - \text{Foyda (daromad) solig'i} \\
& \hline
& = \text{Korxonada qoladigan foyda (sof foyda)} \\
& + \text{Amortizatsiya} \\
& \hline
& = \text{Korxonaning sof pul oqimi (Cash Flow – CF)}^7.
\end{aligned}$$

Investitsiya loyihalarining samaradorligini diskontlash asosida baholash usullari har qanday investitsiya loyahasining daromadlilikini, samaradorligini, foydaliligini hamda ularning jalb etuvchanligini aniqlab bera oladi. Lekin ayrim hollarda investitsiya loyihalarini baholashda barcha usullarni qo'llash zaruriyati bo'lmasligi ham mumkin. Bu usullarning qo'llanilishi tahlil qilinayotgan har bir loyihaning o'ziga xos jihati va xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Loyihaning jalb etuvchanligini baholash usullari uning barcha xususiyatlarini ochib bera olmasa ham, loyihaning haqiqiy samaradorligini aniqlashda asosiy xizmat vazifasini o'taydi.

Sof joriy qiymat (NPV) - investitsiyalash ob'ektidan foydalanish davrida oldindan qat'iy belgilangan va o'zgarmas foiz stavkasida olinadigan daromadlar va qilinadigan harajatlarning alohida muayyan davrdagi barcha kirim va chiqimlarning diskontlashtirilishi yo'li bilan olingan va ular o'rtasidagi farqni ifodalovchi qiymat. Uning mohiyati shundaki, yillik sof pul oqimi miqdori har bir davr uchun loyihani amalga oshirishning boshlang'ich yiliga keltiriladi va u oqibatda o'zini pul miqdorida sof joriy qiymat yoki sof diskontlashtirilgan daromad sifatida namoyon etadi.

Uni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$\begin{aligned}
NPV &= \frac{CF_1}{(1+d)^1} + \frac{CF_2}{(1+d)^2} + \dots + \frac{CF_t}{(1+d)^t} - I_0 \\
\text{ёku}NPV &= \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+d)^t} - I_0
\end{aligned}$$

⁷Староверова Г.С., Медведев А.Ю., Сорокина И.В. «Экономическая оценка инвестиций» М.:КНОРУС, 2009г. С.-65

bu yerda, NPV- sof joriy qiymat; d - diskontlash stavkasi; I_0 - boshlang'ich investitsiya; SG'_t - t davr oxirida kelib tushgan pul oqimi.

Misol. Biron – bir investitsiya loyihasi uchun 140 million so‘m investitsiya qilish talab etiladi va undan kutiladigan natija yillar bo‘yicha 18, 40, 75 va 80 mln. so‘mni tashkil etdi.

O‘zgarmas sharoitda doimiy diskont stavkasi – 11%.

U holda,

$$NPV = \left[\frac{18}{(1+0,11)} + \frac{40}{(1+0,11)^2} + \frac{75}{(1+0,11)^3} + \frac{90}{(1+0,11)^4} \right] - 140 = \\ = (16,2 + 32,5 + 54,8 + 52,7) \text{млн сум} - 140 \text{млн сум} = (156,2 - 140) \text{млн сум} = 16,2 \text{млн сум}$$

Agar investitsiya loyihasi yillar davomida moliyaviy resurslarning ketma-ket investitsiyalanishi talab etsa, u holda NPV ni hisoblash quyidagicha bo‘ladi:

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+d)^t} - \sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+d)^t},$$

Bu yerda, I_t - t davridagi investitsiyalar sarfi. NPV ni hisoblashda, odatda, doimiy stavka (d) qo‘llaniladi. Ammo ba’zi bir vaziyatlarda, masalan, hisob (foiz) stavkasining o‘zgarishi kutilayotgan paytda yillar bo‘yicha individual diskontlash stavkasidan foydalanish mumkin. Bu esa o‘z navbatida hisob-kitob ishlarini murakkablashtiradi.

Diskont stavkasi me‘yori kapital bozoridagi uzoq muddatli ssudalar bo‘yicha foiz stavkasiga yoki ssuda oluvchi tomonidan to‘lanadigan foiz stavkasiga, haqiqatda, teng bo‘lishi kerak. Boshqacha so‘z bilan aytganda, diskont me‘yori investorning o‘zi uchun undan pasti samarasiz deb hisoblangan minimal foyda me‘yori bo‘lishi kerak.

Investitsiya loyihalarini sof joriy qiymat usuli asosida baholashdan olingan natija, ya’ni sof joriy qiymat ijobiy miqdorga ega bo‘lsa ($NPV > 0$), u holda investitsiyalarning rentabelligi diskont miqdoridan yuqori bo‘ladi, $NPV = 0$ holatda loyiha rentabelligi diskont stavkasiga (minimal qoplash me‘yoriga) teng bo‘ladi, agar $NPV < 0$ bo‘lsa, loyiha rentabelligi minimal miqdordan past bo‘ladi.

Birinchi ikki holatda investitsiya loyihasini amalga oshirish mumkin. Bunda birinchisi investor kapitalining o'sishi ta'minlanishini ko'rsatsa, ikkinchisi ko'paymasligini ham, kamaymasligini ham bildiradi. Uchinchi holatda esa loyihadan kutiladigan daromadni olish imkonini bermaydi.

Sof joriy qiymat usuli boshlang'ich investitsiya miqdorining, ya'ni investor boyligining qanchalik o'sishini miqdoriy jihatdangina ko'rsata oladi, holos.

Lekin, investitsiyalashning naqadar samaradorligini aniqlashda miqdoriy o'zgarishlar va natijalarning o'zi etarli bo'lmaydi.

SHuning uchun investitsiyalarning qanday nisbiy o'sishga ega ekanligi va uning o'sish darajasini aniqlash uchun iqtisodiy baholashning boshqa usullaridan foydalanishga to'g'ri keladi.

Foydaning ichki me'yor usuli (IRR) - bu pul tushumlarining diskont qiymati pul chiqimlarining diskont etavkasiga teng bo'lgandagi daromadlilik darajasi yoki bo'lmasa loyihadan olingan sof tushumlarning diskontlangan qiymati investitsiyalarniig diskontlangan qiymatiga, sof joriy qiymat esa nolga teng bo'lgandagi diskont me'yoridir. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun sof joriy qiymatni aniqlashda ishlatilgan formuladan foydalaniladi va sof joriy qiymat nolga tenglashadigan minimal foiz stavkasi topiladi. Aynan shu foiz stavkasi foydaning ichki me'yor usuli deb nomlanadi. Bu usul iqtisodiyotda rentabellikning ichki me'yor, qoplash yoki samaradorlik koeffitsienti, kapital qo'yilmalarning chegaraviy samaradorligi deb ham yuritiladi.

Foydaning ichki me'yorini aniqlash vazifasi birmuncha qiyin bo'lib, investitsiyalarning bir yoki undan ko'p marta amalga oshirilishiga, loyihadan olingan pul tushumlarining, xech bo'lmasa, bir marta yoki boshida salbiy bo'lishligiga va ushbu pul tushumlarining miqdoran bir xil bo'lmasligiga asoslanadi.

Uni hisoblash formulasini quyidagi tenglamada ifodalash mumkin:

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+d)^t} - I_0 = 0$$

Agar investitsiya loyihasi bir necha yillar davomida moliyaviy resurslarning ketma-ket moliyalanishini talab etsa, unda (IRR)ni quyidagi formulada ifodalash mumkin:

$$\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+d)^t} = \sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+d)^t},$$

Bu yerda d miqdorini topish lozim bo‘ladi. Topilgan miqdor foydaning ichki me‘yori deb nomlanadi. Bu meyor sof joriy qiymat nolga teng bo‘lib, investitsiya loyihasining samaradorligini baholashda IRR miqdori qo‘llanilganida, firmaning boyligi o‘shishini ta‘minlamasligini va uning kamayishiga ham yo‘l qo‘ymasligini ko‘rsatadi.

IRR loyihadan kutilayotgan daromadlilikni ko‘rsatadi va qilinishi mumkin bo‘lgan maksimal harajatlar chegarasini belgilab beradi, ya‘ni IRR olinayotgan kredit bo‘yicha bank foiz stavkasini yuqori chegarasini ko‘rsatadi, ayni shu foiz chegarasidan yuqori miqdorga ega bo‘linganda loyiha daromad keltiradi.

SHunday holatlar ham bo‘lishi mumkinki, investorning o‘zi investitsiya loyihasini moliyalash uchun biror sub’ektdan muayyan foiz ostida kredit olishi mumkin. Bu paytda loyihadan kutiladigan natija kredit uchun foizdan, albatta yuqori bo‘lishi lozim yoki investor o‘zining maqsad qilgan foydasini olish darajasini ham bilishi kerak. Mana shu holatlar, ya‘ni kredit uchun foiz yoki foyda olish darajasi, odatda bar‘erli (to‘siqli) koeffitsient (hurdle rate) (HR) deb ham nomlanadi. Bu ko‘rsatkich foydaning ichki me‘yori bilan solishtiriladi (taqqoslanadi).

IRR va HR larni taqqoslash natijasida ular orasida quyidagi bog‘liq hosil bo‘ladi:

- ag
ar $IRR > HR$, loyiha samarali hisoblanadi va u foydalanish uchun qabul qilinadi;
- ag
ar $IRR < HR$, loyiha samarasiz (zararli) bo‘lib, uni amalga oshirib bo‘lmaydi;
- ag
ar $IRR \approx HR$, ixtiyoriy echimni qabul qilish mumkin, ya‘ni loyihani amalga

o'shirdan zarar ham, foyda ham ko'rilmaydi.

Ushbu ko'rsatkich yordamida:

- investitsiya summolari teng bo'lgan;
- davomiyligi bir xil bo'lgan;
- risk (xatar) darajasi teng bo'lgan;
- pul tushumlarining shakllanish sxemasi bir xil bo'lgan hollarda

loyihalarni foydalilik darajasi bo'yicha taqqoslash to'g'ri echim qabul qilishni engillashtiradi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, loyiha shunchalik samarali deb topiladi.

Foydaning ichki me'yorini boshqacha ko'rinishda, ya'ni interpolyasiya usuli orqali ham ifodalash mumkin:

$$IRR = d_1 + \frac{NPV_1}{(NPV_1 - NPV_2)} \cdot (d_2 - d_1),$$

bu yerda, $NPV_1 - d_1$ diskont me'yori stavkasidagi sof joriy qiymatning ijobiy miqdori; $NPV_2 - d_2$ diskont me'yori stavkasidagi sof joriy qiymatning salbiy miqdori.

Foydaning ichki me'yorini aniqlashda d_1 va d_2 ko'rsatkichlar miqdori asosiy o'rinni egallaydi. Ularning ta'siri natijasida sof joriy qiymatning o'zgarishini va buning oqibatida esa foydaning ichki me'yori ham o'zgarishini kuzatish mumkin. SHunga ko'ra:

- d_1 – bu NPVning ijobiy qiymatini minimallashtiruvchi foiz stavkasi;

d_2 – bu NPVning salbiy qiymatini maksimallashtiruvchi foiz stavkasi hisoblanadi.

Investitsiyalarniig rentabelligi usuli (RI) - diskontlashtirilgan daromadlarning diskontlashtirilgan investitsiya harajatlariga nisbatini hisoblab topishga asoslangan. Bu qanday holatda investor boyligi o'sishi mumkinligini ko'rsatib beradi va quyidagicha aniqlanadi:

$$PI = \left[\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(I + d)^t} \right] / I_0$$

bu yerda I_0 - boshlang'ich investitsiyalar, $SG-t$ davrda olingan pul tushumlari.

Investitsiya rentabelligi ko'rsatkichi firma (yoki investor) mablag'lari 1 so'm hisobida qanday hollarda o'sishini aniqlash imkonini beradi.

Agar investitsiya sarflari turli davrlarda (uzoq amalga oshirilsa, (RI)ni aniqlash formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$PI = \left[\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+d)^t} \right] / \left[\sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+d)^t} \right],$$

bu yerda, I_t - t yildagi investitsiyalar.

Investitsiyalarning rentabelligi va sof joriy qiymat ko'rsatkichlarini taqqoslama baholash shuni ko'rsatadiki, sof joriy qiymati o'sishi bilan investitsiyalar rentabelligi ham o'sadi va aksincha.

Agar rentabellik ko'rsatkichi «1»ga teng yoki undan kichik bo'lsa, loyiha rad etilishi kerak, chunki u qo'shimcha foyda keltirmaydi.

NPV=0 da investitsiyalarning rentabelligi hamisha 1ga teng bo'ladi.

Oddiy bo'lib ko'rinishiga qaramasdan, loyihalarning rentabelligini aniqlash muammosi muayyan qiyinchiliklar bilan bog'liqdir. Bu hol, ayniqsa, investitsiyalar turli xil valyuta, turli xil vaqtda, ya'ni bir qancha yillar oralig'ida amalga oshirilganda uni aniqlash muammosi paydo bo'ladi.

Buni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

Misol. Faraz qilaylik, investitsiya loyihasi uchun 140 mln. so'm harajat qilingan. Investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida birinchi yil – 37750 ming so'm, ikkinchi yil 45390 ming so'm, uchinchi yil – 47430 ming so'm, to'rtinchi yil - 51140 ming so'm va beshinchi yil - 60030 ming so'm pul tushumlari olinishi ko'zda tutilmoqda. Bu holda investitsiya loyihasining diskontlashgan investitsiya rentabelligi qanday hisoblanadi?

Rentabellik indeksi hisob-kitobi

T/R	Ko'rsatkichlar	Summa, ming so'm				
		1 yil	2 yil	3 yil	4 yil	5 yil
1	Pul tushumlari (oqimi)	37750	45390	47430	51140	60030
2	Diskont ko'paytiruvchi (d=7%) yoki diskontlash koeffitsienti	0,9346	0,8734	0,8163	0,7629	0,7130
3	Sof diskontli tushum (oqim) yoki joriy qiymatga keltirilgan pul oqimi.	35281,1	39643,6	38717,1	39014,7	42801,4

Bunda rentabellik indeksi quyidagiga teng bo'ladi:

$$PI = (35281,1 + 39643,6 + 38717,1 + 39014,7 + 42801,4) \text{ минг сум} : 140.000 \text{ минг сум} = 195457,9 \text{ минг сум} : 140.000 \text{ минг сум} = 1,396 \text{ ёки } \approx 1,4$$

Investitsiyalarning rentabellik ko'rsatkichi avvallari qo'llanilgan kapital qo'yilmalarning samaradorligi koeffitsientidan shunisi bilan farq qiladiki, bunda daromad sifatida baholash jarayonida joriy qiymatga keltirilgan pul oqimi qatnashadi.

Investitsiyalar rentabelligi ko'rsatkichi, nafaqat taqqoslama baholash uchun, shuningdek loyihani amalga oshirishga qabul qilishdagi mezon sifatida ham qo'llaniladi.

Investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlashning qoplash muddati usulini an'anaviy (oddiy) baholash usullaridan biri sifatida ko'rib o'tdik. Lekin mazkur usulning kelgusi davrlardagi pul tushumlarining qiymatini hisobga olmasligi uni diskontlashtirilgan usullar yordamida ham hisoblash zarurligini taqozo qiladi.

Buning uchun diskontlashtirishni hisobga olgan holda **investitsiyalarni qoplash muddatini** (DPP) hisoblash usuli diskontlashtirilgan yillik pul tushumlarini diskontlashtirilgan investitsiyalarga bo'lish orqali amalga oshiriladi.

Mazkur usulning tushunarli bo‘lishi uchun quyidagi misolni keltiramiz.

Misol. Faraz qilaylik, korxonada mehmonxonaga qurilishi uchun 300 mln. so‘m investitsiya qildi (mablag‘ sarfladi). Mehmonxonani foydalanishdan keladigan yillik pul tushumlari 85, 100, 120 va 160 mln. so‘mni tashkil etadi.

Buning uchun avval RR — investitsiyalarni qoplash muddati hisoblanadi. So‘ngra, investitsiyalarning diskontlashtirilgan qoplash muddatini (DPP) hisoblaymiz. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$DPP = \frac{I_0}{DCF^{(\Sigma)}},$$

bu yerda, I_0 – boshlang‘ich investitsiyalar; $DCF^{(\Sigma)}$ – diskontlashtirilgan yillik pul tushumlari.

Mazkur ko‘rsatkichni hisoblashda yuqorida berilgan misolga asoslanib tuzilgan quyidagi jadvalga murojaat qilamiz. Ushbu jadvalda investitsiyalarning qoplash muddati bilan birga diskontlashtirilgan qoplash muddati ko‘rsatkichining hisoblanishi keltirilgan. Ularning bir-biridan farq qilishining o‘ziga xos jihatlari ushbu ko‘rsatkichlarni aniqlash xususiyatlaridan kelib chiqadi.

12.3-jadval

Diskontlangan qoplash muddatini hisoblash

T/R	Ko‘rsatkichlar	0	1 yil	2 yil	3 yil	4 yil
1	Tushumlar, mln so‘mda.		85	100	120	160
2	Diskontlashtirilgan tushumlar, mln. so‘mda. (d=16%)		73	74	77	89
3	To‘lovlar (boshlang‘ich investitsiyalar)	300				
4	Qoplash muddati (RR)				2,96 y	
5	Diskontlashtirilgan qoplash muddati (DPP)					3,85 y

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, investitsiyalarning qoplash muddati 2,96 yilni, diskontlangan qoplash muddati esa 3,85 yilni tashkil etadi. Ularning hisoblanishi quyidagi ko'rinishga ega:

$$PP = 185.000.000 + \frac{115.000.000}{120.000.000} = 2\text{yil} + 0,96 = 2,96\text{yil}$$

yoki 2 yil, 11 oy, 15

kun.

$$DPP = \frac{I_0}{DCF^{(\Sigma)}} = 224.000.000 + \frac{76.000.000}{89.000.000} = 3\text{yil} + 0,85 = 3,85\text{yil}$$

yoki 3 yil, 10 oy,

10 kun.

Ko'rib o'tgan yuqoridagi misolga, asosan, shunday xulosa qilish mumkinki, investitsiyalarning diskontlangan qoplash muddati ularning diskontlanmagan qoplash muddatiga qaraganda biroz uzoq vaqtni, ya'ni 3 yil 10 oy 10 kunni tashkil etdi. Bu esa investitsiyalarning diskontlangan qoplash muddatining kelgusi pul tushumlari va investitsiyalarning joriy qiymatini hisobga olishi bilan izohlanadi. Demak, investitsiyalarning qoplash muddati bo'yicha hisoblash usuli qilingan investitsiyalarning joriy (real) qiymati bo'yicha to'liq qoplanish muddatini tavsiflab beradi va shu jihatdan u investitsiyalarning qoplash muddati usulidan farqli ravishda afzalroq hisoblanadi.

Investitsiyalar bir qator risk (xatar)lar bilan bog'liqdir. SHu sababli investitsiya oldi bosqichida har bir loyihaning moliyaviy va iqtisodiy jihatdan samaradorligi baholanishi talab etiladi. Bu ishlarning samarali amalga oshirilishi uchun, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. CHunki yangi texnologiyalar yordamida loyihaning samaradorligini baholash ishlari ham sifatli, ham tezkor ravishda amalga oshirilishiga erishish mumkin. Hozirgi kunda amaliyotda investitsiya loyahasining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun, asosan, TEO – INVEST axborot texnologiyalari dasturidan foydalanilmoqda. TEO – INVEST – bu loyihalarni moliyalashtirish va ularni samaradorligini tahlil qilish uchun kompleks dasturiy ta'minot bo'lib hisoblanadi. Mazkur dasturiy ta'minot orqali investitsiya loyihalari moliyaviy va iqtisodiy

jihatdan tahlil qilinadi hamda ularning iqtisodiy samaradorligi an'anaviy va diskontlashga asoslangan usullar asosida baholanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Qimmatli qog'oz nima va uni kaysi turlarini bilasiz?
2. Qimmatli qog'oz portfeli nima va uni boshqarishning qanday xususiyatlarini bilasiz?
3. Qimmatli qog'ozlar portfeli bilan bog'liq bo'lgan qanday xatarlarni bilasiz?
4. Qimmatli qog'ozlar portfelinin kanay tiplarini bilasiz?
5. Qimmatli qog'ozlar portfelinin boshqarish operatsiyalari tarkibiy qismlarni yoritib bering?

Testlar

1. Qimmatli qog'ozlar sotib olishdan maqsadlar
 - A) kapital qiymati qadrliligini saqlash;
 - B) qo'shimcha foyda olish;
 - V) qimmatli qog'ozlar kursining oshishi evaziga kapitalni ko'paytirish;
 - G) barcha javoblar to'g'ri.
2. Aksiyadorlik jamiyatiga mablag' qo'yganlikni tasdiqlovchi va uning egasiga dividend shaklida aksiyadorlik jamiyati (korxonada) daromadining bir qismini olish huquqini beradigan qimmatli qog'oz – bu
 - A) obligatsiya;
 - B) veksel;
 - V) order;
 - G) aksiya.
3. Aksiya kursi qanday shakllanadi
 - A) korxonada belgilaydi;

- B) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori belgilaydi;
- V) Moliya vazirligi belgilaydi;
- G) dividendlarning o'rtacha foiz darajasiga nisbatiga mos ravishda bozorda shakllanadi.

4. Investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini baholashda qo'llaniladigan qoplash muddati

- A) inflyasiyani e'tiborga oladi;
- B) pulning vaqtdagi qadri o'zgarishini hisobga oladi;
- V) diskontlashdan foydalanadi;
- G) yuqoridagilarga asoslangan emas.

GLOSSARIY

Aylanma mablag'lar – ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, yangi mahsulotni o'zlashtirish xarajatlari, kelgusi davr xarajatlariga sarflanuvchi korxonalar mablag'larining pul shaklida ifodalanishi. Bu mablag'lar o'z moddiy ko'rinishida odatda ishlab chiqarish jarayonlarida bir marta ishlatilib, ularning har birida yangilanadi va o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotga to'la o'tkazadi.

Akkreditiv – naqd pulsiz hisob-kitob bo'ladigan bank schyotining turi; akkreditivda ko'rsatilgan shartlarni bajarib yetkazib beruvchi undagi mablag'ni o'z schyotiga tushira oladi, kredit muassasasidan olish mumkin bo'lgan, aniq oluvchi ko'rsatilgan qimmatbaho qog'oz.

Aktivlar – iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining moliyaviy mablag'lari, asosiy vositalari va aylanma mablag'larining qiymati. Korxonalar tasarrufidagi iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan boylik miqdorini ifojalaydi.

Aksiya – aksiyadorlar jamiyati a'zosining mablag' qo'shganligi haqida guvohlik beruvchi qimmatbaho qog'oz. Aksiya sotib olgan shaxs aksiyador hisoblanib, muayyan huquq va majburiyatga ega bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyati – korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli bo'lib, jamiyat ixtiyoridagi mulki, boyligiga asoslanib faoliyat yuritadi. Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali birlamchi aksiyadorlar aksiyalarni sotib olishda qo'shgan mablag'lardan tashkil topadi.

Aksiyadorlik kapitali – aksiyadorlik jamiyatining jami mablag'lari qiymatidan uning majburiyatlari qiymatini ayirib tashlab aniqlanadi.

Aksiyalarning nazorat paketi – biron shaxsga aksiyadorlar jamiyati faoliyati ustidan nazorat qilishni ta'minlaydigan aksiyalar miqdori. Odatda bu aksiyalar miqdorining yarmidan ko'pi yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tegishli qaror qabulishiga erishishni ta'minlaydigan aksiyalar bir qo'lda to'planganda amalga oshadi.

Alternativ xarajatlar – tanlashda voz kechilgan eng yaxshi alternativ

(muqobil) variantdan olinadigan natija (qiymat, foyda, naflik). Alternativ qiymatni foydalanilmagan imkoniyat deb ham qarashadi: biror ne'mat qiymatiningn voz kechilgan boshqa bir nechta ne'mat qiymati bilan ifodalanishi.

Amortizatsiya – bosqichma-bosqich asosiy kapital qiymatining ma'lum bir qismini ishlab chiqariladigan mahsulot qiymatiga o'tkazish yo'li bilan uni qoplash.

Asosiy ishlab chiqarish vositalari – mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniluvchi mehnat vositalari (binolar, inshootlar, qurilma va asbob-uskunalar, transport vositalari va hokazo). Ular uzoq muddat xizmat ko'rsatib, ishlab chiqarish jarayonida o'zining natural shaklini saqlab qoladi hamda o'z qiymatini eskirish mobaynida asta-sekinlik bilan tayyor mahsulotga o'tkazadi. Kapital qo'yilmalar hisobiga to'ldiriladi.

Asosiy vositalarning eskirishi – asosiy vositalarning (binolar, qurilmalar va boshqa mehnat vositalarining) asta-sekinlik bilan foydali xususiyatlarini yo'qotishi. Asosiy ishlab chiqarish vositalar eskirishining jismoniy va ma'naviy turlari mavjud

Asosiy vositalar – bu vositalar ishlab chiqarish jarayonida qayta-qayta ishlatiladi. U uzoq muddat davomida foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, emirilishi darajasiga qarab ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga o'z qiymatini asta-sekinlik bilan o'tkazib boradi.

Assotsiatsiya – uyushma; biron maqsadga erishish uchun (xo'jalik, siyosiy, ilmiy, madaniy yoki boshqa maqsadlar) birlashish. Assotsiatsiya yuridik shaxs bo'lib hisoblanadi.

Auksion – tovarni oldi-sotdisini tashkil qilish usullaridan biri bo'lib unda transaksiya xarajatlari real vaqt rejimida o'tadi.

Assotsiatsiya – uyushma; biron maqsadga erishish uchun (xo'jalik, siyosiy, ilmiy, madaniy yoki boshqa maqsadlar) birlashish. Assotsiatsiya yuridik shaxs bo'lib hisoblanadi.

Audit - korxonaning moliyaviy hisoboti to'g'riligini yozma ravishda tasdiqlash va tekshirish. Audit ishini maxsus malakaga ega bo'lgan auditorlar amalga oshiradi. Auditorlik firmasi bilan korxonada o'rtasida shartnoma tuziladi.

O'zbekiston Respublikasida audit ishini Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo'lgan nodavlat auditorlik kompaniyalari amalga oshirishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatlarining balansi auditorlar tomonidan tekshirilgandan so'ng matbuotda e'lon qilinadi.

Auditor firmasi – davlatdan mustaqil tashkilot bo'lib, shartnoma asosida korxonalar yillik buxgalteriya hisobotini tekshiradi va tasdiqlaydi. Tekshiruv davomida auditor firmasi buxgalteriya hisob-kitobining holatini va qonunchilik talablariga mos kelishini, moliyaviy hisobotlarda moliya-xo'jalik faoliyati haqiqiy holati aks ettirilishini tekshiradi va sho' fikrini xulosa ko'rinishida bildiradi. Noto'g'ri va noxolis xulosa uchun moddiy jihatdan javobgarlikka ega.

Balans - biron-bir holatning alohida tomonlarini taqqoslash va solishtirish yo'li bilan tavsiflanuvchi ko'rsatkichlar tizimi. Buxgalterlik balansi korxonaning mol-mulkini mulkning hosil bo'lishi manbalari bilan taqqoslovchi jadval.

Balans foydasi - korxonaning balansida aks ettiriladigan, faoliyatning barcha turlaridan olingan umumiy foyda miqdori.

Bank tizimi - tijorat banklari majmui. Bank tizimi jismoniy va yuridik shaxslarining omonatlarini (depozitlarini) qabul qiladi, pul o'tkazmalarini amalga oshiradi, qarz va kreditlar beradi, davlat va aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga investitsiya qiladi.

Bankrot – to'lovga qodir bo'lmagan qarzdor.

Bankrotlik - kasodga uchrash, korxonaning (tashkilot, bank) o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni mablag'lar yo'qligi tufayli amalga oshirmasligini anglatuvchi tushuncha. Qoidaga ko'ra, korxonani yopish yoki majburan tugatish hamda mol-mulkini qarzlarni to'lash uchun sotib yuborishga olib keladi.

Biznes - bozor iqtisodiyoti sharoitlarida sub'ektning ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turini yaratish va sotish yo'li bilan foyda olishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyati.

Biznes-reja - korxonada faoliyati dasturi, kutilayotgan xarajat va daromadlar hisobini o'z ichiga oluvchi kompaniya faoliyatining muayyan maqsadlariga

erishish uchun muayyan chora-tadbirlar rejasi. Marketing tadqiqotlari asosida ishlab chiqiladi.

Boyluk – bozor qiymatiga ega va pulga yoki boshqa ne'matlarga almashinishi mumkin bo'lgan barcha narsa. Fizik aktivlar, moliyaviy aktivlar, ko'nikmalar, tadbirkorlik malakasi, savdo markalari xullas daromad keltiradigan barcha narsalar.

Valyuta – biror mamlakatda qabul qilingan pul tizimi va pul birligi.

Valyuta kursi – bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalanishi. Valyuta kursining o'rnatilishi kotirovka deyiladi.

Veksel - qimmatbaho qog'oz turi, belgilangan tartibda yozma shakldagi qarz majburiyati, o'z egasiga (veksel oluvchiga) veksel beruvchidan ko'rsatilgan pul miqdorini belgilangan muddatda gap-so'zsiz to'lanishini talab qilish huquqini beradi.

Venchor firma – tijorat bilan shug'ullanuvchi ilmiy-texnik firma, yangi texnologiyalar va mahsulotlarni daromadlarni avvaldan belgilamagan holda ishlab chiqish va qo'llash bilan shug'ullanadi (tavakkalchilikka asoslangan kapital qo'yilmasi).

Venchor korxonalari – davlat, yirik firmalar bilan kontrakt asosida ilmiy izlanishlar olib boruvchi, muhandislik ishlarini yaratuvchi, yangiliklarni tatbiq etuvchi korxonalar.

Daromad – sotilgan tovar miqdorini narxga ko'paytirilganiga teng, mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum.

Depozitlar – 1) moliya-kredit muassasalariga qo'yilgan omonatlar; 2) bank daftariidagi mijozlarning bankda saqlanayotgan pul mablag'lari haqida yozuvlar; 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlar.

Depozit foizi – mablag' qo'yuvchining pulidan foydalangani uchun unga bank tomonidan to'lanadigan to'lov, ya'ni narx.

Deflyasiya – iqtisodiyotda baholar umumiy darajasining pasayishi.

Dividend - aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismi, har yili soliqlarni to'lash, ishlab chiqarishni kengaytirish, zahiralarni to'ldirish, obligatsiyalar

bo'yicha foizlar to'lash va direktorlarni mukofotlashdan so'ng aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Davlat byudjeti- – davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.

Diskontlash - qiymatlarni (daromadni, xarajatni, kapitalni) boshlang'ich yilga yoki oxirgi yilga keltirish.

Jismoniy eskirish – mehnat vositalarining foydalanish va tabiat kuchlari ta'siri ostida moddiy jihatdan emirilishi. Mehnat vositalarining ma'naviy eskirishi ularning to'liq jismoniy eskirishdan oldindanroq, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqoriroq va tejamkor bo'lgan mashina va qurilmalar paydo bo'lishi tufayli yuz berishi mumkin.

Joriy narx – yil davomidagi ishlab chiqarish natijalari hisoblashda qo'llaniluvchi amaldagi narx.

Ijara haqi (to'lovi) – yerdan foydalanuvchi tomonidan bir yilda er egasiga to'lanadigan pul miqdori.

Investitsion loyihani o'zini oqlash muddati – joriy foydalar yig'indisini investitsiya qiymatiga teng bo'lishini ta'minlovchi minimal vaqt oralig'i.

Investitsiyalash – asosiy kapitalni to'ldirish va o'stirish uchun kapital qo'yish jarayoni.

Investitsiyani ichki o'zini oqlash normasi – investitsion loyiha samaradorligi ko'rsatkichi. Investitsiyani (minus bilan olingan) qiymati bilan kelajakda olinadigan sof foydaning diskontlangan qiymati yig'indisini nolga aylantiruvchi ichki qaytim normasi.

Ishlab chiqarish - ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda mahsulot yaratish jarayonini yoki ishlab chiqarish omillarini tayyor mahsulotga aylantirish jarayoni.

Investitsion siyosat – kapital qo'yilmalarning eng ustuvor yo'nalishlarini tanlash, iqtisodiyot samaradorligini oshirish, sarflangan har bir so'mga mahsulot o'sishi va milliy daromadning eng yuqori ko'rsatkichlariga erishishga qaratilgan davlat tadbirlari yig'indisi.

Real investitsiyalar - yangi korxonalar yaratish va mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish darajasini oshirish va foyda olish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishi.

Investor - biron-bir faoliyatga, korxonaga foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat.

Injinerlik - tijorat asosida (shartnoma shaklida) turli xil muhandislik-maslahat xizmatlari ko'rsatilishi.

Innovatsiya - jamiyat rivojlanishi bilan o'zgarib boruvchi inson ehtiyojlarini qondirishga oid yangiliklar, ularni yaratish, tarqatish va foydalanish jarayonini majmuasi.

Kapital – bu egasiga daromad keltiruvchi mablag' va resurs.

Kapital qurilish - yangi korxonalar qurish, mavjud korxonalarni qayta tiklash, kengaytirish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish yo'li bilan yaratish va mukammallashtirish jarayoni.

Kapital qo'yilmalar - asosiy vositalarni qayta tiklash va o'stirishga sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslari xarajatlari.

Kapital sig'imi - asosiy kapitalning mos keluvchi davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki uning biron-bir qismini - milliy daromad, sof daromad, foydaga nisbatini tavsiflovchi ko'rsatkich.

Konsorsium – bu aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarining muvaqqat birlashmasi.

Konfiskatsiya – majburiy holda mulkning jami yoki bir qismini musodara qilish va davlat ixtiyoriga o'tkazish.

Konsessiya – milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yoki tiklash, tabiiy boyliklarni o'zlashtirish maqsadida davlat yoki munitsipalitetga qarashli er uchastkalari, qazilma boyliklari, mol-mulk, korxonalar va boshqa xo'jalik ob'ektlarini muayyan muddatga va shartlar bilan foydalanish uchun chet ellik investorga davlat nomidan beriladigan ruxsatnoma, ular bilan tuziladigan shartnoma yoki kelishuv.

Likvidlik - moddiy ne'matlar va boshqa resurslarning tez pulga aylana olish qobiliyati; korxonani o'z majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olish qobiliyati; balansning aktiv punktlarini pulga aylantirish.

Likvidlilik – a) turli firmalar va banklarning o'z qarzini to'lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati; b) bir aktivning ikkinchisiga qanchalik tez almashina olinishi o'lchovi. Naqd pul eng yuqoriga 100% likvidlilikka ega.

Lizing - mulkka egalik qilish huquqi ijaraga beruvchida saqlangan holda, mulkni uzoq muddatli ijaraga berishga asoslangan holda investitsiyalarni moliyalashtirish shakli; mashina, uskuna va transport vositalarining o'rta va uzoq muddatli ijarasi. Odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat kreditning pulsiz shakli.

Litsenziya - qonunda belgilangan muayyan xo'jalik operatsiyalari, jumladan, tashqi savdo (eksport va import) operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha, vakolatli davlat idoralarning huquqiy shaxslarga beruvchi maxsus ruxsatnomasi.

Makroiqtisodiyot – moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

Marja – savdo, birja, bank ishlarida foydalaniladigan hamda tovarlar narxlari, qimmatbaho qog'ozlar kurslari, boshqa ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq.

Marketing – bozor talablariga bo'ysungan holda iste'molchilar ehtiyojini imkoni boricha qondirishga qaratilgan xo'jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarish tizimi.

Markaziy bank – mamlakatning bosh banki. Asosiy funksiyasi mamlakat iqtisodiyotidagi pul massasini nazorat qilishdan iborat. Markaziy bank mamlakatlarning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, pul va qimmatli qog'ozlar emissiyasini monopoliya huquqida amalga oshiradi.

Marketing - korxonalarining mahsulot ishlab chiqish, ishlab chiqarish va sotish yoki xizmat ko'rsatishga oid faoliyatini, bozorni va iste'molchilar talabiga faol ta'sir ko'rsatishni o'rganish asosida boshqarish tizimi.

Moliya bozori - mamlakatdagi moliya xizmatlari bozori: moliya mablag'lariini vaqtincha xaq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlar.

Moliyaviy munosabatlar – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o'rtasida pul mablag'lari fondlarining harakati bilan bog'liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmui.

Nizom (ustav) - korxonani tashkil qilishning qonuniyligini tasdiqlovchi, korxonalar xarakteri va faoliyat turi, qoidalari, a'zolar o'rtasidagi munosabatlar va hokazolarni o'z ichiga oluvchi rasmiy hujjat.

Pul tizimi – tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan, mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish shakli.

Pul aktivlari – ma'lum sohada korxonaning hisob raqami, kassasida bo'lgan pul mablag'lari.

Pul bazasi – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va Markaziy bankdagi tijorat banklarining zahiralari

Real foiz stavkasi – inflyasiyadan tozalangan foiz stavkasi. Nominal, real foiz stavkalari va narx o'sishi (inflyasiya) o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni quyidagicha yozish mumkin:

Sof diskontlangan (keltirilgan) qiymat (NPV) - bu kelajakda olinadigan sof daromadning diskontirlangan qiymatidan diskontirlangan investitsiya ayirmasi:

Ssuda foizi – kapital egasiga uni kapitalidan foydalangani uchun iqtisodiy sub'ekt tomonidan to'lanadigan narx.

Sug'urta - har xil noxush xodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqorolarning hayotida tegishli sug'urta xodisalarini ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiga ko'ra,

mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.

Sug'urtalanuvchi - qonun asosida yoki ikki tomonlama shartnoma asosida sug'urta kompaniyasi bilan fuqoralik-huquqiy munosabatlarga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Sug'urtalanuvchi uchinchi shaxs foydasiga sug'urta shartnomasini tuzishga xaqli. Sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi shart. Sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchi sug'urta ob'ektiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sug'urta kompaniyasiga ma'lum qilishi shart.

Sug'urta qoplamasi - mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligini sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Sug'urta hodisasi ro'y berganlik xolati va shakli bo'yicha adjaster yoki avariya komissarining xulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Raqobat – mustaqil ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda, katta xajmda sotish, bozorda o'z mavkeini mustaxkamlash uchun kurash.

Raqobat ustunligi – kapital va aktivlar mukamal tuzilishi, muamala xarajatlarining past darajasi, boshqarishni yaxshi tashkil etish xisobiga bozorning boshqa ishtirokchilaridan ustunlik.

Soliq islohoti - soliq tizimini qayta ko'rish va uni yangilash, moliyaviy munosabatlarning o'zgarishi tufayli yuzaga keladi.

Soliq ob'ekti - soliq solinadigan daromad yoki mol-mulk.

Soliq tizimi - davlat foydasiga undiriladigan soliqlar turi mujmui.

Soliq yuki - milliy iqtisodiyot darajasida davlat byudjetiga soliq tushumlarining (YAIMning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanadigan qismining) YAIM dagi ulushi. Korxonada korxonada yil davomida to'lagan jami soliqlar hajmining shu davrda olingan daromadlaridagi ulushi.

Stagflyasiya- iqtisodiyotda baholar va ishsizlik darajalarining bir vaqtning o'zida o'sishi.

Subvensiya – davlat byudjetidan muxim xo'jalik va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirish uchun xokimiyat organlariga ajratilgan pul mablag'i.

Subsidiya – davlat byudjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag'. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Tavakkalchilik- qo'yilgan maqsadga erishishdagi ehtimoliy yo'qotishlar.

Tavakkalchilikka moyillik – kutiladigan daromadda kafolatlangan natijaga ko'ra ko'proq tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan natijani ustun ko'radigan shaxs.

Tavakkalchiliklarni qo'shish – ushbu usul tasodifiy yo'qotishlarni o'zgarmas xarajatlarga aylantirish orqali tavakkalchilikni kamaytirishga qaratilgan (mulkni sug'urtalash).

Tavakkalchilikni taqsimlash – ushbu usulga ko'ra zarar ko'rish ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik qatnashuvchi sub'ektlar o'rtasida shunday taqsimlanadiki, oqibatda har bir sub'ektning kutiladigan zarari nisbatan kichik bo'ladi. Yirik moliya kompaniyalari katta masshtabdagi loyihalarni tavakkalchilikdan qo'rqmasdan moliyalashtiradi.

Tavakkalchilikka befarq qarovchi shaxs – kutiladigan daromadda u kafolatlangan daromad bilan tavakkal daromaddan qaysi birini tanlashga befarq qaraydigan shaxs.

Tadbirkor – yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki tashkil etmasdan doimiy asosda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Tadbirkorlik – bu mulkchilik sub'ektlarining foyda odish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida amaldagi qonunchilik doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir. Tadbirkorlik faoliyati– shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat.

Tarif – biror ish, xizmat uchun rasmiy hamda belgilangan to'lov.

Tashqi savdo balansi – ma’lum davr (oy, chorak, yil) davomida mamlakatga keltiriladigan va undan chiqariladigan tovarlar qiymati o‘rtasidagi nisbat.

Ta’sis hujjatlari – yangi tashkil qilinuvchi korxonalar, kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatini ta’sis etish va ularni belgilangan tartibda ro‘yxatga olish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi hujjatlar.

Transfert to‘lovlari – evaziga hech qanday tovar yoki xizmatlar olinmaydigan davlat xarajatlari (pensiya, stependiyalar, ishsizlik nafaqasi va boshqalar).

Transaksiyon xarajatlar– bozorda tovarlarni sotishda egalik huquqini aniqlash va uni berish bilan bog‘liq xarajatlar.

Tender – birjada savdo o‘tkazishda tushadigan taklif. Taklif berish tartibi savdoni o‘tkazadigan tashkilotchilar tomonidan belgilanadi.

Texnik qayta qurollantirish – ishlab chiqarish alohida uchastkalarining texnik imkoniyatlarni zamonaviy darajaga chiqarish jarayoni.

Transaksiyon xarajatlar– bozorda tovarlarni sotishda egalik huquqini aniqlash va uni berish bilan bog‘liq xarajatlar.

To‘lov valyutasi – tomonlarning kelishuvi bilan tovarlarning tashqi savdo aloqalarida haqini to‘lashda yoki halqaro kreditni qaytarishda ishlatiladigan valyuta.

To‘lovga qodirlik – yuridik yoki jismoniy shaxsning moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olish imkoniyati.

To‘lov topshirig‘i – korxonalar, firma, tashkilotning unga xizmat qiladigan o‘z shetidan mablag‘ o‘tkazish zarurligi haqidagi topshirig‘i.

Ustama xarajatlar – asosiy xarajatlarga qo‘shimcha bo‘lib, ular bilan birga ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiritiluvchi, ishlab chiqarish va korxonalar boshqaruviga xo‘jalik xizmati ko‘rsatish xarajatlari.

Faktoring – moliya-tijorat xizmatining turi bo‘lib, bunda bank yoki boshqa moliya tashkilotlari xarid qiluvchi korxonalar qarzlarni, majburiyatlarni o‘ziga oladi. YA’ni boshqa iqtisodiy sub’ektlarning qarzdorlik buyicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari.

Fan-texnika taraqqiyoti - fan, texnika, texnologiyalar rivojlanishi, mehnat predmetlari, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning uzluksiz rivojlanish jarayoni.

Fermer xo'jaligi – bu o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari-ni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Firma - huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lib, tovar ishlab chiqarish va sotishni bir umumiy boshqaruv (va umumiy firma nomi) ostida birlashtiruvchi, korxonalar yoki turli mulkchilik shaklidagi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar majmuasi.

Foiz – daromad, o'z mulkining boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanishga berib, shundan foyda olish.

Foiz stavkasi – kredit yoki qarz kapitali evaziga to'lovning foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisining bir- birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

Foyda – korxonalar faoliyatining yakuniy moliyaiy natijalari; pul tushumi va xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Fond qaytimi – asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir so'miga to'g'ri keluvchi mahsulot miqdori.

Fond sig'imi –fond qaytimiga teskari bo'lgan nisbat. Asosiy ishlab chiqarish fondlari o'rtacha qiymatining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

Fondlar bilan ta'minlanganlik – asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi (asosiy ishlab chiqarish fondlarining korxonaning har bir xodimi yoki ishchisiga to'g'ri keluvchi hajmi).

Fondlarning aylanishi – bu moddiy ashyoviy omillar qiymatining ishlab chiqarish va muomala sohalari orqali harakat jarayonidir.

Forfeyting – uzoq muddatli faktoring munosabatlari.

Fors-major – engib bo‘lmas kuch ta’sirida sodir bo‘luvchi vaziyatlar: zilzila, to‘fon, tabiiy yong‘in, inqilob, ommaviy ish tashlashlar va shu kabilar.

Franchayzer - franchayzi bilan franchayzing shartnomasi imzolovchi yirik korxonalar (korporatsiya, firma va hokazo).

Franchayzi (operator) – yirik franchayzer korxonalar bilan bitim tuzuvchi kichik korxonalar.

Franchayzing - yirik va kichik tadbirkorlikning aralash shakli; o‘zaro foydali hamkorlik munosabatlari.

Fraxt - dengiz yoki havo yo‘llari orqali yukni tashishda to‘lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha o‘zaro kelishilgan narx asosida to‘lanadi. Dengiz sug‘urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi yoziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.

Xususiy kapital – tadbirkorning eng muhim va hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan sarmoyasi.

Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar (alohida fuqaro) tomonidan o‘zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari asosida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qo‘nunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo‘jalik faoliyatidir.

Xususiy firma – ayrim shaxs yoki oilaga tegishli bo‘lgan yaka xususiy mulkka asoslanib faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar.

Xufiyona iqtisodiyot - – YAIMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foydalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirin qismi.

Xolding kompaniyasi - o‘z kapitalidan boshqa kompaniyalarni boshqarish, ularga rahbarlik qilish va dividend olish maqsadida ularning aksiyalarini sotib olishda foydalanuvchi aksiyadorlik kompaniyasi.

Xususiylashtirish – davlat mulkini boshqa mulkchilik shakllariga, jumladan, jamoa, aksiyadorlik va xususiy mulkka o‘tkazishda mulkchilik munosabatlarning o‘zgarish jarayoni.

Yalpi daromad – korxonada faoliyatining yakuniy natijalarini tavsiflaydi hamda yalpi pul tushumi va mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanuvchi barcha xarajatlarning o'rtasidagi farqni ifodalaydi.

Yalpi pul tushumi – tovar mahsuloti, ish, xizmat va moddiy boyliklarni sotishdan tushuvchi pulning umumiy miqdori.

Yalpi foyda – korxonada yalpi daromadning barcha majburiy to'lovlarni chiqarib tashlagandan so'ng korxonada ixtiyorida qoluvchi qismi.

Huquqiy shaxs – fuqarolik sub'ekti sifatida faoliyat yurituvchi, mustaqil balans, gerbli muhr va bankda hisob raqamiga ega, Nizom asosida faoliyat yurituvchi hamda bankrotga uchraganda o'z mulki bilan javob beruvchi korxonada.

Qayta tiklash – mavjud ishlab chiqarishni texnik va tashkilish takomillashtirish, asosiy fondlarni kompleks ravishda yangilash va zamonaviylashtirish asosida to'liq qayta qurish jarayoni.

Qiyosiy narx – ishlab chiqarishning natijalari ma'lum yil (bazis yil) asosida hisoblanuvchi va boshqa yillar bilan taqqoslanuvchi narx.

Harakatlar strategiyasi – O'zbekiston Respublikasini 2017 – 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlarini o'zida mujassamlashtirgan chora-tadbirlar majmui. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan.

Hisob stavkasi (qayta moliyalash stavkasi) – Markaziy bank tijorat banklari vekselarini hisobga olishda va ularga kredit berishda qo'llaydigan foiz stavkasi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси. - www.lex.uz
3. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. - www.lex.uz
4. Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида” Қонуни. - www.lex.uz
5. Ўзбекистон Республикасининг «Банкротлик тўғрисида»ги Қонуни. 24.04.2003 й. 474-II-сон - www.lex.uz.
6. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни. 30.08.1996й. 279-I-сон. - www.lex.uz.

II. I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

7. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.
8. Янги Ўзбекистоннинг 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Халқ сўзи, 2022 йил 29 январь.
9. Eugene F. Brigham, Michael C. Ehrhardt. Financial management: theory and practice. 15 edition. Cengage Learning, 2017. - 1180 p.
10. Toshmurodova B.E., Elmirezayev S.E., Tursunova N.R. Moliyaviy menejment. Darslik / O‘zRO va O‘MTV TM1. -T: «Iqtisod-moliya», 2017. -338 b.
11. Финансовый менеджмент: учебник для академического бакалавриата / под ред. Г.Б. Поляка. - 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2014. - 456 стр.
12. Филатова Т В. Финансовый менеджмент: Учеб, пособие.- М.:ИНФРА- М, 2014.-236с. (Высшее образование: Бакалавриат).

13. Юлдашев А., Сирожиддинов И. Молиявий менежмент. Ўқув қўлланма. 2-нашри. Тошкент, Ворис, 2013.

14. Павлова Л.Н. Финансовый менежмент. Учебник. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003.- 269с.

15. Ковалева В. «Финансовый анализ», Москва, «Финансы и статистика», 1996г.

16. Пряничников С.Б. Финансовый менежмент Учебник. - Н.: Новгород. НОВО. - 168с

17. Леонтьев В.Е. Финансовый менеджмент: Учебник. – М: Элит, 2005. – 560 стр.

18. Ванхорн, Джеймс, С, Вахович, мл., Джон, М. Основы финансового менеджмента, 12-е издание: Пер. с англ. — М.: ООО "И.Д. Вильямс", 2008. — 1232 с: ил. — Парал. тит. англ. ISBN 978-5-8459-1074-5 (рус.)

19. Eugene F. Brigham, Joel F. Houston. Fundamentals of financial management. Concise 9e. Cengage Learning, 2017. -708 p.

20. Брейли Р., Майерс С. Принципы корпоративных финансов. Перевод с англ - М.: ЗАО «Олимп- Бизнес», 2014. - 1008 стр.

21. Гладышова Е.В. Финансовый менеджмент: конспект лекций. - Ростов на Д: Феникс, 2014. - 158 стр.

22. Данилин В.И. Финансовый менеджмент: категории, задачи, тесты, ситуации. - 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Проспект, 2015. - 376 с.

23. Маликов Т., Олимжонов О. Молиявий менежмент. Ўқув қўлланма - Т.: Академия, 1999. – 193 б.

24. Акрамов Э. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили .-Т.: Молия, 2005 й.

25. <http://www.uza.uz> (Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг расмий веб сайти);

26. <http://www.mf.uz> (Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг расмий веб сайти);

27. <http://www.stat.uz> (Давлат Статистика қўмитасининг расмий веб сайти);

28. <http://www.cbu.uz> (Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий веб сайти);

29. <http://www.tsue.uz> (Тошкент давлат иқтисодиёт университетининг расмий веб сайти);

30. <http://www.tfi.uz> (Тошкент Молия институтининг расмий веб сайти);

31. <http://www.iqtisodivot.uz> (Иқтисодиёт ва таълим илмий журналининг расмий веб сайти);

32. <http://www.interfmance.uz> (Халқаро молия ва ҳисоб электрон журналининг расмий веб сайти).

MUNDARIJA

KIRISH

1-bob. Moliyaviy menejmentning iqtisodiy mohiyati, maqsadlari va vazifalari

- 1.1. Moliyaviy menejmentning iqtisodiy mohiyati
- 1.2. Moliyaviy menejmentning konseptual asoslari
- 1.3. Moliyaviy menejmentda qo‘llanadigan asosiy modellar
- 1.4. Moliyaviy menejmentning funksiyalari

2-bob. Turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarda moliyaviy menejment xususiyatlari

- 2.1. Korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllari
- 2.2. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda moliyaviy menejment
- 2.3. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment
- 2.4. Notijorat tashkilotlarida moliyaviy menejment
- 2.5. Xususiy (kichik) korxonalarda moliyaviy menejment
- 2.6. Qo‘shma korxonalarda moliyaviy menejment
- 2.7. Moliya-sanoat guruhlarida moliyaviy menejment

3-bob. Korxonalarda moliyaviy ta’minot jarayonini boshqarish

- 3.1. Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta’minlash
- 3.2. O‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta’minlash va o‘z-o‘zini moliyalashtirish
- 3.3. Moliyaviy rivojlanish strategiyasi
- 3.4. Faktoring va trast operatsiyalarini boshqarish
- 3.5. Lizing operatsiyalari. Moliyaviy lizing

4-bob. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish

4.1. Moliyaviy rivojlanish strategiyasi moliyaviy rejalashtirishning asosi sifatida

4.2. Moliyaviy rejalashtirish - moliyaviy boshqarishning tarkibiy qismi. Moliyaviy rejalashtirishning mohiyati, tamoyillari va vazifalari

4.3. Moliyaviy rejalashtirishning asosiy ko‘rsatkichlari va usullari

4.4. Moliyaviy rejalashtirish va taxminlashtirish tizimi hamda ularni qo‘llash

4.5. Korxonada byudjetini tuzish va byudjet rejasini ishlab chiqish

4.6. Moliyaviy o‘rinish rejasini

5-bob. Korxonada aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish

5.1. Korxonada aktivlarining iqtisodiy mohiyati va guruhlanishi

5.2. Asosiy vositalar harakatini boshqarish

5.3. Nomoddiy aktivlar tarkibi va ularni boshqarish

5.4. Asosiy fondlarni qiymati, eskirishi va ularni baholash

5.5. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari

5.6. Kapital tarkibi va uni optimallashtirish.

6-bob. Aylanma mablag‘larni moliyalashtirish jarayonini boshqarish

6.1. Korxonada aktivlarining mazmuni. Korxonada aktivlarining turkumlanishi

6.2. Aylanma kapitalni baholash shakli va tartibi

6.3. Korxonaning aylanma mablag‘larini boshqarish

6.4. Debitorlik qarzlari va ularni boshqarish

7-bob. Xarajatlarni optimallashtirish va daromadlarni maksimallashtirish masalalari

7.1. Ishlab chiqarish xarajatlarning mohiyati, tarkibi va elementlari

7.2. Mahsulot tannarxi tarkibiga kiruvchi xarajatlarning guruhlanishi

7.3. YAAlpi foydadan qoplanadigan xarajatlarni

7.4. Sof foydadan qoplanadigan xarajatlarni

7.5. Tovar-moddiy zahiralarga tegishli xarajatlarni

7.6. Xarajatlarni rejalashtirish

7.7. Xarajatlarni optimallashtirishda moliyaviy leverijdan foydalanish

8-bob. Moliyaviy risklar mohiyati va ularni kamaytirish yo‘llari

8.1. Tavakkalchilik (risk (xatar)) tushunchasi va uni boshqarish

8.2. Tavakkalchilikni baholash usullari

8.3. Tavakkalchilikni kamaytirish yo‘llari

8.4. Xeytlash

9-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarish

9.1. Debitorlik qarzlari va ularni boshqarish

9.2. Kreditorlik qarzlari va ularning tahlili

9.3. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish yo‘llari

10-bob. Xo‘jalik sub’ektlarida pul oqimlarini boshqarish

10.1. Pul oqimlarini boshqarishning mohiyati

10.2. Pul oqimlarini prognozlash

10.3. Pul mablag‘larining optimal darajasini aniqlash

11-bob. Korxonalarda soliq menejmentini tashkil etish masalalari

11.1 Soliq tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari

11.2. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda daromadlar va ularni soliqqa tortilishining tahlili

11.3. Korxonalar moliyaviy xo‘jalik faoliyatiga soliqlarning ta’siri

12-bob. Korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarish

12.1. Korxonada qimmatli qog‘ozlar portfeli tushunchasi, uni boshqarishning mazmuni

12.2. Investitsiyaning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholashning zarurligi va ahamiyati

12.3. Investitsiyaning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning oddiy (an’anaviy) usullari

12.4. Investitsiyaning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning diskontlashga asoslangan usullari

Glossariy

Adabiyotlar ro‘yxati

Оглавление

1-глава. Сущность, цели и задачи финансового менеджмента

- 1.1. Экономическая сущность финансового менеджмента
- 1.2. Концептуальные основы финансового менеджмента
- 1.3. основные модели финансового менеджмента
- 1.4. Функции финансового менеджмента

2-глава. Особенности финансового менеджмента на предприятиях различных организационно-правовых форм

- 2.1. Организационно-правовые формы предприятий
- 2.2. Финансовый менеджмент в обществах с ограниченной ответственностью
- 2.3. Финансовый менеджмент в акционерных обществах
- 2.4. Финансовый менеджмент в некоммерческих организациях
- 2.5. Финансовый менеджмент в частных (малых) предприятиях
- 2.6. Финансовый менеджмент в совместных предприятиях
- 2.7. Финансовый менеджмент в финансово-промышленных группах

3-глава. Управление процессом финансового обеспечения на предприятиях

- 4.1. Обеспечения предпринимательской деятельности финансовыми ресурсами
- 4.2. Самообеспечение и самофинансирование
- 4.3. Стратегия финансового развития
- 4.4. Управление факторинговыми и трастовыми операциями
- 4.5. Лизинговые операции. Финансовый лизинг

4-глава. Финансовое планирование на предприятиях

- 4.1. Стратегия финансового развития как основа финансового планирования.
- 4.2. Финансовое планирование как составная часть финансового управления. Сущность, принципы и задачи финансового планирования.
- 4.3. Основные показатели и методы финансового планирования.

4.4. Системы финансового планирования и прогнозирования и их применение.

4.5. Составление бюджета предприятия и разработка бюджетного плана.

4.6. План финансового роста

5-глава. Структура активов предприятия и управление ими

5.1. Экономическая сущность и группировка активов предприятия

5.2. Управление движением основных средств

5.3. Структура нематериальных активов и управления ими

5.4. Стоимость основных фондов, их износ и оценка

5.5. Экономические показатели основных производственных фондов

5.6. Структура капитала и ее оптимизация

6-глава. Управление процессом финансирования оборотных средств

6.1. Содержание активов предприятия. Классификация активов предприятия.

6.2. Форма и порядок оценки оборотного капитала.

6.3. Управление оборотными средствами предприятия.

6.4. Управление дебиторской задолженностью.

7-глава. Вопросы оптимизации затрат и максимизации доходов

7.1. Сущность, состав и элементы производственных затрат.

7.2. Группировка затрат, входящих в себестоимость продукции.

7.3. Затраты, покрываемые из валовой прибыли.

7.4. Затраты, покрываемые из чистой прибыли.

7.5. Затраты, относящиеся к товарно-материальным запасам.

7.6. Планирование затрат.

7.7. Использование финансового левириджа при оптимизации затрат.

8-глава. Организация менеджмента финансовых рисков

8.1. Понятие рисков и управление ими

8.2. Методы оценки рисков

8.3. Пути снижения рисков

8.4. Хеджирование

9-глава. Управление дебиторской и кредиторской задолженностью

11.1. Дебиторская задолженность и ее управление

11.2. Кредиторская задолженность и ее анализ

11.3. Пути сокращения дебиторской и кредиторской задолженности

10-глава. Управление денежными потоками на предприятии

8.1. Сущность управления денежными потоками.

8.2. Прогнозирование денежных потоков.

8.3. Определение оптимального уровня денежных средств.

11-глава. Организация налогового менеджмента

11.1. Налоговая система и ее особенности

11.2. Доходы и анализ их налогообложения при принятии управленческих решений

11.3. Влияние налогов на финансово-хозяйственную деятельность предприятий

12-глава. Управление инвестиционной деятельностью предприятия

12.1. Понятие портфеля ценных бумаг, содержание управления портфелем.

12.2. Необходимость и значение оценки финансовой и экономической эффективности инвестиций.

12.3. Простые (традиционные) методы оценки финансово-экономической эффективности инвестиций.

12.4. Основанные на дисконтировании методы оценки финансово-экономической эффективности инвестиций.

Глоссарий

Список литературы

SIROJIDDINOV IKROMIDDIN QUTBIDDINOVICH

MOLIYAVIY MENEJMENT

Darslik

Muharrir: Alijon Jo'raev
Texnik muharrir: Marguba Kurbanova
Sahifalovchi: Nodira Jumabaeva

Bichimi 60x84. Hajmi 13,5 bosma taboq.
Ofest usulida bosildi. Buyutma – 86.
Adadi 300 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.



«USMON NOSIR MEDIA» NASHRIYOTI
Namangan shaxri, Navoiy ko'chasi, 36
Nashriyot litsenziya raqami AI - 007
2018 yil 20-iyulda berilgan.

“FAZILAT ORGTEX SERVIS” hususiy korxonasi
bosmahonasida chop etildi.

Manzil: Namangan sh. Amir Temur ko'chasi 97 uy.

Tel: (+998) 91-346-44-43, (+998) 97-256-87-86



“Usmon Nosir Media”
Nashriyoti

